

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIMI VAZIRLIGI

M.Z.MURTOZAYEV, A.A.KUSHAKOV, T.A.ALIBOYEV

CHORVACHILIK VA PARRANDACHILIK ASOSLARI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus Ta'limi Vazirligi tasdiqlagan
o'quv dasturlari asosida tayyorlangan*

Oliy va O'rta maxsus ta'limi vazirligi nashrga tavsiya etadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'limi vazirligi qishloq xo'jalik
kasb-hunar kollejlari uchun darslik sifatida tavsiya qiladi

**«Fan va texnologiya» nashriyoti
TOSHKENT – 2012**

UDK-____372.863.(075)
BBK 74.200.M.88.Ya.72.

Ushbu darslik kasb ta'limining qishloq xo'jalik asosalari yo'nalishi bo'yicha kasb-hunar kollejlari mo'ljallangandir. Qishloq xo'jaligi hayvonlarini parvarish qilish, ularni ko'paytirish va mahsuldorligini oshirish kabilarni o'rgatishga mo'ljallagan mavzularga tegishli dars materiallarini milliylik asosida mavjud darsliklardan, ensiklopediyalardan tarixiy va zamonaviy, ilmiy va uslubiy manbalardan foydalanib keltirishga harakat qilingan.

Ushbu darslik Jizzax viloyati pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, Jizzax viloyat hokimligi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmasi o'quv metodik ta'minlash bo'lim, Paxtakor tumani qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji, Jizzax tumani kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari tomonidan ko'rib chiqilgan va bevosita kasb ta'limi o'qituvchilari va o'quvchilariga tavsiya qilinadi.

A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat Pedagogika instituti ilmiy kengashda (2011 yil 29 dekabr, № 4) va Jizzax viloyat hokimligi kasb-hunar kollejlari boshqarmasi o'quv uslubiy kengashida (2012yil 14.05 № 4) nashr etishga tavsiya qilingan.

TAQRIZCHILAR:

1. Jizzax Davlat Pedagogika instituti professori X.A.Turaqulov.
2. Jizzax Davlat Pedagogika instituti dosseti B.H.O'razov.
3. Jizzax viloyat hokimligi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmasi o'quv metodik ta'minlash bo'lim boshlig'i A.S.Tolipov.
4. Jizzax viloyat hokimligi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmasi bosh maslahatchi uslubchisi S.R. Alimqulov.
5. Transport va aloqa kasb-hunar kolleji o'qituvchisi SH.H.Hamrayev.
6. Paxtakor tumani qishloq xo'jalik kasb hunar kolleji o'qituvchisi Z.N. Oltiboyev.
7. Jizzax tumani kasb-hunar kolleji o'qituvchisi M.X.Xudaynazarova.
8. Paxtakor tumani qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji o'qituvchisi B.B.O'narov.

O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejlari uchun darslik sifatida tavsiya qiladi

ISBN: 978-9943-10-761-8

KIRISH

Kelajakda bo'lg'usi yosh avlodlarni bilim doirasi keng bo'lishi bilan birga, ular chuqur bilim egasi, yangi texnika va texnologiyaning barcha jarayonlarini to'g'ri boshqara oladigan darajada o'quv mahoratga ega bo'lishlari shart.

Yosh avlodga chorvachilikning barcha tarmoklarini jadal rivojlantirish, chorva mahsulotlarini ko'proq yetishtirish bilan birga, ularning sifatini yaxshilash va tannarxini arzonlashtirish, mustahkam yem-xashak bazasini yaratish, mollar tuyog'ini ko'paytirish, naslchilik ishlarini yaxshilash, chorvachilik tarmoqlarini ixtisoslashtirish, shuningdek, zamonaviy sutchilik fermalarini bunyod etish, mollarni go'shtga semirtirish ishlarini qisqa muddatlarda samarali olib borish, barcha chorvachilik fermalarida mahsulot ishlab chiqarish yo'nalishiga ko'ra olingan mahsulotlarni qayta ishlash va ilg'or mamlakatlar tajribalarini qo'llagan holda qadoqlash, saqlash va iste'molchilarga jo'natish ishlarini to'g'ri amalga oshirish kabilarni o'rgatishda milliylik asosidagi darsliklar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan mualliflar qishloq xo'jaligini muhim tarmog'i bo'lgan barcha turdagi hayvon jonivorlarni parvarish qilish asoslari o'rgatishga mo'ljallangan darslikni oldingi chop qilingan darsliklarni mualliflarini (adabiyotlar ro'yxati keltirilgan) mulohazalarini inobatga olib, mavjud darsliklar, o'quv qo'llanmalar, tavsiyanomalar, tarixiy material va barcha turdagi ensiklopediyalardan foydalangan holda vazirlik tavsiya qilgan o'quv dasturi asosida tuzishga harakat qildilar.

Ushbu darslik Oliy va o'rta maxsus ta'limi Vazirlikning 2011 yil 11 maydagi 192-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va ro'yxatga olingan, Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengashning 2011 yil 29 martdagi 1-son majlis bayoni bilan ma'qullangan. Chorvachilik va parrandachilik asoslari fanining o'quv dasturi asosida tayyorlandi.

Darslikda umum o'rta ta'lim maktabi va kasb hunar kollejlari sharoitiga ko'ra tashkil qilinadigan mustaqil urganishga ham ayrim mavzular taklif qilingan va unda kamchiliklar bo'lishi mumkin, shuni uchun ushbu tuzilgan darslikka nisbatan bildirilgan xolisona fikr mulohazalar uchun mualliflar oldindan minnatdorchilik bildirishadi.

BOB. I. CHORVACHILIK OMILLARI

1.1. CHORVACHILIKNING RIVOJLANISH DARAJASI VA ISTIQBOLI

Chorvachilik - qishloq ho'jaligining chorva mahsulotlarini yetishtirish maqsadida chorva mollarini urchitish bilan shug'ullanuvchi tarmog'i. Chorvachilik aholini ish hayvonlari (ot, ho'kiz, eshak, tuya, bug'u), oziq-ovqat mahsulotlari (sut-qatiq, go'sht, yog', tuxum va boshqa), yengil sanoatni xom ashyo (jun, teri, mo'yna va hokozo), qishloq xo'jaligini organik o'g'it (go'ng) bilan ta'minlaydi. Chorvachilik mahsulotlari va chiqindilaridan ayrim ozuqalar (yog'i olingan sut, go'sht-suyak uni, suyak uni va boshqalar), shuningdek, har xil dori-darmon preparatlari (shifobaxsh sivorotkalar, gormonal preparatlar va boshqa) olinadi.

Chorvachilikning taraqqiy etishi va mahsuldorligi dehqonchilikning rivojlanishi, yerdan intensiv foydalanish bilan chambarchas bog'liq. Chorvachilik tarmoqlari: qoramolchilik (sut, go'sht-sut va go'sht yetishtirish uchun boqiladigan qoramol), cho'chqachilik, qo'ychilik, echkichilik, yilqichilik, tuyachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik, quyonchilik, darrandachilik (hayvonotchilik), bug'uchilik, eshakchilik, xachirchilik, itchilikdan iborat.

Chorvachilik tizimi – chorvachilik tarmog'ining yo'nalishini va chorva mollarini urchitish, boqish hamda asrash usullarini aks ettiruvchi tashkiliy, zootexnika va veterinariya tadbirlari majmuasi. Bu tadbirlar kam mehnat va mablag' sarflab, ko'p mahsulot yetishtirishga qaratilgan. Chorvachilik sistemasi mahalliy tabiiy-iqtisodiy sharoit va xo'jalikning ishlab chiqarish resurslariga qarab shakllanadi.

Chorvachilik tizimida: chorvachilikning tovar mahsulot strukturasi (jun, tuxum va boshqa) bilan izohlanadigan ayrim tarmoqlarini rivojlantirish; mehnat unumdorligi va rentabellik; chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish talablariga javob beradigan va iqtisodiy jihatdan qulay qoramol zotlari; naslchilik ishlari uslublari; qoramol tuyog'i zichligi (100 ga yerga to'g'ri keladigan qoramol soni), chorvachilikning poda strukturasi va podani to'ldirish usullari, sigirlardan foydalanish muddatlari hamda jadalligi va boshqa omillar ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bilan izohlovchi intensivlik darajasi; yem-xashak yetishtirish sistemasi; mol boqish turi; mol asrash usullari; ishlab chiqarish vositalarini tuzish, chorvachilikda ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash darajasi, mashinalar sistemasi, chorvachilik binolarini qurish va uskunalash turi; chorvachilikda sanitariya hamda veterinariya xizmatini tashkil etish kabi masalalar hal qilinadi.

Chorva mollarini asrash usuliga qarab, qo'yidagi chorvachilik tizimlari mavjud:

Yaylovlarda mol boqish tizimi - qadimiy mol boqish usuli tabiiy yaylovlardan foydalanishga asoslangan. Yaylovda mol boqish sistemasining eng qadimgi va tarqoq usuli **ko'chmanchi chorvachilikdir**, bunda ozuqa qidirib, mol butun yil davomida uzoq masofalarga haydab yurilgan. Jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari va dehqonchilik madaniyati rivojlanib borgan sari ko'chmanchi chorvachilik o'rnini **yaylovda haydab boqish tizimi** ola boshladi, bunda mol

mavsumiy yaylovlarga haydab boqiladi, ammo, qishki noqulay ob-havoni va yozgi qurg'oqchilikni hisobga olib, qishlov joylarida yem-xashak jamg'arib qo'yiladi.

Yaylov-og'ilxonada mol boqish tizimi - yaylovda mol boqish sistemasi o'rniga samarali usul sifatida kirib kelgan, bunda qoramol yilning ko'p qismida yaylovda, qishda esa molxonada boqiladi.

Og'ilxona-yaylovda mol boqish tizimi - qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi samarali (intensifikasiya qilingan), mustahkam yem-xashak bazasi yaratilgan sharoitda qo'llaniladi. Tabiiy yaylovdan tashqari, ekma yaylovlar ham barpo etiladi, yem-xashak ekinlari ekiladi va pichan, kuchli, sershira hamda ko'kat ozuqalar tayyorlanadi. O'simliklarning o'suv davrida tabiiy va ekma yaylovlarda mol boqiladi, ayrim davrlarda molga o'rib olingan o't berib turiladi, yilning qolgan vaqtida esa mollar molxonada boqiladi.

Og'ilxonada mol boqish tizimi - qishloq xo'jaligini intensivlashtirish yo'lida qo'yilgan keyingi qadamni ifodalaydi. Bu sistema tabiiy va ko'p yillik ekma yaylovlari bo'lmagan, chorvachilik juda rivojlangan hududlarda qo'llaniladi. Bunda mol faqat og'ilxonada asraladi, lekin vaqt-vaqti bilan ochiq havoga chiqarib turiladi. Butun yil mobaynida og'ilxonada mol asrash hayvonlar organizmiga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida yozgi og'ilxonalarda mol boqish sistemasi keng qo'llaniladigan bo'ldi, bunda mol yoz davrida maxsus yozgi binolarda asraladi. Og'ilxonalarda ham, yozgi binolarda ham mol bog'lab va boshvoqsiz (bog'lamay) boqilishi mumkin.

O'zbekistonda qoramolchilik uchta alohida hududga ajratiladi.

Birinchi hudud - sof sutchilik hududi, bunga obikor dehqonchilik bilan shug'ullanadigan va shaharlar atrofidagi xo'jaliklar kiradi.

Ikkinchi hudud - sut-go'sht yetishtirish hududi, bunga obikor va lalmikor yerlar hamda tabiiy ozuqa bazasi bo'lgan cho'llar kiradi.

Uchinchi hudud - ixtisoslashtirilgan go'shtdor qoramolchilik hududi, bunga tabiiy yaylovlari bo'lgan va, asosan, chorvachilik bilan shug'ullanadigan xo'jaliklar kiradi.

Qoramolchilikni ixtisoslashtirish va konsentrasionalash asosida sutchilik hamda go'shtchilik komplekslari, har bir hududda zotdor mollarni ko'paytirib tarqatuvchi naslchilik zavodlari va fermalari tashkil etilgan.

Qo'ychilik tizimi - go'sht-yog', go'sht-jun va qorako'l yetishtirish sistemalariga bo'linadi. Qo'ylar hamma vaqt yaylovlarda boqiladi. Qishlov joylarida sun'iy qochirish, jun qirqish, cho'miltirish punktlari bor. Qorako'l qo'ylari qumlik va yarim cho'l yaylovlarda boqiladi.

Parrandachilik tizimi - ixtisoslashtirish va konsentrasionalash asosida ko'plab tuxum va go'sht yetishtirishga qaratilgan.

Cho'chqachilik tizimi - mahsuldor naslli va duragay cho'chqalar yetishtirish, cho'chqa go'shtini ko'paytirish va uning tannarxini kamaytirishga qaratilgan.

Chorvachilik fermasi - qishloq xo'jaligining chorva mollarni urchitish va chorvachilik mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanadigan tarmog'i. Qoramolchilik, yilqichilik, qo'ychilik, cho'chqachilik va parrandachilik fermalari bo'ladi. Chorvachilik fermalari aholi yashaydigan joylardan chetda - yem-

xashak ekinlari ekiladigan maydonlarga yaqin joylarga quriladi. Chorvachilik fermalari hududida chorvachilik binolari kompleksi, qo'shimcha ishlar uchun mo'ljallangan bino va imoratlar, injenerlik-texnika inshootlari, yo'l va kommunikasiyalar bo'ladi. Binolarning qurilish xarakteri chorvachilik fermalarining katta-kichikligiga va chorva mollarining muayyan tur hamda guruhlarini asrash xususiyatlariga bog'liq. Masalan, yirik sutchilik fermasida: sigirxonalar, sut sog'ish bloki, sun'iy urug'lantirish punkti, sigirlar tug'adigan va buzoqxona - profilaktoriy, yem-xashak tayyorlash bo'limlari, silos va senaj minoralari yoki transheyalari, yem-xashak saqlanadigan bino va ma'muriy-maishiy binolar va boshqalar bo'ladi.

Respublikamizning barcha viloyatlarida fermer xo'jaliklarida chorvachilikni barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirish va uning iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish uchun kuplab muhim tadbirlarni amalga oshirmoqdalar. Jumladan, chorvachilik fermalarini yanada kengaytirish, naslchilik ishlarini yanada takomillashtirib xayvonlar zotini yaxshilash, bu tarmoqda progressiv, hozirgi zamon texnologiyasini va ilg'orlar tajribasini keng joriy etish, yem-xashak bazasi barqarorligini oshirish va yanada mustahkamlash, orir qul mehnati jarayonlarining mexanizasiyalashtirish darajasini oshirish, chorvachilik bo'yicha uz malakalarini tobora oshirish kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi,

Bu borada chorvachilikning muhim, salmoqli va yetakchi tarmog'i hisoblangan qoramolchilikni jadal rivojlantirish va bu sohadagi barcha omillardan samarali foydalanish, xalqimiz uchun kup, sifatli va arzon go'sht va sut mahsulotlarini yetishtirib berish barcha fermerlarni diqqat markazida turibdi. Respublikamizdagi kuplab fermer xo'jaliklarida kup va sifatli sut yetishtirish ishlar hozirda muhim bo'lgani uchun qo'yidagi ishlarni kechiktirmay amalga oshirish kerak bo'ladi.

Yem-xashak bazasining barkamolligi va mustahkam bo'lishiga qishloq xo'jalik hayvonlarini to'yimli, shirali, sersuv va servitamin oziqlar bilan yil davomida bir me'yorda ta'min etishga erishish lozim.

Yem va don oziqlarning, shuningdek, kunjara, kukun kunjara, shulxa va boshqa turli xil sanoat chiqitlari, mineral moddalar; hamda barcha turdagi hayvon dorilar bilan ta'minlash zarur bo'ladi.

Barcha chorva tarmoqlaridagi og'ir qul mehnat ishlarini va barcha texnologik jarayonlarni har tomonlama tula mexanizasiyalashtirish ishlarini amalga tuliq oshirish kerak.

Chorva mollari naslini yaxshilash, zot sifatini yuksaltirish, sigirlarning qisir qolishiga barham berish, buzoqlarni boqish va parvarishlash talab darajasidagi sermahsul, cog'lom va baquvvat sigir va nasl buqalar yetishtirish borasida fan yangiliklari va ilg'orlar tajribasidan yetarli darajada foydalanish zarur bo'ladi.

Talab darajasidagi zamonaviy molxonalar va parrandaxonalar bilan kam-chiqim, yengil, ulka sharoitiga mos va arzon zamonaviy chorva binolarini qurish hisobiga taminlash hamda mavjudlaridan unumli foydalanish, ishlarini ishlarini amalga oshirish kerak bo'ladi.

Qishloq xo'jalik hayvon fermalari xodimlarining yil davomida uzluksiz, kechayu-kunduz bajaradigan nihoyat og'ip, sermashaqat, mas'uliyatli va shu bilan

birga savobli mehnatlariga ko'ra ularni e'zozlash ishlarini tashkil qilish kerak bo'ladi.

Ushbu bayon etilgan asosiy hal etilishi kerak bo'lgan muammolarni hal etmasdan turib, barcha jamoa xo'jaliklarida, ayniqsa sut qoramolchiligida keskin burilish qilib bo'lmaydi.

Hayvonlarni jadal usulda gushga semirtirish ishlari ham har bir molboqar va chorvadorning diqqat markazida bo'lmog'i lozim. Buning uchun go'shtga semirtirish uchun ajratilgan hayvonlardan yoshi, jinsi, oriqlig-i, vazni va fiziologik holatiga ko'ra maxsus guruhlar tashkil etilib, ularni yetarli miqdorda to'yimli yem-xashak bilan uzluksiz ta'min etish lozim.

Bundan tashqari, hayvonlarni talab etilgan rasion asosida boqib ulardan har sutkada 900-1000 g vazn olinishiga erishib, yetishtirilayotgan go'shtning tannarxi nihoyatda qimmatlashib, uning sifati pasayishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Respublikamiz viloyatlaridagi ayrim fermer xo'jaliklarida qo'ychilik va parrandachilikni rivojlantirish borasida muayyan ishlar qilinayotgan bulsa, hali bu sohalarida kup va sifatli mahsulot yetishtirish ishlari jiddiy olib borilmayapti. Binobarin, fermer xo'jaliklaridagi mavjud nuqsonlarni bartaraf qilish, iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash borasida hali kup ijobiy ishlarni bajarish talab etiladi.

Xalqimizni chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini tularoq qondirish uchun respublikamizda yetarli imkoniyatlar bor. Ilg'orlar tajribasi buni yaqqol ko'rsatib turibdi. Agar ana shu imkoniyatlardan ishning kuzini bilgan holda tadbirkorlik bilan unumli foydalanilsa qo'yilgan maqsadga erishiladi.

Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish borasida asosiy omillardan biri mehnat unumdorligini yuqori darajada bo'lishi hisoblanadi. Mehnat unumdorligi mahsulot ishlab chiqarish birligi hisobida sarflangan ishchi vaqti bilan belgilanadi.

Buzoqlarni boqishda mehnat unumdorligi I s semirtirishga sarflangan ishchi (vaqti) soati bilan hisoblanadi. I s go'sht yetishtirish yoki hayvonlarni semirtirishga qancha kam ishchi soati sarflangan bulsa, shuncha mehnat unumdorligi yuqori bo'ladi. Har bir tarmoqni jadal rivojlantirish, iqtisodiy darajasini oshirishda, mehnat unumdorligi va samaradorlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lishida ishchi vaqtidan foydalanish va uni ishni kuzini bilgan holda sarflash eng muhim omillardan hisoblanadi. Mehnat unumdorligini oshirish borasida barcha mavjud rezervlardan unumli foydalanish har bir fermer xo'jaligining sharafl-i burchi va muhim vazifasi hisoblanadi.

Buzoqlarni go'shtga boqishda ularning semirish darajasi qancha yuqori bulsa, mehnat unumdorligi shuncha yuqori bo'ladi va aksincha. Binobarin, buzoqlarni jadal usullar bilan go'shtga semirtirish mehnat unumdorligini yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi.

Fermer xo'jaliklarida mehnat unumdorligini oshirishda barcha jarayonlarni avtomatlashtirish va mexanizasiyalashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada molxonadan gung chiqarish, buzoqlarga sut berishni yarim avtomatik qurilmalar asosida bajarish, sochma yem oziqlarni tarqatuvchi mexanizmlardan unumli foydalanish mehnat unumdorligini oshirishda salmoqli urin tutadi. Bundan tashqari

buzoqlarni boqishda malakali xodimlardan foydalanish, fermada faqat bir tekis, vazn jihatidan barobar va teng yoshli buzoqlarni guruh holda boqilsa, mehnat unumdorligi birmuncha yuqori bo'ladi.

Fermer xo'jaliklarida mexanizm, apparat, xona va uskunalardan unumli foydalanish, yem-xashakni tejimli usulda sarflash, uning to'yimlilikini va hazm bo'lish xususiyatini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini va mehnat unumdorligini kutarish, hamda xo'jalik iqtisodisini mustahkamlash va rentabelligini oshirish imkonini beradi.

Har bir fermer xo'jaligi rentabelligini oshirish, mehnat unumdorligini yuksaltirish va ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxini arzonlantirishga bog'liqdir. Binobarin, tannarxi arzon bo'lgan mahsulotni kuproq ishlab chiqarish xo'jalikni serdaromad bo'lishida birdan-bir muhim omil hisoblanadi. Rentabellik deganda olingan daromadning mahsulot tannarxiga bo'lgan nisbati tushuniladi va foiz bilan belgilanadi. Tannarx esa har bir xo'jalik yoki fermani ishlab chiqarish faoliyatini oydinlantiruvchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Tannarxning to'g'ri hisoblanishi birinchi galda xarajat va taqsim qilishga bog'liqdir. Mahsulot tannarxiga turli xil xarajatlari kiradi va tannarxdagi bu xarajatlarning bir-biriga bo'lgan nisbati tannarx strukturasi deyiladi. Mahsulotlar tannarxi strukturasi ham tannarxning yuqori bo'lishida qaysi bir turdagi xarajatlarni kuproq ta'sir qilishi ifodalanadi.

Hozirgi vaqtda xo'jaliklarni rentabellik darajasi asosan uch xil usulda aniqlaniladi. Birinchisi, tovar mahsulotlari rentabelligini aniqlash uchun olingan sof daromadni realizatsiya qilingan (sotilgan) mahsulot tannarxi qiymatiga taqsimlash yuli bilan hisoblanadi. Umuman, xo'jalikda yetishtiriladigan yalpi mahsulotning rentabelligi sof daromadni shu yalpi mahsulot yetishtirishga sarflangan xarajatlari summasiga taqsimlash usuli bilan ham hisoblash mumkin. Ikkinchisi xo'jaliklardagi mavjud fondlarni xo'jalik ishlab chiqarishga ta'sirini aniqlash talab etilsa, unda sof daromadni asosiy ishlab chiqarish va aylanma fondlarga taqsimlanadi. Uchinchisi, xo'jalikdagi barcha fondlardan unumli va rasional foydalanishni taqozo etadigan va barcha sarflarni qisqartirishni nazarda tutuvchi usul hisolanadi.

Ishlab chiqarish rentabelligini oshirishda barcha mehnat jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishning tutgan urni juda kattadir. Ma'lumki, chorvachilik fermalarida bir vaqtning o'zida birnecha mahsulot olinadi. Ular asosiy va qushimcha mahsulot sifatida belgilanadi. Masalan, buzoqlarni boqishda ularning asosiy mahsuloti tirik vaznini ortib borishi hisoblansa, ularning gungi qushimcha mahsuloti sifatida yuritiladi va u ham ma'lum darajada daromad keltiradi. Umuman, har bir xo'jalikni boy, serdaromad va iqtisodiy jihatdan baquvvat bo'lishi nihoyat foydalidir. Xo'jaliklar qulga kiritgan daromadni ishlab chiqarishni kengaytirish, xizmatchilarning moddiy va ma'naviy tomonlariga, obodonlashtirish ishlariga sarflashlari mumkin. Bunday tadbirlarni to'g'ri nazorat qilish uchun fermer xo'jaligida hisob-kitob ishlari olib borilishi lozim.

Shunday qilib, har bir chorva fermasi, mahsulot ishlab chiqarishni to'g'ri yulga qo'yishi, tannarxini kamaytirish, texnika yordamida yangi, jadal texnologiya asosida ish olib borishi muvaffaqiyat omili hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. Chorvachilik sohalari haqida ayting.
2. Chorva mollarini asrash usuliga qarab, qanday chorvachilik tizimlari mavjud?
3. Chorvachilik fermasi qanday tarmoq?
4. Chorvachilik fermer xo'jaliklarida mehnat unumdorligini qandau oshiriladi?

1.2.HAYVONLARNI BOQISH MAXSULDORLIGINIGA TASIR QILUVCHI OMILLAR

Chorva mollarining yaxshi o'sishi va ularning mahsuldorligini oshirishda tashqi muhit katta ta'sir qiladi.

Chorvachilikni rivojlantirishda iqlim, shu joyining o'ziga xos sharoitlari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Iqlimning hayvonlarga ham, yem-xashak bazasiga ham ta'siri bo'ladi. Molxonalardagi havoning issiqligi, namlik darajasi, tarkibidagi gazlarning almashinuvi ham molxonaning yoritilish darajasi qishloq xo'jalik hayvonlariga ta'sir qiladi.

Harorat. Hayvonlar sovuqda qolsa, tanasidan issiqlik ajralishi kuchayadi, uning o'rnini to'ldirish uchun esa organizm ko'proq yem-xashak talab qiladi, bunday holda oziq modda yetishmasa mahsuldorligi kamayadi va sifati yomonlashadi. Shuningdek, hayvonlar sovuqda uzoq muddat qolib ketsa shamollaydi, kasallanadi va hatto nobud bo'ladi. Hayvonlarning teri ostidagi yog' qatlami va terining qalin jun bilan qoplanishi tanadan issiqlikning tarqalishiga va organizmga sovuqning ta'sir etishiga yo'l qo'ymaydi, ammo haroratning normadan pasayishi ham hayvonga yomon ta'sir qiladi. Yosh hayvonlar katta yoshdagi hayvonlarga nisbatan sovuqqa chidamsiz bo'ladi.

Chorva mollariga yuqori harorat ham yomon ta'sir qiladi. Yuqori haroratda hayvonlar terlaydi, natijada hayvonda suv va energiya ko'p sarflanadi. Quyosh ostida qolgan mollarni oftob uradi va kasalga chalinadi.

Namlik. Chorva mollari boqiladigan xonalarda ma'lum miqdorda namlik bo'lishi kerak. Bu namlik haroratga va molxonadagi havoning almashinishiga bog'liq bo'ladi. Poldagi, suvdonlardagi va ho'l yem-xashakdagi namning bug'lanishi natijasida molxonada havoning namligi ortadi. Shuningdek, hayvonlar nafas chiqarganda va terlaganda ham ko'p miqdorda suv bug'lanadi. Masalan, 400-500 kg keladigan sigir bir sutkada 8-12 kg namlikni bug'lantirishi aniqlangan.

Molxonada namlikning ko'p bo'lishi ham, ortiqcha quruq bo'lishi ham hayvonlarga yomon ta'sir qiladi. Sovuq, nam havoda hayvonlar issiqlikni ko'p tarqatishi natijasida sovuq qotadi va shamollab kasal bo'ladi. Ayniqsa, sovuq nam havo yosh hayvonlar uchun ancha xavfli.

Juda issiq va nam havoda hayvonlardan namlik kam bug'lanadi, natijada tanadan issiqlik kam tarqaladi, shu sababli hayvonni issiqlik eltadi. Bunday sharoitda hayvonlarning ishtahasi yo'qoladi va mahsuldorligi kamayadi.

Issiqlik va havo namligini kamaytirish uchun molxonalarni shamollatib turish

muhim ahamiyatga ega. Molxonada namlikni kamaytirish uchun hayvon tagiga quruq qipiq, mayda poxol va shu kabi to'shamalar solinadi. Bu to'shamalar namlikni kamaytirish bilan birga, go'ngning sifatini yaxshilaydi.

Molxona havosi haddan tashqari quruq bo'lsa, mollarning tomog'i qurib qoladi hamda chang ko'payib kasallanishiga sababchi bo'ladi.

Yorug'lik. Molxonaga yorug'lik yaxshi tushib turishi lozim. Yorug' xonalarda mollar yem-xashakni yaxshi topib yeydi. Yorug'lik tushib turadigan xonalarda parrandalar, otlar, qoramollar va cho'chqalar yaxshi rivojlanadi. Lekin molxonaga kechasi lampalar yoqib qo'yish mollarning yaxshi dam olishiga xalaqit beradi.

Molxonalarga qo'yiladigan talablar. Chorva mollari uchun mo'ljallangan fermalar shamol tomondan himoyalangan, yer osti suvlari chuqurligi 4 m dan kam bo'lmagan balandroq joyga qurilishi lozim. Shuningdek, molxonalar aholi yashaydigan binolardan kamida 500-1000 m narida, shamolga teskari va pastroq tomonda, temir yo'l va avtomobillar qatnaydigan katta yo'llardan 300 m uzoqda bo'lishi maqsadga muvofiq.

Molxonalarni qurishda issiqlikni kam o'tkazadigan materiallardan foydalanish lozim. Beton, yog'ochga qaraganda issiqlikni tez o'tkazadi. Shuning uchun molxonalar yog'ochdan qurilsa yaxshi bo'ladi. Yog'och issiqlikni kam o'tkazadi, lekin o'ziga nagl tortadi. Shuning uchun yog'ochdan qurilgan binolarning havosi nisbatan quruq va issiqroq bo'ladi, lekin yog'och tez chiriydi.

Beton chirimaydi, yonmaydi va chidamli bo'ladi. Shuning uchun molxonalarni yig'ma temir-betonli, ichi g'ovak plitalardan foydalanib qurish mumkin.

Molxonalarning poli pishiq, sovuq o'tkazmaydigan, tekis, hayvonlar tiyg'anib yiqilmasligi uchun bir oz g'adir-budur bo'lishi lozim. Deraza va eshiklari jips yopiladigan, mollarning chiqishi va kirishiga imkon beradigan hamda yem xashakni tarqatish mashinalari kira oladigan keng bo'lishi, lozim.

Molxonalarni shamollatib turish uchun havo tortadigan trubalar yoki maxsus havo almashtirgich o'rnatiladi. Natijada molxonadagi zararli gazlar, suv bug'lari chiqib, u toza havo bilan almashinadi va hayvonlar uchun qulay sharoit vujudga keladi.

Chorva mollarini sog'lom va baquvvat o'stirish uchun ular saqlanadigan xonalar go'ngidan va shaltog'idan doim tozalab turiladi.

Suvning ahamiyati. Suv hayvonlar hayotida juda muhim ahamiyatga ega. Hayvonlar organizmining 65-70 % ini suv tashkil etadi. Ayniqsa, yosh mollar tanasida katta yoshdagi hayvonlarga nisbatan suv ko'proq bo'ladi.

Hayvonlarda kechadigan barcha jarayonlar suv tufayli sodir bo'ladi. Hayvonlar tanasidagi zaharli moddalar suv bilan birga tashqariga chiqib ketadi hamda suvning bug'lanish natijasida hayvonlar tanasidagi issiqlik pasayadi. Hayvonlar suvsiz hayot kechira olmaydi. Shuning uchun hayvonlarni suv bilan o'z vaqtida ta'minlash, ularning mahsuldorligini oshiradi.

Bir sutkada sog'in sig'irlar 80 litr, olti oylikkacha bo'lgan buzoqlar 20 litr, katta yoshdagi qo'ylar 10 litr, cho'chqalar 25 litr, bolali cho'chqalar 60 litr va tovuqlar esa bir litr atrofida suv sarflaydi.

Suvning tozaligi. Hayvonlarga beriladigan suv toza bo'lishi lozim. Suvda

hayvonlar uchun zararli bo'lgan zaharli moddalar, kasallik tarqatuvchi mikroblar va har xil tuzlar bo'lmashligi kerak. Chorva mollari ichadigan suv tiniq, rangsiz, hidsiz va mazali bo'lishi lozim. Suvda har xil tuzlar bo'lsa, ularning mazasi taxir, achchiq, sho'r yoki qo'lansa hidli bo'ladi. Bunday suvni hayvonlar yaxshi ichmaydi yoki mutlaqo iste'mol qilmaydi.

Hovuz va ko'l suvlaridan ba'zan baliq yoki balchiq hidi, suvdagi har xil moddalarning chirishi natijasida undan mog'or yoki qo'lansa, yoqimsiz hid keladi, bunday suvlarni hayvonlar iste'mol qilmaydi.

Suv manbalari. Chorva mollariga beriladigan suvning asosiy manbalari daryodan oqib keladigan, qor va yomg'ir, ko'l va havza, buloq va yer osti suvlari hisoblanadi.

Daryo suvlari bahorgi yog'ingarchilik va suv toshqini tufayli loyqalanadi, unda har xil aralashmalar ko'payib ketadi. Shuningdek, ular sanoat va aholi chiqindilarining qo'shilishi natijasida ifloslanishi ham mumkin. Hayvonlarga suv berishda ana shularni hisobga olish lozim.

Yomg'ir va qor suvlarining tarkibida tuzlar kam bo'lganligidan ularning sifati tez buziladi.

Chorva mollari uchun buloq suvi tushadigan ko'llardan foydalanish mumkin. Oqmaydigan, tagi sayoz va botqoqli ko'l suvlari hamda buzilgan va ifloslangan hovuz suvlari hayvonlarning ichishi uchun yaramaydi.

Yer osti suvlaridan chorva mollarini sug'orishda foydalanish uchun uning tarkibini tekshirib ko'rish lozim. Yer osti suvlari ifloslanmagan va tuzlari ko'p bo'lmasa undan foydalanish mumkin.

Yer ostidagi suv o'tkazmaydigan berch qatlamda toza suv bo'lib, ular sifat jihatidan ancha yuqori bo'ladi. Bular ba'zan buloq suvlari singari yer betiga chiqishi mumkin, ayrim hollarda yerni kovlab quduq qilinadi yoki suv nasoslari yordamida tortib olinib, chorva mollari uchun foydalaniladi.

Suvni tozalash va zararsizlantirish. Suvlar ayrim mayda hayvonlar ta'sirida tozalanib turadi. Masalan, mayda jonivorlar suvdagi organik moddalar bilan oziqlanadi, mikroblar va kislorod ta'sirida suvdagi aralashmalar parchalanib suvlar tabiiy holda tozalanib turadi.

Ammo o'ta ifloslangan suvlarni qo'shimcha tozalashga to'g'ri keladi. Buning uchun suv maxsus suv omborlarida tindiriladi, undagi iflosliklar suv tagiga cho'kadi. Shuningdek, suvni tozalashda filtrlardan foydalaniladi. Suvni qum, shag'al, ko'mir va marmartosh uvoqlari orasidan o'tkazilsa suv toza bo'ladi.

Iflos suv orqali har xil kasalliklar tarqalmasligi uchun ularni kimyoviy moddalar bilan zararsizlantiriladi.

Chorva mollari uchun ishlatiladigan suv juda issiq yoki haddan tashqari sovuq bo'lmashligi lozim. Suvning harorati 12° atrofida bo'lsa yaxshi hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. Chorva mollarining mahsuldorligiga tashqi muhit ta'siri qanday?
2. Chorva mollariga haroratning qanday ta'siri bor?
3. Chorva mollariga namlikning qanday ta'siri bor?
4. Chorva mollari uchun suvning qanday ahamiyati bor?

BOB.II. CHORVACHILIK SOHALARI

2.1. QO'YCHILIK

Qo'y va echkilarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Qo'ychilik fermalarida ona qo'ylar, qo'chqorlar, qo'zi va to'xlilar guruhi mavjud. Shu guruhlarga qarab, qo'yxona yoki hayvonlar 500-600 bosh ona qo'yga mo'ljallangan, qo'zilar uchun iliq xonali qo'yxona-qo'tonlar, yosh qo'ylar uchun 800 o'rinli qo'yxonalar, sovliqlarni sun'iy qochirish va jun qirqish uchun yengil binolar quriladi. Har bir qo'yxona qo'tonga yaqin joyda qishga jamg'arilgan yem-xashak g'aramlari va yaylovlar bo'ladi. Qo'ychilik xalq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega. U insonni qimmatli go'sht, yog' va sut bilan ta'minlaydi. O'rta Osiyo xalqlari qo'y go'shtini sevib iste'mol qiladilar va xilma-xil ovqatlar tayyorlaydilar. Chorvachilikning boshqa birorta sohasi qo'ychilik singari xilma-xil mahsulot berolmaydi. Qo'ychilik go'sht, sut va yog'dan tashqari jun, qorako'l te'ri va charm mahsuloti yetkazib beradi. Qo'ychilikning asosiy va qimmatli mahsulotlaridan biri uning mayin junidir. Qo'y junidan qimmatli kiyim-kechaklar tiqiladi va gazmollar to'qilib hayotimizning turli sohalarida ishlatiladi.

Shorvachilikning qorako'l qo'ylari va terilari yetishtirish bilan shug'ullanadigan tarmog'i. Mo'yna sanoati uchun xom-ashyo yetkazib beradi. Naslchilik ishlari yo'lga qo'yildi, har qaysi xo'jalikda nasldor mollar fermasi tashkil etildi, qorako'l terilari sifati yaxshilandi. O'zbekistondagi qorako'l naslchilik xo'jaligida qora rangli qorakul terilarini takomillashtirdi, qorako'l qo'ylarining «Qoraqum» turini yetishtirdi. Qorako'lchi seleksionerlar shu usul asosida qorako'l qo'ylarining «Muborak», «Nishon» «Konimex», «Jinov», «Ravnina» va boshqa sermaxsul zotdor turlarini chiqardilar.

Qorako'lchilikda naslchilik ishlarining asosiy vazifasi qorako'l terini ko'plab yetishtirish, teri sifatini tobora yaxshilash, ayniqsa, yarim dora qalami gulli jaket nav terilarni ko'proq beradigan zotdor turlarini takomillashtirishdan qora rangli teri yetishtirish bilan bir qatorda ko'k sur, guligaz (pushti) va boshqa qimmatbaho rangli terilar yetishtirishni ko'paytirishdan iborat. Naslchilik ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish va tartibli ravishda olib borish maqsadida xo'jaliklar naslchilik zavodlari, nasl - reproduksiya xo'jaliklari va tovar xo'jaliklari turiga ajratildi. Naslchilik zavodlarining asosiy vazifasi qorako'l qo'nlarning zot xususiyatlarini tubdan o'zgartirish, sermahsul yangi barra turli, qimmatbaho belgili qorako'l qo'ylarini, ularning yangi-yangi liniyalarini, zotdor turlarini yetishtirish, nasldor qo'chqorlarni ko'paytirish va mahsulot xo'jaliklarini to'liq ta'minlashdan iborat.

Qo'ylar junining ingichkaligiga qarab mayin junli, o'rtacha mayin va dag'al junlilarga bo'linadi.

Mayin junli qo'ylarga ko'p tarqalgan merinos zot qo'ylar kirib sovliqlarining og'irligi 50-60 kg, qo'chqorlariniki 100-110 kg keladi va har biri o'rtacha 4-5 kg jun beradi. Bularning terisidan issiq po'stinlar tiqiladi.

O'rtacha mayin junli qo'ylardan ko'p boqiladigani sigay zot qo'ylar bo'lib, ularning sovliqlari 50 kg, qo'chqorlari 60-80 kg gacha boradi va har bir qo'ydan

3,5-5 kg jun qirqib olinadi. Bu qo'ylarning terisidan ham po'stin tiqiladi, junlari esa pishiqligi, mayinligi va chigal bo'lmasligi jihatidan ustun turadi.

Dag'al junli qo'ylarga Xisor zot qo'ylar bilan qorako'l qo'ylari kiradi. Xisor



1.-rasm. Go'shtdor-sepyog' mahsulotli hisor zotining nasl qo'chqori.

zot qo'ylar dumbali, baland tog'li iqlimga yaxshi moslashgan, sovliqlarining o'rtacha vazni 70-75 kg, qo'chqorlariniki 100 kg atrofida. Qorako'l qo'ylari unchalik yirik emas. Katta yoshdagi qo'ylari 2,5-3 kg gacha dag'al jun beradi, lekin qorako'l terisi, ayniqsa 1-3 kunlik qo'zilarining terisi bilan dunyoga mashhur. Terisi qora va kul rang bo'lishi mumkin, lekin tilla rang sur eng qimmatli qorako'l hisoblanadi.

Qo'ylar soylik, jarlik, tog'li hududlarda o'sadigan o'tlardan hamda don ekinlari o'rib olingandan keyin yerda qoladigan o'simlik qoldiklaridan to'la foydalana oladi. Qo'ylar

o'tlarni tagidan, ildiz bo'g'izi yaqinidan uzib olishga moslashgan. Qo'ylarning suvga bo'lgan ehtiyoji unchalik katta emas, shuningdek ular issiqqa va sovuqqa chidamli bo'ladi.

Go'shtdor-sepyog' zotli qo'ylar. yirik, mustahkam tuzilishga ega bo'lib, yirik dumbali, asosan yaylovlarda boqishga moslashgan. Ularning juni dg'gal, ko'p miqdorda o'lik va quruq jun tolalari uchraydi. Shuning uchun ham ularning junidan kigiz, namat, sholcha kabilar tayyorlanadi. Bu yo'nalishga mansub bo'lgan asosiy zotlar: hisor, jaydari va edilboy qo'ylardir.

Hisor zoti. asosan O'zbekiston Tojikiston, va Qozogiston davlatlarida ko'paytiriladi. Bu zot go'shtdor-sepyog' zot qo'ylar ichida eng yirigi hisoblanadi. Binobarin, quchqorlarining tirik vazni 100-130 kg, sovliqlariniki 80-90 kg atrofida bo'ladi. Bu qo'ylarning tanasi uzun bo'lib, burtib chiqqan, quloqlari osilgan bo'ladi. Oyoklari uzun va pishik,, dumbasi 20-25 kg, hatto 40 kg va undan ham ko'prok, keladi. Junining rangi to'q sariq, qora va jigarrang. Hamma vakillarida shox bo'lmaydi. Ikki qkyning har birida 1,2-2 kg dan jun olinadi. Serpushtlik xususiyati yaxshi rivojlangan. Quzilari 6 oylik bo'lganida vazni 60-65 kg ga yetadi. Go'sht chiqishga 48-56 foiz. Go'shti juda mazali (1-rasm).

Jaydari qo'ylar. Uzbekistonning ko'p tumanlarida uchraydi. Ular hqm, dumbali kuylar hisoblanib, quchqorlari 80-90 kg, sovliqlari 60-70 kg keladi. Har galgi qirqimda 1,6-2 kg, ayrim hollarda 2,5 kg gacha jun beradi. Go'shtining sifati yaxshi va chiqishga o'rtacha 50-52 foiz atrofida. Jaydari qo'ylar ancha chidamli bo'lganligi uchun ko'plab xonadonlarda boqiladi va ko'paytiriladi. Ular asosan, Samarkand va Jizzax viloyati xo'jaliklarida boqiladi.

Nazorat savollari

1. Qo'y va echkilarning xalq xo'jaligidagi qanday ahamiyati bor?
2. Qo'ylar juniga qarab qanday turlarga bo'linadi?
3. Qo'ylar uchun tashqi muhit ta'siri qanday?
4. Qo'ylarning qanday zotlari bor?

2.2. QO'YCHILIKDA NASLCHILIK ISHLARI

Qo'y zotlari.

Qorako'l qo'yi - sur qorako'l teri yetishtirish uchun, asosan, O'zbekistonda urchitiladigan qo'ylar. Qorako'l qo'yi tabiiy sharoitga boshqa qorako'l qo'ylariga nisbatan chidamsizroq, ko'k qorako'l qo'ylariga qaraganda chidamliroq. Sovliqlari 40-45 kg, qo'chqorlari 55-60 kg Yillik jun mahsuloti 2,5-3,0 kg. Eng yuqori nav sur terilar yetishtirish va nasldor sur qo'chqorlarni ko'proq olish uchun sur so'vliqlar sof zot sur qo'chqorlardan qochiriladi. Sur so'vliq sur qo'chqordan qochirilganda sur qo'zilar 90% dan ortig'ini, qora so'vliqlar, sur so'chqorlardan qochirilganda esa sur qo'zilar birinchi bo'g'in qo'zilarining 4-6% ini, ikkinchi bo'g'inining 27-28% ini, so'nggi bo'gilqanlarning 48-50% ini tashkil qiladi. Qorako'lchi-seleksionerlar, mutaxassislar hamda cho'ponlar tomonidan sur qo'ylarning sermahsul «Surxon» turi, «Nurota» turi, kumush sur qo'ylarning «Qoraqum» turi, tilla, kumush sur teri beradigan «Qizilqum» turlari yaratilgan.

Linkoln qo'y zoti - go'sht-jun uchun boqiladigan yarim mayin junli qo'ylar. XIX-asrda Angliyada yetishtirilgan. Qo'chqorlari 130-160 kg, so'vliqlari 100-120 kg. Qo'chqorlari yiliga 10-12 kg, so'vliqlari 5-6 kg jun beradi. Junining uzunligi 20-30 sm, bir xil, pishiq, 55-65% sof jun chiqkali. 100 so'vliqdan o'rtacha 120 qo'zi olinadi. Dagal junli va merinos so'vliqlari bilan chatishtirilib, krossbred turidagi serjun mahsuldor duragay olingan. O'zbekistonda jaydari qo'ylyar bilan chatishtirilib, serjun-go'shtdor duragay qo'ylari ko'paytirilmoqda. Bu duragaylar juni jaydari qo'ylarning juniga qaraganda 2-2,5 marta ortiq, yarim mayin, krossbred turida, uzunligi 13-16 sm.

Askaniya qo'y zoti – mayin tolali serjun zot. Bu zot 1925-34 yillarda Ukraina mahalliy merinos qo'ylarini tanlab borish va Amerikaning rambul'ye qo'chqorlaridan qochirish yo'li bilan yetishtirilgan. Askaniya qo'y zoti mayin junli qo'ylarning eng yirigi. Qo'chqorlarining o'rtacha vazni 100-110 kg (ulardan 10 kg gacha jun olish mumkin), so'vliqlarining vazni 60-65 kg (5,5-6 kg jun beradi). Juni ingichka.


1950 yillarda Toshkent naslchilik xo'jaligi, Jizzax ot zavodiga keltirilgan.

Askaniya qo'y zoti bu xo'jaliklarda qo'yidagicha mahsulot berdi: vazni 82,3 kg bo'lgan ikki yoshli nasl qo'chqorlari 7 kg jun berdi. Junning uzunligi 8,3 sm, ingichkaligi 21,7 mk; toza junning chiqishi 41,4%.

Sigay qo'y zoti - jun-go'sht va go'sht-jun uchun boqiladigan yarim mayin junli qo'ylar. Tashqi ko'rinishi va junining sifati merinoslarnikiga yaqin. Serjun-go'shtdor va go'shtdor-serjun turlari bor.

Serjun-go'shtdor tur qo'chqorlarining tirik vazni 85-95 kg, so'vliqlariniki 45-50 kg. Junining uzunligi 8-10 sm, qo'chqorlaridan 6,5-7,5 kg, so'vliqlaridan 3,5-5 kg jun qirqib olinadi. 56-58% toza jun chiqadi.

Go'shtdor-serjun tur qo'chqorlarining tirik vazni 100-110 kg, so'vliqlariniki 55-60 kg. Junining uzunligi 10-12 sm. Qo'chqorlaridan 7,5-8,5 kg, so'vliqlaridan 4-4,5 kg jun qirqib olinadi. 56-60% toza jun chiqadi. Naslchilik zavodlarida sigay qo'ylarining zotdor turlari yetishtirilmoqda(2-Rasm).




2-rasm. Qoy zotlari: 1. Askaniya; 2. Tojik zoti; 3. Sovet merinosi; 4. Romanov zoti; 5. Prekos; 6. Qorako'l; 7. Tsigay; 8. Hisori.

Merinoslar - bir tekis mayin junli qo'y zoti. Mayin junli qo'ylar vatani o'rta Osiyo 19-asr va 20-asr boshlarida merinosning boshqa mamlakatlardan keltirilgan bir necha turi, shuningdek, rus mutaxassislari yetishtirgan zotlari Rossiyada ko'paytirildi. Rus mutaxassislari tomonidan merinosning yanada mahsuldor askaniya va merinoslar, ozarbayjon tog' merinosi, kavkaz, oltoy, salsk, stavropol va boshqa zotlari yetishtirilgan. Merinosning bo'yin, ba'zan, tana terisi ham burmali

bo'ladi. Juni ingichka (ko'ndalang kesimi 15-25 *mk*) momiq tolalardan iborat, uzunligi 6-8 *sm*; yiliga bir marta qirqilib, qo'chqorlaridan 8-12 *kg*, sovliqlaridan 4-6 *kg* jun olinadi. 35-45% sof jun chiqadi. Qo'chqorlarining vazni 80-100 *kg*, sovliqlariniki 40-60 *kg*.

Hisori qo'y zoti - go'sht-yog' uchun boqiladigan dag'al junli dumbali qo'y zoti. Xalq seleksiyasi yo'li bilan Tojikistonda yetishtirilgan. Qo'chqorlari tanasining balandligi 80-85 *sm*, sovliqlariniki 75-80 *sm*. Qo'chqorlarining tirik vazni 130-140 *kg*, sovliqlariniki 80-90 *kg*. Tana tuzilishi pishiq, ko'kragi keng. Boshi katta, shoxsiz do'ng tumshuq, quloqlari uzun. Dumbasi 18-20 *kg*. Tusi, asosan, qo'ng'ir.

Tez yetiladi. 6 oyligida 60 *kg* va undan ortiq keladi. 58-60% go'sht qiladi. Juni dag'al, kigiz va namat tayyorlanadi. Qo'chqorlaridan 1,3-1,6 *kg*, sovliqlaridan 1,0-1,4 *kg* dan jun qirqib olinadi. Chidamli, yil bo'yi yaylovda boqishga moslashgan. Har 100 sovliqdan 115-120 qo'zi olinadi. Tojikiston va O'zbekistonda ko'paytiriladi.



3-rasm. Degres zotli qo'y

Degeres qo'ylar - yarim mayin, uzun junli yangi qo'y zoti(3-rasm). Qozog'istonda shiropshir zot qo'yni dumbali (jaydari) sovliqlar bilan chatishtirib yetishtirilgan. Sutdan ajratilgan erkak qo'zilarining vazni 40-44 *kg*, urg'ochilariniki 35-38 *kg*, bir yarim yoshlik qo'chqorlarining vazni 70-80 *kg*, sovliqlariniki 53-60 *kg*, yetuk yoshdagi qo'chqorlarining vazni 110-118 *kg* (ayrimlari 135 *kg*), sovliqlariniki 61-67 *kg* (ayrimlariniki 84 *kg*), so'yilganda 60-62 *kg* go'sht-yog' qiladi.

Sovliqlaridan 3-3,5 *kg*, qo'chqorlaridan 4-6 *kg* jun qirqib olinadi. Bulardan 66-68% toza jun chiqadi. Juni oq, uzun (14-16 *sm*), sifati va yigirilish xususiyati a'lo darajada.

O'zbekistonga 1959 yildan keltirila boshlagan. Degeres qo'chqorlaridan Samarqand, Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarida dumbali qo'ylarni yaxshilashda foydalanilmoqda.

Qo'ylarni urchitish. Qo'ylar 8-9 oyligida jinsiy jihatdan yetiladi, shunday bo'lsa-da, ularni birinchi gal 1-1,5 yoshligida qochirish tavsiya etiladi. Qo'ylarning jinsiy qo'zg'alish sikli o'rta hisobda 17 kun, kuyikishi taxminan 24 soat, bo'g'ozlik davri 144-148 kun davom etadi. Qo'ylarni ko'pchilik zotida jinsiy aktivlik kuzda, kunlar qisqargandan keyin boshlanadi. Qo'ylar kunduz kuni qorong'i xonaga bir necha soat qamab qo'yilsa, jinsiy qo'zg'alishi tezlashadi. Romanov qo'ylari bundan mustasno, ularda qochishga moyillik yil davomida tug'ilishi mumkin. Qo'ylarda tashqaridan qaraganda kuyikish belgilarini bilib bo'lmaydi, shuning uchun ularning kuyikishi sinovchi qo'chqorlar yordamida aniqlanadi. Qo'chqorning ko'kragiga har ikki kupda maxsus bo'yoq surtiladi, shunda qochishga moyil qo'ylarni topish osonlashadi. Qo'ylarni ko'paytirishda qochirishning har xil usullaridan foydalaniladi.

Erkin qochirish - bunda qo'ylar podasiga qo'chqorlar (20-25 bosh qo'yga bitta qo'chqor hisobidan) qo'shiladi. Qochirishning bu oddiy usulida juda ko'p qo'chqor

kerak bo'ladi. Naslchilik xo'jaliklarida qo'zining «ota-onasi» kimligini aniq bilish talab qilinganligidan bu usulni qo'llanib bo'lmaydi.

Qo'lda qochirish - bunda podaga sinovchi qo'chqorlar qo'shib, kuyikkan sovliqlar aniqlanadi, so'ngra ular maxsus stanokda qochiriladi. Bunda har 80-100 sovliqqa bittadan qo'chqor to'g'ri kelishi lozim.

Sun'iy urug'lantirish - zotli qo'chqorlardan keng foydalanish imkoniyatini tug'diradi. Sovliqlar va qo'chqorlarning yaxshi boqilishi qochirishning muvaffaqiyatli o'tkazilishida juda muhimdir. Qo'ylarni qochirish, binobarin, qo'zilatish vaqtining ham amaliy jihatdan ahamiyati katta. Qo'ychilik xo'jaliklari konkret sharoitlarga qarab, qo'ylarni qishda yoki bahorda qo'zilatishi mumkin. Qishda qo'zilatiladigai qo'ylar sentyabr-oktyabr oylarida qochiriladi. Yanvar-fevralda tug'ilgan qo'zilar bahorda qo'ylar yaylovga chiqariladigan vaqtgacha birmuncha o'sib, o't-o'lanni yeb o'zlashtira oladigan holga keladi. Shunda ular bahorda tug'ilgan qo'zilarga qaraganda yaxshiroq rivojlanadi, jun va go'shtni ham ko'proq beradi. Qo'ylarni qishda qo'zilatish uchun issiqxonalar bo'lishi va ko'p miqdorda sifatli oziq tayyorlab qo'yilishi zarur.

Nazorat savollari

1. Qo'y zotlari qahday etishtiriladi?
2. Merinos va Hitori qo'y zotlari haqida ayting.
3. Degeres qo'ylari nima uchun etishtiriladi?
4. Qo'ylar qanday urchitiladi?

2.3. QO'YLARNI ASRASH VA OZIQLANTIRISH

Suruv, otar - qo'y to'dasi, podasi. Suruv qo'y zoti, yoshi, jinsi, rangi va sinflariga qarab tashkil etiladi. Mayda sovliqlar 600-700, qo'chqorlar 300-500; 4-18 oylik qo'zilar 700-800; go'shtga boqiladigan qo'ylarning 900 va undan ortig'i bir Suruv bo'ladi. Sugorish, ozuqa jamg'arish, g'aramlash va boshqa og'ir ishlar to'liq mexanizasiyalashgan xo'jaliklarda suruv 1000-1200 boshqacha yetkaziladi. Suruvni 3-4 kishidan iborat cho'ponlar brigadasi boqadi.

Qo'ylarni oziqlantirish - qo'y va echkilarni rivojlanitirish O'zbekiston sharoitida eng qulay chorvachilik tarmog'i hisoblanadi. Respublikada erkin ravishda haydab boqiladigan saxrolar, tog'lar va cho'llar katta maydonni egallaydi. Qo'ylar bahor, yoz va kuzda yaylovlarda, qishda esa maxsus qo'yxonalarda boqiladi. Ularga asosan pichan, somon-to'pon, silos, ildizmevalar, oz miqdorda don yormasi va konsentrat oziqlar beriladi. Qo'ylarning oziq ratsioni har oyda 1-2 marta ko'rib chiqiladi. Dag'al oziqlar ertalab va kechqurun, shirali va konsentrat oziqlar esa kunduzi beriladi. Qoramollarga qaraganda qo'y-echkilarga oziqa nisbatan kam sarflanadi. Qo'ylarga beriladigan oziqlar ulardan olinadigan mahsulotlarga, tirik vazniga va ularning fiziologik holatiga bog'liq Qo'ylarga qish kunlari ko'proq oziq sarflanadi, chunki sovuqda o'zini isitish uchun kaloriya sarflaydi. Oziqalar tejab beriladi. Ko'p berilsa oyoq ostida qolib ketadi. Qo'ylar ko'proq xashak va dag'al hashak eyishadi. 4-5 marta ovqatlantiriladi va 1-2 marta sug'oriladi. Qo'zilarga qaraganda bo'g'oz sovliqlar va ona qo'ylar oziqani ko'proq talab qiladi. Shuning

uchun ularni ajratib olib alohida qo'shimcha oziqlantiriladi. Katta qo'ylarga har galgi oziqlantirishda 2 kg silos, 0,4-0,5 kg pichan, 5 kg poxol somon, 1 kg ildizmeva va 0,4 kg kuchli oziq beriladi. Qish kunlari qo'ylar 2-2,5 kg oziqa birligi talab qiladi. Ona qo'ylarni kuniga 2 marta sug'orish lozim. Kichkina qo'zichalar oxurlardan alohida oziqalar yeyishga o'rgatiladi; ko'k beda, maysa o'tlar, kepak va tuz berib boriladi. Qo'zilar ko'proq onalarini emadilar, shuning uchun, ham oziqani kam iste'mol qiladilar. Ular 2-3 oylik bo'lganda asta bahorgi o'tlarni o'tlay boshlaydi.

Qo'zilar ni o'stirish. Yuqorida aytib o'tilganidek qo'ylarni qishda qo'zilatish uchun issiqxona bo'lgan maxsus qo'yxonalar qurilishi zarur. Issiqxonaning harorati 6-8 C° bo'lishiga yo'l qo'yiladi, lekin havosi quruq bo'lishi shart. Yetarli miqdorda yaxshi to'shama solingan quruq xona isitilmasa ham bo'ladi. Issiqxonaning asosiy qismi ko'chma to'siqlar bilan kataklarga ajratiladi. Sovliq bilan qo'zilar dastlabki ikki kun shu kataklarda saqlanadi. Yangi tug'ilgan qo'zi 15-20 daqiqadan keyin tik turib onasini ema oladigan bo'ladi. Qo'zi bilan sovliqning yonboshiga bo'yoq bilan vaqtincha raqam yoziladi, bo'yoq yomg'irda yuvilib ketmaydigan, ammo qo'y junini fabrikada yuvganda ketadigan bo'lishi kerak. Ikki kundan keyin sovliq bilan qo'zilar 7-10 boshdan saqmonlarga ajratiladi. Qo'zilar ulg'aygan sari saqmonlar yiriklashtiriladi. Qo'zilar 5-8 kunlik bo'lganida saqmondagi sovliqlar soni 25-30, qo'zilar 20-30 kunlik bo'lganida esa - 250 boshga yetkaziladi. Qo'ylardan go'sht bilan birgalikda jun va teri olinadi, yiliga ikki marta jun qirgiladi.

Junning turlari. Jun - hayvon tanasining tuk qoplamidir. Undan to'qimachilikda va namat-kigiz tayyorlashda foydalaniladi. Qo'y juni qo'yidagi tolalardan iborat: momiq (ingichkaligi 15-30 mkm keladigan, ingichka, jingalak tuklar), qillar (ingichkaligi 50-150 mkm keladigan to'g'ri yoki bir oz jingalak uzun tuklar), oraliq tuklar (uzunligi va ingichkaligi jihatdan momiq bilan qil oraliq idagi jun tolalari). Tuklarning bu uchala turiga ham yog' aralash ter shimilgan bo'ladi. Junda o'lik dag'al, mo'rt, to'g'ri bo'yoq yuqmaydigan tuklar uchraydi, ba'zan uchiga yog' aralash ter shimilmagan, quruq uzun qillar ham bo'ladi. O'lik tuklar va quruq uzun qillar junning sifatini pasaytiradi. Tuklarning bir xilligiga va ingichkaligiga qarab jun qo'yidagicha turlarga bo'linadi:

Mayin jun - hammasi momiqdan iborat, ya'ni tuklarining ingichkaligi 25 mkm dan ziyod emas. Bunday tuklar jingalak, juda pishiq va mayin bo'ladi. Shunday jun beradigan qo'ylar mayin junli qo'y deb ataladi.

O'rtacha mayin jun - hammasi dag'al momiq (tukning ingichkaligi 25-30 mkm yoki ortiq) tuklardan yoxud qisman dag'al momiq va qisman oraliq tukka yaqinroq jundan iborat. Mayin va o'rtacha mayin junlar bir jinsli jun turlariga kiradi.

Dagal jun - momiq, oraliq tuklar va qillardan tashkil topgan, ba'zan o'lik va quruq tuklar juda ko'p aralashgan bo'ladi.

O'rtacha dag'al jun - momiq, oraliq tuklar va ingichka qillardan iborat. U dag'al jundan momig'i ko'pligi, yog' aralash ter juda ko'p shimilganligi, ancha ingichka qillar aralashganligi bilan farq qiladi. Qo'y juni iflos bo'ladi, shuning uchun u qir qilganidan keyin yuvib, yog' aralash teridan va yopishib qolgan boshqa narsalardan tozalanadi. Fabrikada yuvilgan toza jun yopishitiriladi. Toza jun vaznining iflos jun vazniga nisbati (foiz hisobida) toza jun chiqishi deb ataladi. Bu

nisbat mayin junda 30-50% ga, dag'al junda 55-75% ga teng.

Qo'ylarni go'shtga boqish

Odatda, qo'ylar ikki xil usulda - yaylovda va qo'lda boqiladi.

Qo'ylarni yaylovda boqish eng arzonga tushadigan va keng tarqalgan usul hisoblanadi. Bunda ularning vazni 25-40 foizgacha ortadi, go'sht va yog'ining sifati yaxshi bo'ladi. Yoshiga ko'ra brak qilingan qorakul qo'ylar, nasl olish uchun yaroqsiz quchqorlar va asosan dumbali erkak quzilar go'shtga boqish uchun ajratiladi va ulardan yoshi, jinsi, fiziologik holatiga qarab poda tuziladi.

Agar brak qilingan qo'ylar erta bahordan yaylovda boqilsa, ular yaxshi semiradi va kuldan kushimcha yem-xashak berishga extiyoj qolmaydi. Lekin go'shtga boqiladigan davrda ularni kuniga uzok, masofaga harakat qildirish yaramaydi. Chunki bu ularning semirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Qo'ylar yaylovda boqilganda ularga vaqti-vaqti bilan osh tuzi va mineral qushimchalar berib turish semirishini jadallashtiradi. Dumbali qo'ylarning yaylovda boqish ko'p miqdorda go'sht va yog' yetishtirish imkonini beradi.

Qo'ylarni qulda boqish mahsulot tannarxining bir oz qimmatlashib ketishiga sabab bo'lishi bilan birga, qo'ylar qiska vaqt ichida yaxshi semiradi. Kuylarni bo'rdoqiga boqish yaxshi tashkil etilgan ilg'or xo'jaliklarda ularning sutkalik semirishini 250-280 g ga oshirishga erishilmoqda va ko'plab sifatli quy go'shti yetkazib berish borasida ko'pchilikka ibrat bulmoqda.

Jun qirqimi qo'ychilikda eng mas'uliyatli davr hisoblanadi. Chunki junning sifati va mikdori ma'lum darajada uni qanday tashkil qilib o'tkazilishiga bog'liq.

Qo'ylarning juni mahsulot yo'nalishiga qarab yi-liga bir yoki ikki marta qirqib olinadi. Masalan, mayin va yarim mayin junli qo'ylarning juni bir marta, dag'al va yarim dag'al junli qo'ylarning juni ikki marta qirqiladi. Qo'ylar juni ilgarilari asosan qo'lda qirqib olinar edi, hozirgi vaqtda mashin-kada olinmokda.

O'zbyekistonda qo'ylar juni bahorda - aprel oyida, kuzda - sentyabr va oktyabr oylarida qirqiladi. Bunda ob-havo sharoitini hisobga olish kerak bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Suruv qanday qo'y podasi?
2. Qo'ylar qanday oziqlantiriladi?
3. Qo'zilarni o'stirish haqida ayting.
4. Qo'y junning qanday turlari bor?
5. Qo'ylar go'shtga qanday boqiladi?

2.4. ECHKI CHORVASI FAOLIYATI HAQIDA.

Echkichilik ham chorvachilikni serdaromad va serpusht tarmog'i hisoblanadi. Bu tarmoq, xalq xo'jaligi uchun qimmatli tivit, go'sht, tyeri va sut mahsuloti

yetishtirib beradi. Echkilardan olinadigan tivit nozikligi (diamyetri 14-20 mikron), mayinligi, yengil va pishiqligi hamda chidamliligi bilan boshqa turdagi tivitlardan ustun turadi. Bunday tivit asosan angor zot va boshqa serjun echkilardan olinadi. Ular tivitining uzunligi 9-12 sm, ayrim hollarda 20-25 sm ga yetadi. Ulardan qimmatbaho ro'mol, trikotaj kiyimlar, gilam va hokazolar tayyorlanadi. Echki tyerisidan kamar, har xil galantyeryeya anjomlari va oyoq kiyim tayyorlanadi. 1,5-3 haftalik echki bolalarining mo'ynasidan har xil kiyim bosh tiqiladi.

Echki suti ham sevib iste'mol qilinadi. Suti tarkibida 87,2 foiz suv va 12,8 foiz quruq moddalar bo'ladi. Jumladan, 2,8 foiz kazein, 0,5 foiz albumin, 4,5 foiz yog', 4,2 foiz sut shakari va 0,8 minyeral moddalar bo'ladi. Sutining solishtirma og'irligi 1,033 ga tyeng. Uning tarkibida fosfor va kalsiy ham ko'p bo'ladi. Echki suti ayniqsa yosh bolalar va oshqozon kasaliga chalingan kishilar uchun shifobaxsh ichimlik xisoblanadi.

Echki go'shti sifatiga ko'ra qo'y go'shtiga yaqin turadi, to'yimliligi bo'yicha unga tyeng keladi. Go'shtga boqilgan echkilar 20-28 kg go'sht va 4-6 kg yog' qiladi. Axta qilingan takalarning go'sht chiqishi 50-55 foizga boradi. Echki



4-rasm

shoxidan turli byezakli buyumlar, tuyog'idan yelim tayyorlanadi.

So'ngi statistika ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda yer yuzida 380 mln. bosh echki boqiladi. Shunda 54 foizi Osiyo mamlakatlarida, 29 foizi Afrikada va qolgani Yevropada, Amerikada boqiladi.

Echkilarning sertivit zoti katta ahamiyatga ega. Bu zot asosan Volgograd, Orenburg, Rostov viloyatlarida, shuningdek, Boshqirdistonda, Buryatiya, Qirg'iziston, Qozog'istonda, Voronej, Pyenza, CHelyabinsk, Chita hamda Irkutsk viloyatlarida urchitiladi.

Mahsulot yo'nalishi. Echkilar asosiy mahsulotiga ko'ra: sersut, serjun, sertivit va dag'al junli qo'sh mahsuldor

bo'ladi.

Sersut echki zotlari (gorkiy, magrel va rus zoti) sobiq Rossiya va MDHda keng tarqalgan. Ular bir laktasiya davomida yog'liligi 3,5-4 foiz bo'lgan 450- 550 kg, ayrim ryekordchilari 1000 kg gacha sut beradi.

Dag'al junli serjun echki takasining tirik vazni 55-60 kg atrofida bo'ladi va 2-2,5 kg jun beradi. Urg'ochilarining vazni 35-45 kg va jun mikdori 1-1,5 kg atrofida bo'ladi. Ular tashqi muhit sharoitiga ancha chidamli bo'ladi.

Serjun va sertivit echkilar ko'plab turli minta qalarda boqiladi. Serjun echkilar Tojikiston, Turkmaniston, Qozog'iston va O'zbyekistonning Pop tumanida boqiladi

(4-rasm).

Respublikamizning Chsut tumanida boqilayotgan angor zot serjun va sertivit echkilar. Bu mintaqada asosan angor zot echkilar boqilib, ularning takalari 56 kg vaznga ega, yiliga uzunligi 32 sm keladigan 6 kg jun bersa, urg'ochilari 32 kg vaznli, u shu uzunlikdagi juni 3 kg keladi.

Sertivit echkilar ko'proq don havzasi va Orenburg viloyati xo'jaliklarida boqiladi. Har bir echkidan erta bahorda 400-600 g tivit tarab olinadi. So'nggi yillarda sertivit echkilarni respublikamiz sharoitida ko'paytirish va jaydari echkilar bilan qochirish ishlari olib borilmoqda.

Echkilarning serpushtligi zotiga ko'ra turlicha bo'ladi. Umuman, o'rtacha har 100 bosh urg'ochi echkidan 145- 150 ta uloq olinadi.

Hozirgi vaqtda echkilar asosan myehnatkashlarning yakka xo'jaliklarida, ularning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun boqiladi va bu ko'rsatgich qariyb 80 foizni tashkil etadi.

Respublikamizning barcha mintaq va viloyatlarida, ayniqsa tog', hamda tog' yaqinidagi xo'jaliklarda echkichilikni tashkil etish va jadal usudda rivojlantirish katta xalq xo'jalik ahamiyatiga ega.

Yaqin yillar ichida bunday muhim tadbirlarni amalga oshirish masalalari respublika Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi va bu sohaga oid mas'ul tashkilotlar hamda olimlar tomonidan bajariladi degan umidni bildirish mumkin.

Nazorat savollari

- 1.Echkichilikni xalq xo'jaligida qanday ahamiyati bor?
- 2.Echki sutini qahday ozuqa qiymati bor?
- 3.Echki go'shtini qanday to'impligi bor?
- 4.Echki junlarining qanday ahamiyati bor?

2.5. YILQICHILIK. OTLARINI XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

Ot uy hayvoni hisoblanib insonlar undan transport va xo'jalik ishlarida hamda sport o'yinlarida foydalanib keladilar. Bundan tashqari ot go'shti oziq ovqat mahsuloti sifatida iste'mol qilinadi. Insonga vafodor do'st hisoblangan otlarni bir zot qancha turlari bor.

Otlar asosan to'rtta kenja avlodga bo'linadi: haqiqiy otlar, eshaklar, qulonlar va zebralar. Bu kenja avlodlar bir-birlari bilan chatisha oladi va pushtsiz nasl beradi. Zebralar hozir xo'jalik ahamiyatiga ega emas, ularni ayrim hayvonot bog'larida yoki qo'riqxonalarda uchratish mumkin. Xususan O'zbekistonda qulonlar yuqolib ketgan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, ular qisman Mo'g'ilistonda va juda oz miqdorda Turkmanistonning janubida joylashgan Baddiz qo'riqxonasida saqlanib qolgan.

Otlarning biologik xususiyatlaridan eng muhimlari shundan iboratki, ularni yil davomida yaylovlarda boqish mumkin. Shuningdek, ular serharakat, kasalliklarga chidamli, tashqi muhit sharoitiga tez moslanuvchi bo'ladi. Ularning fiziologik yetiluvchanligi 12-15 oy bo'lib, buqozlik davri 11 oyni tashkil etadi. Ayrim hollarda

biyalarning zoti va individual xususiyatiga ko'ra buqozlik davri 330 kun 20 yil mobaynida foydalaniladi. Ayrim hollarda ularning yuqori sifatli, hayotchan vakillaridan 25-30 yil va undan ko'prok, foydalanish mumkin. Lekin biyalardan 6-15 yoshligida eng sifatli qulun olinadi.

Respublikamizning ayrim tumanlarida qishloq xo'jalik ishlarining bir qismi (qariyb 20%i) ot kuchi bilan bajariladi. Masalan, otlar aravaga qushilgan holda qishloq, xo'jalik mashinalariga yoqilg'i va suv tashib beradi, shuningdek, ildizmevalarga ishlov berishda, chorvachilikda ayrim transport yordamida bajariladigan ishlarni amalga oshirishda va boshqa bir kator ishlarni bajarishda yaqindan yordam beradi. Bundan tashqari, tog'li tumanlarda, ya'ni transport vositalari yura olmaydigan yerlarda otlar bemalol yuk tashish ishlarini bajara oladi. Yaylovda chupon va molboqarlar uchun otlar asosiy transport vositasi hisoblanadi.

Chegaralarni qurilashda, ayniqsa tog' va urmon hamda cho'l zonalarida otlar posbonlarimizning dusti, uzoq masofalarga olib borishda muhim transport vositasi hisoblanadi.

Sport o'yinlarida ham yilqilardan foydalanish yildan-yilga kengayib bormoqda. Ayniqsa Markaziy Osiyo va Qozog'iston davlatlarida birorta yirik an'ana yoki bayram otlar ishtirokisiz utmaydi. Bunga har yili turli otchoparlarda utkaziladigan unlab va yuzlab respublika, viloyat va tumanlar miqyosidagi musobaqalarni misolga keltirish mumkin. Dunyo bo'yicha utkaziladigan olimpiadalarda ham ot sportiga alohida e'tibor beriladi. Bu esa insonlar uchun ko'plab estetik zavq bag'ishlaydi.

Otlar o'zining turli xil mahsulotlari (go'sht, qimiz, teri va boshqalar) bilan katta xalq, xo'jalik ahamiyatiga ega. Masalan, qimiz aholining eng foydali va shifobaxsh ichimliklardan hisoblanadi. U bir qator kasalliklar (sil, ichak, oshk, ozon va boshqalar)ni davolashda salmoqli urin egallaydi. Hozirgi vaqtda qimiz ishlab chiqarish ayniqsa Qozog'iston davlatlarida, shuningdek, Tatariston, Yokutiya viloyatlarida yaxshi rivojlangan.

Qishloq xo'jaligi barcha tarmoqlari keng ko'lamda mexanizatsiyalashgan bo'lishiga qaramay otlarning hali ham ahamiyati bor (masalan, qimiz, parhyez go'sht yetishtirishda va boshqalar).

Ot go'shti o'zining to'yimlilik, kaloriyasi, mazasi va qiymati jihatidan ko'plab xalqlarning eng sevimli mahsuloti hisoblanadi. Ot go'shtidan ayrim xalqlar turli xil laziz mahsulotlar (qazi, karta, eg', quritilgan go'sht, konserva, kolbasa va boshqalar) hamda taomlar tayyorlaydilar. Bunday ajoyib, yuqori kaloriyali, to'yimli va mazali oziq ovqat tayyorlashda ot go'shti o'rnini boshqa biror hayvon go'shti bosa olmaydi. Ayrim mamlakatlarda ot go'shtiga bo'lgan talab yuqoriligi sababli u parranda va cho'chqa go'shtiga qaraganda ikki barobar yuqori narxda baholanadi.

Ot sporti - poyga, ko'pkari, ot o'yinlari va boshqalar uchun otlarning roli katta. Qishloq xo'jaligida mexanizatsiyaning tez rivojlanishi, uning zamonaviy texnika bilan ta'minlanishi hamda avtomobil transportining taraqqiyoti natijasida xo'jaliklarda yilqichilikka bo'lgan talab kamaydi. O'rta Osiyo xalqlari miloddan avvalgi bir necha asrlar ilgariyoq ot urchitish bilan shug'ullangan. Yetishtirilgan otlar O'rta Osiyodan tashqarida ham shuhrat topgan. Xitoy imperatorlari savdo sotiq va harbiy yurishlarda shu otlardan foydalangan. Xitoyga "dovon arg'umoqlari"ni

olib kelish maqsadida O'rta Osiyoga Xitoy harbiy ekspeditsiyasi uyushtirilgan. Hozirgi O'zbekiston va Turkmanistonda yetishtirilgan ajoyib otlar haqidagi ma'lumotlar Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn), Gerodot, Strabon va boshqalar solnomalarida uchraydi VII- asrda arablar, VIII- asr boshlarida mongollar O'rta Osiyoga bostirib kirib, otlarni haydab ketgan, o'zlarida yilqichilik bilan shug'ullangan. Mongollar cho'lda yashashga moslashgan mongol va qipchoq ot zotlarini yetishtirgan. O'rta Osiyo respublikalari o'zining chopqir otlari bilan mashhur. Axaltaka va yovmut ot zotlari, O'zbekistonda tarqalgan qorabayir ot zotlari shular jumlasidandir.

Respublikamiz mintaqalarining iqtisodiy, ishlab chiqarish va tabiiy-ekologik sharoitlariga, yilqilarning turli xil tiplari, mahsulot yo'nalishi va ulardan foydalanish usullariga qarab juda ko'plab zot va guruxlari yaratilgan.

Akademik A.F.Middendorf otlarning barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda ikkita katta guruxga - chopqir otlar, hamda o'rtacha tezlikda harakat qiluvchi otlarga bo'ladi.

Birinchi guruxga tez yuguradigan, tanasi ixcham, yengil, kichik aravalarga qushgan vaqtda uzoq masofani qisqa vaqt ichida bosib utadigan ot zotlari kiritilgan.

Ikkinchi guruxga esa sekin yuradigan, og'ip yuklarni torta oladigan, jussasi yirik otlar kiritilgan. Lekin bu klassifikatsiya shartli bo'lgani uchun otlardan foydalanishning barcha xususiyati va belgilarini uz ichiga tula qamrab olmagan. Binobarin, so'nggi yillarda ot zotlarining ko'payib borishi va ular tomonidan bajariladigan ish jarayoni va rejali olib borilishi, ularni tarqalishi, ishlab chiqarishda foydalanilishi, xo'jalik jihatidan yo'nalishi va boshqalar yilqi zotlarini yanada tor doirada takomillashtirishni toqozo kildi. Shunga ko'ra yuqoridagi ikki gurux, yana kichik yo'nalishlarga bo'linadi. Bunda salt miniladigan chopqir va serharakat ot zotlari birinchi guruxga kiritilgan bo'lsa, har xil aravalarga qushiladigan va og'ir yuklarni tortuvchi ot zotlari ikkinchi guruhga kiritildi.

Umuman, yilqichilikda asosiy mahsuloti (chopqirligi, aravaga qushgan holda foydalanish yoki og'ip yuk tortish xususiyati)ga qarab qabul qilingan yo'nalishlar qat'iy va uzgarmas bo'lmay, u shartli bo'lishi tabiiy. Chunki tanlash, mashq, qildirish, saralash va naslchilik ishlarini yuqori darajada olib borish natijasida ayrim guruxlar orasidagi farqlar ham uzgarib boradi.

Nazorat savollari

1. Yilqichilik otlari xalq xo'jaligida qanday ahamiyatga ega?
2. Otlarning biologik xususiyatlarini ayting.
3. Ot go'shtini qanday to'yimliliigi bor?
4. otlarning xususiyatlari bo'yicha qanday guruhlar bo'linadi?

2.6. OT ZOTLARI TASNIFI


Barcha ot zotlari uzlarining harakat darajasiga qarab odimlab, yurtib va yo'rg'alab yuradigan turlarga bo'linadi.

Odimlab yurganda otning to'rtala oyog'i galma-gal kutarilib, galma-gal tushadi. Bunda avval orqa oyog'ining biri, so'ngra shu tomondagi oldingi oyoq, keyin ikkinchi orqa oyoq, va uning ketidan shu tomondagi oldingi oyoq kutarilib oldinga tashlanadi. Bu usulda otlar sekin (soatiga 4-5 km tezliqia) harakat qiladi. Bunday harakat asosan og'ip yuk tortuvchi otlarda uchraydi.

Yurtib yurganda otlar diagonal bo'yicha ikki oyog'ini, masalan, oldingi ung oyog'i bilan ketingi chap oyog'ini, so'ngra oldingi chap oyogi bilan ketingi ung oyog'ini baravar kutarib, baravar yerga tashlaydi. Bunday harakat qiladigan otlar soatiga 10-12 km yul bosadi. Otchoparda yengil poyga aravasiga qushilganda chopqir yurtoqi otlar 1 km masofani bir-bir yarim minutda bosib utadi.

Yurg'alab yurgan otlarning harakat tezligi yurtib yuradigan otlarning tezligiga teng bo'ladi. Uzbeklar yurg'a ot deb, yurganda chopmasdan tez va tekis harakatda buluvchi otlarni aytishadi. Yurg'alab yurishni yurtishdan farqi shuki, bunda ot bir gal ung tomonidagi ikkala oyog'ini va ikkinchi safar chap tomonidagi ikkala oyog'ini baravar kutarib tashlaydi.

Salt miniladigan ot zotlariga asosan egarlab miniladigan otlar kiradi. Bu yo'nalishdagi otlar serharakat, chopqir, boshi yengil, suyaklari ingichka va ixcham bo'ladi. Ular yurtib yura olmaydi, lekin sakrab chopganda tez harakatlanadi, hozirgi vaqtda dunyo bo'yicha salt miniladigan otlarning arabi va toza qonli zotlari mavjud.



5-Rasm. Yovmut oti

Qorabayir zoti Markaziy Osiyo davlatlarida boqiladigan zot otlaridan ko'p jihatdan ustun turadi. Chopqirligi, chidamliligi, chiroyliligi va aravalarga qushgan vaqtda yaxshi ishlashi bilan ajralib turadi. Balandligi 152-154 sm. Yirikligi o'rtacha. Tuy to'riq, ko'k va jiyron. Qorabayir otlari O'zbekistonning barcha viloyat va tumanlarida uchraydi. Ayniqsa Jizzax, Samarkand viloyatlarida ko'p tarqalgan.


Chopqir ot zotlari. Bu yo'nalishdagi ot zotlari chopqirligi va yurg'alab tez yurishi bilan boshqa zotlardan farq qiladi. Bu yo'nalishdagi otlar don va budyonniy zoti, kistanay va novoqirg'iz kabi ot zotlari kiradi.

Don zoti asosan harbiy extiyojini qondirish maqsadida yetishtirilgan. Dastlabki vaqtda Don kazaklari uzlarining shaxsiy otlari ishtirokida harbiy xizmatlarini utar edilar. Binobarin, Don havzasidagi dasht sharoitida juda chidamli, yurg'alik xususiyati rivojlangan yilqi zoti vujudga keltirilgan. Don zotining vujudga keltirishda mahalliy biyalari Eron, Karabax, turkman, keyinroq orlov va sof qonli chopqir zot ayg'irlaridan qochirilgan. Zot vakillarining tanasi yirik, keng va kuchli, og'ir sharoitlarga yaxshi moslashgan. Bo'yi 156-159 sm, ko'krak aylanasi 185-187 sm pochasi 20-21 sm. To'q sarg'ish-tilla rang.


Budyonov zoti chopqirlik va uzoq masofani qisqa vaqt ichida bosib o'tishda

don zotidan ustun turadi. Bu zot vakillarining bo'yi 162- 163 sm, tanasining qiya uzunligi 164-168 sm, ko'kraging aylanasi 187-191 sm, pochasi 20-20,5 sm. Rangi sarg'ish targ'il, qora va tilla rang.


Og'ir yuk tortuvchi ot zotlarini vakillari yirik vaznli, temperamenti yuqori juda og'ip yuk tortishga moslashgan. Masalan, «Mudriy» laqabli ayg'iri 8 yoshligida 13870 kg yukni, «Legion» laqabli ayg'ir esa 16400 kg yukni tortgan Bu zot otlarning bo'yi 157-161 sm tanasining qiya uzunligi 162-165 sm, ko'kraging aylana uzunligi 183-196 sm, pochasing aylanasi 23-24 sm. Rangi qora, oyog'ining pastki qismi va bo'rnining usti ok, jun bilan qoplangan. Ba'zan kul rang, tim qora va targ'il bo'ladi.



6-Rasm. Arabi ot.



7-Rasm. Axaltaka oti.



8-Rasm. Kumush ot zoti.

Yovmut oti salt miniladigan jaydari ot zoti. Bulib uni Yovmut qabilasi yetishtirgan, bu zotning kelib chiqishida arab, mo'g'ul, qozoq va axaltaka ot zotlarining ham ta'siri bo'lgan, shu ot zotlariga xos belgilar yovmut otlarida saqlanib qolgan (5-rasm). Yovmut otlari o'rta bo'yli, peshonasi keng, bo'yni uzun, ko'pincha yo'g'on; qarchig'ayining balandligi o'rtacha, bel qismi tekis, sag'risi o'rtacha uzunliqia, ko'krak qismi cho'ziq, o'rtacha kengliqia. Yovmut otlari asosan, kul rang, to'riq, jiyron yoki qoracha bo'ladi. Yovmut otlari gavda tuzilishining o'rtacha o'lchamlari qo'yidagicha: Yovmut otlari issiqqa chidamli, aravaga qo'shib ham ishlatiladi, Turkmanistonda chopqir otlardan sanaladi. Yovmut otlari Turkmanistonning Toshhovuz oblastida, Eropdz urchitiladi. O'zbekistonda Xorazm viloyatida bor.

Arabi ot otning salt miniladigan qadimiy zoti (6-rasm); vatani - Arabiston arab ot Turkman, Eron va Misr sahro otlari bilan urchitish natijasida takomillasha borgan. U cho'l sharoitiga yaxshi moslashgan, ochlik va suvsizlikka chidamli, uzoq masofaga yaxshi yuguradi. Arabi otlari juda chiroyli, tusi bo'z, to'riq, sherozi (kul rang) yoki jigar rang. Uning dunyodagi eng mashhur ot zotlarini, xususan Angliyaning chopqir otlari, Orlov yo'rg'asi va Terek otlarini yetishtirishda va takomillashtirishda juda katta hissi bor. Arabi otlarining nasldor ayg'irlari Arabi otlarining qarchig'ayigacha balandligi 150sm, ko'krak qafasining aylanasi 175 sm, kaft suyaginiki

18,2sm.

Axaltaka oti - salt miniladigan qadimiy ot zotlaridan biri bo'lib, Janubiy Turkmanistondagi Axaltaka vohasida yashagan turkmanlarning taqa qabilasi urchitib yetishtirgan (7-Rasm). Axaltaka otlarining ko'kragi bir oz torroq, orqa tomoni, beli cho'ziqroq, oyoqlari juda qotma, tuyey ko'pincha ko'q to'riq yoki qora. Axaltaka otlari chopqir otlardan. Axaltaka otlari qarchig'ayining yerdan balandligi 157 sm. U cho'l va chala cho'l iqlimiga moslashgan. Asosan Turkmaniston va Qozog'istonda urchitiladi.

Kumush ot zotlari - salt miniladigan va aravaga qo'shiladigan ot zotlari (8-Rasm). Bo'lib u Qozog'istonda qozoqi ot biyalarini chopqir, salt miniladigan don ayg'irlari bilan chatishtirib yetishtirilgan. Tana tuzilishi boshi katta; bo'yi o'rtacha uzun; sag'risi keng; qarchig'ayi go'shtdor, balandligi o'rtacha, orqasi keng, to'g'ri, oyog'i baquvvat. Ayg'irlarining gavda uzunligi o'rtacha 206sm, qarchig'ayi yerdan 159,4sm, biyalarining gavadasi 190,2sm, qarchig'ayi 153,8sm. O'rtacha vazni 470kg.

Nazorat savollari

1. ot zotlari haqida ayting.
2. Chopqir otlarni qanday zotlari bor?
3. Yovmut ,arabi, axaltaka ot zotlarini ayting.
4. Kumush ot zotlari haqida ayting.

2.7.YILQICHILIK FERMALARIDADA OTLARNI PARVARISH QILISH



9-rasm. Go'sht uchun boqilgan ayg'irning umumiy ko'rinishi.

Yilqichilik chorvachilikning muxim sohasi hisoblanadi. Yilqichilik fermasi ot urchitish (ko'paytirish) va yangi zotlar yetishtirish bilan shug'ullanadigan ferma bo'lib u asosan, jamoalarda shuningdek ot zavodlarida tashkil etiladi. Paxtachilik xo'jaliklarida otlar boshqa chorva mollari bilan birga boqiladi. 20 dan ortiq yilqisi bo'lgan xo'jaliklarda yilqichilik fermasi tuziladi .

O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Yokutiya va Boshqirdiston aholisi ot go'shtini ko'proq iste'mol qilishga moslashgan xalq hisoblanadi. Bu respublikalarda go'sht uchun boqiladigan otlar yil mobaynida

asosan yaylovlarda boqiladi va parvarish qilinadi. Ot go'shti o'zining kimyoviy tarkibiga ko'ra turli mineral moddalarga boy va to'yimliliigi jihatidan yuqori bo'ladi

Toy go'shti mayin, sersuv, hidsiz va kaloriyasi ancha yuqori (2700 kkal) bo'lishi bilan farq qiladi. Otlarning yoshi oshgan sari go'shti ham chayirlashib, dag'allashib boradi, sifati esa pasayadi (9-Rasm). Yaxshi semirgan ot-lardan go'sht chiqishi- 60 foiz, o'rtacha semizliqiagi otlarda 48--52 foiz, va oriq, vakillarida 45-48 foiz bo'ladi. Terisi tana og'irligining 5-6,5 foizini tashkil qiladi. Yaxshi boqilgan otlar sutkasiga 0,6 dan 1 kg gacha (ba'zan o'rtacha 1300 g) semiradi.

Biyalar 5-7 oy (laktasiya) davomida 1300-3000 kg sut beradi. Qozoqi va boshqir zot biyalar sersut hisoblanib, tuqanidan so'ng 2-3 oy mobaynida sutkasiga o'rtacha 10-15 kg dan, ayrimlari esa 20-25 kg gacha sut beradi. Biyalarning sersutligi laktasiyaning birinchi oyida yuqori bo'ladi va 4-5 oyligiga; qadar pasayib boradi. Tuqaniga 6 oy bo'lgan biyalarda u bug'ozligi sababli sut berishi ancha past bo'ladi. Odatda biyalar 7-10 yoshligida sersut bo'ladi va keyinchalik sutdorligi pasayib boradi. Biyalarning yelini kichik bo'lgani bilan 1,5-3 kg sut bo'ladi, shunga ko'ra laktasiyasining dastlabki oylarida ularni har 2-3 soatda, keyin esa 3-3,5 soat oralab va laktasiyasining so'nggi oylarida har 4-6 soatda cog'ib turiladi. Biya sutining kimyoviy tarkibi boshqa chorva mollarnikiga qaraganda farq qiladi. Masalan, uning tarkibida 6,3 foiz sut qandi, 1,7-2,2 foiz oqsil, 1,6- 2,2 foiz yog', 0,3-0,33 foiz mineral moddalar va ko'p miqdorda vitaminlar xamda fermentlar bo'ladi. Kislotalilik darajasi 6-9°. Biya sutida qand moddasi ko'p bo'lganligi tufayli undan eng qimmatli ichimlik hisoblangan qimiz tayyorlanadi.

Qimiz o'zining mazasiga ko'ra bir oz nordon bo'lgani holda u maxsus achitqitomizg'i yordamida tayyorlanadi. Tayyorlanadigan qimizning sifati yuqori darajada bo'lishida tomizg'ining roli kattadir. Tomizg'i biya sutining achish jarayonida tayyorlanishi xam mumkin..Ba'zan oldindan tayyorlab qo'yilgan tomizg'ilardan foydalaniladi. Sog'ib olingan biya sutiga ma'lum miqdorda tomizg'i solinib bir sutka atrofida issiq yerda saqlanadi va vaqti-vaqti bilan aralashtirilib turiladi. Biya suti taxminan 3-4 kun davomida achishi mumkin, so'ngra uni yana aralashtirgan holda salqin yerda saqlanadi. Qimiz odamlarning ovqat hazm qilish faoliyatini yaxshilaydi, nerv sistemasini me'yorlashtiriladi, organizm quvvatini oshiradi, upka, ichak va oshqozon kasalliklarini davolashda muhim va shifobaxsh ichimlik hisoblanadi.

Otlar va ularni boqish biologik xususiyatlariga ko'ra boshqa turdagi chorva mollaridan farq qiladi. Masalan, ularning osh-qozoni sodda tuzilishiga ega bo'lishi bilan xajmi jihatidan qoramolnikiga qaraganda 7-8 marta kichiqiir. Otlarning ichaklari xam ancha kalta bo'ladi. Shunga ko'ra otlarning asosiy ozig'i beda, pichan, yem, kunjara, sersuv va shirali oziqlar hisoblanadi. Osh tuzi esa ular istaganicha beriladi.

Otlarga kechqurun ko'proq dag'al oziq beriladi. Yem sutkasiga turt barobar miqdorda berilishi ma'qul. Oziqlantirishda oldin dag'al oziq, so'ng yem va yana dag'al oziq beriladi. Sutkasiga 3-4 marta sug'oriladi. Terlab turgan otlarni bir oz dam olib bulgach, sug'orish mumkin.

Ayg'irlar rasioniga biyalarni qochirish davrida 5 kg sut, 3-5 dona tuxum, 0,-03

kg go'sht-suyak unini kiritish tavsiya qilinadi. Agar ayg'irning tirik vazni 500 kg atrofida bo'lsa, u holda unga sutkasiga 6-8 kg beda pichani, 6 kg yem yoki omixta oziq berish ma'qul kuriladi. Ayrim vaktlarda 500-600 g don maysasi berish ham foydalidir. Yoz oylarida beda pichani o'rniga 15-25 kg atrofida yangi urib keltirilgan kuk beda berish mumkin. Qochirish kampaniyasi tugagach, ularning rasionidan sut, go'sht-suyak uni va tuxum chiqarib tashlanadi va 3 kg atrofida silos berib turiladi.

Bug'oz va emizikli biyalarni boqish. uchun dastlab ularning tirik vazni, yoshi, oriq-semizligi va fiziologik holati xisobga olinadi. Bunda ularning 100 kg tirik vazni hisobiga o'rtacha 2-3 kg beda pichani, 0-0,8 kg omixta yem, 40% suli, 35% arpa, 25% makkajo'xori, 0,1-0,2 kg kunjara, 1-1,5 kg sabzi yoki xashaki lavlagi, 0,5-1 kg silos berish foydali hisoblanadi.

Bug'oz biyalarga bug'ozligining so'ngi oyida silos va beda pichani berilmaydi, xashak va sersuv oziq miqdori bir oz kamaytiriladi. Uni hisobiga 30-60 g dan sutkasiga bo'r va boshqa mineral qo'shimchalar beriladi. Sovuq suv ichirish man etiladi. Ochiq havoda yayratib turiladi.

Yosh ayg'ir va biyalar 12-18 oyligida jinsiy balog'atga yetishadi. Lekin bu vaqtda ularni urchitish yoki ana shu maqsadda foydalanish mutlaqo yaramaydi. Aks holda, ular o'sishdan to'xtaydi, nimjon va kichik vaznli qulun beradi. Shularni hisobga olgan holda biyalar va ayg'irlar uch yoshga to'lguncha urchitishga qo'yilmaydi. Otlardan 20 yil va undan uzoq vaqt qulun olish mumkin.


Qulunlagan biyalar 8-10 kun deganda va ba'zan kechroq kuyukadi, bu jarayon 5-7 kun (hatto 2-12 kun) davom etadi. Agar biya ana shu davrda qochirilmasa, bu xususiyat 20-23 kundan so'ng yana takrorlanadi. Bu asosan ularning oriq-semizligi, zoti, yetiluvchanligi, boqish usuli va fiziologik holatiga bog'liq bo'ladi.

Yilqichiliqia nasldor otlar yetishtirish va tarqatish korxonalari, ippodromlar

hamda qishloq xo'jaligi yilqichilik fermalari ot zotlarini yaxshilash ustida ish olib boradi Bu joylarda har ikkala zotni chatishtirib, yangi zotlar yetishtirilmoqda.

Yilqichiliqia biyalarni sun'iy, qulda va yaylovda kochirish usullaridan foydalaniladi. Sun'iy usulda mavsum davomida bitta ayg'ir urutidan 150-300 ta biyani qochirish mumkin. Qulda qochirilganda 4 yoshdan kichik bo'lmagan bir ayg'ir bilan 50 ta biyani qochirish mumkin. Yaylovda (poda sharoitida) 25-40 biya uchun bir ayog'ir yetarlidir.

Biyalarning bug'ozlik davri 11 oy (310-360 kun) davom etadi. Biyalar tug'ishiga 10-15 kun qolganda, ular ut pichani tushalgan maxsus xonalarga olinadi. Tug'ishiga yaqin biyaning yelini



11-rasm. Bir o'rkachli dromedar urg'ochi tuya.

kattalashadi va surg'ichlari sutga tulgan holda biroz kattalashadi. Biyalar me'yor holda tug'sa, insonning yordami talab etilmaydi. Bunda qulunning kindigi uzilmay qolsa, uni qornidan 5-6 sm qoldirib qaychi bilan kesiladi va yod surkab qo'yiladi. Og'iz, bo'rni va quloklari toza sochiq bilan yaxshilab artiladi va onasiga yalash uchun qo'yiladi. Qulun oyoqqa turgach onasini emishi uchun ayrimhollarda yordam berish talab etiladi. Oradan 1-1,5 soat vaqt utgach biyalarga ilik, suv va sifatli beda pichani beriladi. 4-5 soatdan so'ng yorma dondan tayyorlangan atala berish tavsiya etiladi. Biyalar 6-7 kundan so'ng umumiy rasionga o'tkaziladi.

Qulunlar 5-6 oy mobaynida onalari bilan birga boqiladi. Birinchi oyda ona suti yetarli hisoblanadi. Ularni ko'proq onalari bilan toza havoda yayratish foydali. Bir yarim oylik qulunlarni ut va pichan yedirishga asta-sekin o'rgatila boshlanadi. Sung kuniga 100-200 g dan yorma don berish mumkin. Sutdan ajratish davri yaqinlashgach, qulunlarga 2-3 kg yem, ko'proq beda pichani va sabzi kabi oziqlar beriladi. Qulunlar sutdan 9-10 oyligida, ba'zan 11 oyligida ajratiladi va ularni (8-10 ta dan) gurux,-lab alohayeda saqianadi. Bir-ikki yoshli kulunlarga sutkasiga 4-5 kg beda pichani, 3-5 kg somon, 2-4 kg yem, 2-4 kg sersuv va shirali oziq beriladi. Shuningdek, osh tuzi, bo'r, suyak uni ham berib turiladi. Ular sutkasiga 3-4 marta oziqlantiriladi. Ular turgan joy ma'lum vaqtda tozalanib turiladi. Qulunlar yaxshi parvarish qilinsa, ulardan yetiladigan ayg'ir yoki biyalar yuqori ko'rsatgichlarga ega, sermahsul, sog'lom va yirik bo'ladi.

Ma'lumki, yilqilar asosan yaylovlarda boqiladi va ko'paytiriladi. Binobarin, respublikamizning tabiiy yaylovlari oz bo'lganligi uchun otlar podasi, ko'prok, tog'li zonalarda ko'paytiriladi.

O'zbekistonda yilqilardan asosan uch xil maqsad uchun, ya'ni sport ishlarida, go'sht va qimiz yo'nalishida foydalaniladi. Keyingi yillarda bir qator viloyatlarda, jumladan Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Jizzax, Sirdaryo va Qoraqalpog'iston Respublikasida yilqilarni ko'paytirish tadbirlari ko'rilmogda.

Hozirgi vaqtda respublikamizda yilqichilikni rivojlantirishga katta ahamiyat berilyapti. Ayniksa ko'p miqdorda sifatli go'sht va qimiz yetishtirishda bu tarmoqda katta burilishlar bo'lmog'i lozim. Yilqilarning mahsuldorligini oshirish, biyalardan ko'proq, kulun olish, ularning naslini yaxshilash ishlarini yuqori darajaga kutarishda ancha sayi harakatlar bklmogda. Respublikamizda har 100 bosh biyadan. har 100 bosh biyadan 85-95 tadan qulun olayotgan xo'jaliklar soni oz emas. O'zbekiston yilqichiligi qorabayir va yo'rtoqi zot otlarini yaxshilash bilan shug'ullanmogda, yo'rtoqi ot duragaylari qorabayirlarga qaraganda yirik va chidamli.

Chorvachilikning salmoqli tarmoqlaridan biri bo'lgan yilqichilikni rivojlantirish, ulardan ko'p miqdorda sifatli va arzon mahsulot olish muhim xalq xo'jalik ahamiyatiga egadir. Shunga ko'ra bu sohada imkoni bo'lgan xo'jaliklar mavjud rezervlardan unumli foydalangan holda yilqichilikni rivojlantirish ishlari asosiy vazifa bo'lib qoladi.


Nazorat savollari:

1. Yilqichilikning ahamiyati to'g'risida suzlab bering.

2. Otlarning qanday biologik xususiyatlarini bilasiz?
3. Ot zotlarining klassifikatsiyasi to'g'risida tushuncha bering.
4. Ot zotlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
5. Otlarning go'sht va sut mahsuldorligi to'g'risida suzlang.
6. Biyalarning sut mahsuldorligi va sutining kimyoviy tarkibi to'g'risida tushuncha bering.
7. Otlarni boqish va parvarishlash qanday olib boriladi?
8. Bug'oz va emizikli biyalar qanday boqiladi?
9. Qulun ustirish to'g'risida nimalarni bilasiz?

2.8. TUYA CHORVACHILIGINING FAOLIYATI HAQIDA.

Tuyasimonlar (Camelidae) - qadoq oyoqlilar kenja turkumiga mansub sut emizuvchilar oilasi. Bo'yi 70-210s, shoxsiz ustki labi ikkiga bo'lingan. Yestiqsimon qadoqli oyoqlari 2 barmoqli (3 va 4-si rivojlangan), kaft hamda panja suyaklari shu barmoqlar suyagi bilan qo'shilib ketgan. Sut emizuvchilardan faqat tuyasimon qonidagi qizil qon tanachalari oval shaklda. 2 urug'i mavjud; tuya va lamalar. Yovvoyi holda guanako, vikunya, ikki o'rkachli tuya uchraydi. Tuyasimonlar Osiyo, Afrika, Yevropa va Janubiy Amerikada ko'paytirilmoqda.



10-Rasm. Tuya

Tuya (Can:elus) - tuyasimonlar oilasiga mansub juft tuyokli hayvon 2 turi; bir o'rkachli va ikki o'rkachli tuyalar bor (10-rasm). Bir o'rkachli tuya (dromedar)lar bo'yi 210sm gacha, qizg'ish-kul rang, ikki o'rkachli (bakterian)lari pastroq, to'q qo'ng'ir yovvoyi holda yashaydigan ikki o'rkachli tuyalar Osiyoda saqlanib qolgan tuyalar evolyusiyasi jarayonida quruq cho'l va dashtlarda yashashga moslashgan, tog'li tumanlar va nam iqlimli yerlarda yashay olmaydi (10-rasm). Ular cho'l va dashtlardagi boshqa hayvonlar yemaydigan o'tlarni yeydi, suvni kam ichadi (sho'r suvni ham ichaveradi). Yuqorigi jag'ida 2 ta ko'rak tishi borligi bilan boshqa kavsh qaytaruvchilardan farq qilali. Yetganda gavdasining yerga tegib turadigan qismlarida, ko'kragi, tirsagi va tizzasida kadoqli tuzilmalar bor. Shu tufayli issiq (700 gacha qizigan) yerda ham yota oladi. Tuya eramizdan 2000 yil ilgari xonakilashtirilgan. Katta yoshdagi tuyaning og'irligi 500-800kg. 2-3 yoshida jinsiy yetiladi, urg'ochilari 3-4 yoshda qochiriladi. Bir o'rkachli tuyaning bo'g'ozlik davri 13 oy, ikki o'rkachlilarniki 14 oy. Tuya 2 yilda bir marta bo'talaydi. Yangi tug'ilgan bo'taloq juda nozik bo'lib, muntazam qarovni talab qiladi, onasini 18 oygacha emadi. Tuya tirik vazniga nisbatan 10-12% og'irlikda yuk ko'taradi. Soatiga 10-12km yo'l bosadi. Cho'l va sahrolarda juda qo'l keladi. Tuyadan sut, go'sht, jun olinadi; sutidan qimiz, yog', pishloq tayyorlanadi. Bir o'rkachlilari 2000kg, ikki o'rkachlilari 750kg gacha sut beradi. Sutining yog'likligi

4,5-5,4%. Yosh, semiz tuyalar go'shti to'yimliliği jihatidan qoramol go'shtidan kolishmaydi. Tuya junida 85% gacha tivit bo'ladi. Junidan mayin materiallar, yuqori sifatli trikotaj, adyol va boshqalar tayyorlanadi. Ikki o'rkachli tuyalardan 5-10kg, bir o'rkachlilaridan 2-4kg jun qirqib olinadi. Tuya 35-40 yil yashaydi.

Tuyalar o'zlarining biologik xususiyatlariga ko'ra barcha turdagi chorva mollaridan farq qiladigan, asosan suvsiz dasht va saxrolar zonasiga tarqalgan hayvon hisoblanadi.

Tuyalar asosan Markaziy Osiyo respublikalarida, xususan ko'p yerlarda qorakulchilikda foydalaniladigan qimmatli ish hayvonidir. Tuyalar shuningdek, Qozog'iston va Qalmik, ulkasida, Volgograd cho'llarida hamda ozroq bulsada Ozarbayjon, Saratov, Barbiy Sibir, Orenburg, Rostov, Krasnodar ulkasida, Chita viloyatida hm uchrab turadi.

Ko'p joylarda tuyalardan transport vositasi sifatida foydalanilsa, ularning yana qimmatli tomoni ma'lum miqdorda go'sht, jun va sut yetishtirib berishdan iboratdir.

Tuyasimonlar oilasi ikkita avlodga, ya'ni tuyalar va lamalar avlodiga bo'linadi. Lamalarning gavdasi birmuncha kichikroq bulib, o'rkachining bo'lmasligi bilan tuyalardan farq qiladi. Lamalar kuproq Janubiy Amerikaning tog' zonalarida uchraydi, tuyalar bilan chatishmaydi.

Tuyalar avlodi esa o'z navbatida ikkita mustaqil turga: bir o'rkachli - dromedar va ikki o'rkachli - bakterian tuyalarga bo'linadi. Ular o'zaro chatishadi va urchishga qobiliyatli duragaylar beradi. Lekin ular tog' va zax yerlarda yashay olmaydi (11-rasm).

Umuman, kishlok, xo'jalik hayvonlari ichida birorta hayvon turi yuqki ular tuyalardek cho'l, dasht va sahro sharoitiga nihoyatda yaxshi moslashgan bo'lsin. Ularning bunday murakkab ekologik sharoitga moslanishini asosiy omillari qo'yidagilardan iborat:

- tuyalar cho'l, dasht va sahrolardagi boshqa tur hayvon yeyaolmaydigan tikanli, juda siyrak, sho'r o'simliklarni bemalol iste'mol qila olishi va ularni yaxshi o'zlashtira olishi;

- cho'l va sahrolardagi sho'r va sho'rtaxir suvlarni bemalol icha olishi, shuningdek, suvsiz bir necha kunlab hayot kechira olishi;

- cho'lning o'ta kontinental (ya'ni yozi o'rtacha 50°C issiq, qishi o'rtacha-27°C sovuq) bo'lgan sharoitiga yaxshi moslasha olganligi;

- tuyalar yo'lsiz, notekis, qumloq yerlarda soatiga o'rtacha (yuksiz yoki yengil yuki bo'lgani holda) 8-9 km masofa bosa olishi;

- tuyalar turli ob-havo sharoitida ham yuki bilan kuniga 50-60 km, sutkasiga 170-180 km masofani bosa olishi;


- tuyalar boshqd tur hayvon yura olmaydigan qum barxanlari oralab, 240-320 kg yuk ko'targan holda bemalol harakat qila olishi; uzoq masofaga otlangan tuyalarni kecha-yu-kunduz harakat qilishi va ularga har 60-65 km masofadan so'ng qisqa vaqtli dam olib yana o'z yurishini davom ettira olishi shular jumlasidandir.

Tuyalarning bunday ajoyib xususiyatlaridan qadimgi zamonlarda minglab savdogarlar o'z yuklarini bir davlatdan ikkinchi davlatga olib borib sotishda foydalanganlar. Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, har bir tuya o'rtacha 200-250

kg yukni bemalol uzoq masofaga olib bora oladi. Ayrim hollarda yirik, baquvvat erkak tuyalar 400-500 kg va hatto 700 kg yukni ko'tarib harakat qilganligi ko'plab kuzatilgan. Tajriba tariqasida Orol dengizi yaqinidagi Chelkar tumanida yirik erkak bakterian tuyaning bir o'zi 1300 kg yukni olib borayotganligi ko'plab odamlarni qoyil qoldirganligi adabiyotlardan ma'lum.

Tuyalar ham boshqa turdagi chorva hayvonlari kabi xalq xo'jaligida salmoqli o'rin egallaydi. Ular yuqorida qayd qilib o'tilganidek, suvsiz dasht va sahro zonalarida ish xayvoni bo'lishi bilan birga tuyalardan go'sht, sut, jun va teri mahsuloti olinadi. Ma'lumotlarga qaraganda, Rossiyaning barcha dasht va cho'l zonalarida 240 mingga yaqin tuya bo'lib, ularning 34 foizi dromedar, 44 foizi bakterian va 22 foizi duragay tuyalar hisoblanadi. Aytib o'tilganidek tuyalar yil mobaynida dasht va sahro yaylovlaridagi o't, yantoq kabi o'simliklar bilan oziqlanadi. Ularga faqat og'ir sharoitda va qochirish mavsumidagina qo'ldan pichan va yem beriladi.

Tuyalarning go'shti sifatiga ko'ra qoramol go'shtidan pastroq baholanadi. Go'sht chiqishi o'rtacha 50 foiz atrofida bo'ladi. Bir o'rkachli tuyalar asosan Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekistonning shimolida, Qalmiq, va Tuva viloyatida, hamda Volgograd, Astraxan, Chita viloyatlarida uchraydi. Mutaxassislarning ko'rsatmasiga ko'ra tuyalar Qalmiq, Qozoqi va Mutil zotlariga bo'linadi. Bu zotlarning ichida eng yirigi qalmiq zoti hisoblanib, erkaklari 770 kg,



12-rasm. Ikki o'rkachli bakterian erkak tuya.

urg'ochilari 680 kg keladi. Bir o'rkachli tuyalar ikki o'rkachlilarga qaraganda birmuncha sersut bo'ladilar. Binobarin, ulardan yil davomida yog'dorligi 4,5 foiz bo'lgan 1000-1100 kg sut cog'ib olinadi. Ikki o'rkachli tuyalardan esa yog'dorligi 5,4 foiz bo'lgan 750-800 kg gacha sut sog'ib olinadi.

Tuya suti o'zining shifobaxsh va mazali bo'lishi bilan biya sutidan qolishmaydi. Qimiz tayyorlash texnologiyasi kabi tuya suti achitqichlar yordamida ishlanadi va qisqa vaqt ichida nihoyat ajoyib ichimlik olinadi. Bu ichimlik qozoq tilida «shubat», turkman tilida «chal» deb nomlanadi.

Umuman qozoq va turkman xalqlarini tuya sutiga bo'lgan extiyoji ancha yuqoridir. Tuyalar sutkasiga 2-4 marta sog'iladi va xar sog'ishda ularning yoshi, vazni va boshqa xususiyatlariga ko'ra 0,5-1,0 l sut cog'ib olinadi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda tuyalar orasida nihoyatda sersut vakillari ham uchrab turadi va ular sutkasiga o'rtacha 13-15 l sut beradi, sutidagi yog'i 5-6 foizni tashkil qiladi.

Tuyalarning jun mahsuldorligi xam o'ziga xos ko'rsatgichga ega. Bunda ikki o'rkachli tuyalar serjun bo'lgani holda, ulardan yiliga 5-10 kg, ayrim hollarda 12 kg

gacha jun qirqib olinadi. Bir o'rkachlilaridan o'rtacha 2-4 kg atrofida jun olinadi. Jun qirqimi asosan aprel oyida o'tkaziladi.

Ikki o'rkachli tuyalarning juni birmuncha sifatli hisoblanib, uning tarkibida deyarli 85 foiz tivit bo'ladi. Shuning uchun ham bunday jun yuqori darajada baholanadi. Tuya junidan turli xil junli kiyimlar, trikotaj, odevallar tayyorlanadi. Shuningdek, sifatli jundan paypoq qulqop va ro'mollar ishlab chiqariladi. Erkak tuyalarning jun miqdori urg'ochilarinikiga qaraganda birmuncha kuproqdir (12-rasm).

Tuyalar boshqa hayvonlarga nisbatan kech yetiluvchan hayvon hisoblanadi. Ular 2,5-3 yoshligida jinsiy balog'atga yetadi. Bu davrda erkak tuyalarni urg'ochilaridan ajratib qo'yish talab etiladi. Aks holda ular juftlashib o'sish va rivojlanishdan to'xtaydi. Shunga ko'ra urg'ochi tuyalar birinchi marta juftlashishda 3-4 yoshligida, erkaklari esa 4-5 yoshligida qo'yiladi.

Tuyalardan asosan 20 yoshgacha foydalanish mumkin. Sung ularning tishlari yedirila boshlaydi va yem-xashakni hazm kilish xususiyati pasayadi. Binobarin, bunda tuyalar semirtirilib guppta topshiriladi. Lekin qarib qolgan tuyalarning go'shti chayir va latal bo'ladi.

Tuyalarning bug'ozlik davri har xil bo'ladi. Masalan, dromedar tuyalarda bu davr 13 oy davom etsa, ' bakterianlarda esa 14 oyga boradi. Butaloqdari onalarini 18 oyligiga qadar emadi. Har bir tuya asosan bitta va kamdan-kam ikkita tug'adi.

Tuyalarni qochirish asosan iki xil usulda - qulda va uyurda amalga oshiriladi. Qulda qochirilganda bir erkak tuyaga 25 urg'ochi, uyurda esa 15-20 urg'ochisi rejalashtiriladi. Erkak tuya sutkasiga faqat bitta urg'ochi tuyani qochirishi mumkin.



13-rasm. Bir o'rkachli dromedar tuyaning 1,5 yoshli bo'talog'i.

Bakterian tuyalar asosan qulda. dromedari esa uyurda qochiriladi. Duragay nasl olish maqsadida tuyalarni qulda qochirish talab etiladi.

Butaloq ustirish. Butaloqlar odatda 35-65 kg vaznda tug'iladi. Agar havo sovuq bulsa tug'ilgan butaloqlar issik xonaga olinadi va sutkasiga 5-6 marta onasini yoniga keltirib emizdiriladi. Butaloqlar usib, rivojlanib borgan sari yem-pichanga o'rgatila boriladi. Ular ikki yoshga yetganda 400 kg vaznga ega bo'ladi. Bunda ularga sutkasiga 10-12 kg pichan va 1 kg yem berish talab etiladi (13-rasm).

Butaloqlar 2-3 yoshligidan qulga o'rgatila boshlanadi. Bunda ovoz chiqarib utirish va turish mashqlari utkaziladi. Besh yoshga yetganda ulardan tula holda foydalanish mumkin. Shunday kilib, yoshligidan qulga

o'rgatilgan tuyalar ancha yuvvosh va buyruqni uz vaqtida bajaradigan bo'ladi. Bunday tualardan xo'jalik va ishlab-chiqarish ishlarida foydalanish imkoni vujudga keladi.

Tuyachilik chorvachilikning tuya naslini ko'paytirish va ulardan foydalanish bilan shug'ullanuvchi tarmog'idir. Tuyachilik cho'l va quruq dasht zonalarda taraqqiy etgan. Issiq iqlimga moslashgan bir o'rkachli tuyalar (dromedarlar) Turkmaniston, Tojikiston, O'zbekistonda; sovuqqa chidamli ikki o'rkachli tuyalar (bakteriailar) Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekistonning shimoli, Tuva, Astraxan, Volgograd va Chita viloyatlarida urchitiladi. Ikki o'rkachli qalmoqi, qozoqi va mongol, bir o'rkachli arvana zot tuya boqiladi. Qalmoqi zot tuyalar yirik va baquvvat, arvana zoti esa hammasidan sersut. Bir o'rkachli va ikki o'rkachli tuyalar duragayi ko'p tarqalgan, ular yirik kuchli va chidamli. Birinchi bo'g'in duragaylar bir-biri bilan chatishtirilmaydi, chunki ular yaxshi nasl bermaydi. Erkak tuyalar axta qilinadi, urg'ochilari qochiriladi. Ikki o'rkachli tuyalar bilan chatishtirishdan olingan duragaylar ikki o'rkachli, bir o'rkachli bilan chatishtirishdan olingan duragay (jun tuya)lar esa bir o'rkachli bo'ladi. Birinchi erkak duragaylar nor tuya, urg'ochilari nor moya deb nomlangan, Tuya yil bo'yi yaylovda boqiladi.

Nazorat savollari:

1. Tuya biologiyasining o'ziga xosligi to'g'risida suzlab bering.
2. Tualarning xalq xo'jalik ahamiyati to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Tualarning mahsuldorligi to'g'risida tushuncha bering.
4. Tualarning yetiluvchanligi to'g'risida so'zlang.
5. Tuya butalog'ini ustirish va parvarishlash to'g'risida nimalarni bilasiz?

2.9. QORAMOLCHILIK CHORVACHILIGI FERMALARI HAQIDA

Qoramolchilik fermasi sutchilik va yosh mollarni parvarishlash brigadalaridan tashkil topadi. Hozir chorvachilikni ixtisoslashtirish va konsentrasiyalash asosida to'liq mexanizasiyalashtirilgan fermalar - komplekslar tashkil etilmoqda.

Qoramolchilik fermalarida 200 - 600 sigir, 600 - 1500 buzoq va yosh mollar boqiladi. Podada sigirlar soni 27 - 40 ta bo'ladi. Sutchilik komplekslari 400 - 1200 sigirga mo'ljallangan, ularda sigirlar va 10 - 20 kunlik buzoqlar saqlanadi.

G'unajinchilik komplekslari (5-6 ming bosh) nasldor urg'ochi buzoqlar 10-20 kunligidan 22-26 oyligigacha parvarish qilinadi. Bu komplekslardan g'unajinlar tuqqandan keyin yoki tug'ishiga 2-3 oy qolganda sutchilik komplekslariga o'tkaziladi. Go'shtchilik komplekslarida erkak buzoqlar (10 ming bosh) 10-15 kunligidan 13-16 oyligigacha go'sht uchun boqiladi. 10-20 ming bosh qoramol bo'rdoqiga boqiladigan ochiq maydonchalar kompleksi ham bor.

Qoramolchilik fermalarida 100-200 boshga mo'ljallangan sigirxonalar, 10 sigirga mo'ljallangan tug'ruqxona va 95 buzoq sig'adigan buzoqxonalar, 90-100 mol boqiladigan g'unajinxona hamda novvosxonalar, buqaxonalar, sun'iy qochirish punktlari, izolyatorlar, yem-xashak omborlari, ozuqa tayyorlash sexlari, silos va

senaj bostiriladigan chuqur, transheya, minoralar va boshqa sharoitlar bor.

Qoramolchilik komplekslaridagi har bir bino 200-400 bosh sigirga, 180-360 bosh buzoq yoki yosh mollarga mo'ljallangan.

O'zbekiston iqlim sharoitida yengil binolar va bostirma-ayvonlar qurilgan ochiq maydonchalardan foydalanish mumkin.

Fermalarda yem-xashak maydalash, tarqatish, mol sug'orish, sut sog'ish, go'ngdan tozalash kabi og'ir ishlar mexanizasiyalashgan.

Fermalardagi mollar yoshi, jinsi, mahsuloti va fiziologik holatiga qarab, har xil guruhlarga ajratiladi. Ularga sog'uvchi, molboqar va buzoqboqarlar tayinlanadi. Chorva komplekslaridagi ishlarni operatorlar oqim usulida bajaradi.


Molxona - mol boqiladigan bino. Bu yerda, asosan, qoramollar bog'lab va bog'lamay boqiladi. Bog'lab boqiladiganlari ikki qatorli, to'rt va olti qatorli bo'ladi. Ikki qatorli molxonada og'ilxona bino bo'ylab qator joylashtiriladi va 1,5 m li ko'ndalang yo'llar bilan seksiyalarga bo'linadi; o'rtadagi 1,5 m li yo'ldan (14-rasm, b) yem-xashak oxurlarga tarqatiladi, ikki chetdagi 1,2 m li yo'llardan (rasm, v) go'ng tashiladi. To'rt qatorli molxonada ozuqa tarqatiladigan ikkita va go'ng chiqariladigan uchta yo'l qilinadi. Olti qatorlisida og'ilxonalar uchta qo'sh qatarga joylashtirilib, ozuqa tarqatadigan uchta yo'l, go'ng chiqariladigan to'rtta yo'l bo'ladi. Molxonadagi har bir og'ilxonada mol bog'lash uskunasi, oxur va sug'orgich o'rnatiladi.

Og'ilxonalarning kattaligi, mollarning mahsuldorligi va zotdorligiga qarab, eni 1-1,2 m, bo'yin 1,7-2 m qilinadi, Molxonada qo'shimcha binolar: yem, to'shama va asbop-uskunalar saqlanadigchn xonalar, ventilyasiya xonasi, xodimlar xonasi bo'ladi. Molxona yaqiniga sut bloki quriladi, unda laboratoriya, sut qo'yiladigan, idish yuviladigan joylar, vakuum nasos, qozonxona va boshqa sharoitlar bo'ladi.

Mollar bog'lamay boqiladigan molxona yopiq yoki uch tomoni o'ralgan yarim ochiq (ayvon ko'rinishida) bo'ladi. Havo harorati -20° dan past bo'lmaydigan hududlarda yarim ochiq molxona quriladi. Bunday olib qo'yiladigan to'siqlar bilan seksiyalarga bo'linadi. Har qaysi seksiya 60 tagacha sigirga mo'ljallanadi. Mexanizmlarda go'ng chiqarish, yem-xashak va to'shama tashib kelish uchun seksiyalar o'rtasidan o'tadigan yo'l qilinadi. Molxona maydoni uchun sutchilik xo'jaliklarida har bir sigirga $4-5 \text{ m}^2$, go'sht yetishtiriladigan xo'jaliklarda buzog'i bilan sigirga 7 m^2 hisobidan joy ajratiladi. Molxona yaqinida mollarni yayratish maydonchasi (har bir sigirga $7-10 \text{ m}^2$) bo'ladi, bu yerga hamma mollar uchun umumiy oxurlar va sug'orgichlar quriladi, Molxona yaqiniga sigir sog'iladigan bino qurilib, sog'ish uskunolari o'rnatiladi.

Qoramol. Qoramol inson uchun go'sht va sut beradi, terisi qo'n sanoati uchun xom ashyo hisoblanadi. Oshlangan terisi kiyim-bosh tayyorlashda keng miqyosda qo'llaniladi. Shuningdek, qoramol go'ngi tuproq unumdorligini oshirishda asosiy mahalliy o'g'it hisoblanadi.

Sigir suti qimmatli oziq-ovqat mahsulidir, chunki uning tarkibida moy, oqsil, qand, mineral tuzlar ko'p bo'ladi. Har bir sigir yil davomida 4000 kg gacha, ba'zi zotlari esa undan ham ko'proq sut beradi. Sersut sigir zotlariga Qora ola, Xolmogor, Krasnostep, Bushuyev va boshqalarni ko'rsatish mumkin.



14-rasm. **Molxona.** Mollar bog'lab boqiladigan ikki qatorli ko'rinishi: 1 – og'ilxona (a – ko'ndalang yo'l, b – em-hashak tashiladigan yo'l, v – go'ng chiqariladigan yo'l); 2 – yemxona; 3 – asbob-uskuna saqlanadigan xona; 4,7,17 – dahliz; 5 – go'ngxona; 6 – qozonxona; 8 – idish yuviladigan xona; 9 – sutxona; 10 – shamollatish kamerasi; 11 – mashina bo'limi; 12 – sanitariya uzeli; 13 – dushxona; 14 – gardero; 15 – xodimlar xonasi; 16 – yo'lak; 18 – yem tayyorlanadigan xona; 19 – to'shamaxona; 20 – ko'mirxona.

Qoramolning go'sht mahsuloti ham katta ahamiyatga ega. Jumhuriyatimizda tayyorlanadigan jami go'shtning qariyb yarmini qoramol go'shti tashkil etadi. Maxsus zotga kiradigan go'shtdor mollar tez yetilishi, go'sht chiqishining yuqoriligi va sifati bilan ajralib turadi. Go'sht uchun boqiladigan buzoqlar to'yimli oziqlar bilan yaxshi boqilsa, tez rivojlanib, vazni bir yildayoq 400-450 kg ga yetadi. Go'sht beruvchi erkak qoramolning vazni 800-900 kg, ayrimlari 1300 kg, ba'zan undan ham ko'proq bo'lishi mumkin. Bularga misol qilib Gereford, Astraxan, Qozoqi oqboosh zotlarni ko'rsatish mumkin. Go'sht beruvchi sigir zotlarining vazni 500-600 kg keladi, shuningdek ulardan 2500-3000 kg sut sog'ib olinadi.

Qoramollar go'sht va sut uchun boqiladigan zotlardan iborat bo'lib, ular sersutligi, tirik vaznining yuqoriligi va go'shtdorligi bilan ajralib turadi.

Go'sht-sut yo'nalishidagi buqalarning vazni 700-900 kg, sigiri esa 450-550 kg keladi. Bu zot sigirlardan bir yilda 3500-4500 kg sut sog'ib olish mumkin.

Go'sht-sut uchun boqiladigan qoramollarga Shves va Olatov qoramol zotlarini kiritish mumkin.

Sut mahsuldorligi deb - sigirdan muayyan vaqt ichida sog'ib olinadigan sut miqdoriga aytiladi. Sigirning sut berish davrini *laktasiya* deb ataladi. Laktasiya davri

taxminan 10 oy davom etadi. Sigir suti - qimmatli oziq-ovqat mahsulotidir, chunki sutdagi hayot uchun zarur moddalarning barchasi optimal uyg'unlikda va oson o'zlashtiriladigan bo'ladi. Zamonaviy xonaki sigirlarning yovvoyi ajdodlari buzoqqa (emib katta bo'lishi uchun) yetadigan miqdordagina (400-800 kg) sut bergan. Hozirgi vaqtda shunday rekordchi sigirlar borki, laktasiya davrida ulardan 20 000 kg dan ham ko'proq sut sog'ib olinadi. Ilg'or xo'jaliklarda har bosh sigirdan 6000 kg dan sut sog'ib olinadi. Sut mahsuldorligini aniqlashda sog'ib olinadigan sut miqdorigina emas, balki sutning tarkibi ham ahamiyatga ega (1-jadval).

Sigir sutining tarkibi %

1-jadval

Yog'	Oqsil	Shakar	Mineral moddalar	Suv
3,7	3.3	1,9	0,7	87,4

Sigirning mahsuldorligini bilish uchun laktasiya davrida undan sog'ib olingan sut miqdorini va sutda qancha oqsil hamda yog' borligini aniqlash kerak. Fermerlarda sigirning mahsuldorligini hisobga olib borish uchun har 10 kunda kontrol sog'ish o'tkazilib, har bir sog'ib olingan sut miqdori o'lchanadi, shuningdek oyda bir marta sutdagi yog' va oqsil miqdori aniqlanadi.

Go'sht mahsuldorligi deb - bitta moldan olinadigan go'sht miqdoriga aytiladi. Molning go'sht mahsuldorligini uning so'yilgan vazni va go'sht chiqishiga qarab aniqlanadi. So'yilgan vazni molning terisi shilini, kallasi, ichak-chavoqlari (charvisi qoladi), oyoqlarining pastki (sakrash) bo'g'imlari kesib tashlangandan keyingi vaznidir. So'yilgan vaznning tirik vaznga foiz hisobidagi nisbati **go'sht chiqishi** deyiladi. Masalan, tirik vazni 450 kg bo'lgan buqacha (novvos)ning so'yilgan vazni (nimtalanmagan go'shtning og'irligi) 207 kg bo'lgan. Demak go'sht chiqishi

$$\frac{207}{450} \cdot 100 \% = 46 \% \text{ ga teng bo'ladi.}$$

Qoramollarning emas, boshqa qishloq xo'jalik hayvonlari va parrandalarning go'sht mahsuldorligi ham shu tarzda hisoblab topiladi. Yosh mollar har oyda tarozida tortilib, o'sishi va rivojlanishi tekshirib turiladi, oy boshidagi vazni bilan oy oxiridagi vaznidan mollarning o'rtacha sutkalik qo'shimcha semirishi hisoblab chiqiladi. Bo'rdoqiga boqilayotgan mol oy boshida va oy oxirida tortib ko'riladi.

Jins-yosh guruhleri. Barcha qoramollar qo'yidagi jins-yosh guruhlariga ajratiladi: buqalar, sigirlar, 6 oyga to'lmagan buzoqlar, podaga qo'shiladigan yosh buqacha (bu guruhga sog'in sigirlar podasidan chiqib qolgan sigirlar o'rini to'ldirish uchun mo'ljallangan 6-18 oylik g'unajinlar, shuningdek zotli buqachalar), tanalar (qochirilgan 18 oylik va bundan katta g'unajinlar), bo'rdoqiga boqiladigan mollar kiradi.

Bo'rdoqiga boqiladigan mollar guruhiga, odatda, podaga qo'shishga mo'ljallanmagan buqacha va g'unajinlar hamda katta yoshdagi mollar kiradi. Mollarni sun'iy urug'lantirish (sun'iy qochirish) usuli keng qo'llanilganligi sababli ko'pgina xo'jaliklarda nasldor buqalar umuman yo'q. Mahsuldor zotli hayvonlar olish uchun albatta nasldor ota yoki ona hayvonni olish kerak. Zotli nasllardan faqatgina sut

miqdori va yog'i yuqori bo'lgan yangi avlod olinadi.

Nazorat savollari


1. Qoramolchilik fermalarida qanday ishlar bajariladi?
2. Molxona qanday bino?
3. Qoramol inson uchun qanday ahamiyatga ega?
4. Sigir sutining tarkibi qanday?

2.10.QORAMOL ZOTLARI

Qoramollarning quyidagi zotlari bor.

Xolmogor yoki qora-ola zoti Arxangelsk viloyatida, Shimoliy Dvina daryosining qo'yi oqimi sohillarida yaratilgan. Shu yerlardagi yaylovlar, toshqin vaqtida suv bosadigan o'tloqlar mollarni yaxshi oziqlantirish uchun imkoniyat tug'dirib bergan (15-rasm). Bu zotning paydo bo'lishi XV asrning oxiri - XVI asrning boshlariga to'g'ri keladi. Ba'zi olimlarning fikricha, xolmogor zotini yaratishda golland zotiga mansub buqalardan foydalanilgan.


Yaxshi oziqlantirish sharoitida sutini oshirishiga qarab tanlash yo'li bilan sersut zot olinadi. Bu zot sigirlarning o'rtacha maxsuldorligi 3200 kg lekin eng yaxshi



15-rasm. Ola-qora zot sigir.

naslchilik xo'jaliklarida har bosh sigirdan 6000-6500 kg gacha sut sog'ib olinadi. Sigirlarning tirik vazni 500-550 kg ga yetadi. Gavdaning baquvvatligi, suyaklarning yirik ba'zan beso'naqayligi, muskullarning o'rtacha rivojlanganligi tusining qoralaligi bu zotga xos belgilardir.

Keyingi 30 yil mobaynida xolmogor zotining tashqi tuzilishi (eksteryeri) yaxshilanib sigirlarning mahsuldorligi va sutining moylilik darajasi oshdi: har bir sigirdan sog'ib olinadigan sut o'rta hisobda 5500-5700 kg ni, sutning moylilik darajasi esa 4,1-4,2% ni tashkil etadi.



16-rasm. Krasnostep zot sigir.

Krasnostep zoti Hozirda

ko'paytiriladigan eng ko'p sonli zotlardan biri. XIX asr o'rtalarila Ukrainaning janubiy tumanlarida mollarning G'arbiy Yevropadan keltirilgan ba'zi zotlarini Ukraina kul rang zoti bilan chatishtirib yangi zot olindi. Bu zotga mansub sigirning suyaklari, odatda nozik ko'kragi ichga botgan (chuqur), unchalik keng emas, yelini o'rtacha kattalikda bo'ladi. Tirik vazni 450-500 kg, tusi asosan qizil, naslchilik xo'jaliklarida har bir sigirdan 4000-5500 kg sut sog'ib olinadi, sutning moylilik darajasi o'rta hisobda 3,73% ni tashkil etadi. Bu zot issiq iqlimga yaxshi moslashadi, shuningdek keskin


kontinental iqlimli tumanlarda ham o'zini yaxshi sezadi. Shu sababli bu zot sigirlar Ukrainaning janubiy qismi va Shimoliy Kavkazda, Samarqand, Xorazm va Qashqadaryoda ko'p tarqalgan (16-rasm).

Eng ko'p tarqalgan sut beruvchi sigir zotlaridan **Kostroma zoti** mavjud. Ayrim zotli sigirlardan buzoqlashidan keyingi laktasiya davrida 17 500 kg gacha sut sog'ib olinadi va sutining moylilik darajasi 4,2% ni tashkil etadi.

Qozoqi oqbo'sh zotiga go'sht-sut uchun boqiladigan turdagigi mollar kiradi. Bu zot Qozog'istonda yaratilib, O'zbekistonga keltirilgan. Sigir bo'yining balandligi, gavdasining yirikligi, suyaklarining baquvvat va muskullarining yaxshi rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Tusi to'q qizil, boshida oq rang, tirik vazni 500-550 kg. Naslchilik xo'jaliklarida sigirlarning har biridan 2200-2500 kg dan sut sog'ib olinadi, sutining moylilik darajasi 3,7-3,8% ga teng. Sigir boqishning to'g'ri tashkil etilishi ularning sersutligini ta'minlovchi asosiy shartdir. Oziq turini puxta tanlash va ratsionni to'g'ri tuzish yo'li bilan sigirlar sutini ko'paytirish mumkin.

Kurgan qoramol zoti - sut va go'sht uchun boqiladigan qoramol zoti. Kurgan oblastida Sibir jaydari molini shortgorn, simmental, bestujev, golland, shvis, xolmogor va boshqa zot buqalar bilann chatishtirish natijasida yetishtirilgan. Tusi to'q qizil, qizg'ish-ola, ko'kragi keng. Tanasi ancha yirik. Yag'rinidan balandligi 130 sm, ko'krak aylanasi 189 sm. Sigirlari 500-550 kg, buqalari 800-900 kg, yiliga 3000-3200 kg sut beradi. Sutining yog'liligi 4-4,4%.

Latviya qo'ng'ir qoramol zoti - suti uchun boqiladigan qoramol. Latviya jaydari mollarini angeln va Daniya qizil mol zotlari bilan chatishtirib yetishtirilgan. Tuzilishi pishiq, oyoqlari kalta, muskullari rivojlangan, kallasi kichik, tumshuq qismi cho'ziqroq. Yag'rinidan balandligi 126 sm, gavdasining qiya uzunligi 154 sm, ko'krak aylanasi 183 sm. Buqalarining o'rtacha vazni 750-800 kg, sigirlariniki 450-550 kg, yiliga o'rtacha 3500 kg sut (yog'liligi 4%) beradi. 1956 - 64 yillarda Latviyadan O'zbekistonga keltirilgan.



17-rasm. Svits zot sigir.

Shvits zoti. Bu zot ko'proq Farg'ona vodiysi viloyatlari xo'jaliklarida, Samarqand, Jizzax, Toshkent va Surxondaryo viloyati xo'jaliklarida uchraydi. Ularning tusi asosan kul rang bo'ladi (17- rasm).

Sigirlarining tirik vazni 480-550 kg, buqalariniki 800-950 kg keladi. Ayrimlari 1100 kg gacha borishi aniqlangan. Sigirlari sog'in davrida yog' miqdori o'rtacha 3,6-3,8% bo'lgan 3000-4200 kg sut beradi. Ayrimlari (rekordchi sigirlari)

9000-10200 kg va undan ham ko'proq sut berganligi maxsus adabiyotlarda aks ettirilgan. Ba'zan sut tarkibidagi yog' miqdori 4,7 % ga yetishi aniqlangan.

Olatov zoti. Bu zot ham sut-go'sht yo'nalishidagi mahalliy qirg'iz va qozoqi sigirlarni shvits zot buqalardan qochirish natijasida va naslini o'zaro chatishtirib, tanlash, saralash yo'li bilan yaratilgan. Bu zot respublikamizda oz miqdorda

bo'lgani holda asosan Farg'ona vodiysining ayrim xo'jaliklarida boqiladi.

Sigirlarining tirik vazni 500-550 kg, buqalariniki 850-950 kg. Sog'in davrida yog' miqdori 3,8 - 4,0 % bo'lgan 2800-3500 kg sut beradi. Bu zot o'zining kelib chiqishiga ko'ra tog' zonasi sharoitiga yaxshi moslashgan hayvon hisoblanadi.

Nazorat savollari

- 1.Qoramollarning qanday zotlari bor?
- 2.Eng kup sut beruvchi qanday sigir zotlari bor?
- 3.Qozoqi oqbosh va latviya qo'ng'ir sigir zotlarini ayting.
- 4.Shvits va olatov sigir zotlari haqida so'zlang.

2.11. QORAMOLLARNI PARVARISH QILISH


Sog'in sigirlarning oziq ratsioni va ularni boqish. Sog'in sigirlarning oziq rasioni ularning oziq moddalarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, ishtaha bilan yeydigan, hazm organlarini zo'riqtirmaydigan, oziq moddalarning yaxshi o'zlashishiga yordam beradigan bo'lishi lozim. Oziq rasioni fermaning o'zida yetishtiriladigan yem-xashaklardan maksimal foydalaniladigan qilib tuzilishi kerak. Sog'in sigirlar molxonada boqiladigan davrda oziq rasioni asosan dag'al va shirali oziqlar - pichan, silos, ildizmevalar, senajdan iborat bo'lishi kerak. Sersut sog'in sigirlarga konsentrat oziq (yem) ham berish zarur. Sersut sigirlar faqat dag'al va shirali oziqlar bilan boqilganida rasionning hajmi juda ortib ketadi, sigirlar uni yeb tugata olmaydi. Buning ustiga, ko'p miqdordagi konsentrat oziq modda almashinuvini izdan chiqaradi, **osteomalyatsiya** deb ataladigan kasallik (suyak to'qimasi kasalligi) ni keltirib chiqaradi.

Sog'in sigirlar uchun ham oziqlantirish ratsioni tuzilgan. Bundan tashqari, sigirlarning tirik vazniga qarab dag'al va shirali oziqlar berishning taxminiy me'yori ham belgilab chiqilgan. Sog'in sigirga dag'al oziq 100 kg tirik vaznga 1-2 kg (yarim pichan bo'lishi kerak), shirali oziq 6-8 kg hisobida berilishi kerak. Qancha konsentrat oziq berish kerakligi sigirdan sog'iladigan sut miqdoriga qarab belgilanadi. Bir sutkada 10-20 kg sut beradigan sigirga har 1 kg sutga 150-200 g, sutkasiga 25-30 kg sut beradigan sigirga esa 250-350 g hisobidan konsentrat oziq beriladi.

Tirik vazni 500 kg bo'lgan va sutkasiga 20 kg sut beradigan sigirning oziq ratsioni qo'yidagicha (kg):

Pichan	3
Yo'ng'ichqa pichani	3
Ko'k o't yoki makkajo'xori silosi.....	30
Nim shirin lavlagi	18
Konsentrat oziq ...	3.8
Osh tuzi	0.105

Mol boqishni to'g'ri tashkil qilish uchun tirik vazni va mahsuldorligi bir xil bo'lgan hayvonlarga dag'al va shirali oziqlar bir xilda beriladi. Sersut sigirlar uchun alohida ratsion tuziladi va sutkasiga 3-4 marta oziqlantiriladi.



18-rasm. Nasl uchun qoldirilgan golshtinofriz zotli urg'ochi buzoqlarning umumiy ko'rinishi.


Birinci konsentrat, keyin shirali, so'ng dag'al oziq beriladi. Yangi buzoqlagan sigirlarga alohida e'tibor berilib ovqatlantiriladi. Toki u ko'p sut bersin. Buzoqlaganidan 10 kun keyin sigir sekin-asta to'la oziq ratsioniga o'tkaziladi. Sutini ko'paytirish davrida sigirga qo'shimcha ravishda 2-3 oziq birligi beriladi. Qo'shimcha oziq sigir ko'nikib ketgunga qadar beriladi. Yangi buzoqlagan sigirni amalda berayotgan sutiga muvofiq oziqlantirish sutning ko'payishi ta'minlay olmaydi.

Chorvachilikda buzoqlarni parvarish qilish alohida ahamiyatga ega. Yangi tug'ilgan buzoq tug'ilganiga 40-50 minut

o'tgandai so'ng o'rnidan turib emishga harakat qiladi. Yangi tug'ilgan buzoqchalarga tug'ilganidan darhol o'viz suti beriladi, birinchi kuni 1,5-1,7 kg, keyin 2-3 litr o'viz suti bsrilishi lozim. O'viz sutini ichgan buzoqchalar sog'lom, baquvvat bo'lib tez o'sadi. Chunki o'viz suti tarkibida oqsil, vitaminlar, zarur bo'lgan mineral moddalar ko'p bo'ladi. Buzoqchalar dastlabki bir hafta ona sigir suti bilan boqiladi, bir kunda 2,8-3,0 litr sutni ichadi. Jahonning ko'pgina rivojlangan mamlakatlarida buzoqchalarni xonalari 2-3 kun emadi, 3-4-kuni ularga soya suti beriladi, soya suti tarkibi jihatidan sigir sutiga juda o'xshash va buzoqchalar uni xush ko'rib emadi. Buzoqchalar 20-25 kunlik bo'lgandan so'ng ularga albatta' qo'shimcha oziqa berib turiladi. 10 kunligidan boshlab, barra ko'k o'tlar berish mumkii, ozgina ildizmevalilar, donli ozuqalar, beda ko'k o'ti berib boriladi. Ular ona sutini 4-5 oygacha emishi mumkin. Ammo 3 oyligidan boshlab, qo'shimcha oziqlarga o'rgatish lozim. Sigir sutini tejash uchun soya va boshqalardan sut tayyorlab buzoqlarga ichiriladi. Kelgusida sut beruvchi zotdor sigir yoki yuqori nasl beruvchi ho'kiz uchun ajratiladigan buzoqlar albatta onasini uzoq vaqt emishi kerak

Buzoqlarni ma'lum maqsad asosida to'g'ri boqish va parvarish qilish qoramol podasini sog'lom, sermahsul sigirlar va yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan ba-quvvat nasldor buqalar bilan to'ldirishda muhim ahamiyatga ega. Umuman, buzoqlar har bir fermaning yo'nalishi, yetishtiriladigan mahsulot turi va ishlab chiqarishning konkret maqsadi hamda sharoiti hisobga olingan holda boqib parvarish qilinadi (18-rasm).

Buzoqlarni boqish va parvarishlashni bir qancha usullari mavjuddefolyasiya Shuni ta'kidlash lozimki, respublikamizdagi barcha qoramolchilik fermalarida, shu jumladan, fermer xo'jaliklarida, bu borada mavjud usullardan bittasi, ayrim hollarda ikkitasi qo'llaniladi.



19-rasm. Buzoqlarni individual (yakka) holda kataklarda boqish.

Birinchi usul - buzoqlarni onasidan ajratib boqish. Bu usul asosan barcha sut-tovar fermalarida va ayrim ilg'or fermer xo'jaliklarida kullanib kelinayotgan progressiv usul hisoblanadi. Bunda buzoqlar tug'ilgan kunidan boshlab 5-10 kun davomida uz onasining o'viz sutidan baxramand bo'ladi. So'ngra ular maxsus kataklarga olinadi va guruhlab boqiladi (19-rasm).

Uviz suti birinchi marta buzoqlar tug'ilganidan so'ng 1-2 soat o'tgach 1-1,5 kg miqdorida beriladi. Oziqlantirishdan oldin buzoqlarni lablari, burni va yuzi yaxshilab artiladi. Yangi tug'ilgan buzoqlarga dastlabki kunlari uviz suti maxsus rezinka surg'ichlar yordamida kuniga 5-6 marta berilsa, so'ngra kuniga 4 marta aniq, belgilangan vaqtlarda (kun tartibi asosida) beriladi. Bunda buzoqlar hamma vaqt bir xil miqdordagi sutni yakka holda olishi mumkin. Beriladigan uviz suti yoki sog'ib olingan sutning harorati 37°C, toza va sifatli bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Agar tukdan sigirning yelini kasal bo'lsa yoki sutining sifati talabga javob bermasa, u holda bir vaqtda tukdan yoki turishiga ko'ra 1-2 kunga fark, qilgan sigirlarning suti ichiriladi. Buzoqlarga tug'ilgan kuni 5-7 kg atrofida uviz suti ichirilishi yaxshi natija beradi. Besh kunlik bo'lganida 6-10 kg gacha ko'paytirish mumkin. Umuman, birinchi besh kun ichida ularga 30-45 kg uviz suti ichirilsa, har tomonlama yaxshi natija beradi.

Buzoqlarni ko'p miqdorda, faqat sigir suti bilan boqish iqtisodiy jixatdan uncha ko'p foyda keltirmaydi. Binobarin, ularni sun'iy sut, sersuv va dag'al oziqlar bilan ta'minlash iqtisodiy samaradorlikka erishishda anchagina afzalliklarga ega. Bunday tadbirlarni buzoqlar tug'ilganidan so'ng sutining miqdori oz-ozdan kamaytirilib, uning o'rniga sun'iy sut miqdori ko'paytirilib boriladi.

Ikkinchi usul ajratib emizdirib boqish bu usul eng qadimgi usul bo'lib, bunda sigirni sog'ishdan oldin, sog'ish vaqtida va sut sog'ib bo'lingach, sigir yoniga uning buzog'i qo'yib yuboriladi. Sigiri bo'lgan barcha xonadonlar ham shu usulda buzoq, boqadilar va parvarish qiladilar. Bu usul hozirgi vaqtda xo'jaliklarda deyarli

qo‘llanilmaydi.

Uchinchi usul - «enaga» sigirlarga biriktirib boqish. Buning uchun o‘z onalaridan ajratib olingan buzoqlar 2 tadan 4 tagacha qilib mashina yordamida sog‘ishga yaroqsiz yoki qari sigirlarga biriktirib qo‘yiladi. Buzoqlar o‘z «enagasini» 2-3 oy mobaynida emib o‘sadi va rivojlanadi.

Biriktirilgan buzoqlar soni «enaga» sigirlarning sut mahsuldorligiga bog‘lik. Emizish uchun rejalashtirilgan sigirlar bir guruh, buzoqni emizish davri tugashi bilan yangi guruh buzoqlarni qabul qiladi. Shunday qilib, sut mahsuldorligi 3000-3500 kg bo‘lgan sigirlar bir laktasiya davrida 8-10-12 ta buzoqni emizdirib, boqib beradi.

To‘rtinchi usul onalariga uzluksiz emizdirib boqish. Bu usul asosan go‘sh tuzi yo‘nalishidagi qoramolchilikda qo‘llaniladi. Bunda sigirlar deyarli cog‘ilmaydi. Poda sharoitida yosh buzoqlar 6-8 oylik bo‘lguncha faqat onasini emib rivojlanadi. Agar talab etilsa va sigir suti ikki buzoq uchun yetarli bo‘lsa, bir sigirga ikkita buzoqni ham biriktirib boqish tavsiya etiladi.

Shunday qilib, buzoqlarni boqish, parvarish qilish va rivojlantirish usullari har bir xo‘jalikning mahsulot yo‘nalishi va ishlab chiqarish texnologiyasiga ko‘ra qo‘llanishi ko‘plab ijobiy natija beradi.

Bu zoqlar olti oylik bo‘lganida erkaklari urg‘ochilaridan ajratilgan holda maxsus xonalarda boqiladi. Bunda turtta guruh, tashkil etish nazarda tutiladi. Birinchi guruhda buzoqlar 9 oylik bo‘lguncha boqiladi. Ikkinchi guruhda 9 oylikdan 12 oylik bo‘lguncha boqiladi. Uchinchi guruhda 12 oydan 18 oylik bo‘lguncha boqiladi. Turtinchi guruhda 18 oylik g‘unajinlar ikki yoshli bo‘lguncha boqiladi. Bu zoqlar xo‘jalik uchun belgilangan usulda bog‘lab yoki bog‘lamasdan boqiladi.

Nasl olish uchun mo‘ljallangan erkak buzoqlarni xisobga olmaganida barcha guruhdagi buzoqlarga 8-9 oyligidan boshlab kup miqdorda somon, silos va ildizmevalar berib boqiladi. Bu zoqlarni bog‘lab boqishda ularga sutkasiga uch marta yem-xashak beriladi. Suvni avtomat suvdonlardan istaganicha ichadi.

Kupgina xo‘jaliklarda olib borilgan kuzatishlarga qaraganda ko‘rsatilgan me‘yorlarda boqilgan buzoqlar sog‘lom, baquvvat va yuqori mahsuldor bo‘lib yetishadi. Bu zoqlarni sun‘iy sut bilan bokish 180-200 kg sigir sutini tejash imkonini beradi.

Yem-xashakning sifati qancha past, tarkibida kimyoviy elementlar, ayniqsa protein kam bo‘lsa, bu zoqlarning har kilogramm semirishi uchun shuncha kup oziq sarflanadi.

Bu zoqlar sog‘lom va baquvvat bo‘lib o‘sishi uchun ularni uzluksiz osh tuzi bilan ta‘minlab turish tavsiya etiladi. Bunda 1-6 oylik bu zoqlarning har 100 kg vazni xisobiga 12 g, 6 oylikdan boshlab 10 g dan osh tuzi berish talab etiladi

Nazorat savollari

1. Sog‘in sigirlarning oziq rastsioni qanday?
2. Chorvachilikda bu zoqlarni parvarish qilish qanday ahamiyatga ega?
3. Bu zoqlarni boqish va parvarishlashni qanday usullari bor?
4. Nasl olish uchun mo‘ljallangan erkak bu zoqlar qanday boqiladi?

2.12.QORAMOLARNI G`OSHTGA BOQISH TEXNALOGIYASI

Nasldor buqalarni boqish va parvarishlash

Nasldor buqalardan olinadigan urug'ning sifati birinchi galda ularning boqish sharoitiga va usuliga bog'liq. Nasldor buqalarni boqishni susaytirish yoki kuchaytirish maqsadga muvofiq emas. Chunki kuchli oziqlar bilan hamma vaqt to'ydirib boqish va mosion tashkil etilmasligi ular tanasining va jinsiy organlarining yog' bosib kyetishiga olib keladi. Buning natijasida urug' berish xususiyati yomonlashadi. Yoki aksincha, sifatsiz yem-xashak bilan boqish ular organizmini bo'shashtirib, quvvatsizlantirib qo'yadi. Buning oqibatida urug'ning sifati buziladi, buqalar oriqlab, kasalliklarga beriluvchan bo'lib qoladi. Binobarin, nasldor buqalarni boqishda, ilmiy jihatdan asoslangan istiqbolli usullar asosida rasion tuzish kerak bo'ladi. U qo'yidagicha bo'lishi mumkin. Masalan, buqalar qochirish ishlarida foydalanilmaydigan «t i n i m» davrida ularning har 100 kg tirik vazni hisobiga 1,1 oziq birligi va Pog hazm bo'ladigan protyein berish mumkin.

Nasldor buqalardan avlod olish uchun foydalanish vaqtida ularning har 100 kg tirik vazni hisobiga 1,3 kg oziq birligi va 140 g hazm bo'ladigan protyein berishni ryejalashtirish ijobiy natija beradi.

Nasldor buqalarni hish oylarida boqish. Qish oylarida nasldor buqalarning har 100 kg tirik vazni hisobiga 1-1,5 kg byeda pichani, 1-1,5 kg ildizmyeva, 0,8-1,0 kg silos berish mumkin. Har bir buqaning oriq-syemizligiga qarab 1 sutkada 4 kg dan 8 kg gacha yem berish tavsiya etiladi.

Barcha xo'jaliklarda va sun'iy qochirish punktlarida boqilayotgan buqalar rasioniga (urug' olish davrida) 3-4 kg sazi, 300-400 g maydalangan don (arpa, suli, bug'doy) va 150-200 g xamirturushni qo'shimcha holda kiritish yaxshi natija beradi.

Nasldor buqalarni qish oylarida boqish uchun qo'yidagi kun tartibiga rioya qilish mumkin:

Soat 5 dan 5.30 gacha	Oxurlarni qoldiq oziqdardan tozalash.
Soat 5.30 dan 6 gacha	Oziqlantirish, sug'orish, tanasini qashlab tozalash.
Soat 6.0 dan 8 gacha	Dam berish.
Soat 8.0 dan 10 gacha	Urug' olish yoki qochirish uchun foydalanish.
Soat 10 dan 11 gacha	Mosion tashkil etish.
Soat 11 dan 12.30 gacha	Oziqlantirish va sug'orish.
Soat 12.30 dan 14.30 gacha	Dam berish.
Soat 14.30 dan 16.30 gacha	Mosion tashkil etish.
Soat 16.30 dan 18 gacha	Ochiq maydonda yayratish.
Soat 18 dan 19.30 gacha	Urug' olish va qochirishda foydalanish.
Soat 19.30 dan 20.30 gacha	Oziqlantirish va sug'orish.

Nasldor buqlarni yoz oylarida boqish. Yoz oylarida iloji boricha barcha xo'jaliklarda nasldor buqalarni yaylovlarda bokish, ko'proq harakat qildirish va talab etilgan vaqtda yem va minyeral qo'shimchalar berish tavsiya etiladi.

O'zbyekiston sharoitida yozning issiq kunlari nasldor buqalarni 3-4 marta, hatto 5-6 marta sug'orish hamda salqin, lyekin nam va zax bo'lmagan toza joyda

dam oldirish yaxshi natija beradi.

Parvarish qilish ishlari barcha fasllarda uzluksiz amalga oshirib borilganda nasldor buqalardan 10-12 yil va ayrim hollarda undan ham uzoqroq vaqt davomida foydalanish mumkin.

Barcha xo'jaliklarda va sun'iy qochirish punktlarida vaqti-vaqti bilan urug' sifatini nazorat qilib turish, shuningdek, ulardan olingan avlodlarni sog'lom, baquvvat, tyetik bo'lib o'sishiga e'tibor berish ham maqsadga muvofiqdir.

Qoramolni 1 kg semirtirish uchun yoshiga qarab turli miqdorda oziq birligi sarflanadi. Masalan, 10-12 oylik novvoslarni 1 kg semirtirish uchun o'rtacha 7-8 oziq birligi sarflansa, katta yoshdagi mollar uchun 8,5-10 oziq birligi sarflanadi. Buzoqlar asosan laxm go'sht yetishtirish uchun boqiladi. Shuning uchun ularni 6 oyligidan tortib rejalashtirilgan davrgacha go'shtga boqish mumkin. Lekin katta yoshdagi mollar 60-90 kun mobaynida bo'rdoqiga boqiladi. Chunki boqish muddati chuzib yuborilsa, ularning tanasini yog' bosib ketadi, go'shtning sifati pasayadi.

Go'shtning xususiyatiga ko'ra, sut uchun boqiladigan va qush mahsuldor zotlar go'shtga boqilganda yog' asosan ichki organlarida tuplanadi, nimtalarida esa kamrok bo'lishi aniqlangan. Shuning uchun ham ularning nimtasidagi lahm go'sht uchun boqiladigan mollarnikiga nisbatan kamroq bo'ladi. Bunday mollar jadal usulda go'shtga boqilganda go'sht chiqimi 50-56 foizni tashkil etadi. Mollarning go'sht maxsuldorligini ortishiga, sifa-ti va to'yimlilikini yaxshilanishiga ularning zoti va zotdorligi salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Bunga asosiy sabab go'shtdor zotlarning tez yetiluvchanligi, qisqa vakt ichida yaxshi semirishi, semirishi uchun sut yo'nalishidagi mollarga qaraganda kamrok, yem-xashak talab qilinishi, go'shtini marmarsimon va mazali bo'lishidir. Binobarin, go'shtdor zot mollarning buzoq va novvoslarini 15-18 oyligigacha boqish kifoya qiladi. Bunda ularning tirik vazni 400-450 kg ga yetishi mumkin. Hozirgi vaqtda go'shtdor buqalarni sut uchun boqiladigan va kush mahsuldor zot sigirlar bilan chatishtirish natijasida olingan buzoqlarni jadal usulda go'shtga boqib semirtirish ishlari keng tus olgan Jinsi va axtalashning go'sht mahsuldorligiga ta'siri. Go'sht yetishtirishda nasl olish uchun yaroqsiz bo'lgan sut, go'shtdor zotli va kush mahsuldor zot buzoqlar salmoqli urin tutadi. Ularning umumiy soni barcha yoshdagi mollarning deyarli 90-95 foizini tashkil etsa, urg'ochi buzoqlar 30 foiz atrofida bo'ladi. Qolgan qismini novvoslar tashkil etadi. Ayrim vaqtlarda xo'jalikning sharoitiga va boqish usuliga qarab, novvoslar axtalanadi. Lekin kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, axtalangan novvoslar -buqachalarga qaraganda sust usadi va sekin rivojlanadi, shuningdek, go'sht chiqimi pastrok, bo'ladi. Axtalashdan maqsad ularni podada boqish uchun moyilligini oshirish va urg'ochi buzoqlar bilan birga go'shtga boqishdan iboratdir. Urg'ochi buzoqlar go'shtga boqilganda nimtasining vazni, sutkalik semirishi, semirish uchun yem-xashak sarflanishi va laxm go'sht miqdoriga qarab bichilgan va bichilmagan novvoslardan kamroq bo'ladi. Lekin go'shtining sifati, yumshoqligi, nozikligi, tarkibi va marmarsimonligi jihatidan yuqori turadi. Binobarin, ularni 15 oyligigacha boqish va vazni 350-400 kg ga yetganda go'shtga topshirishni tavsiya etea bo'ladi. Novvoslar va axtalangan buqichalarni 15-18 oylik bulguncha bokish, novvoslar vazni 450-550 kg va axtalangan buqalarning 400-450 ga atrofida

bo'lganda ularni go'shtga topshirish usuli ham keng kullaniilmoqda.

Boqishning go'sht mahsuldorligiga ta'siri. Mollarning go'sht mahsuldorligini keskin oshirishdagi eng muxim omillaridan biri ularni boqish usuli bo'lib, u go'sht mahsuloti salmog'ini oshirish va go'sht chiqimini ko'paytirish imkonini beradi. Yaxshi boqilgan molning nimtasida suyak va paylar miqdori sifatsiz yem-xashak bilan boqilgan vakillariniqiga qaraganda 25-30 foiz kam, go'shtining kaloriyasi 40-50 foiz yuqori bo'ladi. Mollar yem bilan boqilganda, ularning tez semirishi, laxm go'shti va yog'ining ko'proq bo'lishi aniqlangan. Aksincha, oziq rasionida dag'al va sersuv oziqlar miqdori ko'payib ketsa, mollarni semirtirish muddatining uzayib ketishiga va vaznini sekinlik bilan ortishiga sabab bo'ladi Mollarga beriladigan yem-xashak qanchalik sifatli va kaloriyasi yuqori bo'lsa, ulardan yetishtiriladigan go'sht shunchalik ko'p va sifati yaxshi bo'ladi.

Mollarni yoshiga ko'ra asosan besh xil usulda go'shtga boqiladi.

Oqish yoki och pushti rangli buzoq go'shti yetishtirishda 1-2 xaftalik erkak buzoqlar 3-4 oy mobaynida faqat sut bilan boqiladi. Har bir buzoqqa kuniga 12-16 kg dan sut ichiriladi va ularning sutkalik semirishi o'rtacha 1 kg atrofida bo'ladi. Oddiy buzoq go'shti yetishtirishda olinadigan mahsulot tannarxini arzonlashtirish maqsadida buzoqlar 3-4 oyilgigacha sutdan tashqari, sersuv, dag'al oziq va yem berib boqiladi va ular sutkasiga 400 g atrofida semiradi. Yosh buzoq go'shti («bebi-bif») yetishtirish uchun buzoqlar bir yoshli bulguncha sifatli har xil yem-xashak bilan boqiladi va vazni 350-400 kg ga yetkaziladi. Rasion tarkibidagi yemni 30-80 foizga, ayrim hollarda 90 foizgacha oshirish talab etiladi. Buzoqlarni yirik nimta olish uchun boqish. Bu usulda buzoqlar 18-24 oyli bulguncha yoki vazni 400- 600 kg ga yetguncha boqiladi. Binobarin 1,5-2 yil davomida mollarga ko'plab ut (yaylovda) va pichan (qulda) beriladi. Yem rasionning 25-35 foizini tashkil etishi mumkin. Ayrim hollarda yem miqdori 40 foizga yetkaziladi.

Katta yoshdagi mollarni go'shtga boqish. Bunda go'sht yetishtirishga mo'ljallangan brak kilingan sigirlar va buqalar 60-90 kun boqiladi. Ular umumiy podaning 25-30 foizini tashkil etadi. Bunda semirtirilgan mollardan ko'p miqdorda go'sht olinadi. Lekin go'shti dag'al bo'lganligi sababli undan suyuq taomlar, sosiska, konserva va kolbasa tayyorlashda foydalaniladi.

Go'shtdor zotli mollardan go'sht yetishtirish. Barcha mamlakatlarda mol go'shti yetishtirishda go'shtdor zotli qoramollarning tutgan o'rni benihoya kattadir. Chunki bunday zotlardan yetishtiriladigan go'sht o'zining to'yimlili, mazasi, tarkibi va lazzatligi bilan sut va qush mahulotli zotlarga nisbatan anchagina ustun turadi. Bundan tashqari go'shtdor zotli hayvonlar tez yetiluvchan, tez semiruvchan va semirtirish birligi uchun qamroq yem-xashak talab etuvchi yo'nalish hisoblanadi. Masalan, ayrim ilg'or xo'jaliklarda boqiladigan santa-gertruda zotli novvoslarning tirik vazni 18 oyilgida 518 kg tosh bosgan bo'lsa, ular ikki yoshga kirgach 551,2 kg ni tashkil etgan. Boshqa xo'jaliklarda esa shu zot novvoslari 18 oyilgida 440-450 kg ga to'g'ri kelgan. Agar taqqoslash uchun sut yo'nalishiga mansub bo'lgan qizil cho'l zotining go'shtga semirtirilgan novvoslari 18 oyilgida 316,8 kg tosh bosgan bo'lsa, 24 oyilgida u o'rtacha 393 kg ga teng bo'lgan. Shuningdek, go'shtdor zotli novvoslar har bir kilogramm semirishi uchun 6,9- 7,0 oziq birligi sarflangan bo'lsa,

qizil cho'l zotli novvoslarning har bir kilogramm semirishi 8,2-8,4 oziq birligiga to'g'ri kelgan.

Yana shuni xam ta'kiddash lozimki, go'shtdor zotli mollarning go'sht chikimi o'rtacha 60-65 foiz bo'lsa, sut yo'nalishidagi xayvonlar vazniga ko'ra 52-56 foiz go'sht kilgan. Go'shtdor zotli mollar iktisodiy va xo'jalik afzalligi jixatidan bir xil boqilganda sut yo'nalishidagi tengkurlariga nisbatan 35-40 kg ko'prok, tosh bosa olish xususiyati aniqlangan. Bu esa xar bir xo'jalik uchun muhim hisoblanadi.

Nasldor buqalardan olinadigan urug'ning sifati birinchi galda ularning boqish sharoitiga va usuliga bog'liq. Nasldor buqalarni boqishni susaytirish yoki kuchaytirish maqsadga muvofik, emas. Chunki kuchli oziqlar bilan hamma vaqt tuydirib boqish va mosion tashkil etilmasligi ular tanasining va jinsiy organlarining yog' bosib ketishiga olib keladi. Buning natijasida ypyg' berish xususiyati yomonlashadi. Yoki aksincha, sifatsiz yem-xashak bilan boqish ular organizmini bushashtirib, quvvatsizlantirib quyadi. Buning oqibatida urug'ning sifati buziladi, buqalar oriqlab, kasalliklarga beriluvchan bo'lib qoladi. Binobarin, nasldor buqalarni boqishda, ilmiy jixatdan asoslangan istiqbolli usullar asosida rasion tuzish kerak bo'ladi. U qo'yidagicha bo'lishi mumkin. Masalan, buqalar qochirish ishlarida foydalanilmaydigan «tinim» davrida ularning har 100 kg tirik vazni hisobiga 1,1 oziq birligi va PO g hazm bo'ladigan protein berish mumkin.

Nasldor buqalardan avlod olish uchun foydalanish vaqtida ularning xar 100 kg tirik vazni xisobiga 1,3 kg oziq birligi va 140 g hazm bo'ladigan protein berishni rejalashtirish ijobiy natija beradi.

Nasldor buqalarni qish oylarida boqish. Qish oylarida nasldor buqalarning xar 100 kg tirik vazni xisobiga 1-1,5 kg beda pichani, 1-1,5 kg ildizmeva, 0,8-1,0 kg silos berish mumkin. Har bir buqaning oriq semizligiga qarab 1 sutkada 4 kg dan 8 kg gacha yem berish tavsiya etiladi.

Barcha xo'jaliklarda va sun'iy qochirish punktlarida boqilayotgan buqalar rasioniga (urug' olish davrida) 3-4 kg sabzi, 300-400 g maydalangan don (arpa, suli, bug'doy) va 150-200 g xamirturushni qushimcha holda kiritish yaxshi natija beradi. Nasldor buqalarni qish oylarida boqish uchun qu-yidagi kun tartibiga rioya qilish mumkin:

Soat 5 dan 5.30 gacha Soat 5.30 dan 6 gacha Soat 6.0 dan 8 gacha Soat 8.0 dan 10 gacha Soat 10 dan 11 gacha Soat 11 dan 12.30 gacha Soat 12.30 dan 14.30 gacha Soat 14.30 dan 16.30 gacha Soat 16.30 dan 18 gacha Soat 18 dan 19.30 gacha Soat 19.30 dan 20.30 gacha

Oxurlarni qoldiq oziqlardan tozalash. Oziqlantirish, sug'orish, tanasini qashlab tozalash. Dam berish. upyg' olish yoki qochirish uchun foydalanish. Mosion tashkil etish. Oziqlantirish va sug'orish. Dam berish. Mosion tashkil etish. Ochiq maydonda yayratish. Urug' olish va qochirishda foydalanish. Oziqlantirish va sug'orish.

Nasldor buqalarni yoz oylarida boqishda iloji boricha barcha xo'jaliklarda nasldor buqalarni yaylovlarda boqish, ko'proq harakat qildirish va talab etilgan vaqtda yem va mineral qushimchalar berish tavsiya etiladi.

Uzbekistan sharoitida yozning issiq, kunlari nasldor buqalarni 3-4 marta, xatto

5-6 marta sug'orish hamda salqinlatish, lekin nam va zax bo'lmagan toza joyda dam oldirish yaxshi natija beradi. Parvarish qilish ishlari barcha fasllarda uzluksiz amalga oshirib borilganda nasldor buqalardan 10-12 yil va ayrim hollarda undan xam uzoqroq, vaqt davomida foydalanish mumkin. Barcha xo'jaliklarda va sun'iy qochirish punktlarida vaqti-vaqti bilan urug' sifatini nazorat qilib turish, shuningdek, ulardan olingan avlodlarini sog'lom, baquvvat, tetik bo'lib o'sishiga e'tibor berish ham maqsadga muvofiqdir.

Nazorat savollari

1. Nasldor buqalarni qish oylarida boqish rejimi qanday?
2. Boqishning go'sht mahsuldorligiga ta'siri qanday?
3. Go'shtdor zotli mollardan go'sht qanday yetishtiriladi?
4. Mollarni yoshiga ko'ra asosan necha xil usulda go'shtga boqiladi?

2.13. CHO'CHQA CHORVACHILIK ASOSLARI


Chochqa, xonaki cho'chqa – juft tuyoqlilar turkumiga mansub sut emizuvchi hayvon. Yovvoyi ajdodlari (to'ng'izlar)dan kelib chiqqan. Neolit davrida xonakilashtirilgan.

Cho'chqachilik. Go'sht ishlab chiqarishda cho'chqachilikni rivojlantirish asosiy soha hisoblanadi. Hech bir chorva hayvoni bir yilda cho'chqalar kabi ko'p go'sht berish imkoniga ega emas. Masalan, bir dona ona sigirdan bitta buzoq olinadi, bir yilda u o'rtacha 80-100 kg vaznga yetadi, bitta qo'ydan bitta qo'ziga bor yo'g'i 20-25 kg go'sht beradi. Bitta ona cho'chqadan bir yilda 15 ta bola olinsa o'rtacha hajmi 80 kg bo'lsa, 1200 kg go'sht olish mumkin.

Go'sht yetishtirishda cho'chqachilikning ahamiyatini uning qo'yidagi xo'jalik-biologik xususiyatlari belgilaydi:



20-rasm. Cho'l oq zotli Ukraina ona cho'chqasi



21-rasm. Yirik oq zotli ona cho'chqa

-Serpushtlik - ona cho'chqa har galgi bolalashda o'rtacha vazni 1,2 kg bo'lgan 10-12 ta bola tug'adi, bolalash muddati qisqa bo'lgan cho'chqalarda bo'g'ozlash davri 112-114 kunga boradi. Cho'chqa bolalari 2 oyligida sutdan ajratilsa, bitta urg'ochi cho'chqadan yiliga ikki marta nasl olish, ya'ni 20-24 ta cho'chqa bolasi olish mumkin;

-jinsiy jihatdan tez yetilishi - cho'chqalar 5-8 oyligida jinsiy jihatdan, 9-10 oyligida esa fiziologik jihatdan yetiladi;

-tez semirishi - yaxshi sharoitda boqilganda 6-7 oylik cho'chqaning vazni 110 kg ga yetadi;

-go'sht chiqishi - vazni 100-110 kg keladigan cho'chqadan 70-75%, yirik

qoramoldan esa 42-45% go'sht chiqadi;

-yem-xashak sarfining ortig'i bilan qoplanishi yoki cho'chqani 1 kg semirtirishga 3-4 oziq birligi, qoramolga esa 6-8 oziq birligi sarflanadi;

-xo'jaligi - cho'chqalar hayvonot mahsulotlari va o'simliklardan tayyorlangan barcha oziqlarni yeyaveradi; bu esa ularni semirtirishda oziq-ovqat qoldiqlaridan foydalanish imkonini beradi.

Cho'chqa go'shtidan turli xil mahsulot (taom)lar - xilma-xil kolbasalar, tuzlangan, dudlangan son go'shti (vetchina), turli xil go'shtlar, konservalar tayyorlash mumkin. Cho'chqa go'shti tuzlangan yoki dudlangan, konserva qilingan holda saqlanganida, yanada lazziyroq bo'ladi.

Zotli erkak cho'chqalar. Naslchilikda foydalaniladigan katta yoshdagi cho'chqalar baquvvat, vazni 250-300 kg, jinsiy jihatdan juda aktiv bo'lishi kerak. Ulardan mazkur maqsadda surunkasiga 5-6 yil foydalaniladi.

Zotli ona cho'chqalar. Urchitish uchun foydalaniladigan ona cho'chqalar xo'jalikda 4,5-5 yilgina parvarish qilinadi; shu muddat o'tgandan keyin ularning serpushtligi kamayadi. Keyin ular yangi ona cho'chqalar bilan almashtiriladi (20-21rasmlar).

Asosiy ona cho'chqalar - jami ona cho'chqalarning eng sog'lom, baquvvat, eng serpushti hisoblanadi. Serpushtlik ona cho'chqaning umr bo'yi yoki ma'lum bir vaqtgacha davom etadigan mahsuldorligini aks ettiradi.

Asosiy ona cho'chqaning vazni 200 kg dan kam bo'lmasligi lozim. Bunday cho'chqa yiliga ikki marta bolalab, 18-20 bosh cho'chqa bolasini emizib katta qiladi. Ona cho'chqaga baho berishda uning onalik sifatlari va sersutligi, ya'ni bir qorindan tug'ilgan bir oylik barcha cho'chqa bolalarining vazni e'tiborga olinadi, chunki shu davrda cho'chqa bolalari faqat sut emadi. Zotli ona cho'chqaning suti 60 kg dan kam bo'lmasligi kerak. Har yili asosiy ona cho'chqalarning 30-40% podadan chiqarilib, o'rni sinovdagi yosh cho'chqalar bilan to'ldiriladi.

Sinovdagi yosh ona cho'chqalar deganda, eng zotli erkak va ona cho'chqalardan olingan hamda bir martagina bolalagan ona cho'chqalar tushuniladi. Podadan chiqarilgan asosiy ona cho'chqalar o'rniga sinovdagi ona cho'chqalarning eng yaxshisi, ya'ni birinchi bolalashda 9-10 ta yaxshi rivojlangan bola tuqqan hamda suti 60 kg dan kam bo'lmagan cho'chqalar tanlab olinadi.

Xo'jaliklarda cho'chqachilikni rivojlantirish eng arzon, tez yetiladigan go'shtga ega bo'lishdir. Bugungi kunda mamlakatimizda bolalarni, maktablarni, litsey, kollejlarni, kasalxona va askarlarni go'sht bilan ta'minlashda, serdaromad foydali tarmoq hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. Sho'chqa chorvachiligini xalq xo'jaligidagi ahamiyati qanday?
2. Go'sht yetishtirishda cho'chqachilikning ahamiyati qahday belgilanadi?
3. Asosiy ona cho'chqaning vazni qanday uzgaradi?
4. Cho'chqa go'shti tuimligi qanday?

BOB.III. CHORVA OZUQASI

3.1.YEM XASHAK TURLARI VA ULARNI TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI.

Yem-xashak ekinlari mol va parrandalarga ko'kat, pichan, yem, silos uchun ekiladigan o'simliklar bo'ladi. Yem-xashak ega bir yillik va ko'p yillik o'tlar, xashaki ildizmevali, kartoshkali o'simliklar, xashaki poliz ekinlari, shirin kartoshka (batat), silos bostirish va yem uchun ekiladigan donli ekinlar kiradi. Yem-xashak ekinlari, asosan, g'o'za-beda va yem-xashak ekinlari, almashlab ekinning o't dalasiga. ba'zan tabiiy pichanzor va yaylovlarga ekiladi.

Yem-xashak to'yimliliği - yem-xashakning hayvon organizmini zarur oziq moddalar va energiya bilan ta'minlay olish qobiliyati. Har qanday ozuqaning



22-rasm. Yem-xashak tayyorlashda mexanizatsiya vositalaridan foydalanish.

to'yimliliği ozuqa birligi bilan o'lchanadi hamda ozuqa tarkibidagi hazm bo'ladigan oqsil, organik va mineral moddalar, mikroelementlar, vitaminlar miqdori ham xisobga olinadi. Yem-xashak to'yimligi mazkur o'simlik o'stirilayotgan tuproq iqlim sharoitiga, agrotexnikaga, o'simlik naviga, hosilni yig'ishtirish) muddati usuli hamda saqlash sharoitlariga bog'liq. Yem-xashak to'yimligi asosida ozuqa rasioni tuzishda maxsus jadvallardan foydalaniladi

Yem-xashak qishloq xo'jalik hayvonlari uchun asosan, o'simlik va hayvon mahsulotlari hamda mineral moddalardan iborat ozuqa. Yem-xashak,odatda, ko'kat, xashaq yem, mineral va shirali ozuqalarga bo'linadi. Yaylovlardagi tabiiy hamda ekilgan o'tloq ko'kat ozuqaga kiradi. Ko'katning quruq moddasi tarkibida protein (6,5-20%), azotsiz ekstraktiv moddalar (35-45%), yog', mineral moddalar, kletchatka va quritilmaganda ko'p miqdorda karotin, vitamin A, S, Ye bo'ladi. Silos, ildizmevalar, xashaki poliz ekinlari mahsulotlari shirali ozuqaga kiradi. Bular tarkibida 75-90% hujayra shirasi, turli vitaminlar bor. Mol boqishda qand lavlagi sanoati, vino va pivochilik korxonalari chiqindilaridan ham shirali ozuqa sifatida foydalaniladi. Quruq beda, pichan, somon, poxol, g'alla chorisi, chigit shulxasi va boshqa xashak ozuqaga kiradi. Bular tarkibida 25-50% kletchatka bo'ladi. Arpa, sulı, makkajo'xori, oq jo'xori, no'xat, tegirmon chiqindilari (kepak un gardi va boshqalar), yog'-moy sanoati chiqindilari (kunjara, shirot - kukun kunjara va boshqalar) yemga kiradi. Bular oqsil, uglevod va boshqa turli moddalarga boy bo'lib, to'yimliliği jihatdan boshqa ozuqalardan ustun turadi. Osh tuzi, bur, suyak uni, ftorsizlantirilgan presipitat va boshqalar mineral ozuqaga kiradi. Yirik shaharlar atrofıdagi xo'jaliklarda mol boqishda oshxona va boshqa ovqatlanish

korxonalaridan chiqadigan oziq-ovqat qoldiqlaridan ham ozuqa sifatida foydalaniladi.

Yem-xashak turlari va ularning xususiyatlari. Hayvon va parrandalarga, beriladigan barcha turdagi yem-xashaklar asosan uch guruhga, ya'ni o'simliklardan tayyorlangan, hayvon va parrandalardan olinadigan hamda mineral kushimchalarga bo'linadi. Ularning asosiy turlari: kuk ut, xashak (pichan, somon), sug'orish, silos, ildizmevalar, tegirmon va oziq,-ovqat sanoati chiqindilaridan iborat.

Kukat oziqlar. Tabiiy va sun'iy holda ustiriladigan barcha turdagi o'simliklar kukat oziq, hisoblanadi. Masalan, har xil o'tlar, boshqodosh (arpa, suli, bug'doy) va dukkakdosh o'simliklar (beda, nuxat, loviya) ildizmevalarning poyasi, bargi shular jumlasidandir. Bu oziq, turlari asosan bahor, yoz va kuz oylarida chorva mollariga ko'proq, beriladi. Ular tarkibida, suv, protein, karotin, vitaminlar (A, D, Ye, S) kabi moddalar kup bo'lishi bilan qimmatlidir. Bular xayvonlarning o'sishi, rivojlanishi, semirishi va mah-suldorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, (22-rasm).

Dag'al oziqlar asosan: pichan, somon, turli xildagi o'simliklarning (makkajo'xori, g'o'zapoya, oqjo'xori, kungaboqar va xokazolarning) poyasi, sutasi va chanoqlaridan iboratdir. Mamlakatimizning barcha mintaqalarida chorva mollarini oziqlantirishda ulardan keng foydalaniladi.

Pichan barcha turdagi oziqlar ichida ko'proq, ishlatiladi. Ayniksa, beda pichani ot, quy va koramollar uchun muhim oziq hisoblanadi. Uning kimyoviy tarkibi



23-rasm. Soatiga 300 tonna silos massasini o'rib, maydalab beruvchi 60 ot kuchiga ega bo'lgan kombaynning umumiy ko'rinishi.

bedani ustirish jarayonida qo'llaniladigan agrotexnika tadbirlariga shonalash (gullash) vaqtida urib olinishiga, quritish va saqlash texnologiyasiga bog'lik, bo'ladi. Boshqa turdagi barcha o'simliklar poyasidan ham pichan tayyorlanadi. Pichanning kimyoviy tarkibi uning sifatiga ko'ra turlicha bo'ladi. Masalan, uning tarkibi 4-26 foiz protein, 3-7 foiz eg', 20-35 foiz kletchatka, 28-39 foiz azotsiz ekstraktiv moddalar (AEM), 3-11 foiz kuldan iborat. 1 kg sifatli beda pichanida 0,5 kg gacha oziq, birligi bo'lishi

mumkin.

Pichan uni quruq pichanning maydalangani (kukuni). Xona yoki ochiq joylarda shamolda quritilgan pichan poxol qirqqichlarda maydalanadi, keyin don tegirmoilari yoki yanchish mashinalarida tortiladi. Pichan uni sifati o'tlar turi, o'rib-yig'ish muddati va quritish usulla-riga bog'liq. Eng yaxshi pichan uni shonalash davrida yoki gullay boshlaganda o'rilgan dukkakli o't-lardai olinadi. Sebargadan tayyorlangan 100 kg P. u. da 70,2 ozuqa birligi va 8,3 kg hazm bo'ladigan protein, xashaki loviya suli aralashmasida 65,7 ozuqa birligi va 9,7 hazm yo'ladigan protein bor. Pichan uni karotinga boy; qishda umumiy rasionning 10-12% i miqdorida cho'chqa, parranda, ba'zan qoramolga beriladi.

Ut uni kuk o'tlardan, kuproq bedadan tayyorlanadi. Uning 1 kg tarkibida 170-200 g ok,sil, 200- 2500 mg karotin bo'ladi. Aralash oziq, tayyorlashda u ko'p

ishlatiladi. Ut uni odatda qog'oz koplarda saqlanadi, aralash oziq, tayyorlashda u kup ishlatiladi. Ut uni chuchka va parrandalar uchun kushimcha vitaminli oziq, sifatida xizmat qiladi. Ut unining 1 kg ida 0,7- 0,8 g oziq, birligi, 80-130 g hazm bo'ladigan oqsil, 250 mg karotin bo'lishi aniqlangan.

Somon uz xususiyati bilan boshqa o'simlik turlaridan ajralib turadi. Masalan, kuzgi javdar somoni tarkibida 35-45 foiz kletchatka, bug'doy somonining x,ar 100 kg va 10-20 kg oziq birligi va 0,3 kg hazm bo'ladigan oqsil bo'lishi aniqlangan. Boshqoli o'simliklar somoni tarkibida 4-5 foiz, dukkakli o'simliklar somonida 6-7 foiz protein bo'ladi. Uning tarkibida yana oz miqdorda korotin, kalsiy va fosfor kabi moddalar ham bo'ladi. Bino-barin, somonning to'yimlilik darajasiga ega bo'lgan nisbatan kiyinrok, bo'ladi.

Hayvonot mahsulotlaridan tayyorlangan oziqlar sut va sut chiqindilari (sut zardobi, yoki olingan sut), kushxona chiqindilari (qon uni, suyak uni, go'sht uni) va balik uni kabilardan tashkil topgan. Ular yuqori to'yimlilik darajasiga ega bo'lgan oziqlar hisoblanadi.

Sersuv oziqlar asosan iddizmevalar, kartoshka, xashaki poliz o'simliklari, silos, sug'orish, lavlagi turpi, bardi va kuk o'tlar kiradi. Kuk utni hisoblamaganda, sersuv oziqlar tarkibida oqsil va mineral moddalar oz bo'ladi. Ular orasida eng to'yimliliigi kartoshka tugunagi xisoblanadi. Chunki 1 kg kartoshka tugunagi o'rtacha 0,3 kg oziq birligiga teng.

Silos asosan makkajo'xori poyasidan uning dumbullik davrida urib olib, maxsus uralarga maydalab solgan holda, zichlab tayyorlanadi (23-rasm). Sifatli silos o'zining xushxurligi, aromat hidi, parhyezlik xususiyati, mazasi va to'yimliliigi bilan boshqa tur hayvon oziqlaridan ajralib turadi. Har 100 kg sifatli silosda 28,9 oziq birligi va 1 kg silosda 9-12,5 g protein bo'lishi aniqlangan. Sifatli silos barcha turdagi chorva hayvonlari uchun foydali, nihoyatda yuksak samaradorlikka olib keluvchi, xushbuy va arzon oziq xisoblanadi.

Barcha turdagi oziqlarni mollarga berishdan avval qayta ishlash talab etiladi. Sersuv oziqlarga ham alohida e'tibor berish, ularni mollarga berish oldidan qayta ishlash muhim ahamiyatga ega. Bunda kullaniladigan eng asosiy tadbirlar qo'yidagilardan iborat: ildizmevalar va kartoshka tugunaklari loydan tozalanadi, yuviladi, chirigan, sasigan qismlaridan holi qilinadi, imkoni bo'lsa, ular diametri kupi bilan 3 sm qilib tug'raladi. Aks holda, nishxurda kup chikishi mumkin. Tug'ralgan ildizmevalar yem yoki maydalangan xashak, pichan, poxolga aralashtirib berilsa, hayvonlar uni ishtaha bilan yeydi.

Somonni kimyoviy qayta ishlash. Bunda eng oddiy somon 3-4 sm uzunlikda maydalanadi. Maydalangan massaga biroz shur suv sepiladi. Iloji bo'lsa unga don yormasi, pivo zavodlaridan keltirilgan barda yoki maydalangan ildizmeva kushiladi. Somonni bug'lash, maxsus uralarda namlab siloslash usullari xam kullaniladi, Yana bir usul somonning to'yimliliigini oshirish maqsadida sementlangan maxsus o'ra yoki transheyalarda u ammiakli suv bilan ishlanadi. Bunda 1 s somonga 12 l ammiakli suv sarflanadi. Suvdagi ammiak konsentrasiyasi 25 foiz bo'lishi kerak. Bunday ishlangan somonni 6-7 kundan (ammiak hidi ketgandan) keyin mollarga berish kerak.

Somon soʻndirilmagan oxak yoki ishqorlar bilan xam qayta ishlanadi. Buning uchun 100 l suvga 1 kg soʻndirilmagan oxak solinib 1 foizli ohak suvi hosil qilinadi va unga maydalangan somon (10-15 minut davomida) buktirib qoʻyiladi. 100 kg somon uchun 250- 300 l oxak suvi yetarli. Namlangan somonning suvi chiqib ketishi uchun u taxtadan maxsus yasalgan maydonchalarga olinadi, uning usti brezent yoki boshqa tur mato bilan yopiladi. Oradan 2-3 kun oʻtgach, u mollarga berish uchun tayyor boʻladi.

Silos bostirishdan asosiy maqsad, ulardan sersuv koʻk massaning tarkibidagi xayvon aʼzosi uchun nihoyat zarur xisoblangan mineral moddalar miqdorini mumkin qadar saqlagan holda bahor oylariga yetib borguncha, yaʼni yerda koʻkat oziqlar oʻsib chiqqaniga qadar foydalanishdan iboratdir. Siloslangan massa tarkibida sut achitqi bakteriyalarining faol ishtirokida ayrim moddalarning parchalanishi yuz beradi va oziqning isteʼmol qilinish xususiyati ortadi. Buning uchun oʻsimlikning namlik darajasi oʻrtacha 70-75% boʻlsa, sut achitqich bakteriyalarning faoliyati jadal boʻladi. Oʻsimliklarni siloslashda ularni dastavval maydalash tavsiya etiladi. Chunki maydalangan koʻk massa zich joylashadi va oʻzidan koʻproq sharbat ajratib chiqaradi. Xoʻjaliklarda koʻk massani sovuq holda siloslash yuqori samara beradi. Buning uchun siloslanadigan massa harorati 30-35° dan yuqori boʻlmasligi lozim. Boshqacha qilib aytganda, siloslash ishlarini ertalab yoki kechqurun salqinda bajarish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, bu yumushni choʻzib yubormasdan imkoni boricha qisqa muddat - 2-3 kun ichida bajarish lozim. Silos uchun keltirilgan koʻk massa imkoni boricha nihoyat yaxshi va zich joylanishi lozim. Ularning orasida va atrofida boʻsh yerlar qodirilmasligi, umuman, havo kirmasligini taʼminlash choralari qurilishi lozim. Bu esa yaxshi natijalarga olib keladi. Aks holda, silos mugʻollaydi va chirish hollari yuz beradi. Bu esa koʻplab isrofgarchiliklarga sabab boʻladi. Silos bostirishda oʻralar toʻldirilishi, iloji boʻlsa yer sathidan birmuncha (0,5-0,7 metr) balandroq boʻlishi va har tomonidan nishab qilingan holda berkitilishi hamda uning ichiga suv kirmasligi taʼminlanishi lozim. Silos oʻrasini toʻldirib, zichlab boʻlgandan soʻng uni usti brezent yoki polietelen plyonka bilan berkitilishi va ustidan (25-30 sm qalinlikda) loy yoki nam tuproq, bilan bostirilib, suvalishi darkor. Agar imkoni boʻlsa, silos oʻrasi ustida panalagich boʻlgani durust. Bu uni yogʻingarchilikdan saqlaydi.

Fermer xoʻjaliklari sharoitida silos uralari aylana yoki kvadrat shaklida, shuningdek, uzunlashtirilgan turtburchak shaklida va yer sathidan 2-2,5 m chuqurlikda boʻlishi tavsiya etiladi. Shuningdek, oʻradan silos olib chiqish choralarini koʻrish lozim. Buning uchun biror tomonidan nishab holda yul qoldirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Silos oʻrasining ichki devorlarini tekis va silliq qilib, iloji boʻlsa sement qorishmasi bilan, buning ilojisi boʻlmasa pishitilgan loy bilan tekis qilib suvash lozim. Bunday oʻralar qaziladigan joy uchun yer osti suvlari mumkin qadar chuqurroqda boʻlishi talab etiladi. Aks xolda bostirilgan silos chiriy boshlaydi va koʻtilgandek samara bermaydi.

Silosning boshqa turdagi xashak va sersuv oziqlardan afzalligi shundaki, uni turli xildagi oʻsimliklarga qaraganda kam kuch va mablagʻ sarflagan holda tayyorlash mumkin. Makkajoʻxori koʻk massasini siloslash jarayonida hoʻl qamish,

turli xil o't va o'simliklarni ham maydalab, umumiy massaga qo'shib yuborish mumkin. Natijada silosning sifati oshadi, hayvon ishtahasini ochadigan, yokimli, xushbo'y oziq vujudga keladi. Bunday massa xayvonlar tomonidan zo'r ishtaxa bilan iste'mol qilinadi.

Sug'orish tayyorlash texnologiyasi kisman bo'lsada, silos bostirish texnologiyasiga o'xshab ketadi. Lekin o'simlik massasida yuz beradigan fiziologik va biokimyoviy jarayonlar silos bostirishdagidan ko'ra farq qiladi. Asosiy farq shundaki, o'rib olingan ko'k massa namligini tezda 40-55% ga qadar kamaytirish kerak. Bu esa massani maydalashga qadar so'litish evaziga yuz beradi. O'simlik namligini quritish shkaflarida 105° issiqdida aniqlash mumkin. Sug'orish tayyorlashdan avval barcha tayyorgarlik ishlari amalga oshirilishi kerak. Masalan, ko'k massasining o'rib olish vaqti, hosildorligi, jami necha tonnani tashkil etishi, saqlash joyi, transport, yordamchi ishchi kuchi shular jumlasidandir.

O'zbekiston Chorvachilik ilmiy-tekshirish instituti tavsiyalariga ko'ra, ko'k massa maxsus minoralarga joylashtirilsa, uzog'i bilan 5-7 kunda, transheyalarga bostirilsa 3-4 kunda barcha ishlar yakunlanishi kerak.

Senaj tayyorlash texnologiyasiga to'g'ri amal qilinsa, uning har kilogrammida 0,30-0,36 oziq birligi, 40 g karotin, 60 g hazmlanadigan protein bo'ladi.

Silos inshootlari silos bostirish, saqlash uchun foydalaniladigan qurilmalar. Asosiy vazifasi - silos massasini havo, suv kirishdan, muzlab qolishdan saqlash. Transheya, minora va chuqur holda bo'ladi. Transheyalar baland, suv oqib tushib ketadigan, transportga qulay yerlarga quriladi. Yer usti, yarim chuqur va chukur transheyalar qilinadi. Yer usti transheyalar tekis, yer osti suvi yuza; yarim chuqur va chuqur transheyalar yer osti suvi chuqur yerlarga quriladi, Transheyalarning katta-kichikligi bostiriladigan silosning miqdoriga, chorva mollarining soniga qarab belgilanadi. Yer usti silos inshoti balandligi 3 m dan oshmasligi, yarim chuqur va chuqur silos inshotiniki 3 m dan kam bo'lmasligi kerak. Katta-kichikligiga qarab 250-3000 t ko'k massa ketadi. Ichki devorlari, osti beton, temir-beton, g'isht va boshqalardan qilinadi. Qulayligi va kam mehnat talab qilishi tufayli transheyalardan O'zbekistonda ham keng foydalaniladi. Xorazm viloyatida yer osti suvi yuza bo'lganligidan chuqur (transheya) lar yer ustiga temir-beton plitalardan quriladi.

Yem-xashak balansi xo'jalikda yem-xashakka bo'lgan ehtiyojni mavjud yem-xashakka taqqoslash. Odatda u chorva mollarining belgilangan davrda yem-xashak bilan qanchalik ta'minlanganligini aniqlash, agar kamchil bo'lsa, uni tayyorlash tadbirlarini ko'rish maqsadida kelgusi yil unum shuningdek perepektiv rejaga asosan bir necha yilga mo'ljallab tuziladi. Yem-xashakka bo'lgai ehtiyoj chorva mollarining miqdorini va yog'ini hisobga olgan holda, ularni to'g'ri boqishdagi ilmi ko'rsatmalarga asosan belgilanadi. Mavjud yem-xashak molxonada boqish davrida saqlashga qo'yilgan yem-xashak miqdoriga va yem-xashak ekinlari hamda yaylovlar maydoniga, ulardan olinadigai hosilning salmog'iga qarab aniqlanadi. Keyin har qaysi yem-xashak miqdori alohida hisoblanib, uning qancha oziq birligiga tengligi va tarkibidagi hazm bo'ladigan oqsil miqdori aniqlanadi. Yem-xashak balansining kirim va chiqim qismlari bor, kirim qismida rejalashtirilgan davrgacha bo'lgan yem-xashak xo'jalikning o'zida yetishtiriladigan va chetdan

olinadigan oзуqalar ko'rsatiladi: chiqim qismida chorva mollarining rejalashtirilgan davrdagi yem-xashakka bo'lgan ehtiyoji va davlatga sotiladigan yemxashak miqdori ko'rsatiladi. Mavjud yem-xashak miqdori yem-xashakka bo'lgan ehtiyojga teng kelishi kerak Yem-xashak balansi kelasi yillar uchun oзуqa bazasini mustahkamlash va uni rivojlantirish rejasi hamdir.

Nazorat savollari:

1. Hayvonlarni to'g'ri oziqlantirish deganda nimalarni tushinasiz?
2. Yem-xashakning hazm bo'lish koeffitsiyenti deb nimaga aytiladi?
3. Yem-xashakka dastlabki ishlov berish qanday olib boriladi?
4. Silos bostirish ishlari qanday olib boriladi?
5. Silos sifati qanday baholanadi?
6. Silos miqdori qanday aniqlaniladi?

3.2. CHORVACHILIK UCHUN YEM-SHIROT TURLARI.

Sug'orish oziqbop o'simliklarni (asosan beda va boshqa dukkakli va boshqoli o'simliklardan) 45-55% namligi qolguncha sulitib, ularni konservalangan holda, maydalab, zichlab tayyorlanadi. Tarkibida oqsil ko'p o'simliklar avval so'litiladi va namligi kamaygandan so'ng maydalab yoki maydalanmay chuqurlarga zichlab bostiriladi. Ustiga ikki qavat polietilen plyonka yopilib, 30 sm qalinlikda tuproq bilan ko'miladi. 20 kunda molga berish uchun tayyor bo'ladi. sug'orish ochilgach, kundalik rasionga loyiq miqdori olinib, darhol usti zich yopib qo'yilishi lozim. Aks holda havo ta'sirida oksidlanib, sifati buziladi. Usti ochilmagan sug'orishni 1-2 yil saqlash mumkin. Sug'orish bostirish uchun o'simliklar g'unchalash va gullay boshlash davrida o'riladi. U ser-suv va xushbo'y, servitaminli oziq hisoblanadi. U o'zining to'yimlili, mineral moddalarga boyligi, fizik va kimyoviy xususiyatlariga ko'ra pichan bilan silosning o'rtasida turadi. Uning nomi xam shundan (pichan-silos yoki sug'orish deb) kelib chiqqan. Sug'orish o'zining tarkibidagi o'simliklar turiga ko'ra uning har 1 kg da 0,4-0,5 oziq birligi va 60-65g hazm buluvchi protein borligi aniqlangan 100 kg beda sug'orishida 35-40 oзуqa birligi, 4-5 kg hazm bo'ladigan protein, 450-460 g karotin bor. . Bir sutkada sog'in sigirlarga 20-25 kg, buzoqlarga yoshiga ko'ra 2-4-6-10 kg, qo'ylarga 3-4 kg, qo'zilarga 1-2 kg sug'orish berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Sug'orish bostiriladigan chuqur eni 4-6 m, tubi 2,5-4 m, chuqurligi 2-2,5 m, uzunligi 80- 100 m qilinadi va sementlanadi. Bunday chuqurga 200-250 t sug'orish ketadi. Sug'orish tayyorlashda, caqlashda minora tipidagi maxsus inshootlardan foydalaniladi. Ular temir, temir-beton, g'isht, yog'och va boshqalardan quriladi. Devorlariga zich yopiladigan lyuk o'rnatilgan bo'ladi. Ferma terriyasida minoralar odatda oзуqa sexiga yaqin yerga joylashtiriladi.

Kimyoviy tarkibiga kuchaytirilgan yem nihoyatda to'yimli va turli xil moddalarga boy bo'ladi. Yem tarkibida suv va kletchatka kam bo'ladi. O'simliklar doni va donni qayta ishlashdan hosil bo'ladigan chiqindilar ham yemga kiradi. 1 kg yemning to'yimlili 1 oziq birligiga teng, ba'zan undan ham ortadi.

O'zbekiston sharoitida qoramollar uchun arpa, makkajo'xori va oqjo'xori yemidan foydalaniladi. Yemda fosfor ko'p, kalsiy oz bo'ladi, shuningdek 1 kg yemda 78-80 g oqsil bo'ladi.

Kepak to'yimliligiga ko'ra don va undan keyinda tursada, uning tarkibida oqsil va fosfor ko'p bo'ladi.

Kunjara moyli o'simliklar urug'idan moy (yog') siqib chiqarilgandan keyin qoladigan chiqindi. Qishloq xo'jalik hayvonlari uchun yem sifatida foydalaniladi. Tarkibida 8-10% moy bo'ladi. Urug' moyi yog' erituvchi moddalar (benzin, dixloretan va boshqalar) yordamida olinganda shirot deb ataladigan kukun kunjara qoladi. Uning tarkibida faqat 1-3% moy bo'ladi. kunjara tarkibida ko'p protein, V grupp vitaminlar va mineral moddalar bor. Kunjara va kukun kunjara tarkibida oqsil ko'p (1 kg da 300-370 g) bo'lganligi va to'yimliligiga ko'ra mollar uchun qimmatlidir. Kunjara mollarni to'q tutadi, sigirlar sutining serqaymoqligini oshiradi. Lekin uning tarkibida juda oz miqdorda rocsipol deb nomlangan zaharli modda bo'ladi. Shuning uchun kunjaraning quruq, o'zini mollarga ko'p miqdorda berish zararlidir. Konsentrat oziqlardan foydalanganda ularni qoramollarga aralash (omixta) yem sifatida berish foydali hisoblanadi.

Aralash (omixta yem) oziqlar maxsus resept asosida tayyorlanadi. Bunda har qaysi turdagi va mahsulot yo'nalishidagi hayvonlarning barcha xususiyatlari hisobga olinadi. 1 kg aralash oziqda 0,92 oziq birligi, 165 g hazm bo'ladigan protein, 10,5 g kalsiy, 6,8 g fosfor bo'lishi mumkin. Shuningdek, aralash oziqlarga vitaminlar va temir moddasi, mis, rux kabi mikroelementlar qo'shiladi.

Donador (granulalangan) oziqlar o't uni, yem va vitaminlardan hamda turli xil mineral moddalar qo'shib tayyorlanadi. Ular quruq sochma holda bo'lganligi uchun uzoq vaqt saqlanadi va mollarga osonlik bilan tarqatiladi.

Donador oziqlar chorva mollari va parrandalar turini hisobga olgan holda har xil yiriklikda tayyorlanadi. Masalan, parrandalar uchun 1-2 mm dan 5 mm gacha, cho'chqa bolalari uchun 7 mm, katta yoshdagi cho'chqalar uchun 9-10 mm, buzoqlar uchun 16 mm, sigirlar uchun 25 mm bo'ladi. Ayrim holarda tarkibi oqsil, vitaminlar, mineral moddalar va antibiotiklar bilan boyitiladi.

Briktlangan oziqlar - pichan, somon, kunjara, don va hokozolar aralashmasini maydalab, presslangan holda tayyorlanadi. Shunga ko'ra, saqlash uchun joy talab etiladi. Quruq bo'lganligi uchun uzoq vaqt saqlash mumkin. Koramollarga beriladigan briktlangan oziqlar tarkibi qo'yidagicha bo'lishi mumkin: makkajo'xori sutasi yoki boshog'i don poyasi 40-90%, qora byg'doy yormasi 5-15%, shuningdek kunjara, kukun kunjara, qand lavlagi turpi, ftorsizlantirilgan fosfat, osh tuzi, karbomid bo'lishi qabul qilingan. Otlar uchun tayyorlanganda: 40-45% pichan, 27-35 % arpa va boshqa qo'shimchalar bo'ladi.

Oziq ovqat sanoatining chiqindi va qoldiq maxsulotlari aralash yem kunjara uni, kunjara, shulxa va qishloq xo'jalik maxsulotlarini qayta ishlash natijasida olinadigan mahsulotlar chorvachilik uchun muhim yem manbai hisoblanadi.

Hayvonlarga beriladigan yem (don oziqlar) avval ma'lum darajada ishlovdan o'tkaziladi. Chunki don butunligicha berilsa, dag'al bo'lganligi uchun yaxshi hazm bo'lmaydi. Shuning uchun ularni maydalab, yorma holiga keltirib yoki un qilib

tortib so'ng mollarga berish yaxshi natija beradi. Turli donlardan (suli, makkajo'xori, arpa kabilardan) tayyorlagan un yoki yorma qilingan yemni uzoq vaqt saqlab bo'lmaydi. Ayniqsa, yoz kunlari ular tez achib qoladi, nam yerda saqlansa, mog'op bosadi. Shuning uchun ularni mollarga berishdan bir necha kun ilgari tayyorlash kerak. Mollarga beriladigan yem, un va kepak maydalangan xashak va sersuv oziqlar bilan aralashtirib berilsa, ularning to'yimliligi va hazm bo'lish xususiyati ortadi hamda mollar bunday oziqni ishtaha bilan iste'mol qiladi.

Fermalarda barcha o'simliklaridan olingan kepak va unni mollarga berishdan oldin biroz achitiladi va xushbuyligi oshiriladi. Buning uchun katta hajmli taxta yashiklardan foydalaniladi.

Kunjarani chorva mollariga maydalab, kukun kunjarani esa shundayligicha yoki suvda ivitib berish tavsiya etiladi. Ba'zan boshqa yemlarga aralashtirilib, maxsus agregatlar - mashinalarda bug'lantirib berish uning to'yimliligini va xushxurligini oshiradi, organizmda yaxshi hazm bo'ladi

Shirot (Schrot - kukun), kunjara uni yog'-moy sanoati chiqindisi. Chorva mollari uchun yaxshi ozuqa, Tarkibida 45% gacha oqsil, 1-3% yog', 15-17% kletchatka, 6-7% kul; 1 kg kunjara unida 0,79 ozuqa birligi, 28 g oqsil, 0,3 g kalsiy va 2,5 g fosfor bor. Moyli o'simlik urug'lari va chigitdan yog' ajratib olinganda chiqadi.

Shulxa yog'-moy sanoati chiqindisi; chorva mollari uchun eng yaxshi ozuqa. Tarkibida 4- 6% oqsil, 2-3% yog', 37% azotsiz ekstraktiv moddalar va 43% kletchatka bor. 1 kg Shulxada 0,21 ozuqa birligi, 10 g oqsil, 1,9 g kalsiy va 0,9 g fosfor, 0,02-0,05% zaharli yoki zararli modda bo'ladi. Chigitdan moy ajratib olinganda 70% gacha chiqadi.

Aralash (omixta) yem tayyor holda zavoddan keltiriladi. Binobarin, aralash yemdan foydalanishda ham yuqoridagi usullarni kullash ijobiy natijalarga olib keladi.

Aralash yem, kombikorm turli ozuqalar, asosan yemlarning maydalangan aralashmasi. Aralash yem har xil yoshdagi chorva mollari va parrandalar uchun maxsus resept bo'yicha zavod va chorvachilik xo'jaliklarida tayyorlanadi,

Yem-xashak sexi hayvon va parrandalarga beriladigan turli ozuqalarni qayta ishlash uchun kerakli mashina va uskunalar bilan jihozlangan maxsus bino. Unda xashaq sershira ozuqa va yem tayyorlanadigan alohida xonalar bo'ladi Odatda, yem-xashak sexi bilan molxona hamda ozuqa saqlanadigan ombor o'rtasida osma yoki yer ustida quriladi. Shuningdeq Yem-xashak sexi ildizmevalarni yuvadigan, yem-xashak bug'lagich, kartoshka to'g'ragich, yem-xashak maydalagich va boshqa yem-xashak tayyorlash mashinalari bilan jihozlangan, asosiy jarayonlari esa mexanizasiyalashgan bo'ladi.

Chorva mollariga har bir yemni ma'lum nisbatda aralashtirib berish katta ahamiyatga ega. Chunki bunda bir yem tarkibida yetishmaydigan ayrim moddalar boshqalari hisobiga to'ldiriladn, shuningdeq yemga aminokislotalar, mikroelementlar, antibiotik va vitaminlarga boy moddalar qo'shib, uning umumiy biologik qimmati ancha oshiriladi. Hozir Aralash yemning donador xili yaratilgan. Toshkent viloyati xo'jaliklarida chorva mollari va parrandalarga aralash yem berish

yaxshi natija berdi. Respublikamizda (Toshkent va boshqa shaharlarda) aralash yem ishlab chiqaradigan bir necha zavod qurilib, ishga tushirilgan.

Nazorat savollari

- 1.chorvachilik uchun yem-shirotlarningh tarkibi qanday bo'lishi kerak?
- 2.Aralash (omixta yem) oziqlar qanday tayyorlanadi?
- 3.Shirot va shulxa tarkiblari qanday?
- 4.Yem-xashak sexida qanday ishlar bajariladi?

BOB.IV. PARRANDACHILIK HAQIDA

4.1. PARRANDACHILIK FERMALARINING ISH FAOLIYATI.

Parrandachilik chorvachilikning bir tarmog'i. Go'sht, tuxum, shuningdek pat va par yetishtirish uchun parranda (asosan, tovuq, o'rdak g'oz va kurka) boqiladi. Go'shti uchun boqilgan 2-2,5 oylik tovuq jo'jasi 1,4-1,6 kg keladi. Tovuq 5-6 oylikdan tuxumga kiradi. Tovuq yiliga o'rtacha 250 ta tuxum qiladi. Bitta o'rdakdan bir yilda 70-100 jo'ja (170-200 kg go'sht), bitta kurka naslidan 100-120 kg, bitta g'oz jo'jalaridan esa 70- 160 kg go'sht yetishtirish mumkin. 60 g li tovuq tuxumi tarkibida 5 g yog', 7,5 g oqsil, A, V, D, E, K vitaminlar va mineral moddalar; go'shtining tarkibida esa 20% gacha oqsil, 7-8% yog va 1% mineral moddalar bor. Ko'plab tuxum va go'sht yetishtirish uchun tashkil qilingan, ixtisoslashtirilgan parrandachilik xo'jaliklari mavjudefoliyasiya 1964 yilda parrandachilik ishlariga rahbarlik qilish uchun sanoat parrandachilik boshqarmasi sobiq «Uz-ptiseprom» tashkil etildi. Parrandachilik inkubator stansiyalari; fabrikalar uning ixtiyoriga o'tdi. O'zbekistonda ixtisoslashtirilgan 15 ta parrandachilik fabrikasi, 8 ta, 2ta naslchilik zavodi va 5 ta inkubator stansiyasi 5or. Mexanizasiyalashtirilgan yirik xo'jaliklarda 1 kg parranda go'shti uchun 2-2,5 kg, 10 dona tuxum uchun 1,7-1,8 kg aralash oziq sarflanmoqda. Chorvachilikning boshqa tarmoqlaridan parrandachilikning afzalligi ham shunda, shu bilan birga, parrandachilik mahsulotni qisqa muddatda ko'p yetishtirish imkoniyati ham bor. Ixtisoslashtirilgan yangi xo'jaliklar barpo etish va mavjudlarini kengaytirish esa tuxum tannarxini kamaytirish va parrandachilik mahsulotini ko'paytirish imkonini beradi.

Parrandachilik sohasida ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va konsentrasiyalash yaxshi samara bermoqda. 1960 yilda inkubator - parrandachilik fabrikalari tashkil etilgan edi, hozir tuxum va broyler go'shti yetishtirish bo'yicha yirik mexanizasiyalashtirilgan 19 ta kompleks mavjudefoliyasiya Kurka va o'rdak go'shti yetishtirish bo'yicha ixtisoslashtirilgan xo'jaliklar va yangi komplekslar tashkil etildi. Tuxum va broyler go'shti yetishtirishga mo'ljallangan yangi parrandachilik fabrikalari qurilib, ishga tushirilmoqda. Yangiyo'l, Farg'ona broyler fabrikalarida 2 mln. dan ortisq go'shtdor jo'ja boqilmoqda. Yirik broyler fabrikalari 6 mln. gacha jo'ja boqishga mo'ljallangan. Parrandachilik fabrikalaridagi mehnat kompleks avtomatlashtirilgan. Broyler parrandaxonalarini avtomatlashtirishda «Broyle-10» va «Broyle-20» kabi maxsus uskunalar komplektidan foydalaniladi. O'zbekiston parrandachiligida ixtisoslashtirilgan korxonalar qo'yidagi yo'nalishlarda ish olib bormoqda: Tuxum yetishtirish serpusht tovuq zoti va liniyalarini boqib, tovar mahsulot tuxum olinadi. Bunday xo'jaliklarda yetishtiriladigan parranda go'shti qo'shimcha mahsulot hisoblanadi. Go'sht yetishtirish go'shtdor parranda zoti boqiladi, bunda parranda go'shti tovar mahsulot, tuxum esa qo'shimcha mahsulot (xo'jaliklar tovuq, kurka, g'oz va o'rdak jo'jalarini boqishga ixtisoslashtirilgan) bo'ladi. Broyler parrandachilik fabrikalari, ixtisoslashtirilgan fermalar shu yo'nalishda ishlaydi. Naslchilik ishlari naslchilik

zavodlarida, asosan, inkubasiya qilinadigan tuxumlar hamda nasldor parranda jo'jalari yetishtiriladi.

Parrandalarning turi va yoshiga, xo'jalikda foydalaniish yo'nalishiga hamda asrash sistemasiga qarab har xil bo'ladi. 30- 60 kunlikkacha bo'lgan tovuq jo'jalari batareyali sexlarda (yerda yoki kataklarda), 60-70 dan 140-150 kunlikkacha bo'lgailari esa akklimatizatorlarda asraladi. Ko'pchilik xo'jaliklarda 1 dan 140-150 kunlikkacha bo'lgan jo'jalar bitta Parrandachilikda boqiladi. O'rdak va kurka jo'jalari, ba'zan dastlabki 10-20 kunda batareyali sexlarda saqlanadi. Go'sht uchun boqiladigan jo'jalar (broylerlar), 1 dan yoki 21 day 120 kunlikkacha bo'lgai kurka jo'jalari va 1 dan yoki 10-20 dan 55 kunlikkacha bo'lgan o'rdak jo'jalari maxsus parrandachilikda o'stiriladi. Voyaga yetgan parrandalar yerda, sanoat maqsadida yetishtiriladiganlari esa yerda va katakda boqiladi. parrandachilik eni 12 yoki 18 m, bo'yi 72, 84, 96 va 108 m qilib quriladi. Sanoat maqsadida boqiladigan 120-150 ming bosh tovuqqa mo'ljallangan 4-6 qavatli va 80 ming broylerga mo'ljallangan 4 qavatli tajriba parrandachilik fabrikalari qurilmoqda.


Parrandachilik fabrikasida ishlab chiqarish jarayoni bari avtomatlashtirilgan va mexanizasiyalashtirilgan. 100-900 ming va undan ortiq tovuq boqiladigan parrandachilik fabrikalari bor. Yetishtiradigan mahsulotiga qarab, tuxum hamda go'sht (broyler) olish uchun parranda boqi-ladigan fabrikalar mavjudefolyasiya Asosan, tuxum yetishtiriladigan Parrandachilik fabrikasida parranda go'shti va inkubasiya uchun tuxum, asosan, parranda go'shti (broyler) yetishtiriladigan Parrandachilik fabrikasida esa inkubasiyaga yaroqsiz tuxumlar qo'shimcha mahsulot hisoblanadi. Go'sht uchun mo'ljallangan fabrikalar tovuq go'shti, kurka go'shti va o'rdak go'shti yetishtirish tarmoqlariga bo'linadi. Parrandachilik fabrikasining bir yoki ko'p qavatli kataklarda va polda (yerda) parranda boqiladigan xillari bor. Polda parranda boqiladigan Parrandachilik fabrikasi poli qalin, almashtirilmaydigan to'shamali, parrandalar yayratiladigan maydonchali yoki maydonchasiz bo'ladi. Tuxum olish uchun polda parranda boqiladigan fabrikalarda «Promishlenniy I», «Promishlenniy II», «Promishlenniy I-s», «Promishlenniy II-s» markali texnologik uskunalar ko'p qo'llaniladi. Go'sht uchun polda parranda boqiladigan fabrikalarda «Broyler-10», «Broyler-20», SBK-Yu va SBK-20 markali uskunalaridan; kataklarda parranda boqiladigan fabrikalarda KBE-1, KBM-2, KBM-1, OBN, KBU- 3, KBU- 4, KBNS- 4 markali batareyalardan foydalaniladi. Parrandachilik fabrikalaridagi oziq tarqatish, binoni tozalash, tuxumlarni yig'ib olish, tegishli mikroiklim va yorug'lik rejimi yaratish ishlari mexanizasiyalashtirilgan.

Nazorat savollari

- 1.Parrandachilikni xalq xo'jaligida qanday ahamiyati bor?
- 2.Parrandachilik fabrikalaridagi mehnat qanday tashkil qilinadi?
- 3.Parranda tuxumini ozuqaviy qiymati qanday?
- 4.Parranda go'shtini ozuqaviy qiymati qanday?

4.2. JO‘JALARNI BOQISH TEXNOLOGIYASI

Parrandachilik xo‘jaliklarini ixtisoslash darajasiga qarab jo‘jalarni polda yoki



24-rasm. Inkubasiyadan chiqqan bir kunlik jo‘jalarni guruh holda boqish.



25-rasm Go‘st uchun boqilayotgan broyler jo‘jalarning osma oxurlardan oziqlanish jarayoni.

kataklarda boqish va parvarish qilish usullari qo‘llaniladi. Bunda parrandalar polda boqiladigan bo‘lsa, unga maydalangan xashak yoki poxol tushaladi. Dastlab tushama 5-7 sm qalinlikda solinsa, keyin uni 25-30 sm gacha etkaziladi. Shuningdek, ayrim hollarda bu maqsadda sim turdan yasalgan pollardan foydalansa ham bo‘ladi. Hozirgi vaqtda jo‘jalarni kataklarda boqish usuli keng qo‘llanilmoqda. Bunday xonalarga 4-5 martadan ham ko‘proq jo‘jalarni joylash mumkin bo‘ladi. Jo‘jalar uchun xonalar toza, epyg‘ va etarli darajada keng, iliq bo‘lishi lozim.

Ayniqsa, havo salqin va sovuq bo‘lsa xonaning harorati parrandalarning yoshiga qarab o‘zgartirilib turilishi talab etiladi. Jo‘jalar boqiladigan xonalarda havoning o‘rtacha namligi 65-70 foiz atrofida bo‘lishi kerak. Jo‘jalarni kataklarda boqish va parvarishlashda ularning oriqlari va nimjonlari yuqori qavatlariga, baquvvat va sog‘lomlari ostki qavatlariga joylashtirilishi lozim (24-

rasm).


Tovuq jo‘jalari bir oylik bo‘lganida erkaklari urg‘ochilaridan ajratilib alohida xonalarda boqiladi. Bunda nasl uchun qoldiriladigan jo‘jalarni 40-60 kunligiga qadar maxsus xonalarda saqlash tavsiya etiladi. Go‘st uchun ajratilganlari esa o‘z kataklarida qoldiriladi.

O‘rdak va g‘oz jo‘jalari 15-20 kunligiga qadar kataklarda, so‘ngra lager sharoitida boqiladi. Imkon bo‘lsa buning uchun kulmak yoki sekin oqadigan suvlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Ayniqsa, turli xil hasharot, itbaliq, mayda baliqlar va suv o‘tlari ko‘p bo‘lgan ko‘lmak suvlar juda foydalidir.

Broyler inglizcha so‘z bo‘lib, qovurma jo‘ja degan ma‘noni bildiradi. Broyler jo‘jalarini mehnat jarayonlari to‘la mexanizasiyalashtirilgan yirik xonalarda boqish mehnat samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bunda ular 55-60 kunligiga qadar boqiladi. Ana shu davrda ularning vazni 1,5-1,8 kg ga etib, har bir kg semirishi uchun 2,6-2,8 kg oziq birligi sarflanadi (25-rasm). Hozirgi vaqtda 5 mingdan 20 ming bosh jo‘jaga mo‘ljallangan maxsus «Broyler-10» va «Broyler-20» markali qurilma komplektlari mavjud. Komplekt quruq oziq saqlashga mo‘ljallangan bunker, 4 va 6 tizim (liniya) uchun moslashtirilgan harakatchan vakuumli oziq tarqatgich, 4,5 hajmli sug‘orgichlar va barcha jarayonlarni boshqarib turish uchun

pult bilan jihozlangan. Komplektga jo‘jalarni qo‘yishdan oldin xonalar yaxshilab tozalanadi, dezinfeksiya qilinadi, so‘ndirilgan ohak sepiladi va 5-7 sm qalinlikda to‘shama tushaladi.

Har 12 ta jo‘ja uchun 1 m² joy ajratilib, har 500 jo‘ja uchun bitta elektr isitgich urnatiladi. Jo‘jalar 20 kunlik bo‘ulguncha derazadan tushadigan yorug‘lik kifoya



26-rasm. Broyler jo‘jalarni 8-9 hafta boqib ko‘p miqdorda parhyez go‘sht yetishtirib beruvchi qurilma.

qiladi va 40 kunligigacha yorug‘lik miqdori sutkasiga 16-18 soatgacha kamaytiriladi. Broylerlarni derazasi bo‘lmagan xonalarda boqish yaxshi natija beradi. Bunda sutka davomida oz miqdorda sun‘iy yorug‘lik beriladi. Agar yorug‘lik qizil rangda bo‘lib faqat oxurlarning ustiga o‘rnatilgan bo‘lsa, jo‘jalarning semirishi yanada yaxshi bo‘ladi (26-rasm).

Broylerlar semirishi bilan maxsus temir kataklarda qushxonalarga jo‘natiladi. Bu tadbir qisqa muddat ichida bajarilish lozim, aks holda, kataklarda

turib qolgan jo‘jalarning vazni soatiga 0,34 foiz kamayib boradi. Shuning uchun broylerlarni tashishda transport va barcha vositalardan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Parrandachilik xo‘jaliklarini ixtisoslash darajasiga qarab jo‘jalarni polda yoki kataklarda boqish va parvarish qilish usullari qo‘llaniladi. Bunda parrandalar polda boqiladigan bo‘lsa, unga maydalangan xashak yoki poxol to‘shaladi. Dastlab to‘shama 5-7 sm qalinlikda solinsa, keyin uni 25-30 sm gacha etkaziladi. Shuningdek ayrim hollarda bu maqsadda sim turdan yasalgan pollardan foydalansa ham bo‘ladi. Hozirgi vaqtda jo‘jalarni kataklarda boqish usuli keng qo‘llanilmoqda. Bunday xonalarga 4-5 martadan ham ko‘proq jo‘jalarni joylash mumkin bo‘ladi. Jo‘jalar uchun xonalar toza, yorug‘ va etarli darajada keng, iliq bo‘lishi lozim. Ayniqsa, havo salqin va sovuq, bo‘lsa xonaning harorati parrandalarning yoshiga qarab o‘zgartirilib turilishi talab etiladi.

Jo‘jalar boqiladigan xonalarda havoning o‘rtacha namligi 65-70 foiz atrofida bo‘lishi kerak. Jo‘jalarni kataklarda boqish va parvarishlashda ularning oriq va nimjonlari yuqori qavatlariga, baquvvat va sog‘lomlari ostki qavatlariga joylashtirilishi lozim.

Tovuq, jo‘jalari bir oylik bo‘lganida erkaklari urg‘ochilaridan ajratilib alohida xonalarda boqiladi.

O‘rdak va g‘oz jo‘jalari 15-20 kunligiga qadar kataklarda, so‘ngra lager sharoitida boqiladi. Imkoni bo‘lsa buning uchun ko‘lmak yoki sekin oqadigan suvlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Ayniqsa, turli xil hasharot, itbaliq mayda baliqlar va suv o‘tlari ko‘p bo‘lgan ko‘lmak suvlar juda foydalidir.

Nazorat savollari:

1. Jo'jalarni boqish va parvarishlash ishlari qanday olib boriladi?
2. Broylar jo'jalarni qanday parvarishqilinadi?
3. O'rdak va g'ozlari qanday texnologiyada boqiladi?
4. Parrandachilik xo'jaliklari qanday ixtisoslashgan?


4.3. PARRANDACHILIKDA (O'RDAK TOVUS, AJIR KAPTAR VA BOSHQA) SAYROQI GO'ZAL QUHLARNI PARVARISHLASH.

Sayroqi qushlar donxo'r va hasharotxo'rlarga bo'linadi. Donxo'r qushlarga: bedanalar, bolta tumshuqlar, ko'kchumchuqlar, kanareykalar, kanoplyankalar, to'qay chumchuqlar, fatmachumchuqlar, to'tilar, snegirlar, sa'valar va boshqalar; hasharotxo'r qushlarga - qizilquyruqlar, qorayaloqlar, so'fito'rg'aylar, chittaklar, qora shaqshaqlar, moyqutlar, bulbullar va boshqalar kiradi. Yaxshi parvarish qilib boqilgan qushlar qafaslarda 2 yilgacha (ba'zan ko'proq ham) yashaydi va yaxshi sayraydi. Sayroqi qushlardai chijlar, to'qay chumchuqlari, zaryankalar, shaqshaqlar va chittaklar odamga tezroq o'rganadi. Kanareykalar tutqinlikda oson ko'payadi va xonakilashadi. Kanareykalarining ko'p zotlari tashqi ko'rinishi hamda sayrashi bilan farqlanadi va ular yaxshi sayraganligi uchun qafaslarda; bedanalar esa to'rqovoqlarda boqiladi. Qorayaloq, bulbullar, shaqshaq, qizilquyruq, chittak va bedanalar juda yoqimli sayraydi; sa'va, zyabliq konoplyanka, to'qay chumchuqlari yaxshi sayroqiligi uchun, ko'kchumchuqlar esa chiroyli patlari uchun asraladi; to'tilar ham chiroyli pati va turli xil tovushlarni, jumladai odam ovozini ifodalaganligi uchun saqlanadi. Sayroqi qushlar uchun oziq imkonini boricha ular tabiatda iste'mol qiladigan oziqlarga yaqin va turli-tuman bo'lishi zarur. Donxo'r qushlar tariq hamda sholg'om, qushqo'nmas, qaragay, qoraqag'ay, ko'knori, suli, bedaga va boshqa o'simliklarning urug'lari bilan ochiqilanadi. Kungaboqar va nasha urug'lari ko'pgina qushlarning sevimli ozuqasi, lekin bu urug'larni qushlar ko'plab esa, ko'r bo'lib qoladi va o'ladi. Shuning uchun bu urug'larning oziq rasponidagi miqdori me'yorida bo'lishi kerak, nasha urug'ini faqat qaynoq suvda yuvib keyin beriladi, bunda uning tarkibidagi zaharli modda-kannabin tarkibi buziladi.

Oziq tarkibi qushlarining individual xususiyatiga qarab turli xil bo'lishi kerak. Masalai, shaqshaqlarga qariqiz urug'i ko'proq beriladi. Hasharotxo'r qushlarga qaynagan suvda yoki sutda yuvilgan chumolilarning quruq tuxo'mi asosiy oziq hisoblanadi. So'fito'rg'aylarga mayda don ozuqalari, chittaklarga ezilgan kungaboqar urug'lari va issiq suvda yuvilgan nasha urug'idan ozroq beriladi. Qushlarning oziqlanishiga qarab donxo'r va hasharotxo'rlarga ajratish shartli hisoblanadi. Ko'pgina hasharotxo'r qushlar rezavor mevalarni va o'simlik urug'larini xush ko'rib eydi. Donxo'r va hasharotxo'r qushlarga yangi ko'katlar: salat, karam, xonada o'stirilgan suli, bug'doy doni berish kerak. Qushlar uchun ko'k piyoz zaxarli hisoblanadi. Donxo'r qushlarga ozuqani, sutkasiga bir marta (ertalab), hasharotxo'r qushlarga esa (bularning ozuqasi yozda tezda buziladi) kuniga ikki marta berish kerak. Bunda ozukaning bir qismi keyingi oziqlantirishga koldiriladi, suvni har kuni almashtirib turish lozim. Donxo'r qushlar qafasini haftasiga kamida

bir marta, hasharotxo'r kushlar qafasini esa haftasiga kamida ikki marta tozalash tavsiya etiladi. Bunda qafas tubidagi qum almashtiriladi, qafas yo'ylaridagi iflos va axlatlar tozalanadi. Sayroqi qushlar boshqa hayvonlar kabi yuqumli va 10 qumsiz kasalliklarga chalinadi, sayroqi, qushlarning qafasda kam harakatlanishi va tabiatda eydigan ozuqalarining bo'lmasligi ularning kasalliklarga chalinishiga sababchi bo'ladi. Sayroqi qushlarning kasallanishidagi umumiy belgilar: ishtahasi yo'qoladi, bo'shashadi va uyqu bosadi, odatdagidai ko'proq o'tiradi, ko'zi yumiladi, boshini qanoti ostiga yashiradi, uning patlari xiralashadi (yaltiroqligini yo'qotadi), quruqlashadi, egiluvchanligi yo'koladi, hurpayadi, qanotlari osilib qoladi. Kasallik belgilari bor qushlarni veterinar vrachga ko'rsatish kerak. Bahor boshlanishi bilan qushlarni erkinlikka qo'yib yuboradiganlar shuni yodda to'tishlari kerakki, qushlar tutqunlikda tabiiy ko'nikmalarining bir qismini yo'qota-dilar va tabiiy hayotga qaytadai moslanishlari kerak. Odam yashaydigan joylarga yaqin qo'yib yuborilgan qushlar ko'pipcha nobud bo'ladi. Shuning uchun qushlarni aholi yashaydigan joylardan uzoqroq erlarga qo'yib yuborish lozim Bunda shu erlarda mazkur turga mansub individlar bo'lishi va qorlar to'liq erib ketgan bo'lishi kerak (aks holda qushlar oziq etishmasligidan nobud bo'lishi mumkin). Yomon uchadigan yoki qafasda bir necha yil asralgan qushlarni erkinlikka qo'yib yubormaslik kerak. Bahorda qo'yib yuborilmoqchi bo'lgan qushlarni qishda katta qafaslarda saklash kerak bunday joyda ular qanotlarini shikastlamaydilar.

Qafaslar. Mayda qushlar uchun (snegir, sa'va va boshqalar) qafaslarning hajmi qo'yidagicha: uzunligi 40-50 sm, eni 35-45 sm, balandligi 30-40 sm bo'lishi



27-rasm. Kaptarlar: 1-musicha; 2-klintux; 3-gov kaptar; 4-ko'k kaptar.

mumkin. Qushlar tor qafaslarda qanot va dum patlarinn urib tushiradi; qushlarning kam harakatlanishi ularning semirishiga sabab bo'ladi, katta qafaslarda ancha vaqtga qadar qo'rqib turadi. So'fito'rg'ay va boshqa erda yashovchi qushlar uchun qafasdagi pol hajmi boshqa tur qushlarnikiga nisbatan birmuncha kattarok bo'lishi korak. Mavjud nusxalarga qarab har xil kattalikdagi qafaslarni uzingiz yasashingiz qiyin emas. Qafasni toza saqlash uchun uning tubi ikki qavat bo'lishi kerak. Bir tubi harakatlanmaydi (eng tagidagi), ikkinchisi esa past devorli yashikcha ko'rinishida bo'lib suriladi. Harakatlanuvchi tubining yonida tor yog'och qutiga oziqlantirgich yasash kerak. Suv uchun chinni yoki shisha (sopol idish ham yaraydi) qo'yiladi. Qafasning tubiga toza daryo qumi qatlami solish lozim, bu ifloslarni o'ziga tortib oladi. So'fito'rgaylar va

bedanalardan tashqari hamma qushlar uchun kafasga yaxishlab tekislangan diametri 8-12 sm li ikkita qo'ndiq qo'yiladi. Qafasda bitta qush saqlash mumkin; ko'p kush saqlanadigan bo'lsa, maxsus joy va to'siqlar bo'lishi zarur. Qafaslarni yorug' joyga qo'yish, lekin elvizak joyda turmasligi kerak. Sayroqi qushlar temperatura va havo namligining keskin o'zgarishiga va is urishiga chidamsiz bo'ladi. Qafas yaqinidan

bexosdan chiqqan ovoz, yorqin yorug'liq odamlarning keskin harakati, qafas yaqinida kuchuk va mu-shuklarning paydo bo'lpshi qushni juda cho'chitadi va uning o'limiga sababchi bo'lishi mumkin. Qiyin ko'nikadigan qushlar uchun xonalarda qafaslarni odam bo'yidan baland va ypnatish kerak. Yaqinda to'tilgan qushlarga tinchlik yaratish va turli xil oziqlar berib turish lozim Bedana, so'fito'rg'ay, bulbul va ba'zi bir moyqo'tlar uchun qafas tepasining simli to'rini yumshoq mato bilan alkashtirish kerak chunki bu qushlar qurqqanida tikkasiga uchadi va boshini urib yorishi mumkin. Qafaslarini turli bezaklar bilan bezamaslik kerak chunki bular qushlarning parazitlari uchun boshpana bo'lib xizmat qiladi.

Kaptar, kaptarlar (Columbae)-qushlar sinfining kenja turkumi (27-rasm). Bunga barcha kaptar, musicha, g'urraq qumrilar kiradi. 255 tacha turi bor. Arktika va Antarktidadan tashqari barcha qit'alarda tarqalgan. Ular o'rmonlarda, bog', butazorda, cho'l, tog'larda, shahar va qishloqlarda yashaydi, Kenja turkumga mansub qushlar bir-birlaridai katta-kichikligi va rangi bilan farq qiladi. Eng kichigi Markaziy Afrikada tarqalgan, bo'yi 10-15 sm bo'lgan mitti kaptar, eng kattasi esa Yangi Gvineyada yashaydigan, bo'yi 80 sm cha tojlikaptardir. Kaptarning boshi kichiq oyoq va buyni qisqa, qanoti uzun. Pati va parlari qalin. Donxo'rlarining tumshug'i ingichka va kuchsiz, mevaxo'rlariniki kuchli va qayrilgan. Kaptarda jig'ildon yaxshi rivojlangan. Ba'zi turlari koloniya, ba'zilari juft-juft bo'lib yashaydi. Uyasini daraxt kovaklari va inlariga, jar, qoyalarga yasaydi. K 2-5 marta, har gal 1-2 ta tuxum qo'yadi Tuxumni bosishda va bolasini boqishda urg'ochi va erkagi qatnashadi. Tuxumdan 14-30 kunda jish bola chiqib, 20-25 kunda uchirma bo'ladi. Kaptar ikkita oilaga bo'linadi: biri 16-asrda qirilib bitgan drontalar bo'lib, Mavrikiya, Burbon va Rodrigues orollarida yashagan, ucholmaydigan katta qush bo'lgan. Ikkinchi oilasi - kaptarlar bo'lib, bular bir qancha urug'dai tashkil topgan. O'zbekistonda Kaptarning ikkita uruqqa mansub 9 turi bor. Asl kaptarlar urug'idan bizda ko'k yoki yovvoyi kaptar, tog' kaptar, qora kaptar, klintux va gov kaptar uchraydi. G'urraklar urug'idan esa gurraq katta gurraq qumri va musicha uchraydi. Asosan, ko'k kaptar keng tarqalgan. U xonaki kaptarlarning nasl boshi. Gov kaptar va ko'k kaptar qisman ovlanadi. Go'shti mazali. Bizda uchraydigan kaptarlar o'simlik urug'lari bilan ovqatlanadi. Xonaki kaptarlarning 150 tacha zoti bor. Ulardan xat tashiydigan pochta kaptarlar zoti yaxshilab borilmoqda; go'shtdor zotlarning bir juftidan bir yilda 8-9 kg go'sht olish mumkin; sport zotlari buqoqli, soqolli, kokilli, sersavlat zotlari faqat havaskorlikda ko'paytiriladi.

Nazorat savollari

- 1.Sayroqi qushlarni qanday turlari bor?
- 2.Qushlarning oziqlanishi qanday bo'ladi?
- 3.Kaptarlar qanday qushlarga kradi?
- 4.Qushlar uchun qafaslar qanday bo'ladi?

4.4. BEDANA PARRANDASI BOQIB PARVARISHLASH

Bedanachilik bo'yicha bedanalarni urchitish, ko'paytirish va ulardan daromad

olish masalalari bilan asosan qiziquvchilar shug'ullanib kelmoqdalar.

Bedana go'shti va tuxumi o'zining shifobaxshligi va parhezligi bilan boshqa tur parrandalardan ajralib turadi. Ayrim kasalliklar: yurak va qontomir kasalligi, kamqonlik, oshqozon yarasi, sil, qon bosimini yuqori bo'lishi, modda almashinuv kasalliklari uchun bedana go'shti va tuxumi dori sifatida foydalaniladi. Bedananing xom tuxumi apelsin sharbati bilan qushilgan holda astma kasalligini davolashda ishlatiladi. Bunga asosiy sabab tuxum tarkibida inson hayoti- uchun nihoyat zarur hisoblangan stimulyatorlar bo'lishi hisoblanadi. Binobarin, bedana tuxumi yosh, nimjon bolalar uchun ham foydalidir.

Bedana go'shti o'zining lazozatligi, xushxurligi va mazasi bilan boshqa turdagi go'shtlardan birmuncha ustun turadi. Bedanalar o'zining sertuxumligi bilan boshqa barcha tur parrandalardan ajralib turadi. Bedana jo'jalari 35-45 kunligidan tuxum bera boshlaydi va bir yil davomida 250-300 dona tuxum beradi. Tuxumining og'irligi 10-11 g atrofida bo'ladi. Olib borilgan kuzatishlarga ko'ra bedanalarining bir yil davomida bergan tuxum vazni (massasi) uning vaznini 20 barobar og'irligini tashkil etar ekan. Bu ko'rsat-kich tovuqlarda 10 martani tashkil qiladi. Bedanalardan 1 kg tuxum massasini olish uchun 5-7 kg omixta yem talab etilar ekan. Ular uz tuxumlarini kunning ikkinchi yarmida qo'yishga moslashganlar. Yosh bedanalarining dastlabki quygan tuxumlari 5-6 g tosh bossa, oradan 2-3 oy utgach bu ko'rsatkich 9-12 g ni tashkil etar ekan. Bedana tuxumlari ularning 60-70 kunligidan boshlab inkubasiya uchun yaroqli hisoblanar ekan.

Bedanalardan ko'proq daromad olish uchun ularni to'g'ri asrash va boqish ishlariga alohida e'tibor berish talab etiladi. Ular asosan kataklarda saqlanadi va har 2-3 ta urg'ochi (makyoni)ga 1 ta erkagi rejalashtiriladi. Makiyonlarni urug'lantirish uchun ular tuxumini qo'yib bo'lgach har 1-2 kunda 15-20 minutdan erkagini kiritish mumkin. Lekin ayrim hollarda ikkita urg'ochisi uchun bittadan erkagi doimiy birga saqlanishi ham yaxshi natija berishi aniqlangan. Ayrim xo'jaliklar bedanalarini kup qavatli maxsus kataklarda saqlaidilar. Bunda har 1 m² katak sathiga o'rtacha 50 ta bedana saqlash mumkin. Lekin har bir katakcha 3-4 boshga mo'ljallanishi yaxshi natija be-radi. Bedana kataklari yug'onligi 2,5-2,0 mm bo'lgan simdan tayyorlanishi mumkin. Katak teshiklari o'rtacha 20 mm bo'lishi tavsiya etiladi. Katakni ostki qismi (poli) biroz old tomonga qarab nishab holda yasalishi kuyilgan tuxumni osonlik bilan olish imkonini beradi. Oxurcha va sug'orish idishlari katakni turli tomoniga urnatilishi mumkin. Yirik bedanalarini asrash va saqlashda xona harorati va namligiga alohida e'tibor beriladi. Jumladan, xona harorati 18-20°C, namligi 60-65% va yorug'likni sutkalik davomi 16-17 soatni tashkil etishi lozim.

Bedana tuxumlaridan jo'ja olish uchun ularni oddiy inkubatorga qo'yish tavsiya etiladi. Unda harorat 37,5°C, nisbiy namlik 60% bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Inkubatoridagi tuxumlar, oradan besh kun o'tgach birinchi marta nazorat qilinadi. 13-15 kunligidan inkubatoridagi harorat 37,2°C, nisbiy namlik esa 55% ga tushiriladi. Inkubasiyaning 16 kuni oxirgi nazorat ishlari olib boriladi. Juja ochib chiqish inkubasiyaning 17-kuniga to'g'ri keladi. Bunda inkubatoridagi xavo harorati 37°C va nisbiy namlik 70% bo'lishi me'yor hisoblanadi. Inkubasiya dastlabki chiqqan jo'jalardan boshlab 4-6 soat davom etadi. Olingan barcha ortiqcha

erkak joʻjalar guruh holda biroz qorongʻulashtirilgan xonalarda goʻsht uchun boqiladi. Bunda ular uzlarini tinch saqlashadi va goʻshtga semirishi jadallashadi. Ular 40-50 kunlik boʻlgach 110-140 g tosh bosadi va ulardan olingan, toza holdagi tushkalar 70- 100 g atrofida boʻladi.

Bedana joʻjalarini yogʻoch (taxta)dan yasalgan va teshiklari 5x5 mm li tursimdan iborat katakchalarda asrash yaxshi natija berishi sinab kurilgan. Dastlabki 5-7 kun davomida katak poliga qogʻoz tushaladi, unga ogʻilcha va suv qoʻyiladi. Suv shisha bankani tuntarib, biror idish (likopcha)ga urnatilishi uni toza saqlash imkonini beradi. Joʻjalarni 35-40 kunligiga qadar har 70 tasi uchun 1 m² pol sathi yetarli hisoblanadi. Lekin joʻjalar dastlabki kunlari yerda saqlanishi mumkin. Bedana joʻjalari sovuq, shamol va haroratni keskin uzgarishiga chidamsiz boʻladilar. Binobarin, ularga boʻladigan bunday salbiy taʼsirlarni oldi olinishi kerak. Joʻjalarni kunlik yoshiga koʻra qoʻyidagicha havo harorati boʻlishi tavsiya etiladi

Bedana joʻjalari uchun ularni dastlabki kunlarida yorugʻlik miqdori sutkasiga 23 soatni tashkil qilishi tavsiya etiladi. Keyinchalik bu koʻrsatkich asta-sekin kamayishi mumkin. Yaʼni har besh kunda 2-soatga kamaytirish mumkin. Bedana joʻjalari juda tez usadi va rivojlanadi. Ular 35-40 kunligida yirik vakillarining vazniga yetib olishadi. Yoshiga koʻra ularning vazni qoʻyidagicha kattalashib boradi: Yoshi (kun zsisobida) 1 10 20 50 Vazni (gramm) 5,6-20 -59- 85 Joʻjalar 30 kunlik boʻlgach ularni jinsiga koʻra bir-birlaridan ajratiladi. Erkak joʻjalarning koʻkragida kulrang yoki qora dogʻli qizgʻish-jigar rang patlar joylashgan boʻladi. Kloaka terisi shaftoli guli rangida boʻladi. Uning yuqori qismida biroz yumoloq oʻsimtasi ham boʻladi. Urgʻochi joʻjalarning koʻkrak qismida och rangli, yumoloq shaklli qora dogʻlari boʻladi. Kloaka terisi kulrang koʻkimtir rangda boʻladi.

Bir sutkali joʻjalarning vazni oʻrtacha 5,5-5,8 g boʻlsada, ular nihoyat serharakat va sezgir boʻladilar. Ular tez rivojlanadi. Masalan, bir oy ichida ular oʻz vaznlarini 1.5 martaga koʻpaytira olishlari mumkin. Binobarin, ularni oziq moddalarga boʻlgan ehtiyoji xam yuqori boʻladi.

Joʻjalarni boqishda ularni dastlabki 10 kunligida yaxshi pishirilgan va maydalangan tuxum, agar imkoni boʻlsa igu tuxumga makkajoʻxori, bugʻdoy, suli yormasi aralashtirilgan holda berilsa yuksak natijalarga erishiladi. Oziq aralashmasi maydalanadi va sut yoki qatiq bilan namlanadi. Jujalar 3 kunlik boʻlgach ularning rasioniga baliq moyi berish tavsiya etiladi. Bunda 100 ta joʻja uchun 0,01 g moy yetarli hisoblanadi. Shuningdek, maydalangan qizil sabzi, tvorog, xamir-turish ham berish tavsiya etiladi. Jujalar 12-14 kunli boʻlgach ular rasioniga maydalangan shilliqqurt chiranoqlari beriladi. Shuningdek, yirikroq qum va yoki mayda toshchalar bilan taʼmin etiladi. Jujalar kuniga oldin 6 marta oziqlantiriladi va keyinchalik uni 4 martagacha kamaytiriladi. Suv esa toza holda doimiy boʻlishi muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Tabiiy sharoitda bedanalarning eng sevimli joylari choʻl daryolari qirgʻoqlaridagi oʻtzorlar, bedazorlar va turli ekinzorlar hisoblanadi. Ular asosan turli xil hasharotlar, boshqoli oʻsimlik donlari va yovvoyi oʻsimliklar urugʻlari bilan oziqlanadi. Uy sharoitida ularni quruq omixta yem bilan boqish tavsiya qilinadi. Bunday yemlarning tarkibida yorma qilingan makkajoʻxori, arpa, bugʻdoy va baliq

uni, go'sht va suyak uni, vitaminlar, hamda mineral qushimchalarning bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ayrim hollarda namlangan omixta yem ham berish mumkin. Yemlarga A, D, V vitaminlarini va turli mikroelementlarini qushib berish yuksak samaradorlikka olib keladi. Bedanalar turli xil don yormalarini, mayda qilib tug'ralgan sabzi va kukatlarni yaxshi ishtaxha bilan iste'mol qiladi.

Tuxum quyadigan makiyonlarga qo'yidagicha oziq rasioni berish tavsiya etiladi: (har bir boshga gramm hisobida): - makkajo'xori 8, bug'doy yormasi - 2,8, bug'doy uni - 2,6, arpa - 1, ko'k beda - 6 yoki sabzi - 5, go'sht-suyak uni - 1,6, suyak uni - 0,4 maydalangan molyuska chiranori - 0,3, baliq moyi - 0,2, osh tuzi 0,06 shular jumlasidandir. Bedanalar turli xil oziqlarga nihoyatda sezgir bo'ladi. Ularga beriladigan oziqlarni aksariyat qismi shirin bo'lishi ma'qul hisoblanadi. Achchiq, shur va nordon oziqlar berilmasligi lozim. Oziqlar sutkasiga turt marta beriladi. Suv doimiy bo'lishi shart hisoblanadi. Bedanalar yuqori darajada boqilsa yil davomida to'xtovsiz tuxum beraveradi. Binobarin, ular o'zlarining shunday biologik xususiyatlari bilan boshqa tur parrandalardan keskin farq qiladi. Makiyonlarining tuxum berishi ma'lum muayyan ritm asosida davom etadi. Masalan, 5-10 ta tuxum qo'ygach, 1-2 kun dam oladi, sung yana tuxum berishda davom etadi.

Go'sht uchun boqiladigan bedanalarni har biriga kuniga 20 g dan omixta yem va ularni istaganicha yangi urib keltirilgan va maydalangan kukat berish yuqori natijalarga olib keladi. Boqish muddati 30-35 kunni tashkil etadi.

Bedana tuxumlarini uzoq vakt saqlash uchun tuxumlar nihoyatda toza va zararlanmagan, ya'ni pachoq bo'lmagan bo'lishi talab etiladi. Ifloslangan tuxumlar bulsa, ularni xlor eritmasi bilan yuvib tozalanadi. Buning uchun 1 litr suvda 5 gramm xlor eritilib - eritma tayyorlanadi. Tuxum quritilgach maxsus idishlarga taxlanadi. Tuxumlar saqlanadigan xonalar toza va quruq bo'lishi talab etiladi. Xona harorati 8-100°C, nisbiy namligi 60- 80% bo'lishi tavsiya etiladi. Tuxumlarni yaxshi saqlash maqsadida pustlog'i vazelin, moy yoki parafin tuxumdagi kuzga kurinmas teshikchalarni yopib yuboradi va tuxumlarning qurishi, yoki ichiga mikroba va murol zamburug'larining kirishidan saqlaydi. Bunday tuxumlar 8 oygacha uz sifatini yuqotmaydi. Tuxumlarni saqlashda suli va arpa donlaridan va toza kuldan foydalanish mumkin. Buning uchun xar 100 tuxumga o'rtacha 3-4 kg kul yoki dondan foydalaniladi. Bunday sharoitda muayyan haroratda tuxumlarni 6 oygacha saqlash mumkin. Oziq uchun mo'ljallangan tuxumlarni sovuq xonalarda 6-8 oy davomida saqlash mumkin.

Bedanalar kasalligi asosan ularga mas'uliyatsizlik bilan qarash, sifatsiz oziqlantirish, yomon saqlash va asrash natijasida vujudga keladi. Masalan, bedanalar nihoyat dim, zax va nam xonalarda saqlansa, ularning zichligiga e'tibor berilmasa, rasioni tubanlashib ketsa, o'z vaqtida oziqlantirilmasa, ularning kasallanishi ko'plab kuzatishlarda sinab ko'rilgan. Beriladigan oziqlar tarkibi mineral moddalarga (birinchi galda uglevod, oqsil va moy moddalarga) boy bo'lishi, ular tarkibida A, V, D vitaminlari yetarli darajada bo'lishi talab etiladi. Bedana xonalari zax, shamollatilmaydigan va dim bulsa, birinchi galda ularni nafas olish organlar tizimi kasallanadi va bu hol ularda modda almashinuvi jarayonini

yomonlashtiradi.

Xonalarda kuchli shamol harakati (skvoznyaklar) bo'lmashligi lozim. Utkir quyosh nurlarini haddan tashqari kupayib ketishi ayrim kasalliklarga olib keladi. Xona harorati me'yor darajada bo'lishiga alohida e'tibor berish kerak. Xonalarda havo haroratini oshib ketishi va pasayib ketishi ham kasalliklarga olib keladi. Barcha kasalliklar orasida avitaminoz kasalligi kuproq uchraydi. Ayniqsa A, D va V gurux, avitaminoz tez-tez uchrab turadi. Bunga asosiy sabab, organizmda modda almashinuv jarayonini buzilishi, tananing nimjon bulib qolishi va uni barcha yuqumsiz va yuqumli kasalliklarga beriluvchan bulib qolishi hisoblanadi. «A» vitaminoziga uchragan bedanalarda ishtaha yo'qoladi. Jo'jalar esa o'sishdan to'xtaydi. Makiyonlar tuxum bermay quyadi. Kuz atrofi shamollashidan kuzidan yosh tomchilaydi. Harakat kilishi susayib ketadi.

Birinchi galda A vitaminiga va karotinga boy hisoblangan yangi urilgan beda (va boshqa tur kukatlar), beda uni, qizil sabzi, baliq moyi berish tavsiya etiladi. D avitaminoz rasionda D vitaminini yetishmasligi natijasida yuz beradi. Ular raxit kasalligiga uchraydilar. Bu esa organizmda mineral moddalar almashinuvi buzilishi va quyosh nuri yetishmasligi natijasida yuz beradi.

Kasallik belgilari bir qancha bulib, asosiylari qo'yidagilar: - ishtaha yuqolishi, oqsoqlanib qolishi, oyok bug'inlari va qobirg'a uchlari yug'onlashib ketishi, umurtqa poronasi va tumshug'i qiyshayib kolishi, makiyonlari bergan tuxumining pustlog'i yumshoq va uta nozik pardaga uxshash bo'lishi shular jumlasidandir. Bu kasallikni ayrim hollarda «raxit» deb ham atashadi. Bunday kasallikka kuproq jo'jalar moyil bo'lishadi. Eng avval rasioniga baliq moyi, xamirturish va mineral moddalar (maydalangan shilliq qurt chiranori, suyak uni) qo'shiladi. Shuningdek, kasal bedanalar ochiq yerda, toza havoda saqlanishi kerak.

V - avitaminoz yuz bersa, eng avval nerv tizimini faoliyatiga putur yetadi. Birinchi galda bedana tanasida titroq vujudga keladi. Buyni va oyoqlari shol (paralich) bulib koladi. Ular boshini yelkasiga tashlab turadi. Tanasida qaltiroqlik yuz beradi. Davolash ishlari. Birinchi galda V gurux. vitaminiga boy bo'lgan oziq bilan ta'minlash hisoblanadi. Ular asosan xamirturish, ustirib maysa qilingan don, sut, bug'doy yormasi va turli kukatlardan iborat.

Bulardan tashqari, bedanalarda yana birqancha kasalliklar uchrab turadi. Masalan, jig'ildonida yem yoki kukat oziqlarni haddan tashqari kupayib ketishi kasalligi, - kloasit, ya'ni kloaka shilimshiq pardasi shamollashi; - tuxumdonning shamollashi; - psevdochuma (tana harorati 42-43°C ga kutarilib ketishi va 1-2 kunda halok bo'lishi), xolera (vabo) kasalligi, - ospa kasalligi, - difterit, - paratif, - virus gepatiti, - qurt kasalligi (glistnyye bolezni), teri parazita kasalligi (bit, kana, patxur kanalar bu kasallikni vujudga keltiradi) shular jumlasidandir. Ularning ayrimlarini davolash mumkin bulsa, qolganlarini davolash imkoni bo'lmaydi.

Nazorat savollari:

1. Bedanachilikning ahamiyati to'g'risida so'zlab bering.
2. Bedanalarni asrash va boqish borasida nimalarni bilasiz?
3. Bedana kasalliklari va ularni qanday davolash mumkin?

BOB. V. QUYONCHILIK VA MO'YNACHILIK

5.1. QUYONCHILIK ISH FAOLIYATI XAQIDA

Quyonglar - quyonsimonlar turkumining sut emizuvchilar oilasi. 50 turni birlashtirgan 8 urug'i bor. Quyonchilik (1 urug'), qattiq yungli quyonglar (3 urug'), uy quyoni (4 urug') bor. Ayrim turlari tez yugurishga, yer kovlashga, suzishga va chirmashib chiqishga moslashgan. Turli sharoitda yashaydi. O'tlar, po'stloq, novda, kurtak bilan ovqatlanadi, yiliga 4 martagacha bolalaydi. 2-15 tagacha bola tug'adi. Serharakat, yakka yashaydi. Ayrim turlari yaylovlarga, polizlarga va boshqa mevali daraxtlarga, ekinzorlarga zarar keltiradi.

Uy quyoni - kemiruvchilar turkumining tovushqonlar oilasiga mansub sut emizuvchi hayvon; yovvoyi quyondan kelib chiqqan. Uy quyoni sergo'sht, tez yetiladi, go'sht va mo'yna tivit olish uchun urchitiladi. Yil mobaynida ko'payishi, urg'ochisi 3-4 oylikda jinsiy yetiladi, 8 hafta - 32 kunda bolalaydi. Yiliga bir quyon



28-rasm. Quyong zotlari: 1-Sovet shinshillasi. 2-Kulrang quyong. 3-Oq velikan

3-6 marta, har safar 6-8 (ba'zan 15 va undan ortiq) bola tug'adi. Yangi tug'ilgani 60-70 g, bir oyligi 600-700 g keladi. Nasldor quyong bolalari 45 kunlik, vazni 800-900 g bo'lganda onasidan ajratiladi. Tez yetiladigan zotlar 65-70 kunlik vazni 1,8-2 kg, kech yetiladiganlari 90 kunlik vazni 2,8-4 kg bo'lganda so'yiladi.

Quyong 7-10 yil yashaydi. Xo'jalikda foydalanish davri 2-3 yil. Asosan, ko'kat, ildizmevalar, sabzi-karam silosi, mayin xashak, don-dun, omuxta yem va boshqa konsentratlar: go'sht-suyak va baliq uni; mineral qo'shimchalar - suyak uni, osh tuzi va bo'r bilan boqiladi. Quyongchilik xo'jaliklarida belgilangan norma va rasionlar asosida oziqlantiriladi. Kuz-qish mavsumida, tullagandan keyin mo'ynasi ayniqsa yaxshi bo'ladi. Boqib semirtirilgan quyonalrning so'yilgandagi vazni uning katta-kichikligiga, semizlik darajasiga bog'liq bo'lib, tirik vaznining 47-60% iga to'g'ri keladi.

Angora quyoni – quyonning bir turi. Uning juni *Angora* (Anqara) *echkisining* juniga o'xshaganligi sababli bu quyong shu nomni olgan. Angora quyoninig juni mayin, ipaksimon, rangi

oq, ba'zan havo rang va qora. Angora quyonining kallasi katta, qulog'i kalta va uchi kokilchali; vazni 2,3-3,5 kg.

Oq tusli anqara quyonining ko'zi pushti, boshqa tusdagilarniki qoramtir. Angora quyonining tiviti O'zbekiston sharoitida aprel oyining ikkinchi yarmida tarab olinadi. Angora quyoni yoz issig'iga chidamsiz bo'lganidan tog' yon

bag'irlarida va daraxtzorlarda boqiladi.

Quyunchilik - chorvachilikning quyon urchitshi bilan shug'ullanadigan tarmog'i. Quyunchilikning asosiy mahsuloti - go'sht, teri va tivit. Quyon go'shti - to'yimli parhez mahsuloti; terisi - mo'yna ishlab chiqarish, sanoati uchun muhim xom-ashyo; tiviti - trikotaj va boshqa buyumlar tayyorlashda ishlatiladi.

Quyon qishloq xo'jalik fermalarida go'shti, terisi va tiviti, ayrim xo'jaliklarda faqat go'shti uchun boqiladi. Go'sht, teri uchun quyon boqiladigan fermalarda har bir ona quyondan o'rta hisobda 20 tadan bola, ya'ni yiliga 50 kg dan ortiq go'sht va 20 dona teri olinadi. Broylar quyon bolalarini semirtirish uchun boquvchi fermalar ularni onalari bilan boqib, yoshi 2-2,5 oylik va tirik vazni 2 kg cha bo'lganda boshqa xo'jaliklarga sotadi. Tivit uchun quyon boqiladigan fermalarda har bir katta quyondan yiliga 350-700 g tivit olinadi.

O'zbekistonda Buxoro viloyati «Romitan» s-zi, Toshkent viloyati Orjonikidze r-ni va b. joylardagi xo'jaliklarda Quyunchilik fermalari ham naslchilik va quyon urchitish bilan shug'ullanadi.

Quyunchilikning ahamiyati. Quyunchilik aholi orasida keng tarqalgan bo'lib, insonlar uchun go'sht va qimmatli mo'yna beradi. Quyon go'shti tez hazm bo'ladi va o'zining sifatini yangiligida; sur va konserva xolida ham saqlaydi. Quyon go'shti yumshoqligi va mazaligi bo'yicha parranda go'shtidan qolishmaydi, hazm bo'lshi jihatidan esa mol va cho'chqa go'shtidan ustun turadi. Shuning uchun qon bosimi, jigar va oshqozon kasalliklari bilan og'rigan bemorlarga parhez taom sifatida tavsiya qilinadi. Quyon go'shti mahsuloti berishi bilan birga, ular yengil sanoatni mo'yna bilan ham ta'minlaydi. Quyunchilikning yana bir muhim ahamiyati shundaki, ular uchun ko'p mablag' sarflanadigan qurilishlar talab qilinmaydi.

Quyon zotlari. Quyonning bir qancha zotlari bor, shular ichida Sovet shinshillasi, kul rang yirik oq rangli yirik kul rang va boshqa zotlar ko'p tarqalgan. Sovet shinshilla zot quyon iqlimga tez moslashadigan bo'lib, vazni 3-6 kg keladi (28-Rasm/). Bo'yi va qulog'i kichikroq qulog'i tik turadi, ko'kragi keng, usti kumushsimon kul rang yung bilan qoplangan. Qorin, bo'yin, dumining pastki qismi va oyog'ining ichki tomoni oq rangda. Kul rang yirik zot quyonning vazni 4,5-5,5 kg atrofida bo'lib boshi va qulog'i katta, qulog'i ikki tomonga ajralib turuvchi rim raqamiga (V) o'xshaydi. Bu zotning rangi har xil, asosan kul rangda, och va to'q kul rangli vakillari ham bor. Qorin qismi, oyoqlarining ichki tomoni oq bo'ladi. Oq velikan zot quyonning og'irligi o'rtacha 4,3-6 kg deyiladi. Mo'ynasi zich va mayin, ko'zlari qizg'ish yoki pushti rangda bo'ladi. Rangi oq bo'lganligi uchun ularni turli rangga bo'yash mumkin. Kumush rang quyon zotining og'irligi o'rtacha 4,6 kg, ayrimlari 6,5 kg keladi. Yungining umumiy ko'rinishi kumush rangda, havo ranggacha, o'siq junlari qora, tiviti havo rang. Bolalari tug'ilganda qora bo'ladi, bir oydan so'ng o'zgara boshlaydi va 4-5 oyligida kumush rangga kiradi.

Quyonning xususiyatlari. Quyonlar o'zining foydali xususiyatlari bilan boshqa chorva mollaridan farq qiluvchi muhim xo'jalik ahamiyatiga ega. Quyonlar tez va ko'p bola beradi, yilning hamma fasllarida bolalashi mumkin. Shuningdek ular tez o'sadi va iqlimga tez moslashadi.

Quyon 30-32 kunda bolalaydi bitta ona quyon boqish sharoitiga qarab har gal


6-12 ta gacha, ba'zan 16-19 ta gacha bola tug'adi. Quyong bolalari tug'ilgan paytda terisi yungsiz va ko'zi yumuq bo'ladi. 5-7 kunligida yung hosil bo'ladi, 10-14 kunligida ko'zi ochiladi, 17-20 kunligida yuradi va o'zi mustaqil ovqatlanadi. Quyong bolalari tez o'sadi. U to'rt oyda ona quyong kattaligiga yetib olishi mumkin. Quyonglar yaxshi parvarish qilinsa, yiliga 4-6 marta bolalaydi va 35-40 tagacha bola beradi. Quyonglar odatda kechasi tug'adi, emizadi va ularni yungiga ko'mib qo'yadi. Quyonglar tug'ishi bilan bolalarini ko'zdan kechirib, nobud bo'lganlari ajratiladi va tiriklarini bir joyga to'plab yungi bilan o'rab qo'yiladi. Quyonglar tug'ish davrida va tuqqandan so'ng suvga juda tashna bo'ladi va ularda mineral moddalar yetishmay koladi. Natijada o'zi tukkan bolalarini yeb qo'yish hollari kuzatiladi. Shuning uchun quyonglar inida doimo suv bo'lishi va ular sifatli ozik bilan to'lik ta'minlanishi lozim.

Nazorat savollari:

1. Quyongchilikning qanday ahamiyati bor?
2. Quyonglarni qanday zotlari bor?
3. Quyongchilik fermalari faoliyati qanday?
4. Quyongning qanday xususiyatlari bor?

5.2. QUYONGLARNI ASRASH VA BOQISH

Quyonglarni asrash. Xo'jaliklarda quyonglar ochiq va yopiq joydagi kataklarda boqiladi. Ochiq joyga o'rnatilgan kataklarda (rasm) quyonglarni toza havo bilan ta'minlanishi yaxshi bo'ladi. Toza havo quyonglar organizmini chiniqtiradi, baq



29-rasm. Quyong boqiladigan kataklar.

uvvat va sog'lom o'sadi. Shuning bilan birga quyonglarning yunglari qalin va sifatli bo'ladi. Quyonglarning kataklari ikki bo'limdan iborat: oldidagi eshigi to'rli bo'lganligi uchun yorug', ikkinchi bo'limni eshigi yog'ochdan yasalganligi tufayli qorong'i bo'ladi. Qorong'i bo'limda u in qurib bolalaydi, yorug' bo'limda esa oziqlanadi va o'z hayotining ko'p qismini o'tkazadi (29-rasm). Quyonglar maxsus qurilgan, mexanizasiyalashgan yopiq binolarda ham boqiladi. Bunda quyonglarni sug'orish, go'nglarini olib chiqish, oziqlarini tayyorlash va uni tarqatish, havoning harorati va namligini bir xilda ushlab turish mexanizasiya yordamida bajariladi.

Yopiq turidagi kataklar temir to'rdan yasaliq qavat-qavat qilib o'rnatiladi. Qatorlar orasida yurish va oziqlantirish uchun yo'l qoldiriladi. Har bir katakning oldingi qismiga avtosug'orgich va avtooziklantirgich o'rnatiladi. Quyonglarning bolalash va bolalarini emizish davrida kataklar ichiga fanerdan qilingan uya yashiklar

oʻrnatiladi. Ikki qator qoʻyilgan kataklar tagiga maxsus ariqcha qilib, unga shagʻal va qum toʻldiriladi, bunga quyonlarning siydigi shimiladi va axlati tushadi. Axlatlari vaqt-vaqti bilan tozalab turiladi.

Quyonglar uchun zarur sharoit. Quyonglarni koʻpaytirish va parvarish qilishda ularning sogʻligini saqlash va yaxshi oʻsishiga katta ahamiyat berish lozim. Buning uchun quyonglarning sharoitini yaxshilash, ularni har xil oziqlar bilan toʻliq taʼminlash va kasallik tarqalishini oldini olish tadbirlarini koʻrish lozim. Quyonglarga kasallik tarqalmasligi uchun quyongxonaga kirish oldiga qipiq toʻshalib, unga korbol kislota yoki kreolin sepiladi. Bu eritma sepilgan qipiqni bosib oʻtish natijasida oyoq kiyimlariga yopishgan kasallik mikroblari oʻladi. Quyong kataklaridagi oziqlantirgichlar va suvdonlarni toza holda saqlash, ularni qaynagan suv bilan bugʻlash yoki dezinfeksiya qiluvchi suyuqlik bilan ishlash talab etiladi. Kasallik tarqatuvchi manba sifatida quyong axlati xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun quyong axlatlarini har kuni tozalash, quyongxonadan olib chiqib goʻngxonalarga toʻplab, ustini tuproq bilan koʻmish lozim. Quyong yelvizak shamolga va namlikning koʻpayib ketishiga bardosh bera olmaydi. Shuning uchun ularni yelvizak shamoldan saqlash, namlanib ketgan toʻshamlarini tozalash va uning oʻrniga quruq va toza toʻshama solish lozim. Quyong kataklaridagi axlatdan koʻpincha zararli gaz tarqaladi. Shuning uchun quyongxonani tez-tez shamollatish sa havo almashtirgich oʻrnatish talab etiladi. Yopiq turdagi quyongxonalar elektr quvvati yordamida 14-16 soat yorugʻlik bilan taʼminlanadi (29-rasm).

Quyonglarni oziqlantirish. Quyonglarni koʻpaytirish va oʻstirish ularni toʻgʻri oziqlantirishga bogʻlik. Quyong kemiruvchi hayvon boʻlib kish oylarida xashak ildizmeva, yangi daraxt shoxlari, soʻli, loviya, don yormasi, kunjara va boshqalar bilan oziqlanadi. Yoz oylarida esa quyonglar uchun eng yaxshi oziq yashil oʻsimliklardir. Chunki ular da har xil foydali moddalar koʻp boʻladi. Shuning uchun yozda quyonglar koʻprok yashil oʻsimliklar bilan boqiladi va unga oshxona chiqindilari (boʻtqa, kartoshka, qovun, tarvuz) qoʻshiladi. Quyonglarga beriladigan oziqlar sifatli va toza boʻlishi lozim. Quyonglarga botqoq yerdagi oʻtlarni, yomgʻirdan soʻng quritilmagan beda va se bargani, mogʻorlagan va chirigan xashaklarni, ildizmevalarni, tugunak mevalarni va siloslarni bermaslik lozim. Quyonga beriladigan oziqlar qoʻyidagilardan iborat boʻlishi mumkin:

1.Yashil oziqlardan - oʻtlok pichani, javdar, soʻli, beda, makkajoʻxori va boshqa gʻalla ekinlarining yer ustki qismlari, ildizmevalar va karam barglari, daraxtning yashil shoxlari hamda yovvoyi oʻtlar.

2.Shirali oziqlardan - xashaki lavlagi, xashaki sabzi, xashaki sholgʻom va boshqalar.

3.Dagʻal oziqlardan - beda, se barg, beda - gʻalla aralashmasidan iborat pichan.

4.Konsentrat oziqlardan - gʻalla va dukkakli don ekinlari doni, yormalari, kepaklar, moyi olingan kunjara, omixta yem, pichan uni, quruq sut va boshqalar.

5.Hayvonlar mahsulotidan tayyorlangan oziqlardan - sut, yogʻi olingan sut, sutzardobi, ayron, goʻsht, goʻsht-suyak va baliq unlari.

Oziqlantirish normasi. Quyonglarga beriladigan oziqlarning miqdori uning

katta-kichikligiga va yoshiga bog'liq bo'ladi. Ona quyonlar, emizuvchi va homilador quyonlarga oziqlar ko'prok beriladi. Quyonlarni oziqlantirish, ularning holatiga bog'liq. Voyaga yetgan quyonlar yozda turli yovvoyi o'simliklar, tomorqadan chiqqan o'simlik qoldiqlari, qishda esa pichan, daraxt novdalari va silos bilan boqiladi. Bunda taxminan sutkasiga yozda 280 g ko'katlar va 75-90 g kuchli oziqlar beriladi. Qish mavsumida esa 190 g ildizmeva yoki silos, 130 g pichan va 75-90 g kuchli oziqlar bilan boqiladi. Quyonlar urchitish davrida ko'shimcha oziqlantiriladi. Bunda ularning ozuqasiga qizil sabzi, undirilgan g'alla maysalari va vitamiga boy pichan ko'shish tavsiya etiladi. Ya'ni yozda oziq normasi 360 g ko'katdan, 30 g kunjara va 100 g kuchli oziqdan, qish mavsumida esa 340 g ildizmeva, 165 g pichan, 35 g kunjara va 95 g kuchli oziqdan iborat bo'ladi. Homilador quyonlar oziqning bir qismini bolalarining shakllanishiga sarflaydi, shuning uchun ularning ozuqasi yengil, o'zlashtiriladigan, vitamiga va mineral moddalarga boy bo'lishi lozim. Oziq normasi, yozda 385 g ko'katdan, 45 g kunjara va 95 g kuchli oziqlar, qish mavsumida esa 260 g ildizmeva, 180 g pichan, 55 g kunjara va 85 g kuchli oziqlardan tashkil topishi maqsadga muvofiqdir. Emizikli quyonlarning oziqlari ko'prok sut hosil bo'lishiga sarflanadi. Shuning uchun emizikli quyonlarning oziq normasi birinchi 10 kunlikda 1,5, ikkinchi o'n kunlikda 2, oy oxirida esa 2,5 marta ko'paytiriladi.

Odatda quyonlar tuqqandan so'ng uning bolalari 16 kundan so'ng inidan chiqadi, shuning uchun ularga mayin, mayda kesilgan pichan va ildizmevalar, shirali va kuchli oziqlar beriladi. Quyon bolalari ko'katlar bilan boqiladi (15-20 kunligida sutkasiga 20 g dan ikki marta), so'ng asta-sekin oziq normasi ko'paytiriladi.

Nazorat savollari

1. Quyonlarni asrash qanday boradi?
2. Quyonlar uchun qanday zarur sharoit kerak?
3. Quyonlar qanday oziqlantiriladi?
4. Quyonlarning oziqlantirish normasi qanday?

5.3. CHORVACHILIKDA MO'YNALI MAHSULOTLAR BERADIGAN QUNDUZ, NUTRIYA XAYVONLARINI BOQISH.

Qunduz daryo qunduzi (*Lutra lutra*) - suvsarsimonlar oilasiga mansub sut emizuvchi hayvon (30-rasm). Yevropa, Osiyo, Shimoli-G'arbiy Afrikada tarqalgan.



30-rasm. Qunduz.

Gavdasi 70 sm dan ortiq, og'irligi 10 kg cha. Uchi ingichkalashgan dumi 45 sm cha. Panjasi qisqa, barmoqlari teri parida bilan birlashgan. Mo'ynasi (qishdagisi qadrlanadi) ho'llanmaydi. Qishda suvning muzlamagan joylarida yashaydi. Bahor-yoz mavsumida asta-sekin to'laydi. Yumshoq to'shamali uyasini suv havzasining baland qirg'oqlariga yashaydi. Bo'g'ozlik davri 8-10 oy. Ikki yilda bir marta - aprel-mayda

ko'pincha, 3 bola tug'adi. Asosan, baliq, baqa, ba'zan o'rdak va b. bilan ovqatlanadi.

Qunduzsimon erqazar (*Potamogale velox*)-hasharotxo'r sut emizuvchilar turkumining bir turi (31-rasm). G'arbiy Afrikada tarqalgan. Gavdasining uzunligi 0,3 m (dumidan tashqari). Mo'yiasi jigar rang, qorni oq, 40 tishli. Burun teshigi qopqoq bilan yopiladi. Suvda hayot kechirsa ham panjalarida suzgich parda yo'q. Asosan, baliqlar bilan ovqatlanadi.

Nutriya, suv bobri (*Myocastor coypis*) - kemiruvchilar turkumiga mansub sut emizuvchi hayvon, Tanasining uzunligi 60-85 sm, dumi 45 sm gacha, og'irligi 10-12 kg. Tumshug'i to'mtoq, mo'ylovlari uzun. Labi ko'rak tishlari orqasidan mahkam juftlasha olgani sababli N. suv ostida ham narsalarni kemiradi. Orqa oyoq barmoqlari orasida tern parda bor Mo'ynasi jigar rang. 1 -12 ta bola tug'adi, Bo'g'ozlik davri 127-133 kun. Bolasi 4-5 oyligida jinsiy etiladi. 8-10 yil yashaydi.



31-rasm. Qunduzsimon erqazar.

Janubiy Amerikaning janub qismidagi chuchuk suvlarda keng tarqalgan. Ba'zi mollyuskalar, o'simlik kurtagi, ildizi, mevasi va b. bilan ovqatlanadi. Mo'ynasi juda sifatli va qimmatbaho. Fransiya, Buyuk Britaniya, Yugoslaviya, AQSh, Zakavkaze va Janubiy Tojikistan)da iqlimlashtirilgan. Nutriyachilik. xo'jaligi va fermasi Zakavkaze, O'rta Osiyo (Sirdaryo, Amudaryo va ular atrofidagi ko'llarda, Moldaviya, Belorussiya, Ukrainada tashkil etilgan. Jigarrang, oq qora, pushti, tilla rang va b. Nutriyalar ham ko'paytirilmoqda. Ovlanadi.

Nutriyalarning vatani Janubiy Amerika hisoblanib, yovvoyi holda issiq va nam iqlimli tropik zonalarda, qamishzor sersuv erlarda yashaydigan kemiruvchilar oilasiga mansub bo'lgan zich mo'ynali xayvon hisoblanadi.

Nutriyalar o'z ozig'ini asosan suvdan topadi. Ular suvda yaxshi suzaoladilar. Suv ostida birnecha minut bo'laoladi. Binobarin, ularning bu xususiyati ko'plab o'z dushmanlaridan jon saqlab qolish imkonini beradi. Tabiiy sharoitda ular tungi hayvon hisoblanadi. Shunga ko'ra o'z o'ljalarini tunda ovlaydilar.

Asosiy ozig'i suv o'simliklari (qamishlar) va ularning ildizlari. Suvdagi mayda jonivorlar ham ular uchun oziq sifatida foydalidir.

Vazni - o'rtacha 6-7 kg, tana uzunligi 60-70 sm atrofida. Erkaklari 12 kg gacha va tana uzunligi 90 sm gacha bo'ladi. Ko'rak tishlari o'tkir va ularning butun umr bo'yi o'sib boradi. Ularda 16 ta oziq tishi va 4 ta och pushti rang ko'rak tishi bo'ladi. Qo'lda boqilgan nutriyalarning ostki jag' va ko'rak tishlari bir-birlariga ishqalanib o'tkirlashib turishi aniqlangan.

Ular yil mobaynida bir me'yorda urchishi va ko'payish xususiyatiga ega. Erkak nutriyalar birmuncha serharakat bo'ladilar. Qochmay qolgan urg'ochi nutriyalar har 25-30 kunda qaytadan quyukka keladilar. Yiliga 2 marta, ba'zan ikki yilda 5 marta yuz beradi. Bug'ozlik davri 127-137 kun. Har tug'ishda 4-5 ta bola beradi. Lekin ayrim hollarda

10 tagacha va hatto 14 tagacha bola berishi mumkin. Tug'ilgan bolalari harakatchan, kuzlari ochiq, tanasi jun bilan qoplangan bo'ladi. Xatto tishlari ham bo'ladi va suvda bemalol suzaoladilar. Bolalari 2-3 kunligidan onasi ozig'inii topib

boradi va 10-15 kunligidan boshlab kukat oziqlarni bemalol iste'mol qiladilar.

Emizikli davri 45-60 kun va 3-7 oyligida jinsiy balog'atga etadi. Yashash davri - 6-7 yil, ba'zan undan xam kuproq. Lekin 3-4 yoshdan utgach, ularning serpushtlik darajasi birmuncha pasayib ketadi.

Nutriyalarni- mo'ynasi quyonlarnikidan sifatli bo'ladi. Binobarin, u qimmat turadi (32-rasm).



32-rasm. Oq rangli nasldor erkak nutriya.

Xar doim sifatli oziqlar bilan boqilgan va yaxshi parvarish qilingan urg'ochi nutriyalar butun yil davomida kuyukib turadi, qochadi va bolalaydi. Lekin ulardan nasl olish yoz va issik, kunlarga to'g'ri kelsa, bolalarining o't o'simliklarni yaxshi iste'mol qilishi uchun kulay sharoit mavjud bo'ladi.

Urg'ochi nutriya bolalari 50-60 kunligida onalaridan ajratib olinib 7-8 tadan guruhlanadi va ularga qochirish uchun erkak nutriya qo'yiladi. Katta yoshdagi nutriyalar tuqqandan so'ng oradan 1-3 kun o'tgach, ular yana kuyukka keladi. Erkaklari qo'shilgach ular tezda qochadi va yana bug'oz bo'ladi. Lekin bu holat yaxshi natija bermaydi. Binobarin, tuqqaniga 22-25 kun o'tgach qochirilsa, u ijobiy natija beradi. Nutriyaning bug'ozligini aniqlash urg'ochilarini, aynio'sa yosh nutriyalarni qisir qolishi oldini olishdagi muhim tadbir hisoblanadi. Buning uchun urg'ochi nutriyalar turgan kataklarga erkaklari kiritilib turiladi. Agar urg'ochisi bug'oz bo'lsa, u erkagini yakinlashtirmaydi va ancha urishqoq bo'ladi. Agar nutriya qochmagan bo'lsa, ancha yuvvosh va moyillik bilan erkagini qabul qiladi. Bug'oz nutriyalarni oziqlantirishda, kataklarni tozalashda ortiqcha shovqin-suron qilmaslik talab etiladi. Shuningdek, it, mushuk, g'oz yoki boshqa hayvon hamda parrandalarni ularga yaqinlashtirmaslik lozim Nutriyalarni dumidan ko'tarish va qiynash ko'ngilsiz voqealarga (ko'proq bola tashlashga) olib kelishi mumkin. Issiq kunlarda ularni toza suv, sovuq kunlarda toza muz va qor, sersuv va shirali oziqlar bilan ta'minlash yaxshi natija beradi. Shu bilan birga bir vaqtni o'zida ko'p miqdorda berilgan ildizmevalar ularning ovqat hazm qilish organlari faoliyatini buzadi, ayrim hollarda bola tashlashga olib keladi. Nutriyalar tug'ishiga yaqin ularning kataklari tozalanadi, unga poxol va yumshoq somon yoki boshqa o'simlik tushamalar solinadi. Qish kunlari esa xona isitilishi kerak. Hamma vaqt toza suv bilan ta'minlanadi.

Nutriya bolalarini etilganidagi vazni ular qancha tugilganligiga bog'liq bo'ladi.

Agar nutriya bolalari qanchalik ko'p tug'lsa, ularning vazni shunchalik kichik yoki aksincha bo'ladi. O'z onalarini tez-tez emib turgan nutriya bolalari tez usadi va rivojlanadi. Chunki nutriya suti juda sermoy (26%) bo'ladi. Agar ona nutriyaning elini kasallangan bo'lsa, uning bolalariga pipetkalar yordamida kuniga 3-4 marta sigir suti berib turiladi. Shuningdek, yosh bolalariga sutga non tug'rab berish ham yaxshi natija beradi.

Nutriya bolalari 2 oy bulguncha kuniga 40-50 g dan sut, 20 g dan non yoki makkajo'xori uni olishi mumkin. Ko'kat oziqlar esa ularni istaganicha beriladi. Nutriya bolalari 45 kunligidan boshlab, katta yoshdagi nutriyalar rasioniga o'tkaziladi. Shuningdek, qora non, baliq moyi va vitaminlar berish tavsiya etiladi. Onasidan yoshligida ajratib olingan nutriya bolalari odamga tez o'rganadi va uning oldidan uzoqqa ketmaydilar. Nutriyalarning bolalashi uchun qulay vaqt 1 kvartal hisoblanadi. Chunki sovuq, tushguncha ular ancha yirik mo'ynasi o'siq va sifatli bo'ladi. Lekin ko'plab xo'jaliklarda bu hol 2-4 kvartalga to'g'ri keladi.

Nutriyalar jadal o'sishi va rivojlanishi uchun ularni rasion asosida boqish ijobiy natija beradi. Ularga beriladigan em-xashak sifatli bo'lishi va toza holda dastlabki ishlov berishdan utgan bo'lishi lozim. Bunday oziqlar ularning fiziologik holatini yaxshilaydi, semirtiradi va usish-rivojlanishini tezlashtiradi. Oziq rasioniyoz kunlarida asosan kukat oziqlardan iborat bo'lishi mumkin. Masalan, yangi urilgan kuk beda, boshqoli o'simliklar poyasi, lavlagi, sabzi va ularning bargi va boshqaa tur shirali o'simliklar shular jumlasidandir. Har bir nutriya uchun bir sutkada 100-150 g ildizmevani asosan kechqurun (qish kunlari esa ertalab va kechqurun) beriladi. Yem ular uchun eng to'yimli oziq hisoblanadi. Ayniqsa, arpa, makkajo'xori, suli, no'xot, bug'doy kabi don oziqlarni nutriyalar sevib iste'mol qiladilar. Nutriyalarga beriladigan em avval suvga namlansa yoki qaynatib berilsa, uning sifati, to'yimlili va hazm bo'lishi yuqori bo'ladi.

Nutriyalar rasionida mineral, yog'i olingan sut, qon va suyak uni kabi oziqlar bo'lishi ularning oqsil moddasiga bo'lgan ehtiyojini qondirishda, jadal semirishida va tez rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Nutriyalarning jun qatlami. Ularning jun qatlami asosan o'siq dag'al jun tolalaridan va kalta, lekin nihoyatda zich joylashgan tivit tolalardan tashkil topgan. Bu tolalar sovuq, kunlarda nutriya tanasini sovuqdan saqlash imkonini beradi. Teri qatlami qalinligi elka qismida yaxshi rivojlangan bo'lsa, qorin, biqin, bosh va ko'krak qismidagisi bir oz yupqa bo'ladi. Bu xususiyat ularning mo'ynasini ishlash davrida hisobga olinishi lozim.

Nutriya mo'ynasi engil sanoat uchun qimmatli mahsulot hisoblanadi. U o'zining chidamliligi va pishiqligi bilan ondatra va quyon mo'ynasidan ustun turadi. Ularning mo'ynasidan ayollar va bolalar uchun sifatli bosh kiyimlar, yoqalar tayyorlanadi. Ayrim vaqtlarda ularning mo'ynasini bo'yash ham mumkin.

So'yilgan nutriyalardan 2,5-3,5 sifatli go'sht olish mumkin. Nutriya go'shtidan ko'plab chet mamlakatlarda, jumladan, Amerika kontinentida to'yimli va mazali ovqat sifatida keng foydalaniladi. Shuningdek, mamlakatimizda ham keyingi yillarda nutriya go'shtini iste'mol qilish yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Nazorat savollari:

1. Nutriyalarning biologik xususiyatlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Nutriyalarning urchishi va bolalashi to'g'risida tushuncha bering.
3. Qochirish uchun yosh nutriyalar qanday tayyorlanadi?
4. Nutriyalarning asosiy oziqlari va oziqlanishi to'g'risida so'zlang.
5. Nutriyalarni jun qatlami va mo'ynasi to'g'risida nimalarni bilasiz?

5.4.ONDATRA MO'YNALI HAYVONNINI PARVARISHLASH

Ondatra o'zining tashqi ko'rinishi bilan ko'proq yirik kalamushlarga o'xshab ketadi. Ondatraning asosiy vatani Shimoliy Amerika bo'lib, u ko'plab mamlakatlarga keng tarqalgan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra u 1927-1928 yillarda va Markaziy Osiyoga 1935 yilda keltirilgan.

Ondatraning mo'ynasi o'siq va sarg'ish-och jigar-rang, qora, qizil-sarg'ish, to'q malla rang, oyoqlari kalta va kuchli bo'ladi. Barmoqlarining orasi kalta parda bilan birlashgan bo'lib, suzishda katta vazifa bajaradi. Dumi uzun va ikki yon tomonidan toraygan holda uchraydi. Qulog'i kalta va kichik ayrim hollarda u uncha sezilmaydi. Ondatralarning hayoti asosan sersuv, o'simliklarga boy bo'lgan ko'lmak erlarda o'tadi. Ular shunday erlarda urchib ko'payadilar.

So'nggi yillarda xususiy sektorda va ayrim fermer xo'jaliklarida ondatralarning tanlash va saralash ishlarini qo'llanishi sababli ularning vazni va mo'ynasining sifati birmuncha ortdi va yaxshilandi. Vazni - 1,5-2 kg, ba'zan undan xam ko'proq bo'lib, tana uzunligi 30-35 sm atrofida uchraydi.

Asosiy ozig'i - qamish va shu kabi suv o'simliklari, ularning ildizlari, hamda suvdagi mollyuskalar, hasharotlar, chuvalchanglar va suvdagi mayda hayvonlar va ularning lichinkalari hisoblanadi. Ular suzgan vaqtda ko'pincha boshi va elka qismini tashqariga chiqargan holda juda tez harakat qiladi.

Suv ostida 3-5 minut, ba'zan undan ham ko'proq tura oladi. Bir suzishda 100 metrga to'xtovsiz bora oladi. Ondatralar mo'ynasi birmuncha zich va quyuq joylashgan. Shuning uchun ham suvda ularning mo'ynasiga nam yuqmaydi. Mo'ynasi kalta nihoyat zich joylashgan, tiviti ularning tanasini sovuqdan himoya qiladi.

Urchishi - birmuncha jadallikda yuz beradi. Ularning bug'ozlik davri 25 kun davom etadi. Bir yo'la 3- 8 ta bola tug'adi. Ularning bolalashi: dastavval tashqi muhitga bog'liq. Agar shimoliy zonalarda ular yiliga ikki marta bolalasa, respublikamiz sharoitida ular yiliga 5 martagacha bolalaydi.

Bolalari - 20-25 kun davomida onasining suti bilan oziqlanadi, so'ng mustaqil holda turli xil oziqlarni iste'mol qiladi. Tabiiy sharoitda urg'ochilari erta bahorda ko'payadi. Bolalari tug'ilgach bir oy mobaynida ular qaytadan kuyukadi. Shu tariqa yiliga 4-5 marta bolalab, 35-40 tagacha bola berishi aniqlangan. Bolalarining o'sishi dastlab onasi sutining miqdoriga va parvarishiga bog'liq bo'ladi. Bolalari tug'ilgandan so'ng deyarli bir oy davomida faqat onasining yonida bo'ladi. Yaxshi parvarish qilinmagan bolalari yoshligidayoq nobud bo'lib ketadi. Tabiatda ondatralarning dushmani ko'p. Jumladan, chiya bo'ri, tulki, yovvoyi mushuk, va

xatto yirik ilonlar ham ularning mayda bolalariga hamla qiladi.

Mo'yna sifati - barcha mo'ynabop xayvonlar ichida salmoqli o'rin egallaydi. Shuning uchun ondatralarni imkoni boricha xo'jalik sharoitida ko'paytirish ishlari yuqori samaradorlikka olib keladi. Ondatralar asosan Amudaryo atrofidagi sersuv erlarda ko'paytiriladi. Mo'ynaning sifati asosan qish oylarida yuqori bo'ladi. Boshqa vaqtlarda ular tullaydi va bu jarayon mo'yna sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ondatra so'yilganda ularning dumi va oyoqlari tashlab yuboriladi, shilib olingan terisi maxsus ramalarga kiydirilgan holda quritiladi va ularga ishlov beriladi.

Go'shti - Shimoliy Amerikada oziq sifatida iste'mol qilinadi. Oshxonalarda ulardan turli xil taomlar tayyorlanadi. Markaziy Osiyoda ondatra go'shti ayrim go'shtxo'r hayvonlar norka, tulki va hokozolar uchun ishlatiladi.


Hozirgi vaqtda ondatralarning asosiy qismi Qoraqalpog'istonda, ko'proq Mo'ynoq tumani xo'jaliklarida va Amudaryo qirg'oqlariga joylashgan xo'jaliklarida ko'paytirilmoqda.

Nazorat savollari:

1. Ondatralarning qanday hayvon ekanligi va hayoti to'g'risida tushuncha bering.
2. Ondatralarning urchishi va ko'payishi to'g'risida so'zlang.
3. Mo'yna sifati to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. Mo'yna Go'shti oziq sifatida iste'mol qilinadimi?

5.5. NORKA HAYVONINI BOQISH VA KO'PAYTIRISH

Norkalar harakatchan, tanasining vazniga nisbatan kuchli yirtqich hayvon xisoblanadi. Ular o'zlarining kelib chiqishi va ayrim xususiyatlariga ko'ra ikki turga



33-rasm. Oq rangli nasldor norka

bo'linadi. 1. Amerika turi. 2. Yevropa turi. Amerika norkasining quloq suprasi aylana shaklida, mo'ynasi quyuq va sifatli. Binobarin, amerika norkasi ko'pchilik zona xo'jaliklarida ko'paytiriladi. Yevropa turining quloq suprasini uchi toraygan va biroz ingichkalashgan ko'rinishga ega. Shuningdek, ularning dumi 5-10 sm kaltaroq bo'ladi. Ko'plab xo'jaliklarda Alyaska norkasi va Kentay norkasi ham boqiladi va ko'paytiriladi.

Norkalarning tana uzunligi 60-80 sm atrofida. Erkaklarining vazni 1000-3000 g, ayrim hollarda 3,5-3,8 kg ham bo'lishi mumkin. Urg'ochilari 700-1900 g tosh bosadi. Ular suvda yaxshi suzaoladilar. Ayrim hollarda norkalarning yovvoyi holda ko'l, daryo va suvli erlarda yashashlari aniqlangan. Bunga asosiy sabab ularning oziq rasionining deyarli 70-75 foizi turli xil mayda va o'rtacha xayvonlardan tashkil topganligidir. Masalan, hamma turdagi baliqlar, baqalar, qiskichbaqalar, molyuskalar, kalamush, sichqon, olmaxon, ondatra, qushlar, ilonlar va hatto hasharotlar shular jumlasiga kiradi. Shuningdek, ularning rasionini 25-30

foizi turli xildagi o'simliklar va ularning doni, mevalari, sabzavot ekinlaridan iborat. Norkalar yovvoyi holda oila bo'lib yashamaydi. Kuyukka kelgan urg'ochi norkalar qochgach, o'zining bo'lajak bolalarini erkagidan saqlash uchun uzoq masofalarga jo'nab ketadi. Bir onadan tug'ilgan 2-3 tabolalari kuz kelishiga qadar birga, onalari yonida bo'lishadi, so'ng har tomonga tarqalib ketishadi. Norkalar asosan tungi hayvon hisoblanadi. Lekin ayrim vaqtlarda kunduzi ham ov qiladi. Ular qochish va qochirish vaqtida juda aktiv (faol) bo'ladilar. Ularning oyoklari kalta, lekin baquvvat, barmoqlari jun bilan qoplangan, orasi suzgich parda bilan birlashgan bo'ladi. Barmoqlari bir-biridan mustasno harakatlanish xususiyatiga egadir. Norkalar olmaxon kabi tik daraxt yoki sim turlarida tezlik bilan harakat qila oladilar. Ularning terisi asosan jigarrang, lekin hozirgi vaqtda 5-6 xil turlari ham yaratilgan.

Norkalarning boshi ularning jinsini aniqlashda muxim belgi hisoblanadi. Erkaklarining boshi yumaloq, keng, ancha qupol bo'ladi. Urg'ochilariniki esa-bir oz cho'ziqroqdir. Bir oylik bo'lgan bolalarining bunday jinsiy demorfizmi yaxshi ifodalangan. Norkaning kuzi yumaloq, yaltirab turadi, asosan qora rangda. Lekin ayrim vaqtlarda jigarrang, qizil yoki och pushti va ko'k rangda bo'lishi ham mumkin. Umuman ularning ko'zi, tanasi va mo'ynasining rangiga qarab turlicha bo'ladi (33-rasm).

Norkalar uzoq yillardan beri qo'lda boqish va ko'paytirishga moslashgan. Ular ustida seleksiya va naslchilik ishlarini olib borish natijasida ularning unlab turli xil rang mo'ynalarini etishtirish imkoniga ega bo'lindi. Hozirgi vaqtda mo'ynachilik xo'jaliklarida norkalarning standart (to'q jigar rang), havo rang, jigar rang, oq va qora rangli turlari ko'plab urchitilmoqda va ko'paytirilmoqda. Norkalar yiliga bir marta, fevral oyining dastlabki kunlarida kuyukka keladi. Bu vaqtda ular turli xil ovoz chiqaradi va erkagini qarshilik ko'rsatmagan holda qabul qiladi. Jinsiy instinkt erkaklarida kuchli rivojlangan, ayrim hollarda bir urg'ochi norkani bir necha bor zo'rlab qochirishi kuzatilgan. Lekin, ayrim vaqtlarda bu hol ikki jins o'rtasida urush va bir-birlarini tishlab jarohatlashgacha olib keladi.

Norkalarning kuyukish muddati 25-30 kun davom etadi. Tuxum xo'jayralarining tuxum yo'lidagi harakati ham 6-7 kun davom etadi. Tuxum xo'jayra tuxum yo'lining yuqori qismida otalanadi va 10-40 kun mobaynida tuxum yo'lida to'xtab qoladi. Bu davr latent davri deb ataladi. Ayrim hollarda qochirilgan norka tanasida qo'shimcha (yangi) tuxum hujayralar hosil bo'ladi, shunga ko'ra ular yana erkaklari bilan qo'shilishga harakat qilishadi. Qo'shimcha qochirish natijasida yana yangi embrionlar vujudga keladi.

Norkalarning bug'ozlik davri 40 kundan 73 kungacha davom etadi. Bunday katta farq bo'lishining asosiy sababi ularda latent davrining va embrionlar miqdorining xar xil bo'lishidadir. Embrionlari ko'p bo'lgan norkalarning bug'ozlik davri birmuncha cho'zilishi aniqlangan.

Norkalarni boqishda ularning rasionini minimal yoki maksimal darajada uzgarishiga yul quymaslik lozim Chunki minimal darajadagi rasion norkalarning sog'ligi saqlanishi bilan mahsuldorligi pasayib ketadi va maksimal darajada bo'lganida ovqat hazm qilish organlarining jadal ishlashi natijasida jigari va ayrim

organlarining faoliyati buziladi. Shuning uchun rasion doimo me'yor darajada bo'lishi kerak. Xo'jaliklarda rasion tuzishda norkalar organizmining oziq moddalarga ehtiyojini to'la qondirish hisobga olinadi. Bunda hyvonlarning yoshi, jinsi va yilning fasliga e'tibor beriladi. Norkalarni cog'lom saqlash va mahsuldorligini oshirishga katta ahamiyat beriladi, fiziologik holati (urchishi, o'sishi, homilasining rivojlanish qobiliyati va boshqalar) hisobga olinadi. Xo'jalikda norkalarni baliq, go'sht va go'sht-baliq bilan boqish usullari qo'llaniladi. Baliq bilan boqish usulida xayvonlar oladigan jami kaloriyaning 50 foizdan ko'prog'i baliqlarga va baliq mahsulotlariga, go'sht bilan boqishda esa turli hayvonlar go'shti va ichak-chavoqlarga to'g'ri keladi. Go'sht-baliq bilan boqishda rasionda kaloriyasi va to'yimlilik darajasi teng bo'lgan, teng miqdordagi go'sht va baliq mahsulotlari bo'lishi kuzda tutiladi.

Zaruriyat bo'lgan paytlarda yosh norkalarning o'sishi va rivojlanishini yaxshilash, katta yoshli norkalarning urchish qobiliyatini oshirish va yuqori sifatli mahsulot etishtirish maksadida rasionga yog', vitaminlar, antibiotiklar, achitkilar, biopreparatlar va mineral elementlar (kalsiy, fosfor va boshqalar) qushiladi. Urchitishga tayyorgarlik kurish va urchitish, bug'oz-lik va laktasiya davrlarida rasionga jigar, ot go'shti, sut, baliq moyi va achitqilar kiritiladi. Hozirgi vaqtda Angren mo'ynachilik xo'jaligida turli xil oziq nisbatlari va ularning kaloriyasini hisobga olgan holda qo'yidagi rasion qo'llaniladi. Norkalarni so'yish va terilariga ishlov berish tadbirlar norka boquvchi ishchilar ishtirokida mo'ynachilik mutaxassislar bajaradi. Norkalarni so'yish uchun ularga ukol qilinib distelin yuboriladi. Mo'ynaga birinchi ishlov berish maxsus asboblarda so'yish punkti (kushxona)da bajariladi. U erda mo'ynani ishlash, tozalash, yog'ini ketkazish, tekislash va quritish, tashish va saralash sexlari bor. Quritish ishlari 31-35°C da 11-12 soat davom etadi. Norkalarni boqish, ularni urchitib ko'paytirish iqtisodiy jihatdan serdaromad tarmoq hisoblanadi. Binobarin, imkoni bo'lgan fermer xo'jaliklari ushbu tarmoq bilan shug'ullanishlari mumkin.

Nazorat savollari:

1. Norkalarning qanday xususiyatlarini bilasiz?.
2. Ular tabiatda, yovvoyi holda qanday yashaydilar?
3. Norkalar qulda qanday boqiladi va ko'paytiriladi?.
4. Norkalar rasion asosida qanday oziqlantiriladi

BOB.VI. HAYVONLARINI KO'PAYTIRISH VA KASALLIKLARDAN ASRASH

6.1.QISHLOQ XO'JALIK HAYVONLARINI KO'PAYTIRISH ASOSLARI

Ko'payish tirik moddaning asosiy xususiyatlaridan biri; organizmning o'ziga o'xshash nasl qoldirishi, yangi individlar hosil qilishi. Ko'payishi to'ring biologik obekt sifatida yashab qolishiga va individlar sonining ko'payishiga xizmat qiladi.



34-rasm. Pishiq konstitutsiyali Orlov zotli ayg'irning umumiy ko'rinishi.

Asosan ikki xili bor: jinssiz ko'payishi va jinsiy ko'payishi Jinssiz ko'payishda ona organizmning kattaroq yoki kichikroq bir qismi ajralib chiqib, yangi organizmga aylanadi. Jinssiz ko'payishning ikki xili bor: vegetativ ko'payish va spora hosil qilish yo'li bilan ko'payish Vegetati ko'payish ko'rtaklanish va bo'linish yo'li bilan boradi, ko'rtaklanishda ona organizmining ma'lum qismi o'sib, do'mbayib chiqadi va undan yangi organizm xosil bo'ladi, bo'linishda esa ona organizmi ikkiga ajraladi va har qaysisi mustaqil holda yashaydigan yangi organizmga aylanadi.

Xayvonlarning o'sishi va rivojlanishi ularning hayotida muhim jarayon hisoblanadi. Bu jarayonning jadal va sust borishi bir qancha omillar bilan belgilanadi. Masalan, irsiy va jinsiy belgilar, hayvonlarning zoti va zotdorligi, umuman, barcha turdagi ichki va tashqi muhit ta'sirlari shular jumlasidandir. Masalan, aniqlanishicha, erkak hayvonlar urg'ochilariga qaraganda tezroq o'sadi. Yoki yosh hayvonlarni

boqish va parvarishlashda tashqi muhit harorati, havoning namligi, musaffoligi va hokazolar so'zsiz ta'sir ko'rsatishi ko'plab misollarda isbotlangan.

Ma'lumki, hayvonlarning o'sishi va rivojlanishiga ularni oziqlantirish, oziq miqiori va turlari ham katta ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, sut va yem bilan boqilgan buzoqlar tirik vazni oif va go'shtdor, shuningdek, sersuv va ko'proq xashak bilan boqilganda buzoqlar birmuncha ixcham, sut mahsuloti kam bo'lishi aniqlangan.

Yosh mollar saqlanadigan xonalarning nam va zax bo'lishi ularning sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Quyosh nuri, sun'iy yorug'lik yetarli bo'lsa, hayvonlar cog'lom, kasalliklarga chidamli va baquvvat bo'lib usadi. Yosh mollar organizmida moddalar almashinuv jarayoni ancha jadal boradi. Bunga asosiy sabab ularning o'sishi va rivojlanishi uchun ko'p oziq moddalar talab etilishidir. Umuman, har bir turdagi yosh hayvonlarning jadal o'sishi va rivojlanishini to'g'ri boshqarish har bir chorvadorning muhim vazifasidir. Hayvonlar tug'ilganida uning vaznini aniqlash maksadida tortiladi. Keyin ularni asosan oyiga 1 marta tortib turiladi. Binobarin, ular vaznining ortib borishi va ko'rsatkichlari asosida xayvonning o'sish tezligi aniqlaniladi. Bunda xayvonlarning xaqiqiy va nisbiy o'sishi xisobga olinadi.

Hayvonlar konstitusiyasi deb, ularning tashqi muhit sharoitiga moslashganligi,

irsiy belgilari va mahsuldorligi jihatidan ular organizmining morfologik, fiziologik va biokimyoviy xususiyatlari yi-g'indisiga aytiladi.

Hayvonlarning har xil konstitutsiya tiplari avvalo ularni inson tomonidan ongli ravishda tanlash, saralash, boqish, asrash va ma'lum maqsadda parvarish qilish natijasida vujudga kelgan va tashqi muhit sharoitiga yaxshi moslasha olish natijasida ular nasl berish qobiliyatiga ega bo'lgan.


P. N. Kuleshov har xil maksadda foydalaniladigan qoramollar tanasi ayrim qismlarining tuzilishiga va nisbiy rivojlanganligiga asoslanib va tana tuzilishining boshqa xususiyatlariga tayanib turt xil tipda konstitutsiya mavjudligini asoslab bergan.

Pishik. konstitutsiya. Bu konstitutsiya tipi asosan go'shtdor, sersut zotlarga xos. Ularning ichki organlari sistemasi me'yor darajada va yaxshi rivojlangan bo'ladi. Muskullari tig'iz, suyagi pishik,, teri ostidagi yog' qavati uncha yaxshi rivojlanmagan. Bu konstitutsiya tipidagi hayvonlar uncha semiz emas, oriq hm bo'lmaydi (34-rasm).

Nozik konstitutsiya. Bu tip asosan sersut bo'lgan madaniy zot sigirlariga va chopqir otlarga xosdir. Bu tipga mansub bo'lgan sigirlarning terisi yupka va elastik, suyaklari ingichka, juni yaltirok, va kalta, muskullari va teri ostidagi yog' qavati sust rivojlangan. Binobarin, bunday sigirlar oriq bo'ladi. Yelini yaxshi rivojlangan va katta, oyoklari oriq va uzun, buyni ingichka va chuziq bo'ladi. Yegan ozig'i asosan sut hosil bo'lishiga sarflanadi. Ovqat hazm qilish a'zolari sistemasi ham yaxshi rivojlangan. Ular ko'p miqdorda xashak yeyishga moslashgan.

Bush yoki xom konstitutsiya. Bu tip vakillarining muskullari yaxshi rivojlangan, teri ostidagi yog' kavati qalin, yaxshi ifodalangan. Ular iste'mol qilgan yem-xashak asosan go'sht va yog' tukimasining ortishiga sarflanadi. Lekin suyaklari uncha pishiq emas, sut bezlari yaxshi rivojlanmagan. Bush konstitutsiyali mollar kam harakat bo'lib, oziqlangandan keyin ko'proq yotishni ma'qul ko'radi.

Qupol konstitutsiyaga mansub mollarning suyagi yirik, terisi pishiq, qalin, juni usiq, teri ostidagi yog' qavati o'rtacha yoki sust rivojlangan bo'ladi. Muskullari tig'iz, ovqat hazm qilish a'zolari sistemasi va sut bezlari o'rtacha rivojlangan. Bu tip vakillarining sut va go'sht mahsuloti o'rtacha.



35-rasm. Mustahkam konstitutsiyali sersut sigirning umumiy ko'rinishi.

U.Dyurst hayvonlar organizmida yuz beradigan gazlar va moddalar almashinuvi jarayenlari jadalligiga ko'ra hamda ular tomonidan yeyilgan yem-xashak ma'lum mahsulot tayyorlashga sarflanishini hisobga olgan holda ikki xil: sersutlik belgisi rivojlangan va go'shtdorlik belgisi ham rivojlangan tiplarni, ikkita aralash yoki qushma, ya'ni: sersut-go'shtdor va go'shtdor-sersut tiplarini asoslab bergan.

Sersutlik belgisi rivojlangan tip talabiga ko'ra, sigirlarning tanasi o'rtacha semizliqia yoki oriq, buyni uzun va ingichka, ko'kragi tor va kichik, nafas olish, qon aylanish, moddalar almashinuvi organlari sistemasi kuchli

rivojlangan. Shuningdek, gipofiz, qalkonsimon, sekresiya bezlari yaxshi rivojlangan. Umuman, sersut sigirlar shu konstitutsiya tipiga mansubdor (35-rasm).

Go'shtdorlik belgisi rivojlangan tip talabina ko'ra mollarning-ko'kragi keng va chuqur, boshi kichik, buyni kalta va yo'g'on, nafas olish a'zolari sistemasi uncha rivojlanmagan, moddalar almashinuvi jarayoni sust, buyrak usti va jinsiy bezlari vazifasi rivojlangan bo'lib, asosan go'shtdor madaniy zotlarga xosdir.

Aralash tip talabiga ko'ra, ulardan kaysi mahsulot ko'proq olinadigan bo'lsa, oldin ushanning nomi aytiladi. Masalan, go'shtdor bo'lsa, u holda «go'shtdor-sersut tip» deb yuritiladi va aksincha.

Respublikamizda barcha turdagi chorva mollari va parrandalariga baho berishda P.N.Kuleshov klassifikasiyasidan foydalaniladi. Ayniqsa naslchilik ishlarida xayvonlarni to'g'ri tanlash, ularni saralash, ya'ni juftlashda xar bir hayvonning tana tuzilishi, konstitutsiyasining mustahkamligi, harakatchanligi va mahsuldorligiga alohida e'tibor beriladi. Shu bilan birga, hayvonlarning tashqi qiyofasi, ya'ni eksteryeri ham muhim ahamiyatga ega.

Nasl olish uchun (ya'ni kelgusida naslchiliqqa foydalanishi rejalangan) ajratilgan qoramollar eksteryeri bo'yicha kamchiliklarsiz bo'lishi kerak. Aks holda xar qanday kamchilik va nuqsonlar ularning kelajak nasllarida namoyon bo'ladi.

Hayvonlar eksteryeri

Eksteryer deganda, hayvon tanasining tashqi kurinishi va tana qismlarining joylashuvi tushuniladi. Hayvonlarga eksteryeriga ko'ra baxo berish muhim ahamiyatga ega. Bunda ularning zot talablariga ko'ra tana tuzilishi, ixchamligi, konstitutsiyasi, fiziologik faoliyati hisobga olinadi. Masalan, sersut sigirni eksteryeriga ko'ra go'shtdor sigirlardan farqlash va ularga baxo berish ancha qulay. Chunki bunday farqlarni kuz bilan chamalab aniqlash mumkin.

Sersut sigirlarning qorni va yelini katta, uzi yirik, buyni va oyoqlari uzun, ingichka, boshi yengil, terisi yupqa va chuziluvchan, ya'ni elastik va teri ostidagi yog' qavati yupqa bo'lsa, go'shtdor sigirlarda buning aksini kuzatish mumkin.

Mollarning eksteryeri bo'yicha anik baxo berishda ulchov asboblari va lentalari yordamida ular tanasining qismlari ulchanadi. Masalan, boshining uzunligi, peshanasining kengligi, yelinning chuqurligi va aylanasi, yag'rini, bel va dumg'aza balandligi, ko'krak chuqurligi, ko'raklar orti, ko'krak aylanasi va uning kengligi, gavdasining qiya uzunligi, pocha aylanasi va xokazolar shular jumlasidandir.

Uzbekistan sharoitida sigirlarning sut mahsuldorligi teridagi teri bezlarining rivojlanish darajasi, serqaymokligi, yog' bezlarining yirik bo'lishi va zich joylanishi bilan chambarchas bog'lik, ekanligi, shuningdek, yosh buzoqlarning teri morfologiyasiga asoslangan holda, oldindan kelajaqiagi mahsulot darajasini aniqlab berishda bir kancha kuzatishlar olib borilgan.

Nazorat savollari:

1. Hayvonlarning o'sishi va rivojlanishi to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Hayvonlarni absolyut va nisbiy o'sishi qanday urganiladi?
3. Hayvon konstitutsiyasi deb nimaga aytiladi?
4. Eksterer nima, chorvachiliqqa uning qanday ahamiyati bor?

6.2.HAYVONLARNI BOQISH VA PARVARISH QILISHDA NASLCHILIK ISHLARI

Chorvachilik naslchilik ishlari olib borishdan asosiy maqsad hayvonlarning mahsuldorligini oshirish, zotini yaxshilash, shuningdek, tez yetiluvchan, vazndor, serpusht va yuqori sifatli mollar yetishtirishdan iboratdir.

Respublikamizda naslchilik ishlarini samarali olib borish maqsadida barcha mintaqalarning tabiiy va iqtisodiy xususiyatlarini hamda mollarni biologik va xo'jalik sifatlarini hisobga olgan holda ularning zotlarini rivojlantirish ishlari amalga oshirilgan. Chorva mollarining mahsuldorligi va sifatini oshirish maqsadida barcha turdagi urg'ochi mollarni yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan hayvonlar urug'i bilan sun'iy usulda urug'lantirish muhim ahamiyatga ega. Naslchilik ishlarining samarasi qo'yida keltirilgan bir qancha tadbirlarga bog'liq.

Barcha chorvachilik fermalarida mollar zotini yaxshilashda yuqori klassga xos bo'lgan sermahsul chorva mollari urug'idan unumli foydalanish.

Tanlash va saralash ishlarida chorva mollarining kelib chiqishiga, konstitusiyasiga, rivojlanish darajasi va avlodining mahsuldorlik ko'rsatkichiga e'tibor berish.

Chorvachilik fermalarida bonitirovka ishlarini uz vaqtida va sifatli o'tkazish.

Nasl uchun yuqori sifatli va cog'lom xayvonlarni ajratish.

Hayvonlarni chatishtirish uchun podadagi eng yaxshi, sifatli, sermahsul, sog'lom mollarni tanlash.

Naslchilik ishlarini tasdiqlangan qat'iy reja asosida olib borish, boqish, parvarishlash va asrash ishlarini yuqori darajada olib borishdan iboratdir.

Naslchilik xo'jaliklarida naslchilik ishidagi asosiy usul chorva mollarni sof holda bir zotga oid mollar bilan urchitish hisoblanadi. Lekin ayrim hollarda, mollarning biror mahsulot ko'rsatkichini yaxshilash yoki yangi zot yaratish maqsadida zotlararo chatishtirish usuli ham qullaniladi.

Chorvachilik fermalarida ko'plab tovar mahsuloti yetishtirish uchun har xil chatishtirish va hatto duragaylash usullaridan foydalanish mumkin. Bunday tadbirlar ko'proq qoramolchilik, cho'chqachilik va par-randachilik qullaniladi.

Chorvachilik yangi zot yaratish va mavjud bo'lgan xayvon zotlarini takomillashtirish, ayrim mahsuldorlik xususiyatlarini yaxshilash borasida tanlash ishlarini olib borish muhim ahamiyatga ega. Tanlash mollarning fenotipiga (ya'ni rivojlanishi, eksteryeri, konstitusiyasi va mahsuldorligiga va genotipiga (ya'ni irsiy xususiyatlariga va bu xususiyatlarini o'z nasliga bera olish holatiga) ko'ra olib boriladi. Bir tomonlama tanlashda mollar ma'lum bir ko'rsatkich asosida tanlanadi.

Kelib chiqishiga ko'ra tanlashda hali yosh mollar tug'ilmasdan oldin, maxsus jurnallardagi ma'lumotlarga, avlodining irsiy belgilariga qarab tanlanadi. Vazni va jadal o'sishiga ko'ra tanlashda har xil hayvonlar turli yoshida baholanadi. Masalan, kulunlar (toylar) 6-8 oyligida, buzoqlar 5-6 oyligida, quzilar 3-4 oyligida va chuchka bolalari esa 2 oyligida baholanadi. Yosh mollarni sifatiga ko'ra tanlash asosan ularning hayotchanligi, tirik vazni, soni va boshqa barcha belgilari hisobga olingan holda bajariladi.

Chorvachiliqia hayvonlarni yalpi va yakka holda (individual) tanlash usullari qullaniladi. Yalpi tanlashda asosan hayvonlarning faqat fenotipi hisobga olinadi. Yakka holda tanlashda ham fenotipi, ham genotipiga e'tibor beriladi, bu esa naslchilik ishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'plab olim va mutaxassislarning fikricha chorvachilik sohasidagi naslchilik va seleksiya ishlari chorvachilik ferma va xo'jaliklarida hayvonlarni boqish va parvarishlashda yuksak darajada olib borilishi lozim. Aks holda, naslchilik ishlari kungildagidek natija bermaydi.

Chorvachiliqia naslchilik ishlaridagi muxim tadbirlardan biri erkak va urg'ochi hayvonlarni saralash (juftlash, xillash) hisoblanadi. Bu tadbirdan asosiy maqsad chorva mollarining avlodidagi barcha ijobiy belgi va xususiyatlarni vujudga keladigan nasllarda namoyon qilishdan iborat. Bu tadbirning asoschisi P. N. Kuleshov xisoblanadi. Uning fikricha, saralash ishlarini olib borishda ijodiy yondashish va mahsuldorligi yuqori bo'lgan hayvonlarga aloxida e'tibor berish muxim ahamiyatga ega. Shu yul bilan ularning foydali belgilarini naslida mustahkamlash mumkin.

Agar saralash ishlari noto'g'ri olib borilsa, nasliga utgan xususiyatlar sifati pasayib ketishi mumkin. Erkak va urg'ochi hayvonlarni saralashda qo'yidagilarga e'tibor beriladi: 1) eng sifatli chorva mollari eng sifatli mollar bilan juftlashtiriladi; 2) juftlashtirishda erkak hayvon urg'ochisiga qaraganda yuqoori klassga oid bo'lishi kerak; 3) yaqin qarindoshga ega bo'lgan hayvonlarni o'zaro juftlashtirish yaramaydi. Aks holda, zaif va sifatsiz nasl vujudga keladi; 4) ayrim bir xil nuqsonga ega bo'lgan erkak va urg'ochi xayvonlarni o'zaro juftlashtirish yaramaydi, chunki bu nuqsanlar olinadigan naslda jiddiylashib ketadi.


Hayvonlarni yoshiga ko'ra saralash. ishlarini olib borishda xayvonlarni yoshiga qarab juftlash muhim ahamiyat kasb etadi. Kuplab tajribalardan ma'lumki, yosh urg'ochi hayvonlarni yosh erkak hayvonlar bilan qochirish ko'p vaqt salbiy natija beradi. Shunga ko'ra qo'yidagi tavsiyalarga e'tibor berish talab etiladi: 1) o'rta yoshdagi hayvonlar o'rta yoshli hayvonlar bilan juftlanishi lozim; 2) yosh xayvonlarga katta yoshdagi hayvonlar kushilishi kerak; 3) katta yoshdagi hayvonlar yosh xayvonlar bilan urug'lanishi yaxshi natija beradi.

Chorva mollari va parrandalarining kelib chikishi, konstitusiyasi, eksteryeri, xo'jalik va mahsulot yo'nalishiga ko'ra bir xil bo'lgan va uz xususiyatlarini nasllariga bera oladigan guruhi zot deyiladi. Barcha zotlarning bu xususiyati asosan naslchilik ishlarida boshqarib boriladi.

Hozirgi vaktida naslchilik ishlari yuqori darajada rivoj-langanligiga ko'ra, zotlar asosan uch guruhga (maxalliy, madaniylashtirilgan 7va oralik, yoki yaxshilanayotgan zotlarga) bo'linadi. Mahalliy zotlar asosan tabiiy tanlanish asosida, uzoq yillar mobaynida «ongeiz» tanlash va tuban, ekstensiv usulda olib borilgan chatishtirish ishlari natijasida vujudga kelgan. Lekin ular chidamli, tashqi muxit sharoitiga yaxshi moslashgan, mustahkam konstitusiyali, hammabop, lekin kech yetiluvchan va mahsuldorligi past bo'lgan vakillardan tashkil topgan. Tobora kamayib borayotgan mahalliy zot qoramollar respublika mintaqalari sharoitida yaxshi moslashganligi, chidamliligi, oziq tanlamasligi bilan birga, kech yetiluvchan

va mahsuldorligi pastdir. Masalan, sigirlarining vazni 220-280 kg, buqalarining vazni esa 320-350 kg dan oshmaydi.

Madaniylashtirilgan zotlar mahsuldorligi yuqori bo'lgan hayvonlarni eksteryeri, konstitusiyasi, mahsulot yo'nalishi, kelib chiqishi, irsiy belgilari asosida tanlash, saralash ishlarini jadal olib borish natijasida yaratilgan gurux, hisoblanadi. Madaniy zotlar irsiy belgilari va mahsuldorliga ko'ra boshqa zot guruhlaridan ancha



36-rasm. Mollar qulog'ini kertish va isirralash asboblari hamda quloq isirrasi. A-kertish ombiri, V-isirra bosish ombiri, G-quloq isirrasi, B-quloq raqamlarining joylanishi.

ustun turadi. Oralik, zotlar asosan max, alliy va madaniylashtirilgan zotlar o'rtasida bo'lib, ularning yuk, ori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan ayrim vakillari bilangi-na naslchilik ishlari olib boriladi.

Chorva mollarining asosiy zotlari mahsulot yo'nalishiga ko'ra, ma'lum gurux, yoki tiplarga bo'linadi. Masalan qoramollar sut, go'sht va go'sht-sut yo'nalishida boqiladigan; cho'chqalar - go'sht, go'sht-yog' va yog' uchun boqiladigan; qo'ylar-mayin junli, mo'ynabop (qorako'l), po'stinbop, go'sht va yog' yo'nalishida boqiladigan; otlar-salt miniladigan, yengil aravaga qo'shiladigan va og'ip yuk tortuvchilarga bo'linadi.

Barcha naslchilik fermalarida mollar tug'ilgach, ularga laqab beriladi. Bundan onasi laqabining birinchi harfini asos qilib

olish ancha ma'qul ko'riladi. Bu kelib chiqish jurnaliga yozib qo'yiladi.

Mollarni isirg'alash, tamgalash, nomerlash va kertish ishlari mutaxassislar tomonidan bajariladi. Bu maqsadda chorvachiliqia metall va plastmassadan yasalgan isirg'alardan foydalaniladi (36-rasm). Qoramolchiliqia isirg'alash ishlari quloqlarini kertish yuli bilan olib boriladi. Quloqni kertishda maxsus isirg'alash qoidasiga amal qilinadi. Masalan, ung qulog'ining usti kertilsa, u 1 ni bildiradi, shu qulogining osti 3, uchi 100, o'rtasi teshilsa 400 hisoblanadi. Chap qulogining usti 10, osti 30, uchi 200, o'rtasi 800 bo'ladi va hokozo.

Fermalarda mollarni isirg'alash, kertish va ularga laqab berishdan asosiy maqsad ulardan naslchilik ishlarida foydalanishda xatoliklarga yul quymaslik, har birining individual hisobini alohida olib borishdan iboratdir.

Bonitirovka deb chorva mollarining kompleks belgilari asosida ma'lum maqsadda baholashga aytiladi. Bunda har bir hayvonning irsiy belgilari, eksteryeri, konstitusiyasi, vazni va hokazolarga alohida e'ti-bor beriladi.

Bonitirovka qilishda har bir hayvonning mahsuldorligi muhim ko'rsatkich sifatida qabul qilinadi. Masalan, yilqilarning chopqirligi, og'ip yuk torta-olish xususiyati, qo'ylarning mahsuldorlik yo'nalishiga ko'ra junining sifati, go'shtdorligi va hokazolar e'tiborga olinadi. Parrandalarning serpushtligi, tuxumining ogirligi, sigirlarning sersutligi, sutidagi yog' miqdori, kancha sut berishi kabilar

bonityorning diqqat markazida bo‘ladi. Kelib chikishiga ko‘ra baholashda hayvonlarning zoti, zotdorligi hisobga olinadi. Ular qaysi bir ypyg‘ qatoriga yoki oilaga taalluqligi aniqlaniladi va irsiy afzalliklari ifodalanadi. Eksteryeriga ko‘ra baholashda ularning tashqi kiyofasi hisobga olinadi. Bunda yirik hayvonlar 10 balli, buzoqlar va boshqa turdagi yosh mollar 5 balli sistema asosida baholanadi. Vazniga ko‘ra baholashda mollar tarozida tortiladi va ularning qaysi yo‘nalishiga mansubligi ifodalanadi. Keyin xar bir yo‘nalish talabiga ko‘ra baho beriladi.

Sigirlarning sersutligi 305 kunlik laktasiya davrida bergan suti, sutining yog‘i va oqsil miqdoriga ko‘ra baholanadi. Go‘sh t yo‘nalishida boqiladigan qoramollar 6 oylik vaqtida kelib chiqishi, vazni eksteryeri va barcha individual xususiyatlariga ko‘ra baholanadi.

Chuchqalar serpushtligi, bolalarining tez semirishiga va ikki oylik bolalarining vazniga ko‘ra hamda tug‘ilgan bolalarining katta-kichikligiga qarab baholanadi. Ularning serpushtligi yigirma bir kunlik bolalarini tortib kurish bilan aniqlaniladi.

Qo‘ylar maxsulot yo‘nalishiga ko‘ra, junining vazni, sifati, tekisligi, qalinligi va yog‘-teriga boyligi bilan baholanadi.

Qorakul quzilar 1-3 kunligida muynasining sifatiga qarab baholanadi. Bunda terisining rangi, guldorligi, jingalaklarining yirik-maydaligi, junining yaltiroqligi hisobga olinadi. Go‘sh t-yog‘ yo‘nalishida boqiladigan qo‘ylar go‘sh t-dorligi va dumbasining hajmi, vazni va tashqi kurinishiga ko‘ra, pustinbop qo‘ylar muynasining sifati va serpushtligiga qarab baholanadi.

Yilqilar chopqirligiga va og‘ir yuk tortish xususiyatlariga ko‘ra baholanadi.

Parrandalar qaysi yo‘nalishda boqilishiga ko‘ra, serpushtligi, go‘sh t-dorligi, tuxumining yirik-maydaligi va eksteryeriga ko‘ra baholanadi. Serpushtligini aniqlashda individual uyalarga bir yil mobaynida quygan tuxumi soni hisobga olinadi. Tuxumning vaznini aniqlash uchun ularning 10 tasini tortib, har birining o‘rtacha vazni aniqlaniladi.

Bonitirovka natijalari asosida ma‘lum tadbirlarni, mollar va parrandalarning mahsuldorligi, irsiy xususiyatlarini hamda tez yetiluv-chanligini yaxshilash borasida amaliy, reja va tadbirlar tuziladi, hamda ularni bajarish lozim hisoblanadi. Bonitirovka ishlari qishlok, va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan tuzilgan va tasdiqlangan maxus uslubiy ko‘rsatmalar asosida olib boriladi.

Amaliy mashg‘ulot

Qoramollar bonitirovkasi bilan tanishish

Asosiy maqsad. Qoramollarni bonitirovka qilish instruksiyasi bilan tanishish va mollarni bonitirovka qilish borasida malaka o‘rttirish.

Mashg‘ulot o‘tkazish uchun vositalar: Bonitirovka o‘tkazish instruksiyasi, naslchilik ishlari bo‘yicha hisobot blankalari va tirik hayvonlar.

I Topshiriq. Sigir va g‘unajinlarni, hamda turli yoshdagi buzoqlarni naslchilik ma‘lumotlari, individual kartochkalari bilan tanishish. hamda naslchilik guvohnomalarini kuzdan kechirish, sigirlarni tug‘ishi va sun‘iy urug‘lantirish turlari, bonitirovka vedomostlarini talab asosida o‘rganib chiqish.

II topshiriq. Sut va sut-go‘sh t yo‘nalishidagi zotlarni bonitirovka qilish instruksiyasini urganib chiqish va bu borada olib boriladigan tadbirlarni amalga

oshirish.

III topshiriq. Chorvachilik fermasi sharoitida 5 bosh sigirni bonitirovka qilish va ularni barcha xususiyatlarini xisobga olgan holda ma'lum klasslarga ajratish.

topshirik,. O'qituvchi topshirig'iga ko'ra sigirlarni sun'iy urug'lantirish va ulardan buzoq olish rejasini tuzing.

Nazorat savollari:

1. Chorvachiliqqa naslchilik ishlarini olib borishdan asosiy maqsad nima?
2. Tanlash nima va u qanday olib boriladi?
3. Chorvachiliqqa saralash deganda nimalarni tushunasiz?
4. Chorvachiliqqa zot deb nimaga aytiladi, uning klassifikasiyasi tutg'isida nimalarni bilasiz?
5. Mollarni isirg'alash, kertish va laqablash ishlari qanday olib boriladi?
6. Bonitirovka nima, u qanday bajariladi?

6.3.QISHLOQ XO'JALIK HAYVONLARINI URCHITISH USULLARI

Chorvachilikni barcha turdagi hayvonlarni va parrandalarni urchitish asosan uch xil usulda olib boriladi: 1) toza (sof) zotli urchitish; 2) zotlararo chatishtirish; 3) turlararo chatishtirish yoki duragaylash.

Toza holda urchitish: urchitilayotgan erkak va urg'ochi mollar bir xil zotga mansub bo'ladi. Bu usulning afzalligi asosan urchitilayotgan zotda mahsuldorlik jixatidan yuqori ko'rsatkichga ega va uni takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'lishidan iborat. Chorvachilikni madaniylashtirilgan zotlarga toza holda urchitiladi va ular uz irsiy xususiyatlarining ustun-ligi bilan ajralib turadi.

Chorva mollari va parranda zotlarini toza xolda urchitishda qo'yidagi tadbirlardan foydalaniladi:

1) nasl uchun eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan mahsuldor vakillarini tanlash;

2) xillash uchun erkak va urg'ochi vakillarning seleksion xususiyatlariga ko'ra ajratish;

3)olingan naslni maqsadga muvofiq bokish va parvarish qilish shular jumlasidandir.

Butun dunyoga dong taratgan mayin junli merinos zot qo'ylar, arabi zot otlar, qimmatbaho qorakul quy zotlari ana shu toza zotli urchitish asosida yaratilgan. Bu usulning kamchiligi shundan iboratki, bunda zotning sifatini yaxshilash juda sekinlik bilan boradi. Lekin, buning uchun boshqa yul va usullardan foydalanib bo'lmaydi. Masalan, qorakul teri sifatini yaxshilash uchun boshqa zot qo'ylardan foydalanib bo'lmaydi, aks holda, terining sifati yomonlashib ketishi mumkin. Binobarin, urchitish ishlari faqat muayyan zot ichida olib boriladi.

Sof zotli urchitishda qullaniladigan ba'zi usullar. Mollar va parrandalar sof holda urchitilganda ba'zan erkak va urg'ochi vakillari bir-biriga qarindosh yoki begona bo'lishi mumkin. Qarindosh bo'lgan vakillarning o'zaro urchitish inbriding deyiladi. Bunda masalan, bitta ota-onaning erkak va urg'ochi nasli o'zaro yoki ota-

onasi bilan urchitilishi mumkin. Inbriding xo‘jaliklarda kamdan-kam qullaniladigan usuldir. Bundan asosiy maqsad, sodir bo‘lgan biror kamchilikni yoki ko‘rsatgichni bartaraf qilishdan iborat. Binobarin, vujudga kelgan nasl o‘zining avvalgi yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan asl avlodini eslatadi. Shuning uchun ham bu usul faqat ayrim hollardagina qullaniladi. Lekin, bu usuldan foydalanilganda olingan naslning hayotchanligi va chidamlilik xususiyatlari pasayib ketadi. Agar ketma-ket qullanilsa nimjon, oriq, mayda va hatto ulik bola tug‘ilishi mumkin. Binobarin, bunday tadbirlar katta mas’uliyat sezgan holda olib borilishi lozim.

Urug‘ qator muayyan zot- ichidagi ayrim xususiyatlari (gavda tuzilishi, mahsuldorligi) jihatidan bir-biriga uxshagan va yaxshi urug‘boshidan vujudga kelgan sermahsul erkak mollar guruhidir. Urug‘ qator ma’lum erkak vakilining laqabi bilan ataladi. Urug‘ qatorlar asosida urchitishda erkak xayvonlarning genotipik xususiyatlaridan foydalanish diqqat markazida turadi va shu tufayli u amalga oshiriladi. Bundan tashqari, har bir zot tarkibida bir necha oilalar bo‘ladi. Oila har bir sof urg‘ochi (sigir, biya, cho‘chqa, sovliq) vakilidan tarqalgan urg‘ochilar guruhidir. Zot tarkibida oilalar urug‘ qatorlariga nisbatan pastroq turadi. Garchand ko‘plab urg‘ochi vakillarining serpushtligini oshirishda o‘zining yuqori irsiy xususiyatlarini utkaza olsada, naslchilik ishlarida urug‘ qatorlar dastlabki urinda turadi.

Agar urchitiladigan mollar turli zotlarga mansub bo‘lsa yoki ulardan biri duragay bo‘lsa, bunday urchitish chatishtirish deb ataladi. Qo‘yilgan maqsadga ko‘ra, chatishtirish bir necha turga bo‘linadi (sanoat asosida yoki ko‘proq mahsulot olish maqsadida, galma-gal, qon singdirish yoki zotni uzgartirish maqsadida, qon qo‘yish yuli bilan va yangi zot yaratish maqsadida chatishtirish).

Galma-gal chatishtirish sanoat asosida chatishtirishga uxshash bo‘ladi. Lekin bu usul faqat tovar fermalarida qullaniladi va mollarning hayotchanligini oshirish hamda mahsuldorligini ko‘paytirish imkonini beradi. Bunday chatishtirishda ikkita yoki ko‘proq zot ishtirok etadi. Bir marta chatishtirilgandan so‘ng urg‘ochi duragay vakillarining yaxshilari yana dastlabki zotning erkaklaridan qayta qochiriladi. Bu usulning afzalligi shundaki, barcha tovar fermalarida sof zotli, sermahsul erkak vakillaridan urg‘ochilar galma-gal qochiraveriladi. Naslchilik fermalarida bu usul qullanilmaydi.

Qon singdirish yoki zotni uzgartirish maqsadida chatishtirish. Bu usulda mollar zotini tubdan uzgartirish maksadida boshqi zotlardan foydalaniladi. Masalan, jaydari urg‘ochi mollar yuqori mahsuldor zot erkak vakillaridan qochiriladi. Ayrim vaqtlarda yangi zot yaratish uchun ham shu usuldan foydalanish mumkin.

Chatishtirishdan vujudga kelgan birinchi bug‘in (1)2 qon qushilgan avlod duragaylarning erkaklari go‘shatga topshiriladi, urg‘ochilari esa yana yaxshilovchi zot bilan chatishtirilib, ikkinchi avlod olinadi va ularning qonida yaxshilovchi zot hayvon qoni $\frac{3}{4}$ hissani tashkil etadi. Sung shu usulda uchinchi avlod olinadi va uning qonida $\frac{7}{8}$ x,issa yaxshilovchi zot k,oni bo‘ladi. Turtinchi avlod (15)16 k,on qushilgan erkak va urg‘ochilari bo‘lsa, beshinchi avlodda $\frac{31}{32}$ ni tashkil etadi. Bu usul chorvachilikda keng qullaniladi.

O‘zbekistonda mahalliy sigirlar shu usulda go‘shtdor santa-gertruda, aberdin-

angus, qozoqi oqbosh va gereford zot buqalari bilan qochirilgan va ijobiy natijalarga erishilgan.

K, on kuyish usulida chatishtirishda asosan biror zotning barcha xususiyatlarini tubdan uzgartirmagan holda, faqat biror kamchiligi yoki zaif tomonini yaxshilash bilan cheklaniladi. Bunda asosan yaxshilovchi zot yaxshilanuvchi (asosiy) vakillari bilan faqat bir marta chatishtiriladi.

Yangi zot yaratish maqsadida chatishtirish bu zavod usulida chatishtirish deb xam ataladi. Bunda ikkita yoki undan ko'proq zot o'zaro chatishtiriladi. Bundan asoiy maqsad barcha ijobiy xislatlarga ega bo'lgan yangi zot yaratishdan iboratdir. Bunda ikkita zot qatnashsa, oddiy chatishtirish, bir necha zot katnashsa murakkab chatishtirish deyiladi. Duragay vakillari sifatli oziq bilan boqishni va yaxshi parvarish kilishni talab etadi.

Turlararo chatishtirish yoki gibridlash biror zot yoki sermahsul duragay olish maqsadida ikki tur xayvonni bir-biri bilan chatishtirish gibridlash deyiladi. Ayrim hollarda gibridlari kisman yoki mutlaqo nasl bermaydigan bo'ladi. Mutlaqo nasl bermaydigan bo'lganida ular jinsiy hromosomalarida yuz beradigan bo'linish jarayonida uxshashlik va tenglik xususiyati bo'lmagani uchun qiz xujayralarda chalkashliklar yuz beradi va hayotchanligi past yoki umuman bo'lmagan jinsiy hujayralar vujudga keladi.

Qisman naslsizlikka, ko'proq bir jins chorva mollarida, asosan erkak vakillarida gormonal boshqarishning bir me'yorda bo'lmasligi sabab bo'ladi. Garchand hromosomalar me'yor bo'lingani bilan yetilish jarayonida spermatogenez buziladi, spermatozoidlar yetilmay qoladi. Gibridlash ko'proq koramolchilikda ijobiy natija beradi. Ma'lumotlarga ko'ra, sigirlar zebu buqalari bilan qochirilgan va nasl beruvchi gibridlari olingan. Ya'ni sigirlar bilan chatishtirishdan olingan gibridlarning faqat urg'ochilari nasl berishi aniqlangan.

Ot bilan eshak chatishtirilib, nasl bermaydigan xachir olinadi. Shuningdek, arxar quchqorlari bilan merinos va qorakul qo'ylari qochirilgan, pirovardida nasl berish xususiyatiga ega bo'lgan gibridlari olingan. Umuman, gibridlash ishlari chorvachilikda kam qullaniladi. Lekin sermahsul, chidamli va hayotchan gibridlari yetishtirishda bu usul ma'lum darajada ahamiyatga ega. Ayniksa hali fanda noanik, bo'lgan ayrim ilmiy jumboqlarni hal etishda bu usul hayvonot dunyosida salmoqni urin egallaydi.

Qochirish, qishloq xo'jalik hayvonlarini juftlari - urg'ochi hayvonlarni erkaklari bilan tabiiy urug'lantirish usuli. Urg'ochi hayvonlarning jinsiy moyil (kuyukkan) vaqtida amalga oshiriladi. Jinsiy yetilish hayvonning zoti, parvarishi, uni boqish va asrash sharoitlariga bog'liq. Fiziologik jihatdan yetuk (jinsiy yetilgan) hayvonlarga (masalan, toy va biyalar 3 yoshidan, buqa va g'unajinlar 15-18 oyligidan, qo'chqor va to'qlilar 12-18 oyligidan va hakoza) qochirishga qo'yiladi. Hayvonlar, asosan, erkin sharoitda (erkak va urg'ochi mollar yaylovda, otar yoki qo'tonda so'ngra boqilganda) hamda qo'lda (erkak va urg'ochi mollar bir-biridan ajratib boqilganda) qochiriladi. Qo'lda qochirish erkak moldan nasl olishda foydalanish, yil davomida nasl olish vaqtini tartibga solish hamda hayvonlarni tanlash imkonini beradi. Chorvachilikda tabiiy qochirish bilan birga

urug‘lantirishning progressiv usuli - sun‘iy urug‘lantirish ham qo‘llanilmoqda.

Chorva mollari asosan ikki xil tabiiy va sun‘iy usulda qochiriladi. Tabiiy usul yana ikkiga: erkin holda (yoki podada) va kulda qochirishga bo‘linadi. Erkin holda yoki podada qochirish tartibsiz xog‘da sodir bo‘ladi. Bunda kaysi urrochi qiyasi bir erkak moldan, qachon qochganligi noma‘lum bo‘ladi. Ayrim hollarda yuqumli jinsiy kasalliklar tarqaladi. Hisob ishlari olib borilmaydi. Bu usul asosan mollar podada yaylov sharoitida boqilganda kullaniladi. Bunda har bir buqa yil mobaynida 30-40 ta sigirni qochirishi rejalashtiriladi, har bir ayg‘ir uchun 20- 25 ta biyani rejalashtirish mumkin.

Qulda qochirish usuli qisman samaraliroq, bo‘ladi. Bunda quyukkan urg‘ochi mollar oldindan tanlangan erkaklaridan qochiriladi va qochgan kuni maxsus jurnalga yozib qo‘yiladi. Bu usulning afzalligi shundaki, har bir urg‘ochi hayvon qaysi erkakdan va qachon qochganligi ma‘lum bo‘ladi. Binobarin, hisob ishlarini ham olib borish mumkin. Lekin iqtisodiy tomondan bu usul uncha qulay emas, chunki ko‘plab erkak mollarni saqlash, parvarish qilish va oziqlantirishga anchagina mablar sarflanadi.

Chorva mollarini suniy qochirish usulda urug‘lantirish hamma tomondan muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, bunda yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lish sermahsul va asl erkak vakillaridan unumli foydalanish, hamda gigiyena jihatdan ozoda bo‘lish va qisqa vaqt ichida ko‘p miqdordagi urg‘ochi mollarni sun‘iy urug‘lantirish mumkin bo‘ladi. Bu usulning yana bir afzalligi qisqir qolishning oldini olish hisoblanadi. Chunki bunda urug‘(sper-ma)ning sifati hamma vaqt nazorat qilib boriladi.

Hozirgi vaqtda sun‘iy urug‘lantirish stansiyalari va punktlarida bir necha resept asosida tayyorlangan qushilmalardan foydalaniladi. Ulardan biri qo‘yidagicha tayyorlanadi: 100 ml distillangan suvga 3 g suvsiz tibbiyot glyukozasi, 1,4 g natriy sitrat, 16 ml yangi tovuk, tuxumining sariyog‘ aralashtiriladi. Bunga ma‘lum miqdorda streptasid, penisillin, streptomisin qushiladi. Bu borada buqalarning ypyg‘i 10 martagacha suyultirilishi mumkin. Shunday qilib, suyultirilgan urug‘ muzxonalarda nol darajada saqlanadi va ikki-uch kun mobaynida sigirlarni urug‘lantirishda foydalanish mumkin.

Hozirgi vaqtda urug‘larni uzoq vaqt saqlash uchun ular muzlatiladi. Shuningdek, ko‘p miqdorda gliserin xam qushiladi. Urug‘lar 20-2GS sovuqda salanadi. Ayrim hollarda - 78°C sovuqda saqlash ijobiy natija beradi. Bunday urug‘lar turt oygacha, ba‘zan undan ham uzoq vaqt saqlaganda ham yashovchanligini yuqotmaydi.

Sigirlarni urug‘lantirish uchun 1,5 ml urug‘ yetarli hisoblanadi. Bir marta urug‘lantirilgan sigirlarni oradan 12 soat utgach, ikkinchi marta kushimcha urug‘lantirish ijobiy natija beradi. Keyingi yillarda urug‘ni juda uzoq vaqt saqlash uchun 196°C sovuqda - quruq muzda yoki sutok, azotda saqlash sinab kurilgan. Bunda natija ijobiy bo‘lgan. Hozirgi vaqtda shu usulni qo‘llagan holda urug‘ni bir shahardan ikkinchi shaharga yoki bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga olib borib foydalanish katta samara bermoqda.

Urug‘lantirishdan oldin urug‘li ampulalar 38-40°C li issiq (ilik) suvda 2-3

minut davomida saqlanadi, eritiladi va urug'ning sifati mikroskopda tekshirib kuriladi.

Laboratoriya ishi Hayvonlarni chatishtirish usullari bilan tanishish

Asosiy maqsad. Mollarni turli usulda chatishtirish sxemalarini urganish va olinadigan avlodlarni duragaylash darajasini aniqlashdan iborat.

Kerakli vositalar. Chatishtirish usullarini ifodalovchi sxemalar, plakatlar va slaydalar. Shuningdek, albomlar va naslchilik ishlariga taalluqli qullanma materiallari.

Mashg'ulotni o'tkazish. Ukituvchi tomonidan chatishtirish ishlarini ma'lum maqsad asosida olib borish va buning uchun usullar mavjudligi turg'isida ma'lumotlar beriladi.

Topshriq va uni bajarish. Uqish xonalarida barcha uquvchilar uzlariga berilgan topshiriq asosida chatishtirish sxemalarini kurgazma materiallar, jihozlar asosida uz daftarlariga yozib oladilar. Bu borada qushimcha malaka olish maqsadida qisqa muddatli kinofilmlar va diafilmlar tomosha qilinadi. Mashg'ulot yakunida uquvchilar orasida savol-javob ishlari utkaziladi.

Nazorat savollari:

1. Chorvachilikda urchitish ishlari qanday olib boriladi?
2. Inbriding nima?
3. Urug' qatorlar va oila deganda nimalarni tushinasiz?
4. Chatishtirish nima, uning qanday turlarini bilasiz?
5. Qochirish usullaridan nimalarni bilasiz?
6. Hayvonlarni sun'iy urug'lantirish turg'isida suzlab bering.

6.4. CHORVA XAYVONLARDA UCHRAYDIGAN KASALLIKLAR VA ZOOVETENARIYA SOHASI

Qishloq xo'jaligida hayvonlarni parvarish qilish jarayonida tashqi muhit va ayrim ozuqalarni buzilishidan hamda parvarish qilish rejimlari buzilganda kam yoki ko'p,uz vaqtida ovqat berilmaganidan va boshqa sabablar tufayli hayvonlar turli xil kasalliklarga duchor bo'lishi mumkin. Qo'yida qishloq xo'jalik hayvonlarida uchraydigan ayrim kasalliklarni ko'rib o'tamiz.

Qo'tir (scabies) - odam va hayvonlarning yuqumli teri kasalligi. Qo'tir kanallari Asarus siro L. qo'zg'atadi. Davosi: Vilkinson mazi, oltingugurt mazi va boshqalar ishlatiladi. Hayvonlarda qo'tir chorva mollari tanasida har xil qichima kanallari parazitlik qilishidan vujudga keladi. Turi va terida joylashishi o'rniga qarab, teri ustida, parpatlar orasida, teri ostida, quloq va boshqalar organlarda parazitlik qiladigan kanalar bo'ladi. Qo'tir kanallari har xil oraliq xo'jayrada parazit hayot kechiradi. Masalan, teri usti kanalarida Psoroptes equi otlarda R. bovis qoramolda parazitlik qiladi.

Leykoz (leyko), leykemiya - qon yaratuvchi to'qimalar kasalligi. Bunda qon yaratilishi buziladi: qon yaratuvchi organlarda, shuningdek buyraqia, tomirlar devorida, nervlar bo'ylab, terida yosh patologik hujayra elementlari o'sib ketadi.

Sababi aniqlanmagan spontan leykoz, ionlashtiruvchi nurlar ta'sirida paydo bo'ladigan radiasion leykoz hayvonlarda. Sut emizuvchilarda leykoz ko'pchilik mamlakatlarda, jumladan AQSh va Yevropa mamlakatlarida, asosan, Boltiq bo'yi, Shimoliy Kavkaz va Sibirda uchraydi. Leykoz bilan qoramol, ot, cho'chqa, it, mushuq kalamush, sichqon va boshqalar (asosan, katta yoshdagi hayvonlar) kasallanadi. Leykoz hayvonlarda uzoq vaqt belgisiz o'tadi, qoni tekshirilgach, diagnoz qo'yiladi. Davolash choralari Parrandalarda ham uchrab, kasallikni virus qo'zg'atadi. Ko'pincha 4 oyliqian katta tovuqlar, ba'zan kurka, o'rdak g'oz va boshqalar kasallanadi. Kasallik manbai kasal parrandalar va virus tarqatuvchilar. Asosan, tuxumdan yuqadi, kasallik laboratoriya va patomorfologik tekshiruv asosida aniqlanadi.

Oldini olish: podani zotli mollar bilan to'ldirish; yosh mollar va jo'jalarni to'g'ri boqish; Leykozga chidamli tovuq zotlarini yaratish va boshqalar.

Timpaniya, qorin shishishi - kavsh qaytaruvchi hayvonlarning katta qornida ko'p miqdor gaz to'planishi, kasallik asosan, tez achiydigan ozuqa, ko'kat (yosh beda, palak ayniqsa, shudring tushgan o't) yeyish natijasida, qizilo'ngachga ozuqa tiqilib qolganda, to'r qorin yaralanganda va zaharlanganda paydo bo'ladi. Timpaniya bahor oyida, quruq ozuqadan ko'katga o'tish davrida kuzatiladi. Hoaniq timpaniya travmatik retikuloperitonitda, jigar kasalliklarida, qizilo'ngach torayganda bo'lishi mumkin. Kasal hayvon kavsh kaytarishdan to'xtaydi, bezovtalanadi, gaz to'planishi natijasida chap biqini taranglashadi, nafasi, yurak urishi tezlashadi, shilimshiq pardalar ko'karadi, gandaraklaydi. Ba'zan hayvon o'lishi mumkin.

Davolash - ixtiol, preolin va boshqalar beriladi. Gaz tarqashi (hayvon kekirishi) uchun uning oldingi oyoqlari baland joyda turadigan qilib qo'yiladi, chap biqini uqalanadi. Oldini olish - oziqlantirish rejimiga rioya qilinadi.

Tizaniyezioz - asosan, kavsh qaytaruvchi hayvonlarda uchraydigan gelmintoz kasalligi. Tizaniyeziya degan sestoda qo'zg'atadi. Tizaniyeziyalar qo'y, echki, qoramol va ba'zi yovvoyi hayvonlarning ingichka ichagida parazitlik qiladi. Qo'zg'atuvchisi - Thysaniezia giardi oqish tusda, uzunligi 5m gacha, eni 10mm gacha. Kasal hayvonning hazm organlari buziladi, so'lagi oqadi, ichi ketadi, ozadi, yaxshi o'smaydi, shilimshiq pardalari oqaradi, ko'krak va qornida shish paydo bo'ladi, juni to'qiladi, hayvon turgan joyida aylanadi, tirishadi. Davolash - mis ko'porosining suvdagi 2% li eritmasi, qalay arsenat beriladi. Oldini olish - Tizaniyeziozga qarshi fenasal, fenotiazim, mis ko'porosi, osh tuzi va ammoniy molibdat aralashmasi ishlatiladi, hayvonlar telmitsizlantiriladi.

Nuttallioz - bir tuyoqli hayvonlarda uchraydigan protozoy kasalligi. Qo'zg'atuvchisi bir hujayrali parazitlar - nuttaliyalar. Kana tarqatadi. Kasal hayvon harorati ko'tariladi, bo'shashadi, ishtahasi yo'qoladi, shilliq pardalari oqaradi. Kasallik 2-6 haftacha, ba'zan 3,5 oygacha cho'ziladi. Kasallik otlarda kana bor yo'qligini va ularning qonini tekishirish yo'li bilan aniqlanadi. Davosi: ximioterapevtik preparatlardan foydalaniladi. Oldini olish: kasallik tarqatuvchi, kanalar yo'qotiladi.

Pnevmoniya (yunon, pneumon -o'pka)-1) o'pka yallig'lanishi (odamlardagi

Pnevmoniya rapidak Zotiljam); 2) hayvonlarda - tana harorati ko'tariladi, umumiy holat og'irlashadi, shilimshiq va yiring aralash balg'am ajraladi, yo'tal va xirillash paydo bo'ladi. O'pkaning yallig'lanishi hayvon organizmining kasalliklarga qarshi tura bilish qobiliyatini susaytiradi. P Pnevmoniyaning klinik belgilari turlicha. Pnevmoniya ko'pincha, o'pka bronxlari yallig'lanishining rivoji bo'lgani uchun bronxopnevmoniya deb ham ataladi. Davolash: sulfanilamid va antibiotik preparatlardan foydalaniladi.

Sil, tuberkulyoz - odam va hayvonlarning yuqumli surunkali kasalligi; o'pka va limfa tugunlarida bo'rtiqlar hosil bo'ladi. Odam silini ftiziatriya o'rganadi. Sil kasalligi qadimdan ma'lum. Kasallik belgilari Gippokrat, Ibn Sino asarlarida ham ta'riflangan. 1679 yilda gollandiyalik olim B. Sil-virus tuberkulyoz terminini fanga tatbiq etdi. Nemis olimi R. Kox (1882 yilda) Sil kasalligini qo'zg'atuvchi mikrobakteriyani topdi. Odam, qoramol va parranda mikro bakteriyasi ma'lum. Hayvonlarda 55 turdan ortiq sut emizuvchi xayvon va qariyb 25 tur parranda sil bilan og'riydi. Hayvonlar sil ko'p mamlakatlarda, ayniqsa, G'arbiy Yevropada tarqalgan, Kasal hayvonning tezagi, sulagi, suti, ba'zan siydigi va spermasi kasallik manbai bo'ladi. Sil yem-xashaq suv, go'ng, to'shama va boshqalar orqali yuqadi. Kasallik qo'zg'atuvchi bakteriyalar molxona, parrandaxona, yaylov va suvloqlarda uzoq muddat saqlanadi. Sil surunkali va yosh mollarda o'tkir tarzda kechadi. O'pka silida qoramol yo'taladi tana harorati ko'tariladi; ichak silida ichi ketadi, tezagi shilimshiqli, yiringli va qonli bo'ladi; bachadon va tuxumdoni kasallanganda mol bola tashlaydi hamda qisir bo'ladi. Bu kasalliqia limfatik tugunlar kattalashadi, kasal xayvonning ishtahasi yo'qoladi, juni qovjiraydi, u ozadi, tez toliqadi va bukchayib qoladi.

Shilliq parda - odam va hayvon organizmidagi hazm va nafas olish organlari, siydik tanosil sistemalari, burun, o'rta quloq bo'shliqlari, bezlarning chiqaruv yo'llari ichki yuzasini qoplab turuvchi qavat. Qalinligi 0,5-4mm. Uning yuzasi bezlar ishlab chiqaradigan shilliq bilan doimo namlanib turganligidan "shilliq parda" nomi berilgan. Shilliq parda bir yoki bir necha epitelial qavatdan, biriktiruvchi to'qima va mushak plastinkalari (silliq mushak hujayralaridan hosil bo'lgan) dan iborat. Bo'lardan so'ng shilliq pardani harakatga keltirib, uni boshqa to'qimalardan ajratib turadigan yumshoq biriktiruvchi to'qima joylashgan. Organlar faoliyatiga ko'ra shilliq parda epiteliysi ko'p qavatli yassi, bir qavatli silindriq prizmatik kubsimon, kiprikli (nafas yo'llarida), uning yuzasi esa silliq, burmali, vorsinkali (masalan, ingichka ichaqia shilliq parda burma va vorsinkalar hosil qiladi) bo'lishi mumkin. Shilliq pardaning asosiy va shilliq osti qavatlarida qon va limfa tomirlari, follikulalar, mo'rtaklar, bezlar, shuningdek nerv oxirining tarmoqlari joylashadi. Shilliq parda bezlari bir va ko'p hujayrali hamda murakkab bo'lishi mumkin.

Yag'ir - hayvonlar terisining mexanik shikastlanishi. Ishqalanish, qichinish, egar jabduq urishi oqibatida hosil bo'ladi. Ot, eshaq tuya va boshqalar ish hayvonlarida ko'proq uchraydi. Yag'ir boshlanishida teri shilinadi, qizaradi va shishadi. So'ngra yupqa qattiq qatlam yoki mayda tangachalar paydo bo'ladi. O'tkir formasi (yallig'langan)da hosil bo'lgan bakteriyalar qonga o'tishi natijasida

hayvonning harorati ko'tariladi. Surunkali yag'ir oriq otlarda, nam va iflos otxonalarda boqilganda paydo bo'ladi. Oldini olish yag'ir bo'lgan otlar ma'lum vaqtgacha ishlatilmaydi. Ehtiyot chora-tadbirlari ko'riladi. Davolash: pyx mazi; yodoform kukunlari, anestezin, rux oksidi va vazelindan tayyorlangan maz ishlatiladi.

O'lat, (pestis) - odam va hayvonlarning o'tkir yuqumli kasalligi qarantin kasalliklaridan. O'lat mikrobi (*Pasteurella pestis*) qo'zg'atadi. Chorva mollarining o'lat kasalligi qishloq xo'jaligi hayvonlarining eng xavfli infeksiya (yuqumli) kasalliklaridan. Har xil toksonomik gruppalariga mansub maxsus viruslar (qoramol, cho'chqa, otlar o'lati, o'txo'r parrandalar qushlar o'lati viruslari) yoki o'lat bakteriyasi qo'zg'atadi (tuyalar o'lati). O'lat tez tarqaladi va ko'plab o'limga sabab bo'ladi. Baliqlar (lososlar, cho'rtan hamda sigasimon baliqlar) va qisqichbaqalar ham kasallanadi. Tuyalar o'lati odam uchun xavfli. O'latning qo'zg'atuvchilarini qon so'ruvchi bo'g'imoyoqlilar, asosan, burgalar tarqatadi. Ilgari o'latdan Osiyo, Afrika va Yevropada ko'plab chorva mollari qirilib ketardi. Hozirgi vaqtda vaksinalardan foydalanish, kemiruvchilar va burgalarga qarshi ko'rash olib borish natijasida bu kasallik uncha xavf tug'dirmaydi.

Papillomatoz (lat. papilla - so'rg'ich)- hayvonlarda uchraydigan virus kasalligi. Hamma mamlakatlarda tarqalgan. Qoramol, ot, it va quyonlar, ba'zan, qo'y, echki va yovvoyi hayvonlar ham kasallanadi. Papillomatoz kasal hayvondan yuqadi. Teri va shilimshiq pardalarda fibro-epitelial shishlar paydo bo'ladi. Qoramolda bosh, bo'yin, tana, oyoqlarning terilari, yelik va jinsiy a'zolar zararlanadi. Avval, terida no'xatdek «yakka do'mboqchalar paydo bo'ladi, keyin ular to'p-to'p bo'lib joylashadi. Sirti quruq, mug'uzlangan, yorilgan bo'ladi. Zararlanganda qonaydi, yaraga aylanadi. Asosan, xirurgiya yo'li bilan davolanadi.

Chorvachilik va boshqa hayvonlarni boqib parvarish qilish jarayonida ular sog'lomligini nazorat qilish uchun hayvonlarni davolovchi hisoblangan vrachlar uyushmasi "veterinariya" xizmati faoliyat ko'rsatadi. Ularning xizmati hayvonlar ovqatlanish va o'sish ko'rsatgichlari bo'yicha tekshirish hamda tegishli choralar kurishdan iborat.

Veterinariya akusherligi-bo'g'ozlik hayvon organizmida sodir bo'ladigan



37-Rasm. Ko'chma veterinariya ambulatoriyasi

tug'ish va tuqqandan keyingi davrlarda fiziologik jarayonlarni o'rganuvchi fan veterinariya akusherligi qishloq xo'jaligi hayvonlarini sun'iy urug'lantirish nazariyasi va praktikasini ishlab chiqadi, molning tug'ishiga yordam berish, tuyog'ini ko'paytirish yo'llarini o'rganadi. Veterinariya akusherligi hayvonlar anatomiyasi, gistologiya, embriologiya, bioximiya, mikrobiologiya, fiziologiya, xirurgiya va boshqa fanlarga tayanib ish olib boradi.

Olimlar hayvonlarning qisir qolishi, abort va mastit kasalliklari sinififikasiyasini, bo'g'oz hayvonlar diagnostikasining turli

metodlarini, jinsiy a'zo va tug'ruq yo'llarida sodir bo'ladigan kasalliklarini davolash usullarini ishlab chiqmoqdalar.

Veterinariya ambulatoriyasi - kasal hayvon va parrandalarni davolaydigan muassasa veterinariya ambo'latoriyasi kasal hayvon va parrandalarga dastlabki yordam ko'rsatish va kasallik oldini olish choralarini ko'radi (37-Rasm), zootexnika epidemiyasiga qarshi veterinariya sanitariyasi va ayrim profilaktika tadbirlarini amalga oshiradi, aholi o'rtasida veterinariya sohasida tushuntirish ishlarini olib boradi shaxar, tuman va maxalla veterinariya ambo'latoriyasi bo'ladi. Uchastka veterinariya ambo'latoriyasi esa tuman veterinariya ambo'latoriyasi qoshida tuziladi. Bo'lardan tashqari ko'chma veterinariya ambo'latoriyasi ham bo'ladi. Uning vazifasi yuqorida keltirilganlardan tashqari yaylov va chorva mollari joylashgan yerga veterinariya mutaxassislarini zarur biologik preparatlar bilan tezliqia olib borishdan iborat. Kuchma veterinariya ambo'latoriyasida kerakli asbob uskuna, jixoz, idish va dori darmonlar bo'lib, bo'larning hammasi GAZ-51 «A» avtomashinasiga yoki hozirgi zamonaviy maninalariga o'rnatiladi. Avtomashinaning og'irligi barcha jihozlari bilan 3480kg veterinariya ambo'latoriyasi hamma tadbirlarni bepul amalga oshiradi.

Veterinariya dorixonasi - veterinariya vrachi resepti bilan dori tayyorlaydigan, uni saqlaydigan va tarqatadigan muassasa veterinariya dorixonasi ikki xil bo'ladi: 1) qishloq xo'jaligi hayvonlari kasalliklariga qarshi ko'rashadigan stansiya qoshidagi veterinariya dorixonasi faqat shu muassasaga qarashli hayvonlarni davolash uchun dori tayyorlaydi, dorini hayvon egalariga uyda davolash uchun tarqatadi. Bu xil veterinariya dorixonasida veterinariya vrachi yoki veterinariya feldsheri xizmat qiladi; 2) zoovetsnab sistemasidagi veterinariya dorixonasi jamoalar va boshqa veterinariya shifoxonalarini dori hamda kerakli asboblarni ta'min etadi. Bu xil veterinariya dorixonasi dorini faqat veterinariya vrachi va tashkilotlarniig talabnomasiga muvofiq tarqatadi, o'zida resept bilan dori tayyorlamaydi. Shahar veterinariya dorixonasi ham bor, u dorini pulga sotadi.

Veterinariya laboratoriyasi - davlat veterinariya xizmati sistemasidagi diagnostika idorasi. U hayvonlarning kasalliklari va o'lishi sabablarini aniqlash sohasida turli xil kuzatish ishlari olib boradi. Veterinariya laboratoriyasida bakteriologik serologik va gematologik analizlar qilinadi, patologik materiallar tekshiriladi, sut, go'sht va boshqalar chorvachilik mahsulotlari sanitariya jihatidan analiz qilinadi, kimyoviy va toksikologik analizlar olib boriladi. Veterinariya laboratoriyasi kasalliklarniig oldini olish va ularga davo qilish uchun antibiotiklar va boshqalar preparatlar tayyorlaydi, veterinariya sohasidagi fan yutuqlari va ilg'or tajribalarni targ'ib qiladi. Veterinariya laboratoriyasi tekshirish va boshqa ishlarni o'zi xizmat qilayotgan hududdagi xo'jaliklar va davlat veterinariya muassasalarining zayavkalariga muvofiq bepul bajaradi. Tayyorlangan antibiotik va preparatlarni jamoalarga pulga sotadi. Xo'jaliklarga va aholi yashaydigan punktlarga xizmat qiluvchi tuman veterinariya laboratoriyasi ko'p tarqalgan, go'sht-sut va oziq-ovqat nazorat stansiyalari ular qaramog'ida bo'lib, bozorlarda go'sht, sut va boshqa chorvachilik mahsulotlarini ekspertiza qiladi. Tuman, tumanlararo, shahar, viloyat va Respublika veterinariya laboratoriyasilari viloyat, Respublika

qishloq xo'jaligi idoralarining veterinariya boshqarmasi yoki bo'linmalariga itoat qiladi.

Veterinariya-sanitariya nazorati - chorva mollari va ulardan olinadigan mahsulotlarning veterinariya-sanitariya jihatdan yaxshi ahvolda bo'lishini ta'minlash uchun veterinariya xodimlari amalga oshiradiganchoraadbirlar va nazorat sistemasi. Bu tadbirlar aholini yuqadigan kasalliklardan saqlash, hayvonlar o'rtasida yuqumli kasallik paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida o'tkaziladi. Veterinariya sanitariya nazoratining vazifasi go'shtni qayta ishlash korxonalariga veterinariya xizmati ko'rsatish, k-z bozorlarida mahsulotlarni tekshirib turish, hayvonlarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish, ularning mahsulotlarini chetga chiqarish va keltirish ustidan nazorat o'rnatishdir. Veterinariya sanitariya nazorati mamlakatimizdagi hamma veterinariya muassasalari, jumladan go'sht-sut va boshqa oziq-ovqatlarni nazorat qilish stansiyalari, teri, jun mahsulotlarini tekshirish laboratoriyalari, davlat chegara punktlari, go'sht mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari qoshidagi ishlab chiqarish-veterinariya nazorat bo'limi tomonidan olib boriladi.

Veterinariya-sanitariya stansiyasi - shaharning, shaxar atrofidagi jamoalarning chorvachilik obyektlariga, shuningdeq teri, jun mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar xamda oziq-ovqat korxonalariga xizmat qiluvchi muassasa. U maxsus mashinalar bilan uskunalangan bo'ladi. Veterinariya sanitariya stansiyasi xizmat qilayotgan zonadagi chorvachilik va boshqa binolarni, hayvon xom ashyolarini dezinfeksiya qiladi; bo'lgan hayvonlarni utilizasiya korxonalariga, konfiskasiya qilingai mahsulotlarni, go'shtni qayta ishlash korxonalariga eltib topshiradi. Shuningdek Veterinariya sanitariya stansiyasi hayvonlar quturishiga qarshi ko'rash olib boradi, veterinariya idoralariga veterinariya-sanitariyaning hamma masalalarida konsultasiya beradi, hayvon, parranda va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari, veterinariya-sanitariya zavodlari va utilizasiya qurilmalari ustidan nazorat qilib turadi.

Veterinariya-sanitariya ekspertizasi - chorvachilik mahsulotlari (go'sht, sut, teri, jun va boshqalar) ni veterinariya-sanitariya jihatdan yaxshi ahvolda bo'lishini ta'minlash maqsadida veterinariya nazorati tomonidan o'tkaziladigan tadbirlar majmui. Veterinariya sanitariya ekspertizasi Fan sifatida mikrobiologiya, parazitologiya, epizotologiya, gistologiya, patologik anatomiya fanlari asosida ish olib boradi. Veterinariya sanitariya ekspertizasining asosiy vazifasi odamlarni chorvachilik mahsulotlari orqali kasallanishdan, hayvonlarni yuqumli kasallikning tarqalishidan saqlash, hayvonlarni so'yishgacha, so'yishda va so'yishdan keyin mahsulotlarni qayta ishlashda tozalikka rioya qilish, ularning nimtalanmagan go'shti va boshqa a'zolarini ekspertiza qilish, go'sht, sut, baliq mahsulotlarini zararsizlantirishdir. Veterinariya sanitariya ekspertizasi bu soxadagi asosiy ish jarayonlarini takomillashtirish va iqtisodiy jihatdan foydali ish metodlarini yaratish masalalari bilan ham shug'ullanadi. Go'sht sanoati korxonalarida, jamoa bozorlari, baza va omborlarda veterinariya sanitariya ekspertizasi veterinariya vrachlari tomonidan o'tkaziladi. Baliq va sutni qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqariladigan mahsulotning iste'mol uchun yaroqliligi veterinariya vrachlari

rahbarligida ekspertiza qilinadi. Veterinariya sanitariya ekspertizasi tomonidan yaroqsiz deb topilgan mahsulot brak hisoblanadi.


Nazorat savollari

1. Hayvonlarida qanday kasalliklar uchraydi?
2. Veterinariya ambulatoriyasi qanday ishni amalgam oshiradi?
3. Veterinariya-sanitariya nazoratida qanday ishlar amalgam oshiradi?
4. Veterinariya-sanitariya stansiyasida qanday ishlar amalgam oshiradi?

BOB.VII. QO‘SHIMCHA TAKLIF QILINAYOTGAN MAVZULAR

7.1.IPAK QURTI

Ipak qurti- tut ipak qurti kapalagining lichinkalik (pilla o‘rashgacha) davri. Ipak qurtlari Bombycidae va Saturnidae oilalariga bo‘linadi. Bombycidae oilasiga xonakilashtirilgan tut ipak qurti, Saturnidae oilasiga esa yovvoyi ipak qurtlari kiradi. Ipak qurtlari o‘z rivojlanishida urug‘ (tuxum), lichinka, g‘umbak va kapalak



38-Rasm. Ipak qurti.



39-Rasm. Aylant: a-changchili guli; b-urug‘chi guli; v-mevasi

davrlarini o‘tadi (rasmga q.). Ipak qurti bo‘yi 1-yoshi boshida 3-4 mm bo‘lib, 5- yoshi oxirida 85- 88 mm ga, vazni 0,0004 g dan 3,5-5,0 g ga yetadi. Bitta qurt hayotida 20-25 g barg (75-80% ini 5-yoshida) yeydi. Ipak qurti gavdasi bosh, ko‘krak va qorin qismlaridan iborat. Ko‘krak qismida 3 ta, qorin qismida 9 ta bo‘g‘im (segment) bor. Lichinka davri monovoltin zotlarda 24 kun, bivoltin zotlarda 20 kun. Shu davrda qurt 4 marta pust tashlab, 5-yoshni o‘tadi va pilla o‘rashga kirishadi. Pilla o‘rash 3 kun davom etadi. Tut ipak qurtlari faqat tut bargi bilan oziqlanadi. Qurt pilla ichida g‘umbakka aylanadi. G‘umbaklik davri haroratga qarab, 2-3 hafta davom etadi. G‘umbak tanasi duksimon bo‘lib, xitin bilan qoplangan, harakatlanmaydi. Rivojlanish davom etib, g‘umbak kapalakka aylanadi. Kapalak og‘zidan maxsus suyuqliq chiqarib, pillaning bir uchini xullaydi va uni teshib, tashqariga chiqadi. Kapalak havo haroratiga qarab, 5-10 kun yashaydi. Erkak va urg‘ochi kapalaklar bir-biri bilan juftlashib, tuxum tashlaydi (38-rasm).

Ipak qurti urug‘i, qurt urug‘ - ipak qurti kapalaklari tuxumi. Urug‘ (tuxum) ipak qurti tuxumdonida shakllana borib, asosan, g‘umbakda rivojlanadi. Kapalak 300-700 urug‘ (tuxum) tashlaydi. Ipak qurti urug‘i loviya shaklida, yarim tipiq qobiqqa o‘ralgan. Qobiqda juda ko‘p mayda teshikchalar bo‘lib, ular orqali embrion nafas oladi. Ipak qurti ukug‘ining vazni ipak qurti kapalagining zotiga, tuxum tashlash muddatiga va qurt boqish sharoitiga bog‘liq. Bitta urug‘ o‘rtacha 0,5- 0,7 mg, 1500-2000

urug‘ 1 g keladi. Oq pilla o‘raydigan qurt zoti va duragaylari bir quti urug‘ining vazni 29 g, yangi chiqqan qurtlar umumiy vazni esa 19 gr. Bitta kapalak hammasi

bo'lib 280-380 mg urug' tashlaydi. Urug'langan tuxumda 2-3 kunda embrion va pigmentli seroz qobiq (parda) hosil bo'ladi, bunda tuxum ko'kish kul rang tusga kiradi (urug'lanmagan tuxum oqishligicha qolib qovjiraydi). Embriionning diapauza davri ikki bosqichda o'tadi: birinchi bosqichda embrionning (yoz va kuz mobaynida) nafas olishi susayib, unga haroratning ortishi ta'sir etmaydi; ikkinchi bosqichda (qish va bahor mobaynida) embrionga harorat ta'sir eta boshlab, uning nafas olishi kuchayadi, rivojlanish qobiliyati tiklanadi. Takror qurt boqishda diapauzani bartaraf qilish uchun tuxum xlorid kislotaning kuchli eritmasiga solib olinadi.

Ipak qurti urug'i zavodi - ipak qurti kapalaklaridan qurt urug' (tuxum) olinadigan maxsus korxona. Ipak qurti urug'i zavodi ipakchilik stansiyalaridan olingan elita urug'larni ochirib jonlantiradi va zavod xodimlari maxsus xo'jaliklarda shu urug'lardan qurt boqadi. Ba'zi zavodlar elita urug'ni o'zlari tayyorlaydi. Elita

urug'lardan yetishtirilgan pillalar zavodda saralanib, maxsus apparat yordamida jinslarga ajratiladi. Har qaysi jinsdagi pillalardan alohida xontaxta va simto'rlı kataklarda kapalak chiqariladi. Erkak va urg'ochi kapalaklar alohida-alohida yig'ib olinadi. Keyin bir zotdagi erkak kapalaklar boshqa zotdagi urg'ochi kapalaklar bilan qo'shib qo'yiladi. Urug'langan urg'ochi kapalaklar qog'oz xaltachalarga, qutichalarga joylanadi, shu yerda ular tuxum (urug') tashlaydi. 1 kg pilladan 53 g chamasi urug' tayyorlanadi. Qurt urug' tarozida 29 g dan qilib tortilib, qutilarga solinadi va kelgusi yil bahorigacha 2-4° haroratli xonada saqlanadi.

Ipak qurti urug'i inkubasiyasi, ipak qurti urug'ini ochirish (jonlantirish) - inkubatoriya (maxsus uskunalangai bino)da tut ipak qurti urug'ini ochirish. Inkubatoriyada qurt urug'ining embrioni rivojlanishi uchun barcha zarur sharoit yaratilgan bo'ladi. Inkubatoriya uch xonali bo'lib, birinchi xonasida qurt urug'i ochiriladi, ikkinchisida urug'dan chiqqan qurtlar boquvchilarga tarqatilguncha boqib turiladi, uchinchi esa xizmatchilar uchun mo'ljallanadi. Oq pilla o'rovchi zot va duragay qurt urug'i inkubasiyasi uchun: havo harorati 2-3 kunlarda 13-14°; 3-4 kunlari 24° gacha bo'lib, dastlabki qurtlar (xabarchilar) paydo bo'lganda 25° gacha oshiriladi. Havo namligi butun inkubasiya davrida 75-80% saqlanadi. Xona har 2-3 soatda (10-15 minutdan) shamollatib turiladi, sutkada 16 soat yoritiladi. Inkubasiya qurt zotiga qarab, 11-18 kun davom etadi. Urug'lar jonlanish oldidan rangi oqara boshlaydi. Shu vaqtda quti va ramkalar ustiga mayda teshikli qog'ozlar qo'yilib, mayda qir qilgan tut barglari sochiladi. Urug'dan chiqqan qurtlar qog'oz teshiklari orqali barglarga o'tadi. Qurtlar inkubatoriyadan olinib, qurtxonalaridagi so'kchaklarga joylanadi.

Aylant ipak qurti (lat. *Philosamia cynthia*)-ipak qurti zotlaridan biri. Xitoy, Hindiston va Yava orollarida uchraydi (39-rasm). U aylant, siren va olma daraxtlari bargi bilan oziqlanadi. Pillasi oqish, sariq, kul rang qoramtir tusda, uzunchoq, bir uchi teshik bo'lgani uchun ipak tolasini tortish qiyin. Undan pishiq qazna (dag'al ipak) olinadi.

Dub ipak qurti, eman ipak qurti - tanga qanotlilar oilasiga mansub hasharot. Kapalaq urug', qurt va g'umbaklik bosqichlarini o'tadi, bir yilda ikki marta nasl beradi. Qishlab chiqqan g'umbaklaridan bahorda kapalak chiqadi, urug'langan

urg'ochi kapalak urug' (tuxum) qo'yadi. Urug'lardan taxminan 15 kunda qurt chiqadi. Qurtlar eman daraxti bargi bilan boqiladi, to'rt marta pust tashlaydi, 35-45 kunda pilla o'rab, uning ichida g'umbakka aylanadi. Shu bilan birinchi (bahorgi) rivojlanish sikli tugaydi va ikkinchi yozgi-kuzgi rivojlanish sikli boshlanadi. Yozgi g'umbaklardai iyul o'rtalarida kapalaklar chiqadi. Urug'langan urg'ochi kapalaklar urug' tashlaydi, rivojlanishi bahorgidek davom etsa ham 20-25 kunda tugaydi. Bu pillalardagi g'umbaklar kelasi yil bahorgacha qishlab qoladi. Dub ipak qurti, asosan, Sharqiy Osiyo mamlakatlarida bo'ladi, Dub ipak qurtinng pillasi tut ipak qurtinikidan 2- 3 marta vazmin, ipak miqdori esa 1,7-2 marta kam. Qurt kapalaklar lichinkasining ikkinchi nom ipak qurti intensiv oziqlanib, bir necha bosqichda rivojlangach, g'umbakka aylanadigan qurtlar, asosan, o'simlikxo'r, ba'zilar jun, mum, shox-simon modda bilan oziqlanadi, yirtqich hamda parazitlari ham bor. Chuvalchangsimon, og'iz apparati kemiruvchi, 3 juft ko'krak oyoqlari yonida, yana 8 juft «yolg'on» oyoqlari bor. Suyuqliq (havoda qotib, ipakka aylanadi; bundan pilla, himoya to'ri to'qiladi va boshqa) ajratuvchi bezlarning yo'li pastki labga ochilgan. Ba'zi qurtlar erkin, ayrimlari yashirin hayot kechiradi. Shuningdeq daraxt, barg va shoxlarini «ipagi» bilan bir-biriga yopishtirib, uya yasab jamoa bo'lib yashovchi qurtlar ham mavjudefolyasiya Tut, eman (dub) ipak qurtlari va boshqalar to'qimachilik sanoati uchun xom ashyo - ipak yetkazib beradi.

Qurt boqish tabiiy ipak ishlab chiqarish yoki ipak qurti urug'i olish maqsadida ipak kurtini oziqlantirib, parvarish qilish. Qurt boqish 25 -27 kun davom etadi. Qurt boqish uchun zvenolar tashkil etiladi, har bir zveno 3-5 quti qurt urug'i boqadi. Ipak qurti boqish qurtxonalarda yoki maxsus yorug' binolarda, pechka, ventilyator o'rnatilib, 4% li formalin eritmasi bilan zararsizlantirilib amalga oshiriladi, ipakchilik asbob-uskunolari ham zararsizlantiriladi, so'ngra qurtxonalarga o'rnatiladi. Ipak qurti urug'ini maxsus bino inkubatoriyada jonlantiriladi. Jonlangan qurtlar qurtxonalardagi so'kchaklarga o'tkaziladi. 1-2 yoshlarida qurtlarga tut daraxti bargi lentasimon qirqib, 3- yoshida butun barg, 4-5 yoshlarida bargli bir yillik novdalar beriladi. Qurtlarga har kuni 1-3 yoshlarida 10-12 marta (jumladan 2-4 marta kechasi), 4-yoshda 6-8 marta, 5- yoshida 4-6 marta barg solinadi. So'kchaklarda barg qoldiqlari to'planib qoladi, shuning uchun 2-3- yoshlarida 1 marta, 4-5- yoshlarida 2-3 marta tozalanadi. Kichik yoshdagi qurtlarga tutning mahalliy navlari, katta yoshdagi qurtlarga Balxi, Bedova, Qatlama, Uzbekskeya, Pionerskaya, Oktyabr va boshqa navlari bargi beriladi. Bir quti qurt uchun 1-2 yoshdagi qurtlarga 12-15 m², 4-yoshdagiga 25-30 m², 5- yoshdagiga 60-70 m² joy bo'lishi kerak. Ipak qurti pilla o'rashdan oldin har quti qurt urug'iga 250-350 dona tabiiy o'tlar yoki poholdan yasalgan dastalar qo'yiladi; qurtxona harorati 25-26°C, namligi 65-75% bo'lishi kerak Qurtxonalarni shamollatib turish zarur. Qurtlar 3-4 kunda pilla o'rab bo'lgach, 7-8 kundan so'ng pillalar dastalardan olinadi, quritiladi va tayyorlash punktiga topshiriladi.

Nazorat savollari

1. Ipak qurtlari qaysi oilalarga bo'linadi?
2. Ipak qurti urug'i zavodida qanday ishlar bajariladi?

3. Ipak qurti urug'ini ochirish qanday bo'ladi?
4. Aylant ipak qurti, Dub ipak qurti, eman ipak qurtilari qanday boqiladi?

7.2. IPAK QURTI ZARARKUNANDALARI VA KASALLIKLAR

Ipak qurti zararkunandalari-ipak qurtiga shikast yetkazadigan zararkunandalar hisoblanadi. Ko'pincha, hasharot (chumoli, ari, qora chigirtka va boshqalar), qurbaqa, ilon, sichqon, qush va boshqa qurtlarni yeb ketishi, jarohatlashi va yuqumli kasalliklar tarqatishi bilan pilla yetishtirishga katta ziyon yetkazadi. Ipak qurtlarini chumolidan saqlash uchun so'kchaklar oyog'iga qoramoy surkaladi, namakobli latta o'raladi yoki xantal kukuni sepiladi. Arilarga va qushlarga qarshi deraza va tuyniklarga mayda ko'zli simto'r tutiladi.

Qurbaqa kirmasligi uchun qurtxona ostonasi baland qilib ishlanadi. Sichqon ini sement yoki shisha parchalari qo'shilgan loy bilan suvaladi, qopqon qo'yiladi va zaharli xo'rak soladi.



40-Rasm. Ipak qurti kasalliklari. 1-sariq; 2-jonsizlik; 3-liqoqlik.

Ipak qurtlarida uchraydigan kasalliklar asosan, qo'yidagi kasalliklar uchraydi (40-Rasm): Sariq (virus) kasalligiga ipak qurti, kapalagi hamda g'umbaklari yo'liqadi. Virus, asosan, qurt terisidagi jarohat orqali utadi. Kasallangan qurt sarg'ayib, har tarafga o'rmalay boshlaydi. ko'pincha, so'kchak tushib ketadi. Qurt tanasining bo'g'im rasp shishib, 1-2 kunda nobud bo'ladi. Pebrina kasalligi (nozematoz)ni parazit - pozema qo'zg'atadi. Qurt va sporalarini barg bilan yeb yuborishi natijasida kasallanadi. Kasallangan qurt tanasida mayda qora dog'lar paydo bo'lib, u o'sishdan tuxtaydi va nobud bo'ladi. Bu kasallik nasldan naslga o'tadi. Jonsizlanish kasalligiga, ko'pincha, oxirgi uch yoshdagi qurtlar yo'liqadi. unda qurt ichagida har xil bakteriyalar ichak yemirib, qonga o'tadi va zaharlaydi. Qurtlar ichi ketib, ozadi, pilla ichida g'umbakka aylanmay, chiriydi; bunday pillalar qorapachoq deyiladi.

Qon chirish kasalligida bakteriya qurt terisining jarohatlangan joyidan kirib, qonga o'tadi. Qurt qo'sib, barg yemay qo'yadi, tanasi qorayadi, harakatdan

to'xtaydi.

Liqqoqlik surunkali kasalliq Ipak qurti yoki asalari streptokokklari qurtning o'rta ichagini zararlab kasallantiradi. Qurt bargni kam yeydi, ichi ketadi, terisi burishib, qo'ng'ir tusga kiradi. Bunday qurtlar kech pilla o'raydi, pillasi juda yupqa va mayda bo'ladi. Ulgan qurtlar burishib qoladi.



41-Rasm. Ipak qurtining rivojlanishi va mahsuloti: 1-ipak qurtlari; 2-3-pilla o'rash jarayoni; 4-pilla; 5-pilladan kapalak chiqishi; 6-kapalakning urug' tashlashi; 7-qurt urug'larining joylanishi; 8-embriyning rivojlanishi; 9—10-dastalar; 11-ipak qurti kapalagining rivojlanish sxemasi; 12-tutning bargli novdasi; 13-terilgan pilla; 14-ipak o'rami.

Muskardina kasalligida parazit zamburug'lar sporasi ipak qurti tanasiga tushib, terisini geshadi va iplari (gifalari) qurtning hamma organiga o'sib kiradi. Qurt bo'shashadi, bapi yemaydi, harakatlanmaydi, tanasida qora dog'lar paydo bo'lib, nobud bo'ladi, so'ng miseliylar tanani teshib, sirtga chiqadi, qurt toshdek qotib qoladi. Shu sababli bu kasallik «tosh» kasalligi deb ham ataladi.

Ipak qurti kasalliklariga qarshi ko'rash choralari: qurt boqish sanitariya qoidalariga rioya qilinadi, qurtxona formalin yoki xloramin bilan

dezinfeksiyalanadi.

Ipakchilik, pillachilik qishloq xo'jaligining bir tarmog'i, ipak qurti boqish, yangi qurt zotlari va duragaylari yetishtirish, pilladan mo'l hosil olish yo'llarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi (41-Rasm). Ipakchilik qurtning asosiy oziq manbai bo'lgan tutchilik bilan bog'liq. Ipakchilikdagi asosiy ish jarayonlari: ipak qurti urug'i inkubasiyasi (ipak qurti urug'ini ochirish), qurt boqish, qurt urug'i tayyorlash va pillani dastlabki ishlash - dimlash va quritish. Ipakchilikning vatani Xitoy, bu yerda chamasi 5000 yildan beri Ipakchilik bilan shug'ullaniladi. Ipak Xitoydan Yevropaga O'rta Osiyo orqali olib o'tilgan. Qurt urug'ining boshqa mamlakatlarga qanday tarqalganligi to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. Butun dunyoda yiliga 300 ming t, jumladan Xitoyda 112,5 ming t, Yaponiyada 119 ming t pilla yetishtirildi. O'zbekistonda (1972 y) 24970t pilla tayyorlandi. O'zbekistonda Ipakchilik ishlari bilan Qishloq xo'jalik vazirligi Ipakchilik bosh boshqarmasi shug'ullaiadi. Har qaysi viloyati va tkmada Ipakchilik idoralari bor, bular qurt urug'ini ochirish, tarkatish, qurt bokish va pilla hosilini qabul qilib olish, pillani dastlabki ishlash va fabrikalarga topshirish ishlariga rahbarlik qiladilar. O'rta Osiyo Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti Ipakchilikni ilmiy asosda rivojlantirish masalalari bilan shug'ullanadi. Macalan, institut seleksionerlari zot va duragaylari 4 marta yangilab, pilla hosildorligining ortishiga katta hissa qo'shdilar.

Ipakchilik asbob-uskunalarini ipak qurti boqishda foydalaniladigan asbob-uskunalar: so'kchaklar, barg kesish, barg maydalash (kichik yoshdagi qurtlar uchun), sun'iy dasta tayyorlash, pilla terish va tozalash mashinalari; termometr, psixrometr va boshqalar. Qurtxonalarga so'kchak (so'ri)lar o'rnatiladi. O'rta Osiyoda ko'p qavatli so'kchak ishlatiladi. O'zbekistonda temirdan ishlangan bo'yi 2 m, eni 1 m, balandligi 1,95 m li yig'ma so'kchaklardan foydalanilmoqda. Bunday so'kchaklar besh va uch qavatli bo'lib, pastki qavatining yerdan balandligi 0.4 m, qavat oralig'i 0,7-0,8. Bir quti urug'dan chiqqan beshinchi yoshdagi qurtlar uchun o'nta uch qavatli so'kchak yetarli.

Nazorat savollari

1. Ipak qurti zararkunandalari ularga qanday zarar etkazadi?
2. Ipak qurtlarida qanday kasalliklar uchraydi?
3. Ipak qurti zararkunandalari va kasalliklariga qanday ko'rashiladi?
4. Qishloq xo'jaligida ipakchilik pillachilik faoliyati qanday amalga oshiriladi?

7.3.ASALARI XO'JALIGINING FAOLIYATI.

Respublikamiz aholisini barcha turdagi kishlok, xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlashda asal salmokli urin egallaydi. Barcha turdagi o'simlik gullarini changlashda va ular xosildorligini oshirishda xam asalarilar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda ulardan sanoatimiz uchun zarur hisoblangan mum mahsuloti ham yetishtiriladi. Asalarilar tomonidan changlangan mevalarni mazasi, xushxurligi va vazni oddiy tabiiy usulda changlangan mevalarga qaraganda birmuncha yuqori darajada bo'lishi tajribalarda sinab kurilgan. Shuningdek, ayrim

sugʻoriladigan zonalarda asalarilarni oʻsimlik gullarini changlatishdagi foydasi va undan olinadigan daromad va samaradorlik larilarni beradigan asal va mum mahsulotiga nisbatan birmuncha yuksak boʻlishi tajribalarda sinab kurilgan.

Respublikamizda asalarilar tomonidan changlantiriladigan meva, savzavot, gul, paxta, poliz ekinlari va umuman 100 dan ortiq oʻsimlik turlarining mavjudligi aniqlangan. Ularning orasida keng tar-qalganlari: meva beruvchi oʻsimliklar, kungaboqar, paxta, grechixa, beda, ekspartet, qizil beda, poliz ekinlari va boshqalar asalarilar yordamida changlantirilsa, ularning hosildorligi 20-30 foizga, ayrim hollarda undan ham koʻproq ortar ekan.

Asalarilarning asosiy mahsuloti asal oʻzining yuqori kaloriyasi, mazasi, parhyezligi va davolash xususiyatlariga ega ekanligi bilan barcha turdagi oziq ovkatlardan keskin ajralib turadi. U oʻzining inson ichki kasalliklarini davolashda yuksak shifobaxshligi bilan ham salmoqli urin egallaydi. Asal yosh bolalar uchun ham nixoyat foydalidir. Bunga asosiy sabab uning tarkibidagi oddiy qandglyukoza, fruktoza, fermentlar, organik kislotalar, turli xil mikroelementlarni boʻlishidir va ular inson organizmi uchun nihoyat zarur ekanligidadir.

Barcha mamlakatlarda boʻlgani kabi bizning respublikamizda tibbiyot fanlarini tobora rivojlanib borayotganligi sababli koʻplab kasalliklarni davolash ishlarida asalari mayda bola (lichinka)larini oziqlantirishda foydalaniladigan «asalari suti» - (matochnoye molochko), «asalari zahari» va «propolis» (asalari yelimi) kabilar uz samarasini bermoqda. Barcha viloyatlarda chorvachilikni bu serdaromad va foydali tarmogʻini rivojlantirishga alohida eʼtibor berilmoqia. Ayrim fermer xoʻjaliklari bu sohani rivojlantirishda faollik koʻrsatish uchun bel bogʻlaganlar. Bunday xoʻjaliklar Fargona, Andijon va Qorak,alporiston tumanlarida salmoqli urin egallab kelmoqdalar. Har bir xoʻjaliqia 120-200 asalari oilasi boqilayotganligi matbuot sahifalarida koʻrsatilgan.


Asalari Turkiston ulkasiga birinchi bor 1848 yili Semipalatinsk viloyatidan olib kelingan. Jumladan, Toshkentga 1872 yili Samarqandga 1893 yili keltirilgan. Binobarin, bu tarmoqning afzalliklarini kurgan mahalliy aholi uni rivojlantirishga astoydil kirishgan va tashviqot-targʻibot ishlari olib borilgan. 1926 yili 1970 ta asalari oilasi boʻlgan boʻlsa, 1930 yili 20080 ta asalari oilasi, 1934 yili 19672 ta, 1940 yili 37690, 1970 yili 71672 ta, asalari oilasi boʻlgan. Shuningdek, havaskor asalarichilarda (individual sektorda) 10000 dan koʻproq asalari oilasi boʻlgan. 1980 yilda Uzbekistan viloyatlarida 190 ming asalari oilasi mavjud boʻlgan. 1962 yili Uzbekiston Qishlok, xoʻjalik vazirligiga qarashli xoʻjaliklar pasekalaridan 672,8 t asal yigʻilgan.

Urmonchilikni rivoj topishi tufayli chorvachilikni boshqa tarmoqlari kabi asalarichilik yuksala bordi. Asal ishlab chiqarish yil sayin ortib bordi. 1971 yildan boshlab 5,5 mln gektar urmon xoʻjaliklarida asal ishlab chiqarish reja asosiga utdi. Bu xoʻjalik yerlarining 3570 ming gektari kumlik, 1212 ming gektari tokli massivlar, 1193 ming gektari vodiy va undan 4321 gektari bogʻlardan iboratdir. 1977 yili 32 ta urmon xoʻjaligi asalarichilik bilan shugʻullangan. 1976 yili Yakkabogʻ urmon xoʻjaligida 364 ta asalari oilasi boʻlib ulardan 6 tonna asal ishlab chiqilgan. Shuningdek, Jizzax urmon xoʻjaligida 210 ta asalari oilasidan 4 tonna,

Samarkand urmon xo'jaligida 240 oilani har biridan o'rtacha 27,5 kg dan asal olingan.

Asalarichilik barcha ijobiy tomonlari bilan bir qatorda eng katta muammo malakali kadrlarni yetishmasligi sezila boshladi. Binobarin, shunga ko'ra 1977 yili Toshkent sobiq asalarichilik "sovxози" qoshida 100-uquvchiga mo'ljallangan bir yillik asalarichilar maktabi va bir oylik malakani oshirish kursi (350-400 tinglovchiga mo'ljallangan) ochildi. Va Pskentda professional-texnika bilim yurti ochildi (Ukuv-texnika bilim yurti). Shu tariqa, malakali kadrlar tayyorlash ishlari birmuncha jonlantirib yuborildi.

Asalari oilasi ona, ishchi va erkak arilardan iborat. Ona asalari bitta (bo'yi 20-25mm, vazni 220-250mg) bo'lib, tuxum qo'yish va oilani boshqarish vazifasini bajaradi. Qanoti tanasining yarmini qoplaydi, xartumi ishchi arilarnikiga qaraganda qisqa, jinsiy a'zolari rivojlangan, urug'langandan keyin bir sutkada 1500-2000 ta tuxum qo'yadi. Ona ari erkak ari bilan havoda qo'shilishadi. Ishchi arilar (bo'yi 12-14mm, vazni 100 mg) oilada 60-70 mingta bo'lib, qishda kamayadi, soatiga 60km tezliqia ucha oladi. Oiladan 2-3km va undan ham uzoq masofaga uchib borib, shira olib kelish va gul changini yig'ish, nektarni asalga aylantirish, mum ishlash, qurtlarini boqish, katak qurish, uyasini qo'riqlash kabi ishlarni bajaradi. Erkak asalarilar (bo'yi 15-17 mm, vazni 180-190mg) yozda ona arilar urchiydigan paytda



42-rasm. Asalarilarning oila a'zolari
(chapdan o'ngga) urg'ochi asalari, ishchi
asalari va erkak asalari.

yashaydi, qish kirish oldidan ularni ishchi arilar haydab chiqaradi. Erkak asalarilarning vazifasi nasl qoldirish bo'lib, ular tayyor ovqat hisobiga yashaydi. Asalari oila a'zolarining xizmat faoliyati o'zaro bog'liq bo'lganidan ularning birortasi ham mustaqil hayot kechira olmaydi. Asalarining bir juft elaksimon va 3 ta oddiy ko'zi bo'ladi. Elaksimon ko'z bilan, asosan uzoqni, oddiy ko'z bilan gulga qo'ngandagina ko'radi.

O'zbekistonda asalari oilasi bir yilda 140-150 kg asal to'playdi, bundan 100 kg o'z ta'minotiga sarflansa, 40-50 kg ajratib olinadi. Asalari ramkasidagi asal uning ta'minotiga yetarli bo'lmasa, ari sun'iy tayyorlangan shira bilan boqiladi. Bunda 1l suvga 1kg qand solib qaynatiladi, Tayyorlangan shira sovigandan so'ng asalari uyalariga qo'yiladi. O'zbekistonda asalarining O'rta rus qoramtir o'rmon, Kavkaz kul rang tog', Uzoq Sharq, Italiya, Ukraina kabi zotlari bor. O'rta rus qoramtir o'rmon asalarisi tez rivojlanishi, ko'p asal to'plashi, sovuqqa chidamliligi bilan ajraladi. Xartumi 6 mm Kavkaz kul rang tog' asalarisi yuvoshligi va xartumining uzunligi (6,6-7,1 mm) bilan dunyoga mashhur. Uzoq Sharq asalarisi qisqa muddatda ko'p asal to'plashi va chirish kasalliklariga chidamliligi bilan farqlanadi. Italiya asalarisi chidamli, mum kataqia osoyishta yashaydi. Ukraina asalarisi yirik kumush, sariq rangli, uyasida asalari yelimi kam.

Asalarilar oilasining hayoti nihoyatda murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Oilani tashkil etuvchi har bir individ ma'lum bir muayyan vazifani bajaradi.

Shunga ko'ra xar bir oilada urg'ochi ari ishchi ari va erkak arilar bo'ladi. Ular o'zining tana tuzilishi, katta kichikligi va fiziologik xususiyatlariga ko'ra bir-birlaridan fark, qiladilar. Bu xu-susiyatga polimorfizm deyiladi. Polimorfizm, odatda, xar bir individ oilada ma'lum bir vazifa bajarishdan kelib chikadi. Boshqacha kilib aytganda bajarilishi lozim bo'lgan ishning taqsimlanishi bevosita ularning barcha morfologik farqlariga bog'liq, bo'ladi (42-rasm).

Asalarilar oilasi bir butun va yagona biologik va xo'jalik birligi bo'lib ularni na erkagi, na urg'ochisi va na ishchisi o'z oilasidan ajralgan holda o'z vazifasini bajara olmaydi. Ular bir-birlari bilan muayyan, bog'liq, holda o'z faoliyatini ko'rsata oladilar. Asalarilarning xayoti va faoliyati tashki muhit sharoiti bilan nihoyat bog'lik holda bo'ladi. Ularning oziq tuplashi, urchib ko'payishi, hayotchanligi, o'sishi va rivojlanishi ham tashqi muhit bilan chambarchas bog'liqdir.

Urg'ochi asalarilar oiladagi jinsiy organlari yaxshi rivojlangan yagona individlar. U tuxum qo'yishdan boshqa hyech qanday vazifa bajarmaydi. Uning tanasi uzunchoq kelishgan bo'lib, uzunligi 20-25 mm, oifligi 0,2 g atrofida bo'ladi. Uning qorni qanotlaridan bir oz uzunroq bo'lib, 2 ta orqa oyog'ida gulchang yig'adigan savatchasi bo'lmaydi.

Urg'ochi asalari quygan tuxumidan ishchi, erkak va yosh urg'ochi asalarilar vujudga keladi. Urg'ochi asalarilar bir-birlari bilan birga yashay olmaydilar. Ular orasida «jang» boshlanadi va faqat baquvvat va kuchlisi qolib ikkinchisi oilasini tashlab uchib ketadi. Lekin, kamdan-kam ikkita urg'ochi (qarisi va yosh urg'ochisi) vaktincha birga, bir oilada, navbatchilik asosida yashashi xam kuzatilgan. Urg'ochi asalarilarning hayoti o'rtacha 5 yil bo'lib, ular 2 yoshdan so'ng otalangan tuxum qo'yishi susayadi. Bunday tuxumlardan ishchi asalari vujudga keladi. Otalanmagan tuxum qo'yish birmuncha ko'payadi va ulardan erkak asalarilar vujudga keladi. Binobarin, urg'ochi asalarilarni 2 yildan ortiq saqlash samara bermaydi. Ularning o'rniga mahsuldorligi yuqori bo'lgan oiladan chiqan yosh urg'ochi asalari bilan almashtirish yaxshi natija beradi.

Erkak asalarilar. Ularning tanasi ishchi asal-rilarnikidan kattarok va silindr shaklida bo'ladi. Ularning uzunligi 15-17 mm, og'irligi 2,2 g. Ko'zlari nisbatan katta va murakkab, boshining tepa qismida bir-biriga juda yaqish joylashgan. Mo'ylovi 13 burindan tashkil topgan. Ularda nish apparati bo'lmaydi. Qornida mum oynachalari va oyog'ida gul changini to'playdigan moslamalari ham bo'lmaydi. Erkak asalarilarning birdan bir vazifasi ypg'ochi asalari bilan juftlashish hisoblanadi. Erkak asalarilar asosan bahorda yangi oilaga ajrab chiqish oldidan vujudga keladi. Bitta oilada ularning soni bir necha yuzdan bir necha minggacha bo'lishi mumkin. Ular tayyor oziq-asal bilan oziqlanadi. Ayrim hollarda ishchi asalarilar o'z hartumi bilan ularni oziqlantiradi. Asal to'plash mavsumi tugagach, erkak asalarilarni oiladan haydab chiqarishadi va ular tashqarida ochlikdan va sovuqdan halok bo'ladilar. Shuning uchun ham ularni «truten», ya'ni «tekinxo'r» nomi bilan ataydilar.

Ishchi asalarilar. Ular oilaning asosiy qismini tashkil etadi. Yoz oylari asalari oilasida 3000-4000 ishchi ari bo'ladi. Katta oilalarda esa ayrim xollarda ularning soni 80000-100000 ta bo'lishi aniqlangan. Ishchi asalarilar jinsiy organi yaxshi

rivojlanmagan urg'ochi arilardir. Shuning uchun ham ular erkak arilar bilan juftlashish qobiliyatiga ega emaslar. Lekin, ayrim hollarda ular tuxum quysa, bu tuxumlardan faqat erkak arilar vujudga kelar ekan. Ishchi asalarilarning tanasi 12-14 mm, og'irligi o'rtacha 0,1 g atrofida bo'ladi. Ular yozda 5-6 hafta, qishda bir necha oy yashaydi. Ishchi asalarilar oilada turli xil vazifalarni bajaradi. Jumladan, nektar, gulchang va suv yig'adi. Nektardan asal ishlab chiqaradi va yosh avlodni tarbiyalaydi. Shuningdek mumdan qurilma yasaydi, uyani quriqlashadi va x. k. Shunga ko'ra ular tanasida ayrim uzgarishlarni vujudga kelishiga olib kelgan degan fikrlar mavjud. Jumladan, ularning xartumi urg'ochi va erkak arilarnikidan uzunrok,, qorin sternitlarida mum oynachalari va orqa oyoqlarida gul changini yig'adigan moslamasi bo'ladi.

Umuman, ishchi asalarilar oilasi faoliyatida hal qiluvchi rol uynaydi. Ular uyaning gaz, harorat rejimi va havo namligini ma'lum darajada saqlay oladilar. Shuningdek oziq zapasi tuplaydilar, uni kayta ishlaydilar. Yosh avlodni, erkak va urg'ochi arilarni tarbiyalaydilar.

Asalarilar uchun tabiatdagi barcha xil o'simliklar gulining nektari va changilari ozik, manbalari hisoblanadi. Shuningdek, asalarilar uchun suv va mineral moddalar ham talab etiladi.

Nektar - gul bezlari - nektardonlardan ajraladigan shirin suyuqliqdir. Ayrim o'simliklarda nektar bezlari guldan tashqarida bo'ladi. O'simliklarning nektar ajratishi chetdan changlanishga moslanishidir. Guldagi nektar hidi hasharotlarni o'ziga jalb etadi. Ular oyokchalari, qanotlari yordamida guldan gulga changni olib utadi va natijada o'simliklar chetdan changlanadi. Bunday holat tabiatda o'simliklarning tashqi sharoitga moslanish imkoniyatini kuchaytiradi va o'simliklar turini saqlanib qolishida muhim rol uynaydi. Nektar tarkibida shakar, suv, mineral tuzlar va boshqa tur moddalar uchraydi. Qandlar oddiy va murakkab holda bo'ladi. O'simliklarni turiga ko'ra ular nektaridan shakar va suv miqdori har xil (29-74% gacha) bo'lishi aniqlangan.

Qayta ihlangan nektar - asalga aylantiriladi. U qo'yidagicha yuz beradi. Asalarilar gul nektarini ofh3 apparati yordamida asal jig'ildoniga surib olib uyasiga olib keladi. Ishchi asalari nektarni olib kelgach, xartumi yordamida uchmaydigan yosh asalarilar xartumiga beradi. Nektarni qabul qilib olgan arilar uni asal jig'ildoniga shimadi, keyin uni qaytadan xartumiga qusadi. Bu jarayon birnecha marta takrorlanadi va nihoyat nektar asalari jig'ildonida invertaza fermentiga boyiydi. Bu ferment shakarqa-mish shakarini, ya'ni murakkab shakarni oddiy meva va uzum shakarigacha parchalaydi. So'ngra bu oddiy shakarlar katakchalarga tuldiriladi, ortikcha suvi bug'lanib ketadi va ularning parchalanish jarayoni davom etishi natijasida u yetilgan asalga aylanadi.

Tayyorlangan, asal solingan katakchalar mum qopqoqchalar bilan berkitiladi. Asal o'zining kimyoviy tarkibiga ko'ra shakar eritmasi konsentratsiyasi va nektardan fark, qiladi. Agar asal tarkibida 18-20 foiz suv bo'lsa, qolgani shakardan iborat. Nektar tarkibida suv ko'proq bo'lib, uning bir kismini shakar tashkil qiladi.

Nektarni asalga aylantirish jarayonining biologik mohiyati shundaki birinchidan, shakarning boyitilgan eritmasi hisoblangan asal uzoq vakt saklan-ganda

xam aynimaydi. Binobarin qishlov uchun ko'p miqdorda asal g'amlab qo'yish xam uning shu xususiyatiga asoslangan. Nektarni asalga aylantirish jarayonida murakkab shakar oddiy shakarga parchalanadi. Natijada asalarilar qishlov vaqtida bu oziqni iste'mol qilishda ko'p oziq va energiya sarf qilmaydilar. Shuningdek, ko'p axlat chiqarmaydilar va ortiqcha bezovta bo'lmaydilar. Asalarilar yig'ib kelgan gul changining ahamiyati juda katta bo'lib u uz qiymatiga ko'ra asalga teng turadi.

Asalarilar kasalligi uch xil: infeksiyon, invazion va yukumsiz bo'ladi. Infeksiyon kasalliklarning kuzg'atuvchisi o'simlik tanasidagi bakteriyalar, viruslar va zamburug'lar hisoblanadi. Invazion kasalliklarning kuzrag'uvchilari bir xujayrali va ko'p xujayrali parazit hayvonlardir.

Yukumsiz kasalliklar asalari oilasining hayoti uchun kerak bo'lgan sharoitlarning buzilishi natijasida vujudga keladi. Agar bu sharoitlar tiklansa kasallik uz-uzidan yuk, bo'lib ketadi.

Asalari oilalarini sog'aytirish uchun kasalliklarni uz vaqtida aniqlab, unga qarshi ko'rashda davolash, sanitariya va profilaktika tadbirlarini olib borish talab etiladi.

Asalarilarning yuqumli kasalliklari qo'yidagilar: Yevropa chirish kasalligi, Amerika chirish kasalligi shular jumlasiga kiradi.

Invazion kasalliklari: Nozematoz, Akarapidoz, Braulyoz va Senotainioz kabilar hisoblanadi.

Asalari biti (*Braula soyesa*)-qo'sh qanotlilar turkumiga mansub jigar rang hasharot. Bo'yi 1-1,5 mm tanasi qora tukchalar bilan qoplangan, boshi katta, yalpoq, ko'kragi qisqa, qorni (tanasi) tuxumsimon cho'ziq, oyoqlari qisqa, tirnoqlari bor. Xonaki asalarilar hisobiga yashaydi. Asalarilarni qo'riqlash uchun uya tez-tez ko'zdan kechirib turiladi va asalari biti tuxumlari va qurtlari yo'qotib boriladi.

Asalari bo'risi filant (*Philanthus triangulum*) - Sphecidae oilasiga mansub hasharot, bo'yi 1,5 sm keladi. Uyasini yerga (1 m gacha chuqur kovaklarga) qo'yadi. Erkaklari o'simliklar bilan, urg'ochilari asalarilar bilan oziqlanadi, urg'ochisi asalarini belidan ezib, shirasini chiqaradi va shu bilan ovqatlanadi. O'ldirgan arilarini uyasiga olib borib, ular bilan bolalarini boqadi. Asalari bo'risi asalarichilikka katta ziyon yetkazadi. Ularni yo'qotish uchun uyalariga DDT, geksaxloran va boshqa zaharli moddalar purkaladi, asalari boshqa joyga ko'chiriladi.

Asalari yiring kasalligi asalarilarning qurti (lichinkasi) va g'umbagida uchraydigan yuqumli kasallik Bunda qurt va g'umbak chirydi, yiringlaydi. U boshlang'ich davrda sezilmasligi ham mumkin. Bu kasallik bilan og'rigan asalari oilasida qurtlar bir tekis o'smaydi. Asalarilarning kasallanganini bilish uchun qurt yoki g'umbakka gugurt cho'pi suqib olinsa, yiring cho'p bilan cho'zilib chiqadi. Asalari yiring kasalligi qurtda bo'lsa, Yevropa yiring kasalligi deb, g'umbaqia bo'lsa Amerika yiring kasalligi deb ataladi. Ikkala kasallik ham O'zbekiston asalarilarida uchraydi. Asalari yiring kasalligiga qarshi ko'rash choralari; kasallik yengilroq bo'lsa, qurt va g'umbaklarga beriladigan qo'shimcha ozuqaga norsulfazol, penisillin va boshqa dorilar qo'shiladi, og'ir bo'lsa, asalari oilasining joyi yangilanib, shifobaxsh sharbat (1 l suvga 1 kg shakar, 1 g norsulfazol qo'shib

tayyorlanadi) bilan (har bir oilaga 100 g dan har 4-5 kunda) oziqlantiriladi.

Asalarichilik qishloq xo'jaligining bir sohasi, asal, mum olish va hasharotlar bilan changlanadigan ekinlarni changlatish uchun asalari boqish demaqqir. Qadim zamonlarda odamlar asal va asalari mumini daraxtlarning kovaklaridan olishgan. Asalarilarni qutilarda boqish usuli 19-asrda paydo bo'lgan. Asalarisimonlar mo'tadil va subtropik iqlimli o'lkalarda rivojlangan. O'zbekistonda. Asalari oilalarini ko'paytirish uchun maxsus joy ajratiladi. Odatda bunday joy asalarilarni qishda asrashga ham mo'ljallangan bo'ladi. Buning uchun daraxt va butalar bilan o'ralgan, shamol tegmaydigan joylar tanlanadi; bu daraxtlar ayni vaqtda asalli o'simliklar bo'lishi kerak shu bilan birga, ular asalari qutilarini oftobdan saqlaydi. O'zbekistonda asalarilar ko'klamdan to kech kuzgacha serasal o'simliklar ko'p bo'lgan tog'larda asralib, qish boshlanishi oldidan qishlov joyiga keltiriladi. Shu yo'l bilan yillik asal yig'imi oshiriladi, shunday joylar olmazor, bedazorlar va g'oz paykallari yonida barpo etiladi.

Asalari qutisi asalari oilasining boshpanasi. Asalarilar yog'ochdan yasalgan maxsus asalari qutisida boqiladi. Hozirda asalari qutisining Dadan-Blatt, yotiq, Rut xillari bor. Dadan-Blatt qutisi asosiy uya korpusidan va bir yoki ikkita magazindan (qo'shimcha ustki korpusdan) iborat. Uya korpusiga eni 435 mm, bo'yi 300 mm li 12 ramka, magazinlarga bo'yi 150 mm li 12 ramka joylashadi, yotiq asalari qutisi korpus va qopqoqdan iborat, 16-24 ramka joylashadi. Rut asalari qutisining tag poli sug'urib olinadigan bo'lib, korpus va 1-2 magazindan iborat. Har qaysi korpus va magazinga eni 435 mm va bo'yi 230 mm li 10 ramka joylashadi. O'zbekistonda, asosan, Dadan-Blatt va Rut kabi tik asalari qutisidan foydalaniladi.

Asalari boqishda va asalarichilik mahsulotlarini qayta ishlashda qo'yidagi asalarichilik asbob-uskunalar qo'llaniladi.

1) to'r bosh, betni ari chaqishdan himoyalashda ishlatiladi. Uning yuzga tutiladigan tomoni qora to'rdan, boshqa tomonlari chit yoki satindan qilinadi, ikki tomoniga 2,5- 13 mm li metall halqa kiygizilib, ust tomoni boshga kiyiladigan qalpoq gardishiga tiqiladi. To'rning simdan qilingan xillari ham bor;

2) tutatgich - asal olishda va asalari oilasini tekshirishda asalarilarni haydashda qo'llaniladi, u korpus va zosqondan iborat, bir-biri bilan metall plastinka yordamida biriktirilgan. Korpus qopqog'i tutunni tegishli tomonga yo'naltirilgan qilib yasalgan;

3) iskana - asalari oilasini tekshirishda ishlatiladi. Uning yordamida asalari qutisi va ramkalar qirib tozalanadi, mum katakli ramkalar olinadi yoki joyidan qozg'atiladi. Shuningdeq iskanadan asalari quti korpuslari va magazinlarini bir-biridan ajratishda foydalaniladi. Iskananing bir uchi to'g'ri burchak shaklida egilgan, o'zi po'latdan yasalgan, uzunligi 18-20sm, eni 3-3,5sm va qalinligi 0,3sm;

4) ona uya - asalari oilasidagi ona arini vaqtincha ajratib qo'yishda ishlatiladigan katakcha, sim to'rdan gugurt qutisi kattaligida yasaladi;

5) ko'ch savat - oilasidan bo'lingan asalarilarni ushlab kelish va ularni vaqtincha ushlab turishda ishlatiladi. U tuxum shaklda fanerdan yasilib, tubi va ochiladigan qopqog'i to'rdan qilinadi;

6) ona uya qalpog'i - mum kataqiagi yangi qo'yilgan ona arini vaqtincha

ajratib qo'yishda ishlatiladi, metall gardishga ko'zi 2,5-3 mm li sim to'r sirib tayyorlanadi;

7) to'siq panjara - asalari oilasida bir necha ona ari ketkazishda ishlatiladi, undan ishchi arilar o'tib, ona arilar o'ta olmaydi, tunukadan 448X250 mm kattaliqia yasaladi, tirqishlarining eni 4,4mm, uzunligi 28mm;

8) ramkalarni ko'chirib yurish uchun qopqoqli yog'och yashiq 5-6 ta ramkani olib yurishga mo'ljallangan;

9) teshgich - ramkaning ikkita yondor yog'ochini teshishda ishlatiladi. Asosiy qismlari cho'yan korpus, richagdasta, bigizli 4 ta shtok va ikkita prujinadan iborat;

10) asalarilarga qo'shimcha ozuqa beriladigan oxurcha;

11) g'altak - sun'iy mum katak chetlarini ramkaga zichlab yopishtirishda ishlatiladi, asosiy qismlari yog'och dastali dumaloq metall sterjen va o'qdan iborat;

12) ramkalarning to'ldirilgan mum kataklar ustini kesadigan pichoqni ishlatishdan oldin qaynoq suvga tiqib olinadi;

13) Yopilgan mum kataklar og'zini ochish uchun ishlatiladigan stol korpusining ko'tarma qopqoqlari, jumrakli idish, isitish asboblari qo'yish uchun ochiladigan yon stollaridan iborat bo'ladi;

14) elak – mum kataklardan ajratib olingan asalni suzishda ishlatiladi, zanglamaydigan tunuka va oqartirilgan sim to'rdan qilinib, asal ajratadigan mashina kraniga osiladi;

15) mum kataqiagi asalni ajratib oladigan medogonka, bu mashina markazdan qochirma kuch bilan ishlaydi, radial (katta) va xoodial (kichikroq) xillari bor;

16) asal tindiriladigan idish - alyumin yoki oqartirilgan po'latdan 285 yoki 570l li qilib yasaladi, 400 yoki 800kg asal ketadi, asalni tindirishda sirlangan idish yoki yog'och bochkalardan foydalanilsa ham bo'ladi;

17) mum katak og'zidan qirqib olingan mumlar, mum chiqitlari oftobda eritiladigan moslama yog'och korpus, tub, ko'tarma qopqoq, oyna bilan o'ralgan rama, tog'ora va isitadigan materiallardan iborat yirik asalarichilik xo'jaliklarida bug' bilan ishlaydigan mum eritgichdan foydalansa ham bo'ladi, bu tipdagi mashinada bir yo'la 25 ramka mum katagini eritish mumkin;

18) asalari uchun sug'orgich - yog'ochdan yoki alyumindan yasaladi, jo'mragi bor, hamisha oftob tushib turadigan joyga qo'yiladi, bunda asalarilarga doimo suv kelib turadi. Asalarizorlarga odatda ikkitasi qo'yiladi, biri chuchuk ikkinchisi sho'r suv bilan to'ldiriladi, suvi har kuni yoki kunorya almashtiriladi;

19) ikki g'ildirakli yengil aravacha - asalari oilasi, asalari qutisi va asalari asbob uskunalarini ko'chirib yurishda ishlatiladi.

Respublikamizning tabiiy sharoiti ko'plab o'simliklarni o'sishi uchun nihoyat qulay hisoblanadi. Viloyatlarimizda asalari boqish asosan kuchma asalarichilikka asoslangan. Binobarin, tovar mahsulotning asosiyismi shu usul asosida yetishtiriladi. Kuchma asalarichilik zonalarida asalchil o'simliklarni xilma-xilligi, ulkamizda uzok, vaqt sovuq bo'lmasligi, qish mavsumining qisqaligi, asalarilarning yuvvoshligi, ularni parvarish qilish usullarining oddiyliigi ko'plab qimmatli asalari, ona ari, va paketli asalarilar olish uchun katta imkoniyatlar beradi.

Pasekalardan har tomonlama unumli foydalanish maqsadida ularni kuchirish

tadbirlari tula-tukis urganilmagan. Lekin, pasekalar vodiy, etagi, tuqaqlarda kuchib yuradi. Ma'lum miqdorda pasekalar Chotqol, Qurama, Boysun, Hisor tizma tog'lariga olib chiqiladi. Qish oylari (dekabr, yanvar, fevral) asalarilar dalaga nektar chang yig'ishga chiqmaydi. Ular zapas oziq bilan oziqlanadilar.

Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, obhavo yaxshi kelgan yillari (1967) aprel may oylarida xilma-xil cho'l utlaridan bir kunda 22,5 kg chang va nektar olish mumkin ekan. Lekin bahor sovuq kelganda cho'lda va nektar beruvchi o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi birmuncha susayib ketadi. Bunday vaqtlarda pasekani cho'lga kuchirishning hojati bo'lmaydi. Aprelning oxiri va mayning boshida pasekalarni adirlarga, tof etagidagi xilma-xil utlar (xashaki nuxat, erkak ut, karmak, kashkar beda, astragal va lola (kizgaldoqiar) ko'p usadigan joylarga kuchirish mumkin.

Paxtadan ko'prok, asal oladigan oylar - iyul va avgust hisoblandi. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ekiladigan ingichka tolali g'uzalarda asal ko'prok, bo'lishi tajribalarda qurilgan. Masalan, bitta asalari oilasidan olingan tovar asal miqdori 40-70 kg tosh bosgan. Uzbekistonning boshqa zonalarida bu ko'rsatgich 25-30 kg ga to'g'ri keladi. Tajribalardan ma'lum bo'lishicha, har bir gektar paxtazor maydonidan 20-30 kg chang olinar ekan. Makkajo'xori ham ko'p chang beruvchi o'simliklardan hisoblanar ekan.

Nazorat savollari:

1. Asalarilarning xalk; xo'jalik ahamiyati to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Asalarilardan qanday mahsulotlar olinadi?
3. Asalarilar oilasining tarkibi va biologiyasi to'g'risida so'zlab bering.
4. Asalarilarni oziq manbalari to'g'risida tushuncha bering.
5. Asalarilarning qanday kasalliklarini bilasiz?
6. Asalarilar oilasini kuchirish tadbirlari to'g'risida so'zlab bering.

7.4.BALIQCILIK XO'JALIKLARI FAOLIYATI.


Ko'l baliqchiligi o'zining vazifasi va yo'nalishiga ko'ra asosan ikki xil, ya'ni iliq suvli va sovuq suvli tipga bo'linadi. Buning uchun boqiladigan baliqlarni biologik xususiyatlari va ularni suv harorati hamda gidrokimyoviy sharoitlariga munosabati (chidamliligi, mosligi) hisobga olinadi.

Ko'l baliqchiligi o'zining tashkiliy jarayonlari va maxsulot yetishtirib berish imkoniga ko'ra to'la tizimli va noto'la tizimli bo'ladi. So'ngi tizimga asosan baliqchilik pitomniklari va keltirilgan mayda baliqlarni boqish va ustirish bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar kiradi.

Baliqchilik xo'jaligini tashkil qilish uchun dastavval uni qanday tipda bo'lishi, xo'jalik tizimini aniqlab olish talab etiladi. Shuningdeq xo'jalik tarkibi va mahsulot ishlab chiqarish kuvvati nazarda tutiladi. Barcha qurilish ishlari tasdiqlangan loyihalar asosida bajariladi. Buning uchun joy tanlash muhim ahamiyatga ega. Bunday tadbirlar har bir dav-latning yer qonuniyatlari asosida bajariladi. Bu borada umumiy yer maydoni har xil bo'ladi. Jumladan, tula tizimli xo'jaliklar uchun 300-

1000 ga, baliqchilik pitomniklar uchun 25-50 ga va baliq boqish suv hovuzlari (ko'llari) uchun 20 ga va undan kuproq bo'lishi mumkin.

Baliq boqish hovuz va boshqa suv havzalarida baliqlarga ozuqa berib o'stirish. Baliqlarni hovuz xo'jaligida ustirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. U maxsus sistema asosida olib boriladi. Hovuzlardan xama vaqt suv utib turishi ta'minlanadi. Zog'ora baliq, xonbaliq, utkir baliq, sudak ilonbaliq va boshqa baliqlarni boqish tartibi ishlab chiqilgan. Issiqsevar baliqlar (zog'ora baliq tovonbaliq, leshch, amur va b.) boqiladigan hovuzlar utloq va botqoqli uchastkalarda barpo etilib, ularga dare, kanal, kollektorlardan hamda kullardan suv olinadi. Salqinsevar baliqlar (xonbaliq, sulaymonbaliq oqbaliq) boqiladigan hovuzlar organik moddalar kam bo'lgan uchastkalarda qurilib. ularga buloq va ariqdan suv olinadi. Baliq boqish xovo'ziga begona baliqlar kirmasligi va hovuz ichidagi baliqlar uchun suv kiradigan va chiqadigan joyiga maxsus panjara qo'yiladi. Baliq boqish hovuzi kelajakda undan boshqa maqsadda foydalanishni hisobga olib, kichik dare qirgoq-lariga quriladi. Baliq boqish hovuzini uzoq muddat yaxshi saqlash maqsadida, uning meliorativ holatini yaxshilovchi tadbirlar amalga oshiriladi. Bu tadbirlar hovuzdan tashqarida va hovuzda o'tkaziladi. Birinchisiga suv yig'iladigai maydoncha qiyaligini zinapoyalarga bo'lish, hovuzga tushadigan suvni tozalash va uni kislorod bilan boyitish, toshkin suvlarni g'amlash, hovuz ichini loyqa bosishdan saqlash ishlari kiradi. hovuzni vaqt-vaqti bilan quritib, zarur suv-xavo rejimi yaratish, qamish, lux kabi o'tlar bosishining oldini olish, hovuzda



43-Rasm. Yovvoyi sazan va kraplarning turli zotlari.


torf qatlamlari hosil bo'lishiga yul quymasliq hovuz tubini loyqa va boshqa chukindilardan tozalash ishlari ikkinchi guruhdagi tadbirlardir. Baliq boqishda kunjara, arpa, bug'doy va javdar kepagi, baliq uni, go'sht uni va hokozolar ishlatiladi. Baliq ovqati maxsus stolchada beriladi (stolcha suvga 0,5-0,75 m botirib qo'yiladi) yoki hovuz tubiga qurilgan maxsus ovqat maydonchasiga solinadi. Baliq boqishda suvning harorati hisobga olinadi. Masug'orish, zog'ora baliq suvning harorati 20-26°, xonbaliq-15-18 bo'lgach yaxshi ovqatlanadi. Baliq boqishda hovuzning meliorativ xolati yaxshilanadi Hovuzlarni har biri maxsus vazifani bajarishga mo'ljallangan bo'ladi. Masalan, baliq tuxum kuyadigan hovuzlarda baliq bolalari yetishtiriladi. Suvni tezroq va osonroq isishi nazarda to'tilgan holda bu hovuzlar yo'zaroq qilib qaziladi. Ularning tagida o'simliklar ustiriladi. Chunki o'simliklar bo'lmasa, karp balig'i tuxum quymaydi. Shundan so'ng balik, bolalari ustiriladigan hovuzlarga kuchiriladi. Qish kelishi bilan bu mayda karp baliqchalar chuqur hovuzlarga kuchiriladi. Ularni qishlash hovuzi deb ataladi.

Bahor kelishi bilan bir yashar bo'lgan karplar

yayrab suzadigan katta hovuzlarga tushiriladi. Bu hovuzlarda esa tabiiy oziqlar dafniya, sikloplar ko'paytirilgan bo'ladi. Bu hovuzda karplarni makkajujori, kunjara, pishirilgan kartoshka, suyak uni bilan ta'minlab turiladi. Kuz kelishi bilan o'sib kattalashgan karplar ovlanadi.

Respublikamiz viloyatlaridagi sholipoyalarda karp balig'ini urchitish nihoyat yuqori samaradorlikka erishishda muhim omil hisoblanar ekan. Jumladan, ular hamma vaqt suzib yurib tuproqni yumshatar, chivin lichinkalarini va g'umbaklarini hamda suvdagi begona o'tlarni va urug'larini iste'mol qilib sholidan mul hosil olishda muhim vazifa bajarar ekan. Shunday qilib, sholikorchiilikda baliqchilik ishlari uz samarasini ko'rsatar ekan.

Ko'lda boqiladigan baliqlarining qo'yidagi va boshqa zot turlari mavjudefolyasiya Karp barcha baliqlar orasida keng tarkalgan (43-rasm). U tez usadi. Barcha turdagi oziqlarni iste'mol qilishga moslashgan, U iliq suvlarni xush ko'ra-di. Tuxum qo'yishi uchun suv harorati 18-20°C va jadal o'sib rivojlanishi uchun 20-28°C harorat bo'lishi yaxshi natija beradi.



44-rasm. O'rta Osiyo suv havzalariga kuchirilgan baliqlar: 1-oq amur, 2-ilonbosh, 3-tolstolobiq



45-Рис. Ляпис

Agar suv harorati 13-14°C gacha pasayib ketsa, uning oziqlanishi tuxtaydi va harakat qilmay quyadi. Umuman, ularni o'sishi va rivojlanishi birinchi galda suv harorati, suvdagi oziq va ularni to'g'ri saqlashga bog'liq bo'ladi.

Karp balig'i bir yoshligida 500 g, ikki yoshligida 1000 g, turt yoshligida 3000 g tosh bosadi. Ular 4 - 5 yoshligida jinsiy balog'atga yetadi. Urg'ochilari har bir kg vazni uchun o'rtacha 180 ming tuxum (ikra) beradi.

Sazan iliq haroratni xush kuruvchi baliqlar guruhiga kiradi. Ular o'zining biologiyasiga ko'ra karp balig'i bilan birxil bo'ladi. Kul sharoitida sazan karpga nisbatan biroz sekinrok, usadi. Lekin ayrim vakillari hayoti davomida 20 kg gacha tosh bosaoladi.

Laqqa baliq (*Silurus glanis*) - laqqa baliqlar oilasiga mansub baliq. Bo'yi 5 m gacha, og'irligi 300 kg cha. Tanasi tangachasiz, suzgich qanoti kichik og'zi keng pastki jag'i uzunroq. Mo'ylovi 3 juft. Orqa tomoni zaytun tusda, ost qismi (qorni) esa oq. Laqqa baliq Orol dengizi hamda Yevropadagi ko'l, daryolarda va boshqa yerlarda yashaydi. Iyunda 136-467 ming uvildiriq tashlaydi. To'rt yoshda jinsiy

yetiladi. Hozir Orol dengizidan yiliga tutiladigan baliqniig 7% ini tashkil etadi. Umurtqasiz va umurtqali jonivorlar bilan ovqatlanadi.

Oq amur, oq va ola tolstolobik (keng peshona balik,) (44-rasm). Ular karpsimonlar oilasiga kiradi. Ular Tinch okeanga qo'yiluvchi daryolarda, Osiyo daryolarida va Amurning janubiy qismida ko'proq uchraydi. Ok, amur asosan, yumshoq (mayin) suv o'simliklari bilan oziqlanadi. Oq tolstolobik fito-planktonlar va suv o'tlari bilan oziqlanadi. Ola tolstolobik fito - va zooplanktonlar bilan oziqlanadi. Markaziy Osiyo janubida urg'ochi oq tolstolobiklar 3 yoshligida va tana uzunligi 40 sm bo'lganida jinsiy balog'atga yetadi. Oq amur va ola tolstolobik 3-4 yoshligida, tana uzunligi 60 sm bo'lganida jinsiy balog'atga yetadi. Ular faqat oqar suvlarga tuxum quyadi. Oqmaydigan suv bo'lsa tuxum quymaydi. Tuxum qo'yishi uchun suv harorati 19- 20°C bo'lishi talab etiladi. Tuxumining miqdori ularning katta-kichikligiga bog'liq bo'lgani holda o'rtacha 100-200 mingdan 1 milliongacha, ba'zan undan ham kuproq bo'lishi aniqlangan. Oq amuri kupincha 300 g tosh bosadi. Ularning har bir kg vazniga 1000 tuxum (ikra) to'g'ri keladi. Ular suv o'simliklarini iste'mol qiladi, binobarin, paxta dalalari va sholikorlikka suv keladigan kanallarni tozalab kup foyda keltiradi.

Lososlar (Sattrinmdae) seldsimonlar turkumiga mansub baliqlarning bir oilasi. Tanasi tangachalar bilan qalin qoplangan. Shimoliy yarim sharning chuchuk suv havzalarida yashaydi (45-rasm). Ba'zilar utkinchi. Janubiy yarim shardagi suv havzalarida iqlimlashtirilgan 9 urug'i bo'lib, shundan 7 uruqqa mansub turlari uchraydi. Jumladan, O'rta Osiyoda orol lososi yoki kumja va amudaryo gulmoyi degan kenja turlari tarqalgai. Losos muhim xo'jalik ahamiyatiga ega. Tinch okean Lososiniig kizil ikra (uvildirig'i) yuqori baholanadi.

Tog'ayli baliqlar (Chondrichthyes) - baliqlarning sinfi, Skeleti tog'ayli. Terisi (ba'zan, tangachasiz) plakoid tangachalar bilan, tishi emal bilan qoplangan. 5-7 juft tashqi jabra teshiklari bor. Ko'ndalang og'izli, ichagida spiralsimon klapanlari bo'ladi, cyv ichag pufagi yo'q, bosh miyasi rivojlangan. Shoxsimon kapsulaga o'ralgan tuxum qo'yadi yoki bola tug'adi. Tog'ayli baliqlarning deyarli hammasi dengizda, kamdan-kam chuchuk suvda yashaydi. Devon davrining oxirlarida paydo bo'lgan, hozir ko'p turi o'lib ketgan. Tog'ayli baliqlar plastinka jabralilar va yaxlit boshlilar kenja sinfiga bo'linadi.

Forel. Bu baliq Amudaryoning yuqori qismida, shuningdek, Kavkaz zonasida, Volga, Ural, Dnestr, Dnepr daryolarida va suv havzalarida kuproq uchraydi. Bu baliq suvda kislorodni ko'p bo'lishini ma'qul ko'radi. Uning jadal o'sishi va rivojlanishi uchun suv harorati 15-18°C bo'lishi ma'kul hisoblanadi. Forel 3-4 yoshida jinsiy balog'atga yetadi. Ular sentyabrni oxiridan noyabrgacha tuxum quyadi. Mart aprel oylarida quygan tuxumlaridan lichinkalar vujudga keladi. Ularning o'rtacha og'irligi 200 g dan 1000 g gacha. Ba'zan undan xam kattalari uchrab turadi.

Karas. Karas balig'ining ikki turi bo'lib, bittasi tilla rangli bo'lsa, ikkinchisi kumush rangli hisoblanadi. Bu baliqlar asosan daryolarda, kullarda va suv havzalarida kuproq uchraydi. Urg'ochilari uz tuxumlarini 10-15 kun oralab (dam olib) quyadi. Buning uchun suv harorati 14-23°C va suv ostida o'simliklarni 0,5-0,6

m uzunlikda va zich bo'lishi ma'qul hisoblanadi. Urg'ochilari bir yilda jami bo'lib 160- 300 ming tuxum quyadi. Ular 3-4 yoshida jinsiy balog'atga yetadilar. Karasning vazni 1 yoshida 15-30 g, 2 yoshida 150-250 g, 3 yoshida 300-400 g tosh bosadi.

Cho'rtan baliq (чирта). Bu tez usuvchi baliqlar turiga kiradi. U 1 yoshligida 300 g, 2 yoshligida 600 g va 3 yoshligida 1 kg tosh bosadi. Jinsiy balog'atga 3-4 yoshligida yetadi. Kuygan tuxum miqdori o'rtacha 20- 200 ming, ba'zan yirik urg'ochilari 1 milliongacha tuxum qo'yishi aniqlangan. Tuxumini aprelni o'rtalarida quyadi. Bunda suv harorati 4-6°C bo'lishi yetarli hisoblanadi. Yirik cho'rtan balig'i asosan mayda baliq qurbaqa va suv hasharotlari bilan oziqlanadi.

Sudak. Okunlar oilasiga mansub bo'lgan bu baliq go'shtini mazali va lazzatli bilan boshqa baliqlardan ajralib turadi. Sudak barcha yirik daryolarda, shuningdek qora dengiz, Azov, Kaspiy va Boltiq dengizi atrofidagi suv havza va kullarida kuproq uchraydi. Ular 3-4 yoshligida jinsiy balog'atga yetadi. Bir qo'yishda 82-1185 ming tuxum quyadi. Tuxum qo'yishi aprel may oylariga to'g'ri keladi. Bunda suv harorati 9-18°C bo'lishi ma'qul hisoblanadi. Sudakni yoshlari suv hasharotlari va suvdagi qisqichbasimonlar bilan oziqlansa, yiriklari yirtqichlik bilan kun ko'radi. Ular uzidan kichik baliqlarni xush ko'radi.

Amerika laqqa balig'i (сом). Bu baliq nihoyatda yirtqich bo'lib, asosiy ozuqasi baliq, qurbaqa va hasharotlar hisoblanadi. Bu balik, asosan suv havzalarida va kullarda ko'paytiriladi.

Ilonbosh - yirtkich baliq hisoblanadi. Bu baliq faqat suv kislorodi bilan cheklanmasdan, ayrim hollarda vaqti-vaqti bilan suv yuzasiga chiqib atmosfera kislorodidan nafas oladi.

Nazorat savollari:

1. Kul baliqchiligi to'g'risida uz tushunchangizni suzlab bering.
2. Baliq xo'jaligi uchun joy tanlash ishlari qanday olib boriladi?
3. Kul baliqlarini biologiyasi to'g'risida suzlang.
4. Kul baliqchiligida ko'paytiriladigan asosiy baliqlarning turlari to'g'risida nimalarni bilasiz?

7.5.BALIQLARNI KO'PAYTIRISH ISHLARI.

O'zbekistonda baliqchilik asosan uning suv havzalarida ko'paytiriladi. Respublikamiz balik boyliklari qonun yuli bilan quriqlanadi.


Baliqlarni ovlash faqat belgilangan muddatlarda va ma'lum joylarda ruxsat beriladi. Lekin baliqlarni portlovchi va zaxarli moddalar bilan yirtqichlarcha qirish qonun asosida jazolanadi. Tuxum qo'yish uchun muayyan joylarga ketayotgan baliqlarni ovlash taqiqlanadi, aks holda baliq zapaslari kamayib ketadi.

Respublikamizda baliq boyliklarini ko'paytirish maqsadida baliqlarni hovuzlarda


urchitish ishlari tashkil etilgan. Lekin hovuzda har qanday baliqni urchita berish ijobiy natija beravermaydi. Shuni nazarda to'tish lozimki, hovuzda

urchitilgan baliq tez usadigan, yaxshi ko'payadigan, serpusht va xura bo'lishi kerak.

Baliqlarni urchitish ishlari maxsus urchitish zavoddarida olib boriladi. Buning uchun baliq tuxumi sun'iy urug'lantiriladi. Bu usul ko'plab ixtisoslashgan baliqchilik xo'jaliklarida keng qo'llaniladi. Bunda sun'iy urug'lantirilgan tuxumlar maxsus apparatlarga (suv oqib o'tadigan yashiklarga) joylanadi.



46-Rasm. B.G.Chalikovning oqbalıq va ostryor balıg'i tuxumini ochirish apparati: 1-ochiladigan qopqoq; 2-apparatini bog'lab qo'yish uchun ilgak.



47-rasm. N.D.Jukovskiyning losos (sulaymon baliq) tuxumini ochirish apparati: 1-baliq tuxumi uchun turli ramka; 2-ochib chiqqan baliq qurtlari uchun ostki ramka; 3-yuk.

Tuxumdan chiqqan baliq bolalari maxsus idish (sadoq)larga, so'ng hovuzlarga qo'yib yuboriladi. U erda ular turli suv havzalariga tarqatiladi. Amudaryoning Nukus shahriga yaqin qismida osyotrsimon baliqlar (ship va sevryuga) bilan sun'iy yul bilan urchitadigan baliq zavodi qurish ishlari bajarilgan.

Baliq urchitish zavodi-ovlanadigan baliqlarni sun'iy usulda o'stirish bilan shug'ullanadigan korxona. Baliq urchitish zavodida baliqlarni asrash, baliq tuxumini urug'lantirish, baliq ovqati tayyorlash va inkubasiya ishlari qilinadi. Baliq urchitish zavodi strukturasi o'stirilayotgan baliqlarning yoshiga bog'liq. Agar baliq urchitish zavodi suv havzalari uchun baliq lichinkalari etishtirishga mo'ljallangan bo'lsa, u vaqtda yosh baliqlarni o'stirish va ovqat tayyorlash sexlari bo'lmaydi.

Erkak va urg'ochi baliqlar tuxum qo'yishgacha maxsus hovuzchalarda alohida-alohida asraladi, voyaga etgandan keyin urg'ochilaridan tuxum olinib, sun'iy urug'lantiriladi va inkubasiya sexiga qo'yiladi. Inkubasiya sexida sun'iy urug'lantirilgan baliq tuxumning ochirishda maxsus apparatlardan foydalaniladi. Masalan, zavod sharoitida sulaymonbaliq va xonbaliq tuxumini ochirishda Kost, Kaliforniya, Vilyamson apparatlari va tarnovli ramqalar ishlatiladi. Bunda baliq tuxumi ramkalarda harakatsiz ushlanib, u suv oqimi bilan doimo yuvilib turadi; oqbalıq, cho'rtan baliq, zog'ora baliq (bularning tuxumi mayda) tuxumlarini ochirishda esa Veys, Chez apparatlari ishlatiladi. Bunda suv oqimi bilan baliq tuxumi qalqib turadi. Shuningdek, baliq tuxumini zavoddan tashqari sharoitda ochirishda B.G.Chalikovning suv betida suzadigan to'r qutisi (35x70x16) (46-rasm) va N.D.Jukovskiy yasagan apparatlar (47-rasm) ishlatiladi. Bu apparatlar daryo, ko'l va hovuzlarning bevosita o'ziga qo'yiladi. Osyotr balıg'i tuxumini ochirishda P.S.Yushchenkoniyag apparatidan - 7 qirrali to'rsimon barabanidan

foydalaniladi. Buning ichiga baliqning urug'langan tuxumi solinadi. Bunday barabanlardan 4 tasi oxurchaga o'rnatilib, suv oqizib qo'yiladi. Tuxumdan chiqqan lichinkalar baliq o'stirish sexiga o'tkaziladi. Yosh baliqlar dastlab maxsus hovuzchalarda tirik jonivor va sun'iy ovqatlar berib boqiladi, so'ng suv havzalariga qo'yib yuboriladi.

Baliqlarni yuqorida keltirilgan usullar yordamida ko'paytirish ishlari yaxshi natajalar bermoqda. Ayniqsa sazan va karp hamda boshqa istemolga zarur ko'p mehnat talab qilmaydigan shirin ta'mli baliqlarini chngi zltlarini ko'paytirish ishlari yaxshi yulga qo'yilgan. Sazan va yovvoyi karp barcha talablarga javob beraoladi. Mutaxassislar karp tabiatini birmuncha uzgartira oldilar, binobarin, xonaki karpning bir necha madaniy zotlarini yaratishga erishdilar. Xonaki karpning shirinroq, yog'liroq va lazzatli bo'lishi bilan birga uning usishi va rivojlanishi birmuncha jadalroq bo'lishi aniqlangan. Yaratilgan yangi zot karp baliqlarida tana tangachalari kamroq rivojlanganligi bilan yovvoyi ajdodlaridan farq qiladi Respublikamiz hovuzlarida xonaki karp bo'lsada yirik tangachalar saqlanib qolgan. Tangachalar baliqning ikki yonida bir tekis joylashgan. Ular uzlarining yaltiroqligi bilan yovvoyilaridan farq qiladi. Inson tomonidan yaratilgan yangi zot sazan baliqlarini faqat ko'rinishidagina emas, balki ularning xulq atvorida xam birmuncha o'zgarishlar yuz berdi. Masalan, yovvoyi vakillari hurkovich va extiyotkor bo'lsa, xonaki karp balig'i ovqat tashlangan joyga bemalol suzib keladi. Xonaki karp balig'ida shartli reflekslar osonlikda hosil qilish mumkin ekan. Masalan, ular qo'ng'iroq ovozi eshitib qirg'oqqa ovqat eyish uchun kelishlari tajribalarda sinab ko'rilgan.

Nazorat savollari:

- 1.O'zbekiston baliqchiligi to'g'risida so'zlang.
- 2.Respublikamiz suv havzalarida baliqlarni qanday turlari ko'paytiriladi?
3. Baliqlarni urchitish ishlari qanday olib boriladi?
- 4.Hovuz xo'jaliklari sharoitida baliqlarni boqish, urchitish va ko'paytirish tadbirlari to'g'risida so'zlab bering.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A. Karimov. Barkamol avlod orzusi. – T.: «Sharq» nashriyot–matbaa konserni, 1999.
2. I.A. Karimov. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: O‘zbekiston, 1999.
3. I.A. Karimov “Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo‘llari va choralari”. – T.: 2009 y.
4. I.A.Karimovning Vazirlar mahkamasining 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng ustivor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan yig‘ilishda qilingan ma‘ruzasi.
5. I.A.Karimov “Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch”. – Toshkent: “Ma‘naviyat”, 2005 yil.
6. Umumiy o‘rta ta‘lim davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi. Maxsus son. – T.: “Sharq” nashriyoti, 1999 yil.
7. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi, Respublika ta‘lim markazi. “Uzviylashtirilgan davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi” (Mehnat ta‘limi, tasviriy san‘at, chizmachilik, musiqa madaniyati va jismoniy tarbiya (1-9 sinflar)). – Toshkent: 2010 y.
8. T.X.Ikromov. Chorvachilik asoslari. Darslik. Toshkent. «Sharq», 2001y.
9. T. X. Ikromov. “Xususiy chorvachilik”. Toshkent: «Sharq», 2002 y.
10. O‘. Xoldorov. “Qishloq xo‘jalik mehnati” (5-sinflar uchun o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992 y.
11. M.SH. Shoumarova, T.A. Abdillayev, D.M. Musayev. “Qishloq xo‘jalik mashinalari atamalarining ruscha-o‘zbekcha lug‘ati”. – Toshkent: “Fan”, 1994 y.
12. O‘zbek Milliy ensiklopediyasi. Barcha tomlar jamlanmasi (1-14 tomlar). Toshkent.
13. Uy-ro‘zg‘or ensiklopediyasi. Toshkent.
14. A. Xushmatov. «Fermer xo‘jaliklarini muvofiqlashtirish va biznes-reja tuzish». Toshkent: 2001 y.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB – HUNAR TALIMI MARKAZI

«TASDIQLANDI»

Oliy va O‘rta Maxsus ta’lim
vazirligi

192- sonli buyruq
“11”may 2011 yil

Ro‘yxatga olindi
№ KMD – 3520602 – 2.07

Kasb – hunar kollejlari uchun Chorvachilik va parrandachilik asoslari fanidan
O‘QUV DASTURI

Tuzuvchilar: A.Abdumavlonov-Bo‘ka Bo‘ston qishloq xo‘jalik kasb-hunar
kolleji uslubchisi

Taqrizchi:

Namunaviy mavzular rejasi

№	Bo‘lim va mavzular	Jami soat	Shundan	
			Nazariy	Amaliy mashg‘u l
I.	Chorvachilikning rivojlanish darajasi va istiqboli.	2	2	
II. Qo‘ychilik va echkichilik.				
1.	Qo‘y va echkilarning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati va asosiy biologik xususiyatlari.	2		
2.	Qo‘ychilik mahsulotlari.	2	2	2
3.	Naslchilik ishlari.	2		2
4.	Asrash va oziqlantirish.	2		2
5.	Echkichilik, asosiy zotlari.	2	2	
6.	Nasilchilik ishlari.	4	4	2
7.	Junni guruhlash va nasllarga ajratish.	2		2
Jami:		18	10	10
III. Yilqichilik va tuyachilik.				
1	Yilqichilikning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati.	2	2	
2	Zotlar tasnifi.	4	4	2
3	Nasilchilik ishlari.	2	2	2
4	Oziqlantirish va parvarish qilish.	4	4	2
5	Tuyachilik mahsulotlari.	2	2	
Jami:		14	14	8
IV. Qoramolchilik.				
1.	Xalq xo‘jalik ahamiyati va biologik xususiyatlari.	2	2	
2.	Mahsuldorlik ko‘rsatkichlari va unga ta’sir etuvchi omillar.	2	2	2
3.	Zotlar tasnifi. Mintaqalashtirish.	4	2	2
4.	Nasilchilik ishlari.	2	2	2
5.	Yosh mollarni parvarish qilish texnologiyasi.	4		2
6.	Oziqlantirish, oziqlantirish me’yorini tuzish.	4		4
7.	Qoramollarni bo‘rdoqiga boqish.	2	2	2
8.	Fermer xo‘jaliklarida sut va go’sht ishlab chiqarish bo‘yicha ilg‘or tajribalar.	2	2	2
Jami:		22	16	16
V. Cho‘chqachilik.				

1.	Xalq xo'jalik mohiyati va biologik xususiyatlari.	2	2	
2.	Asosiy zotlari.	2	2	
Jami:		4	4	
VI. Parrandachilik.				
1.	Xalq xo'jalik ahamiyati va biologik xususiyatlari.	2	2	2
2.	Zotlar tasnifi va mintaqalashtirish.	2	2	
3.	Inkubatorida jo'ja ochirish texnologiyasi.	4		2
4.	Jo'jalarni asrash, tashish va boshqa texnologiyasi.	2	2	2
5.	Katta yoshdagi parrandalarni asrash va oziqlantirish.	2	2	2
6.	Tuxum yetishtirish.	2		2
7.	Broyler tuxumi va go'shtini yetishtirish.	4	2	2
Jami:		16	10	12
VII. Quyunchilik va mo'ynachilik.				
	Quyunchilik va mo'ynachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va rivojlantirish texnologiyasi.	2	1	
	Quyon zotlari va mahsuldorligi.	2	2	
Jami:		5	5	
Xammasi:		80	58	48

MUNDARIJA.

Kirish	3
I-BOB. CHORVACHILIK OMILLARI	
1.1. Chorvachilikning rivojlanish darajasi va istiqboli.....	4
1.2. Hayvonlarni boqish maxsuldorliginiga tasir qiluvchi omillar.....	9
II-BOB. CHORVACHILIK SOHALARI	
2.1. Qo'ychilik	12
2.2. Qo'ychilikda naslchilik ishlari	14
2.3. Qo'ylarni asrash va oziqlantirish.....	17
2.4. Echki chorvasi faoliyati haqida.....	19
2.5. Yilqichilik otlarini xalq xo'jaligidagi ahamiyati	21
2.6. Ot zotlari tasnifi.....	23
2.7. Yilqichilik fermalaridada otlarni parvarish qilish.....	26
2.8. Tuya chorvachiligining faoliyati haqida.....	30
2.9. Qoramolchilik chorvachiligi fermalari haqida.....	34
2.10. Qoramol zotlari.....	38
2.11. qora mollarni parvarish qilish.....	40
2.12. qoramolarni g'oshtga boqish texnologiyasi.....	44
2.13. Cho'chqa chorvachilik asoslari.....	48
III-BOB. CHORVA OZUQASI	
3.1. Yem xashak turlari va ularni tayyorlash texnologiyasi.....	50
3.2. Chorvachilik uchun yem-shirot turlari.....	55
IV-BOB. PARRANDACHILIK HAQIDA	
4.1. Parrandachilik fermalarining ish faoliyati.....	59
4.2. Jo'jalarni boqish texnologiyasi.....	61
4.3. Parrandachilikda (o'rdak tovu, ajir kaptar va boshqa) sayroqi go'zal qushlarni parvarishlash.....	63
4.4. Bedana parrandasi boqib parvarishlash.....	65
V-BOB. QUYONCHILIK VA MO'YNACHILIK	
5.1. Quyonchilik ish faoliyati xaqida.....	70
5.2. Quyonlarni asrash va boqish.....	72
5.3. Chorvachilikda mo'ynali mahsulotlar beradigan qunduz, nutriya xayvonlarini boqish.....	74
5.4. Ondatra mo'ynali hayvonnini parvarishlash.....	78
5.5. Norka hayvonini boqish va ko'paytirish.....	79
VI-BOB. HAYVONLARINI KO'PAYTIRISH VA KASALLIKLARDAN ASRASH	
6.1. Qishloq xo'jalik hayvonlarini ko'paytirish asoslari.....	82
6.2. Hayvonlarni boqish va parvarish qilishda naslchilik ishlari.....	85
6.3. Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish usullari.....	89
6.4. Chorva xayvonlarda uchraydigan kasalliklar va zoovetenariya sohasi.....	93
VII-BOB. QO'SHIMCHA TAKLIF QILINAYOTGAN MAVZULAR	
7.1. Ipak qurti.....	100
7.2. Ipak qurti zararkunandalari va kasalliklar.....	103
7.3. Asalari xo'jaligining faoliyati.....	105
7.4. Baliqchilik xo'jaliklari faoliyati.....	113
7.5. Baliqlarni ko'paytirish ishlari.....	117
Foydalanilgan adabiyotlar	120
Ilova. O'quv dasturi	121

M.Z.MURTOZAYEV, A.A.KUSHAKOV, T.A.ALIBOYEV

CHORVACHILIK VA PARRANDACHILIK ASOSLARI

M a s' u l m u h a r r i r:
M.Hayitova

Texnik muharrir:	A.Moydinov
Musahhih:	F.Ismoilova
Musavvir:	H.G'ulomov
Kompyuterda tayyorlovchi:	N.Rahmatullayeva

«Fan va texnologiya» nashriyoti 130100
Toshkent shahri, Navoiy 30

Nashr.lits. AIN^o149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 25.07.2012.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez Uz» garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 14,75. Nashriyot bosma tabog'i 14,25.
Tiraji 300. Buyurtma N^o78.